

МУНДАРИЖА

ИСЛОМШУНОСЛИК

Н.Х.Насруллаев. Мантиқ илмининг фан сифатида зарурати.....	3
Б.А.Ахмедов. Абу Бакр Жассоснинг ақидавий қарашлари	8
С.С.Абдуллаев. Такдир тушунчаси, унга бўлган муносабат ва инсондаги ихтиёр эркинлиги масаласи	11
Н.А.Хакимова. Hukm va hikmat: shariat va haqiqat o'rtasidagi bog'liqlikning nazariy asoslari	17
M.I.Yodgorov. Abu Mansur Moturidiyning xavorijlarga qarshi raddiyalari	24
А.Мелибоев. Маҳбубийлар оиласи фақиҳлари	28
С.З.Абдуллаев. Ислом манбаларида фатво тушунчаси таҳлили ва талқини	33
S.F.Sharopov. Buyuk Britaniyada islomshunoslik fanining shakllanishi.....	36
R.J.Jamolova. Muhammad Ali Sobuniyning ilmiy merosi	41
O.Mirzaraximov. Sadrushsharia Ubaydulloh Ibn Mas'ud hayoti va faoliyati.....	46

МОЗИЙГА НАЗАР

И.М.Гафурова. Туркистон ислом обидалари тарихи манбаларда	50
З.И.Зинатуллаев. Ўрта аср Марказий Осиё бошқарувига оид манбалар таҳлили....	54

ИСЛОМ ҲУҚУҚИ

М.Р.Эркаев. Ислом ҳуқуқида ижара шартномасини тугатишнинг фикҳий асослари	60
--	----

МАНБАШУНОСЛИК ВА ТИЛШУНОСЛИК

D.R.Rajapboyeva, N.Mullasodiqova. “Al-Mustaqso fi-l-Amsol” – arab maqollari xazinasi	65
---	----

Муассислар:

Дин ишлари бўйича қўмита,
Ўзбекистон мусулмонлари идораси,
Ўзбекистон халқаро ислом академияси

Бош муҳаррир:

Музаффар КАМИЛОВ

Нашр учун масъул:

Иродахон ГАФУРОВА

Таҳрир ҳайъати:

Нурислон ТУХЛИЕВ
Зоҳиджон ИСЛОМОВ
Аҳаджон ҲАСАНОВ
Матлуба КАХХАРОВА
Илҳомжон БЕКМИРЗАЕВ
Иродахон ГАФУРОВА

Жамоатчилик кенгаши:

Содиқ ТОШБОЕВ
Неъматулло МУХАМЕДОВ

Муҳаррир:

Дурбек РАҲИМЖОНОВ

Рус ва инглиз тили муҳаррири:

Разия МАТИБАЕВА

Бадий муҳаррир:

Лутфулло АБДУЛЛАЕВ

Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги
Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлигида
2018 йил 17 сентябрда рўйхатга олинган.
Гувоҳнома рақами – 0968.
Йилда ўн иккита сонгача нашр этилади.
Нашр кўрсаткичи – 1323.
ISSN 2181-9572

Таҳририят манзили:

Тошкент ш., А.Қодирий кўчаси, 11-уй.
Тел./факс: (+99871) 244-00-91
E-mail: islomtafakkuri@iiu.uz

Ўзбекистон Республикаси Дин ишлари бўйича
қўмитасининг 7.04.2025 йилдаги
03-07/2177-сонли хулосаси асосида тайёрланди.

Қўлёзмалар қайтарилмайди.
Мақолалар кўчириб босилса ёки иқтибос
олинса, «Ислом тафаккури» журналидан
олингани кўрсатилиши шарт.
Журнал саҳифаларида Аллоҳ таоло исмлари,
Қуръони карим оятлари ва ҳадислар берилётгани сабабли
уни ножиоз жойларга ташламанг.

Журналдаги мақолаларда берилган маълумотларнинг
тўғри ва оригиналлиги учун муаллифларнинг шахсан
ўзлари масъулдирлар.

Босишга 15.04.2025 йилда рухсат берилди.
Қоғоз бичими 60x84 1/8. Офсет усулида
босилди. Шартли 32,6 б.т. Буюртма:
Адади 100 дона.

Ўзбекистон халқаро ислом академияси нашриёт-матбаа
бирлашмаси босмахонасида чоп этилди.
Тошкент ш., А.Қодирий кўчаси, 11-уй.

A.Ganiyev, A.D.Abdurashidov. Imom Buxoriyning “Sahihul Buxoriy” asarida fitnalar bobining bugungi zamon uchun ahamiyati 70

Z.T.Arifdjanov. Fors tilini o‘qitishda texnologiyaning roli: tilni o‘rganish dasturlari, interfaol onlayn o‘quv platformalari 75

М.Ш.Мирғиёсова. Вдохновенная Навои... 80

А.Ж.Рахматхонов. Ибн Абдулхакам ва унинг “Футуҳи Миср ва ахборуҳо” асари 83

S.Ro‘zimurodova. XXI asrda chet tillarini o‘rganishning ahamiyati va samarali o‘qitish usullari 86

ҚУРЪОНШУНОСЛИК. ҲАДИСШУНОСЛИК

Д.Муратов. Имом Доримий илмий фаолияти хусусида 90

X.Sagdiev, A.Abdurashidov. “As-Sihohu-s-Sitta” hadis to‘plamlaridagi fitnalar boblarining manbashuboslik tahlili va uning ahamiyati..... 95

СИЁСАТШУНОСЛИК

Ш.Акмалов. Особенности исламского образования в постсоветской России..... 101

T.S.Sattarov. Система научных понятий, определяющих этапы, структуру и содержание политической социализации студенческой молодежи 104

ДИНШУНОСЛИК

М.М.Абдулаттаев. XI-XII асрлар мусулмон олимларининг қиёсий диншуносликка оид илмий мерослари..... 109

S.Safayeva. Shahristoniyning “Al-Milal va-n-Nihal” asari muqaddimalarining xususiyatlari 116

АХБОРОТ ХАВФСИЗЛИГИ

M.S.Xodjayeva. Ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari..... 120

A.A.Maxkamov. Axborot xavfsizligini ta’minlashda tarmoqdagi noqonuniy harakatlarni aniqlash algoritmlari 124

ҚУТЛОВ

З.М.Исломов. Устоз отангдек улуғ 128

НАСРУЛЛАЕВ Нейматулло Ҳикматуллаевич,
Ўзбекистон халқаро ислом академияси
Ислом тарихи ва манбаишунослиги IRCICA
кафедраси доценти,
тарих фанлари доктори (DSc)

МАНТИҚ ИЛМИНИНГ ФАН СИФАТИДА ЗАРУРАТИ

THE NECESSITY OF LOGIC AS A SCIENCE

НЕОБХОДИМОСТЬ ЛОГИКИ КАК НАУЧНОЙ ДИСЦИПЛИНЫ

Annotatsiya. Mazkur maqolada mantiq ilmining shakllanishi va uning islom dunyosida tutgan o'рни tahlil qilinadi. Mantiq to'g'ri fikr yuritish qonun-qoidalarini o'rganadigan ilm sohasi sifatida qadimgi yunon faylasufi Aristoteldan boshlab rivojlantirilgan bo'lsa-da, Abbosiylar davrida musulmon olimlari tomonidan keng o'rganilib, ilmiy tizimga solingan. Maqolada Abo Nasr Forobiy, Ibn Sino, Imom G'azzoliy, Ibn Rushd kabi mashhur mutafakkirlarning mantiq ilmi haqidagi qarashlari va asarlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Ubaydulloh ibn Mas'udning "Ta'dilul-ulum" asarida mantiq ilmi bo'yicha ilgari surilgan nazariyalar o'rganiladi.

Kalit so'zlar: mantiq, Aristotel, Forobiy, Ibn Sino, Imom G'azzoliy, Ibn Rushd, Ta'dilul-ulum, ilmiy metod, falsafa, kalom, musulmon olimlari.

Abstract. This article analyzes the formation of logic as a discipline and its role in the Islamic world. Although logic, as a field that studies the rules of correct reasoning, was initially developed by the ancient Greek philosopher Aristotle, it was extensively studied and systematized by Muslim scholars during the Abbasid period. The article examines the views and works of prominent thinkers such as Abu Nasr al-Farabi, Ibn Sina, Imam al-Ghazali, and Ibn Rushd on logic. Additionally, it explores the theories on logic presented in Ubaydullah ibn Mas'ud's work Ta'dil al-'Ulum.

Keywords: logic, Aristotle, al-Farabi, Ibn Sina, Imam al-Ghazali, Ibn Rushd, Ta'dil al-'Ulum, scientific method, philosophy, Kalam, Muslim scholars.

Аннотация. В данной статье анализируется становление науки логики и её роль в исламском мире. Хотя логика как дисциплина, изучающая законы правильного мышления, была изначально разработана древнегреческим философом Аристотелем, в эпоху Аббасидов она была глубоко

изучена и систематизирована мусульманскими учёными. В статье рассматриваются взгляды и труды таких выдающихся мыслителей, как Абу Наср аль-Фараби, Ибн Сина, имам аль-Газали и Ибн Рушд, на науку логики. Кроме того, исследуются теории, изложенные в труде Ubaydulloha ibn Mas'uda «Ta'dil al-ulum».

Ключевые слова: логика, Аристотель, аль-Фараби, Ибн Сина, имам аль-Газали, Ибн Рушд, Та'дил аль-улум, научный метод, философия, калам, мусульманские учёные.

КИРИШ

Инсон фикри гоҳида тўғри, гоҳида нотўғри бўлади. Шундай экан, тўғри фикрдан нотўғрисини ажратадиган қонун-қоидага зарурат туғилади. Бу масалани ҳал этишда бизга “Мантиқ илми” ёрдамчи бўлади. Мантиқ бу – тўғри фикрлаш, мулоҳаза юритиш, тафаккур қилишнинг қонун-қоидалари ҳақидаги фандир. Аввалги мутакаллимлар бир нарсани сўзласалар уни жамлаб ёки майдалаб гапирар эдилар. Гапиришда на бирор бир усул ва на мантиқ қоидалари ишланмаган эди. Бу ҳолат Юнон олими Арасту (мелоддан олдин 384-322 йиллар)га қадар давом этди.

Мантиқ илмининг шаклланиши ва тарихий илдиэлари ҳақида

Ислом дунёсида баъзан мантиқ илмига, унинг бошқа илмларда тўғри фикр юритиш учун бир восита ва ўлчов эканлигини назарда тутган ҳолда “илми мезон” номи берилган. “Мантиқ”нинг – илмлар тарозуси, илмлар ўлчови, далилланиш илми, фикрлаш қонуни деган атамалари мавжуд. Демак, бирор нарса атамаларининг кўп бўлиши унинг шарафини нечоғлиқ баландлигидан хабар беради.

“Мантиқ” сўзи луғатда арабча «нутқ қилмоқ» феълидан олинган бўлиб фанга нисбатан еса «Фикрлаш» маъноси қўйилган, зеро нутқ қилишнинг аввалги асосида фикр юритмоқ ётади.

IX-аср бошларидан илм-фанлар бўйича ёзилган ақлий услубларга таяниб ёзилган илк таржима асрлар тасниф этила бошланди. Аббосийлар даврининг илк палласида юнонча китоб рисоалар араб тилига ўгирилиши эътиборидан мусулмон олами биринчи марта “Мантиқ” фани билан танишди. Абдуллох ибн Муқоффаъ Арастунинг мантиққа доир китобларини илк бор таржима қилди.

“Мантиқ” илмининг таърифлари ҳақида

Мантиқ илмини улуғ аллома Абу Наср Форобий “илмларнинг раиси” деб таърифлаган бўлса, шайхур раис Абу Али ибн Сино эса “илмларнинг ходими”, деб номлаган. Хужжатул ислом Имом Ғаззолий: “Ким мантиқ илмини билмаса, унинг илмига асло ишонч йўқдир”, деганлар. Имом Тафтазоний, Асируддин Абҳарий каби атоқли олимларимиз эса, илм йўлига кирган талабалар учун уни билиш вожиб бўлади деганлар. Дарҳақиқат, ислом олимларининг ёзган машҳур асарларига диққат қилсак, уларнинг мантиқ қоидалари асосида ёзилгани маълум бўлади.

Мантиқ илми борасида кўплаб таърифлар айтилган бўлиб қуйида биз уларнинг баъзиларини келтириб ўтамиз:

1. Мантиқ – қонунлар мажмуаси бўлиб, уларга риоя қилиш инсон зеҳнини хато фикрлашдан сақлайди;

2. Мантиқ – унга кўра далил ва таърифлар ҳолатлари ўрганилади;

3. Мантиқ – ишончли илми ишончсизидан ажратадиган қоида

4. Мантиқ – бу гўёки тарози ёки ўлчов асбоби, у билан илмлар ўлчанади.

Юқорида зикр қилинган таърифлар мувофиқлаштирилса, “мантиқ илми бирор нарсанинг таърифини айтишда ёки бир нарсани исботлашда хатолардан зеҳинни сақлаш” бўлади. Шунингдек, мантиқ сўзларда қоида калимаси бўлиб хизмат қилади. Қоида калимасидан кўзланган мақсад эса, назарий машғулот учун қурол вазифасини ўтайди.

Мантиқ илми бўйича дастлаб етишиб чиққан “мантиқийлар”

Мантиқ борасида кўзга кўринган мусулмон олимлари қаторига Абу Бишр Матто бин Юнус, Абу Наср Форобий (ваф.951) “Уйунул-масоит”, Яхё бин Одий, Ибн Сино (ваф.1037) “Китобуш-шифо”, Абу Райҳон Беруний, Умар Ҳайём, Абу Ҳомид Ғаззолий (ваф.111), Ибн Рушд, Имом Розий (ваф.925), Жалолиддин Румий, Журжоний, Мулла Фанон, Убайдуллоҳ ибн Масъуд, Саъдуддин Тафтазоний, Алишер Навоий каби ва бошқа алломалар қиради.

Абу Наср Форобий ўзининг “Уйунул-масоит” номли асарида мантиқ мавзусида сўз юритиб, мантиқ илмининг сезги аъзолари билан англашган, аммо таърифга сиғмайдиган тушунчаларга таянишини илгари сурган эди. Бу қараш Ибн Сино томонидан ривожлантирилди.

Мантиқ масалаларининг ривожланишида Форобий хизматлари алоҳида ўрин тутди. Унинг юнон файласуфлари асарларига ёзган шарҳлари ўрта аср мантиқ фанига қўшган ҳисса катта бўлди. Форобийнинг қатор шарҳлари Арастунинг асарларига бағишланган.

Абу Наср Форобийнинг мантиқ соҳасидаги ишларини турли илм жабҳаларида қатор асарлар яратган, ўз даврининг дунёга машҳур мавсуъий олими Абу Али ибн Синодир. У фалсафа ва мантиққа оид бир неча асарлар яратган. Айниқса, унинг мантиқ масалаларини қамраб олган “Китобуш-шифо” (Шифо китоби), “Китобун-нажот” (Нажот китоби), “Ал-Мухтасарул-Авсот” (Ўртача мухтасар), “Китобул-ишорот” (Ишоралар китоби) ва бошқа асарлари кенг тарқалиб улгурди.

Абу Наср ал-Форобий мантиқ “тафаккур ҳақидаги илм бўлиб, ёзма ёки оғзаки нутқда ўз аксини топади”, дейиш билан бирга Арастунинг тафаккур ва тил, мантиқ ва грамматика орасида боғлиқлик ғоясини ўз асарида акс эттирди [5:3-4]. Кейинчалик ушбу ғоялар Абу Абдуллоҳ ал-Хоразмий томонидан янада ривожлантирилди.

Абу Абдуллоҳ ал-Хоразмий ҳар қандай тафаккур, илмий билимнинг зарурий ибтидоси сифатида акс этган мантиқ масалаларини ҳам ўрганди. Хоразмий мантиқнинг роли ва масалалари ҳақида фикр юритиб, мантиқ на назарий, на амалий илмларга кирмасдан, балки алоҳида, қандайдир учинчи қисмни ташкил этади, деган нуқтаи назарни илгари суради, бу Ибн Синонинг услубига айнан мос тушади.

Мусулмон дунёсида фалсафа ва мантиқ соҳасида катта хизматлар қилган олимлардан яна бири Абдул Валид Муҳаммад ибн Аҳмад ибн Рушддир. «Арасту тадқиқини Форобий мантиқи билан солиштириш», «Мантиқ масаларига оид» ва бошқа асарлар муаллифи Ибн Рушд Арастунинг энг яқин издошларидан ҳисобланади.

Абу Абдуллоҳ ал-Хоразмий маънони англаш ва сўзлар маъноси масаласи мантиққа тегишли бўлмай, кўпроқ амалиётга тааллуқли эканлигини зикр этган. Бироқ иборалар, маънолар ва тушунчалар ҳақидаги масала Арасту томонидан етарли даражада ишлангани учун, Шарқ олимлари бу масалани кўриб ўтишни Арасту «Категориялар»ининг кириш қисмига қўшишни лозим топдилар.

Убайдуллоҳ ибн Масъуднинг “Таъдидул улум” асарида мантикка оид масалалар

Убайдуллоҳ ибн Масъуд Садруш-шарианинг калом илмига оид машҳур асари “Таъдидул улум”нинг дастлабки бўлими мантиқ илмига тегишли бўлиб, унинг мантиқ илми бўйича ҳам етук олимлардан эканига далолат қилади. Зотан, калом, фалсафа ва усули фикҳ соҳаларига оид асар таълиф этган олимнинг мантиқ илмига кириб бормаслиги, бу илмда сўз соҳиби бўлмаслиги мумкин эмас [1:18-20]. Садруш-шариа фикҳий тушунча ва масалаларни тушунтиришда баъзан мантиқ ва фалсафадан фойдаланиш билан ҳам аввал тажрибада қўлланмаган бир йўлни танлай билди.

Айниқса, бобоси Бурҳонуш-шарианинг фикҳни ўрганишга ёрдам беради “Викоя” асари шарҳида қўлланилган хусусиятлар унинг “Тавзиҳ” асарида ҳам ўз ифодасини топган. Садруш-шариа “Тавзиҳ”нинг бир бўлими бўлган “Тўрт муқаддима”даги мавзулар диққатга сазовор шаклда мантикий тушунча силсиласини бино қилган. Бу тушунчаларнинг мантикий боғимига кўра, инсон ўз ирода ва ихтиёрига кўра қилган ишларига масъул. Бу ишлар илоҳий ирода томонидан эмас, фақат банданинг иродаси жиҳатидан ҳусн ва кубух деган икки қисмга ажратилади. Фикҳни анализ ва синтез қилишда Аристотель мантиқини татбиқ этган Садруш-шариа ўзаро аҳдларда, туйғулардан келиб чиққан ишлардан иборат ижоб ва қабулнинг бир-бирига ҳукмий боғлиқлигидан бошлаб илгари мавжуд бўлмаган шаръий бир маъно ўртага чиққанини ифода этади [2:34]. Унга кўра, савдо аҳдида сотилган нарсаси мулкياتининг қўлга киритилиши бу шаръий маънонинг бир натижасидир. “Савдо” дейилган шаръий маъно эса ижоб ва қабул орқали иккисини боғлаб турган ҳукмий алоқанинг бирлашувидан юзага келади [3:417].

Аристотельнинг тўрт сабабини (фоил иллат, моддий иллат, сури иллат ва ғойи иллат) фикҳнинг байъ аҳдида татбиқ этган Садруш-шариа, илгари мавжуд бўлмаган ва турли сабабларни ўртага қўйган шундай бир аҳднинг тўрт илллати мавжуд эканини ифода этади: жумладан, фоил иллат – аҳд тузганлар; моддий иллат – ижоб ва қабул; сури иллат – ижоб ва шариа тан олган алоқа; ғойи иллат – ҳар бир аҳдга оид хусусий маслаҳатлар [4:3-4].

“Таъдидул-улум”¹ асарини аввал Тошкўпризода Садруш-шариага нисбат берган [6:170]. Убайдуллоҳ ибн Масъуд “Таъдидул-улум”нинг сўнггида мантиқ, ахлоқ, фалсафа, тасаввуф ва ҳайъат каби бир неча ақлий билимларга ўрин ажратган ва китобини “Фотиҳа” сурасининг оятлари саноғи билан боғлиқ етти бўлимга тақсимлаган. “Шарҳ Таъдидул-улум фил калом” мужассам этган етти бўлимининг номлари қуйидагича:

Биринчи таъдил: Вужуд, моҳият ва у билан боғлиқ масалалар

Иккинчи таъдил: Аллоҳнинг борлиги ва сифатлари

Учинчи таъдил: Жавҳар ва у билан боғлиқ масалалар

Тўртинчи таъдил: Араз ва у билан боғлиқ масалалар

Бешинчи таъдил: Охират ва унга оид масалалар

Олтинчи таъдил: Иймон ва у билан боғлиқ масалалар

Еттинчи таъдил: Нубувват ва унга оид масалалар

Асардаги мавзуларнинг кетма-кетлигига бўйича калом масалаларини қамраб олганини кўрамиз. Котиб Чалабийга кўра: “Таъдидул-улум” мантиқ ва каломдан иборат икки қисмдан таркиб топган [8:54]. Зеро, Садруш-шариа бу асарда “мантиқ”, “калом” ва “ҳайъат” илмларини таъдил этиб, бошқа илмларни кўшишга умри етмади. Вафоти сабабли ниҳоясига етмай қолган бу асар ана шу уч қисм мантиқ, калом ва ҳайъат илмлари билан чекланиб қолиб, қолган ахлоқ, фалсафа ва тасаввуфга оид қатор мавзуларга келиб тугатилган. Муаллиф “Таъдидул-улум”да ақлий илмларни изоҳлаб, кейин бу китобнинг ҳар бир қисмини шарҳлаган.

Садруш-шариа турли соҳалардаги каби фалсафада ҳам теран олимдир. Зеро, у талабаларига Ибн Сино (ваф.428/1037)нинг “ал-Ишорот” китобидан таълим берарди. Асарни ўқитар экан, шориҳларининг баъзи қарашларини рад этиб, ўз қарашларини келтирар эди. Садруш-шариа “Таъдидул-улум”да Ибн Сино ва Носириддин Тусий баъзи қарашларини танқид этади.

¹ Ушбу асарнинг нусхаларидан бири Туркиянинг Истанбул шаҳридаги “Текенли ўғли кутубхонаси”да инв.№708 рақами билан сақланиб келинади.

Энг қизиғи, “Таъдилул-улум”га муаллифнинг ўзи шарҳ ёзиб, уни “Шарҳи Таъдилул-улум” деб номлади. “Тавзиҳ”да мутакаллимлар орқали усули фикҳ ва мантиқ илмига оид бўлган “ҳад (таним), таъриф” тушунчаси ва билим моҳиятига тўхталади. Абу Ҳомид Ғаззолий “Ал-Мустасфа” асарининг кириш қисмидан ўрин олган бу масалаларга Садруш-шариа ҳам қисқача тўхталган. Унингча, усули фикҳнинг бир неча мавзуси мантиқ мавзуси бўлган тасдиқот ва тасаввуротлар билан боғлиқ [9].

Садруш-шариагача ўтган ҳанафий фақиҳларнинг асарларида мавзулар таснифи ва услубида ўхшашликлар кузатилган бўлса, Садруш-шариа улардан фарқли баъзи изланишларга диққат қаратди. Бу борада унинг мутакаллимлар усулига яқинлашгани сезилиб туради. Бу фарқли жиҳатлар Садруш-шарианинг калом, мантиқ ва тил мавзуларидаги изланишлари Розий ва Ибнул Ҳожибнинг таъсирида келиб чиққанини келтириш мумкин.

Далолатлар. Усули фикҳнинг асл манбаларидан насслар (Қуръон ва суннат) га далолат этган лафзлардан ҳукм олишда мужтаҳидлар томонидан бир қанча қоидалар ишлаб чиқилган. Бу қоидалар атрофида тўпланган усул тортишмалари хануз давом этиб келмоқда. Қуръон ва суннат лафзларининг маъно ва ҳукмга далолати хусусида мазҳабларнинг ёндашувлари, қабул қилганлари усулга боғлиқ ўлароқ фарқлиликка дуч келади.

Садруш шариа ҳанафий машойихининг лафзлари маънога далолати шакл эътиборига кўра, *иборанинг далолати* (Ад-далолату бил-ибора), *ишоратнинг далолати* (Ад-далолату бил ишора), *далолатнинг далолати* (Ад-далолату бид далола) ва *иктизанинг далолати* (Ад-далолату бил иктиза) шаклида тўрт қисмга бўлинган. Бу тўртлик далолат шаклининг, классик мантиқ лафзи вазъи далолатининг уч туридан бирига қарши келганини, унинг ташқарисида бир далолат шаклининг бўлмаганини билдиради.

Садруш-шариа машойихнинг ибораларни таъриф этганини келтириб далолатини: *“иштиёқ этилган маънога уч тур далолатдан (лафзнинг мавзуси, жузъи ва лозими) кабилар билан далолат этган лафзлар”*, ишоратнинг далолати эса: *“ўзи учун иштиёқ этилмаса ҳатто лафзнинг уч турдан (лафзнинг мавзуси,*

жузъи ва лозими) бирига далолатидир” шаклида таъриф этиб, ўзининг изоҳларида қайд этади.

Мантиқ илми, унга тамал тоши қўйилган қадимги даврдан эътиборан то бугунги кунимизга қадар Шарқ олимлари томонидан ҳам, Ғарб олимлари томонидан ҳам муттасил тадқиқ қилинди ва унинг «янги давр методологик мантиғи», «формал мантиқ», «символик мантиқ» каби йўналишларига ҳам асос солиниб ривожлантирилди.

Мантиқ илми билан шуғулланиш керакми?

Ҳаром – бу ҳукумни Ибн Солаҳ ва Имом Нававий (р.а)лар айтишган. Улар наздида мантиқ фани ақидага зид келувчи фалсафага кириш эшиги ҳисобланади. “Ҳаромга элитувчи нарсанинг ўзи ҳам ҳаром” деган далилга кўра, мантиқ фанига ушбу ҳукумни беришган.

Рухсат – бу Имом Абу Ҳомид Ғаззолий (р.а)нинг гаплари ҳисобланади. Фақиҳ мантиқ фанини чуқур таҳлил қилиб, “ у кишининг тўғри фикрлашига ёрдам берувчи тизимдир. Ким мантиқни билмаса унинг илмига ишонч йўқ” деб айтганлар.

Баъзи шартларга кўра рухсат – бу фан билан фақатгина ўткир зеҳинли, Қуръон ва Суннатни яхши биладиган, ақидада саҳиҳ ва ғайри саҳиҳни тўғри ажрата оладиган киши учунгина рухсат.

Инсон ҳаёти давомида оладиган илми икки йўналиш орқали ҳосил бўлиши мумкин. Биринчиси: бир нарсани умуман билмайди ва уни тасаввурига ҳам келтира олмайди, унга мана шу биргина нарса маъносини англатиш учун «таъриф» керак бўлади. Таърифни эшитиб, мушоҳада қилади ва у орқали аввал билмаган нарсаси борасида илм ҳосил бўлади.

Иккинчиси: бирор нарсадан хабар берган жумлага дуч келади ва ўша гапни тасдиқлаш ёки ишонмаслида тараддудга тушади яъни уни тўғри ё нотўғри эканини билмайди. Шунда унга “далил” керак бўлади. Далилга эга бўлгач унга суяниб, аввалги билмсизигини кетказди ва ўша жумлага нисбатан тўғри ёки нотўғри деб ҳукум қила олади.

Шундай экан “таъриф ва далил”га эҳтиёж сезадиган ҳар қандай фан мантиқдан фойдаланиши мумкин. Зеро, унинг асослари турли эътиқод ёки мойилликлардан холи бўлиб, фақат ақлий ҳақиқатларга суянади.

Мантиқ фанини худди математикага ўхшатиш мумкин. Чунки, ҳисоб амалётлари ва сонлар барча учун бирдек хизмат қилгани учун мусулмон олимлари уни шарий ҳукумлар ҳусусан, меърос илми масалаларида кенг фойдаланалар. Демак, мантиқ фанидаги таъриф ва далилга қўйилган ақлий қонунларини ислом билимларида ҳам қўллаш мумкин.

Имом Ғаззолий (р.а) Ислом илмлари ва мантиқ орасини ўзаро мувофақлаштириб, мантиқ илмини Юнонларнинг метафизик тасаввуридан эмаслигини биринчилар қатори айтиб ўтди. Фақиҳ бу илм обрўсини кўтариб, “Кимки мантиқ илмини билмай уни ихота қилмайдиган бўлса, унинг бошқа илмларига ҳам ишонч йўқдир” дейди. Ва мантиқ илмини ўзининг усулу-л-фикҳ китобида кенг қўллайди, лекин шу билан бирга дастлабки мусулмон фалсафачиларининг хатоларини бот-бот таъкидлади ва хатто “Таҳафут-л-фалсафа” яъни “Фалсафанинг қулаши” номли раддия китобини ёзди.

Мантиқ фани ислом илмларини мукаммал ўзлаштиришда муҳим ўрин эгаллайди. Уламолар шарий илмларни ўрганиш учун баъзи бир илмларни билишни шарт қилганлар. Шарий матнлардан илгари толиби илм билиши шарт қилинган илмларга “Мифтаху-л-улум” (Илмлар калити) дейилади. Бунга араб грамматикаси ҳисобланган сарф ва наҳв илмидан бошланиб балоғат, луғат илми, баҳс ва мунозара ва яна бошқа илмларни айтиб мантиқ фанини ҳам ушбулар қаторига киритишган. Чунки, мантиқ атама ва қоидалари шарий илмларнинг барчасига кириб улгурган. Айниқса ақида ва усулу-л-фикҳ фанида бу фанга эҳтиёж катта ҳисобланади.

ХУЛОСА

Хулоса қилиб айтганда фалсафа ва мантиқ фанлари ислом уммати учун фойдали кашфиётлардан бири бўлди. “Мантиқ” илми барча диний ва дунёвий илмлар билан алоқадор ва боғлиқдир. Мантиқ нафақат фикҳ ва унинг асослари (усули фикҳ) ва араб тили билимлари, балки калом ва ақида илмининг ривожига ҳам муҳим рол ўйнади. Ҳадис билимлари ва истилоҳларига оид фанлар ҳам мантикий қарашлардан холи эмас. Шу маънода мантиқ илми асосий исломий билимлар доирасида

восита билимларига айланиб қолди. Яъни, бу шундай механизмки ундан ўтмасдан туриб, исломий фанларни ўрганиш инсонни айрим қийинчилик ва машққатларга рўбарў қилади. Бу илм соҳаси ақлни чархлайди, нутқни ва нуткий тафаккурни ўстиради. Шу боис ҳам қадимдан мадрасаларда мантиқ дарси ўқитиб келган. Гарчи уларни асослари мусулмон бўлмаганлар тарафидан ўйлаб топилган бўлсада, унинг ютуқли тарафларидан фойдаланиш Ислом оламида кенг тарқалди. Бугунги кунда ҳам бу икки фаннинг аҳамияти ғоят юксак, зеро бу илмларни пухта ўрганиш аждодлардан қолган ноёб асарларни тўғри англаш ва уларни тушунтириш учун зарур ҳисобланади.

МАНБА ВА АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. İbrahim Kafi Dönmez. Fıkıh usulü incelemeleri. – Ankara: Türkiye Diyanet Vakfı, 2018.
2. Eksici, Abdulmecid Yasir. The Myth of Determinism. Sadr al-Sharia's Defense of Human Agency. University of California, 2023.
3. Садруш-шариа “Ат-Тавзиҳ фи ҳалли ғавомиз ат-Танқиҳ”.
4. Köksal, İslam Hukuk Felsefesinde Fullerin Ahlakılığı Meselesi-Mukaddimat-ı Erbaa'ya Giriş.
5. Мухамедов Н. Маҳмуд Замахшарий илмий меросини ўрганиш масалалари // “Шарқ машъали” журналы, 2015. 1(1), 3-5. <https://inlibrary.uz/index.php/eastern-torch/article/view/9585>
6. Toşköprüzade. Miftahus Saade, II, 170; Brockelmann, GAL, II, 277; GAS. T-II.
7. Салоҳ Мухаммад Абул Ҳожнинг “Мунтаҳий ал-Нуқоя аъла Шарҳ ал-Викоя”. Ж. I.
8. Садруш-шариа “Ат-Тавзиҳ фи ҳалли ғавомиз ат-Танқиҳ”. I.

АХМЕДОВ Бурхон Абдурахмонович,
Ўзбекистон халқаро ислом академияси
Исломишунослик ва ислом цивилизациясини
ўрганиш ICESCO кафедраси доценти,
фалсафа доктори PhD

АБУ БАКР ЖАССОСНИНГ АҚИДАВИЙ ҚАРАШЛАРИ

ДОГМАТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ АБУ БАКР ДЖАССАСА

DOGMATIC VIEWS OF ABU BAKR JASSAS

Аннотация. Абу Бакр Жассос (ваф. 370/981 й.) қолдирган илмий мерос ўзига хос аҳамиятга эга бўлиб, аллома шахсий хислатлари, устозлардан олган ўғитлари, шогирдлар тарбияси ва ёзган фикрларга оид қимматли асарлари билан ҳанафий мазҳаби ривожига салмоқли ҳисса қўшган.

Ушбу мақолада Абу Бакр Жассоснинг ақидавий қарашлари таҳлил қилинган. Алломанинг ақидавий қарашлари, шубҳасиз, ўзи яшаган давр муносабатидан келиб чиқиб, ақидага боғлиқ турли ҳодисалар ва атроф муҳитдаги эътиқодий кураш ва жараёнлар натижасида шаклланган дейиш мумкин. Шу билан бирга олимнинг ақидаси аҳли сунна вал жамоа тамойилларидан ташқарига чиқмаганини алоҳида таъкидлаб ўтиш лозим.

Калит сўзлар: аҳли сунна вал жамоа, мўътазилий, таъхид, ваъд ва ваъид, сеҳр, мўъжиза, муҷтаҳид.

Аннотация. Особое значение имеет научное наследие, оставленное Абу Бакр Джассасом (ум. 370/981), своими личными качествами, учением, полученным от старейшин, образованием своих учеников и ценные труды, которые он написал по фикху в развитие на ханафитского мазхаба.

В данной статье анализируются догматические взгляды Абу Бакр Джассаса. Можно сказать, что догматические взгляды алломы сформировались в результате различных событий, связанных с догмой и религиозной борьбой и процессами в окружающей среде, исходя из мироощущения эпохи, в которой он жил. При этом следует подчеркнуть, что кредо учёного не выходило за рамки принципов общины ахлю сунна вал джамаа.

Ключевые слова: ахли сунна вал джамаа, мутазили, таухид, обещание и угроза, магия, чудо, муджтахид.

Annotation. The scientific heritage left by Abu Bakr Jassas (d. 370/981) is of special importance. Allama made a significant contribution to the development of the Hanafi mazhab with his personal qualities, the teachings he received from the elders, the education of students, and the valuable works he wrote on fiqh.

This article analyzes the dogmatic views of Abu Bakr Jassas. It can be said that Allama's dogmatic views were formed as a result of different events related to dogma and religious struggles and processes in the environment, based on the attitude of the era in which he lived. At the same time, it should be emphasized that the scientist's dogma did not go beyond the principles of the ahli sunnah wal jama'ah.

Key words: ahli sunnah wal jama'ah, mu'tazili, tawheed, promise and threat, magic, miracle, mujtahid.

КИРИШ

Айрим тарихчи олимлар Абу Бакр Жассоснинг мўътазилий фирқасига мойил бўлганини қайд этганлар. Жумладан, Шамсиддин Заҳабий Абу Бакр Жассосни олим ва зоҳид инсон сифатида эътироф этиб, сўзининг охирида шундай дейди: “Айтишларича, Абу Бакр Жассос мўътазилий ақидасига мойил бўлган. Унинг асарларида ҳам бунга далолат қиладиган сўзлар бор. Аллоҳдан саломатликни сўраймиз!” [12:96]. Шунингдек, мўътазилий олимлардан Қози Абдужаббор, Ҳоким Жашмий ва Ибн Муртазолар ҳам Абу Бакр Жассосни мўътазилий олимларнинг ўн иккинчи табақаси қаторида санаб ўтганлар. Замонавий олимлардан Доктор Муҳаммад Ҳусайн Заҳабий, Доктор Мусоид Муслим оли Жаъфар ва Муҳйи Ҳилол Сарҳонлар ҳам уни мўътазилий бўлганини таъкидлайдилар [5:130-131].

АСОСИЙ ҚИСМ

Лекин мазкур тарихчи олимлар келтирган маълумотлар ҳақиқатдан анча йироқ эканини таъкидлаш лозим. Зеро, уларнинг мўътазилий олимлар табақасига бағишланган асарларида рошид халифалар, Ибн Аббос, Ибн Масъуд, Ибн Умар каби улўғ саҳобалар ҳамда айрим машхур тобеъинлар ҳам мўътазилийлар қаторида саналган. Шу боис мазкур асарларда келтирилган олим ва фозил шахсларнинг ҳаммаси ҳам мўътазилий ҳисобланмайди. Шу жумладан, Абу Бакр Жассос ҳам. Чунки бирор

инсонни мўътазилий деб эътироф этиш учун мўътазилий ақидасининг беш асосини қабул қилган бўлиши лозим. Бу ҳақда мўътазилий олим Абул Ҳусайн Хайёт шундай деган: “Қуйидаги беш асосни ўзида мужассам қилмаган одамга мўътазилий дейиш нолайикдир: 1. Тавҳид. 2. Адл. 3. Ваъд ва ваъид. 4. Манзила байнал-манзилатайн. 5. Амри маъруф ва наҳий мункар. Агар инсонда ушбу беш хислат мукамал шаклда топилса, у мўътазилий ҳисобланади” [5:131].

Абу Бакр Жассос мўътазилийларнинг мазкур беш тамойилига қарши бўлгани олимнинг асарларида ўз ифодасини топган. Олимнинг мўътазилий деб танқид қилинишига, асосан, иккита масала сабаб бўлган. Уларнинг бири сеҳр мавзуси бўлса, бошқаси Аллоҳни жаннатда кўриш масаласидир. Мўътазилийлар ақидасига кўра, сеҳрнинг ҳақиқати йўқ, у ҳаёлий алдовдир. Аллоҳни кўриш эса асло жоиз эмас. “Аҳли сунна вал жамоа” вакиллари эса, сеҳрнинг ҳақиқати борлиги ва Аллоҳни жаннатда кўриш жоиз эканини айтадилар.

Абу Бакр Жассос ҳам ушбу икки масала юзасидан айрим мулоҳазали фикрларни билдирган. Жумладан, “Бақара” сураси 102-оятида сеҳрнинг ҳақиқати йўқ ёлгон ва сохта нарса эканини таъкидлаган. Жассос мазкур оят шарҳида сеҳрнинг луғавий таърифи, унинг турлари ва у билан боғлиқ ривоятларни келтириб, ўз фикрини асослашга ҳаракат қилган [1:51-72].

Шунингдек, Аллоҳни жаннатда кўриш масаласи борасида ҳам мўътазилийларга хос айрим фикрларни билдириб ўтган. Жумладан, “Анъом” сураси 103-ояти ҳамда “Қиёмат” сураси 22-23-оятлари тафсирида шундай деган: “Оятлардаги “кўриш” сўзи билмоқ маъносида келган. Яъни шак-шубҳа аралашмаган билимдир. Зеро, луғатда кўрмоқ сўзи билмоқ маъносида ҳам келиши машҳурдир” [1:75].

Абу Бакр Жассоснинг бу фикрлари унинг мўътазилий эканига далил бўла олмайди. Зеро, сеҳрнинг ҳақиқати йўқ деган қараш фақат мўътазилийларга хос бўлмаган. Балки ханафий мазҳаби асосчиси Абу Ҳанифа, шофеъий олимлардан Абу Исҳоқ Исфироинийлар ҳам сеҳрнинг асл ҳақиқати йўқ ва унинг ёлгондан бошқа нарса эмаслигини таъкидлаганлар [8:544]. Демак, Абу Бакр Жассос сеҳр

масаласида мўътазилийларга эмас, балки ўз мазҳаби асосчиси Абу Ҳанифага эргашган. Алломанинг бу ишини мўътазилийларга тақлид сифатида эмас, балки ижтиҳоди сифатида қабул қилиш масадга мувофиқ бўлади. Қолаверса, Абу Бакр Жассос одамларнинг сеҳр борасидаги ақидасини тўғрилаш мақсадида шу сўзларни айтган бўлиши эҳтимолдан холи эмас. У бу ҳақда шундай ёзади: “Агар сеҳрнинг ҳам ҳақиқати бор десак, у ҳолда пайғамбарларнинг мўъжизаси билан сеҳрларнинг сеҳри орасида фарқ қолмайди.

Пайғамбарларнинг мўъжизалари асл ҳақиқатга эга, сеҳрлар амалга оширган ишлар эса ҳақиқати йўқ нарсаларни ҳақиқати бордек қилиб кўрсатиш, яъни ёлгондан иборатдир” [1:51-72]. Демак, Абу Бакр Жассос сеҳр масаласида мўътазилийларга мойил бўлмаган. Аксинча, мазҳаббоши Абу Ҳанифанинг сўзларини олган. Бу масала сабабли Абу Ҳанифани ҳеч ким мўътазилий эканини айтмаган. Шунинг учун Абу Бакр Жассосни ҳам мўътазилий эмаслигини баралла айтиш мумкин.

Аллоҳни жаннатда кўриш масаласига келсак, аҳли суннанинг ақидасига кўра, шубҳасиз, мусулмонлар қиёмат куни Аллоҳнинг жамолини кўрадилар. Абу Бакр Жассос ҳам бу фикрларга қарши бўлиб, мўътазилийлар ақидасига мувофиқ баъзи қарашларни илгари сурган. Лекин алломанинг бу қарашлари унинг мўътазилий эканини исботламайди. Зеро, олимнинг Абу Ҳанифа фикҳи ва ақидасини мукамал ўзлаштиргани ҳеч кимга сир эмас. Абу Бакр Жассоснинг Аллоҳни кўриш масаласидаги фикрларини ижтиҳодда хато қилиш деб қабул қилиш мақсадга мувофиқ. Мужтаҳид хато қилса, гуноҳкор ҳисобланмайди. Шу боис уни ақидада адашган дейиш жоиз эмас.

Абу Бакр Жассоснинг мўътазилий эмаслиги қуйидаги жиҳатлардан маълум:

Биринчидан, алломани мўътазилий деб эътироф этган тарихчиларни икки гуруҳга ажратиш мумкин. Биринчи гуруҳ вакиллари Абу Бакр Жассосни мўътазилийлар табақасида зикр қилган бўлиб, унинг мўътазилий бўлгани ҳақида аниқ-равшан фикр билдирганлар. Бу гуруҳ вакиллари аксарияти мўътазилий ҳисобланади. Шу боис уларнинг сўзларини далил сифатида қабул қилишдан йироқ бўлган

афзал. Зеро, аввал таъкидланганидек, улар келтирган айрим маълумотлар ишончли эмас. Иккинчи гуруҳга эса, Шамсиддин Заҳабий каби тарихчиларни қўшиш мумкин. Улар Абу Бакр Жассосни очик-ойдин мўътазилий демасалар-да, унинг мўътазилий ақидасига мойиллиги борлигини ёзадилар. Лекин уларнинг фикрлари ҳам биринчи гуруҳ олимларининг хулосаларидан таъсирланган бўлиши эҳтимолдан холи эмас.

Иккинчидан, Абу Бакр Жассос бир қатор ақидавий масалаларда мўътазилийларга қарши фикрларни билдирган. Қабр азоби, гуноҳи кабира қилганларнинг имони, ваъд ва ваъид, Қуръон Аллоҳнинг каломи экани ва бошқа шу каби бир қатор эътиқодий мавзулар шулар жумласидандир.

Учинчидан, Абу Бакр Жассос сеҳрнинг ҳақиқатини инкор қилиш масаласида мўътазилийларга эмас, балки имом Абу Ханифага эргашган.

Тўртинчидан, алломанинг Аллоҳни киёмат куни кўриш масаласида билдирган фикрлари жузъий масалалардан бўлиб, уни аҳли суннадан чиқарадиган катта омил сифатида кўриш жоиз эмас. Абу Бакр Жассоснинг бу каби фикрлари ижтиҳодий қарашлар бўлиб, ижтиҳоддаги хато сифатида талқин қилинади.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, аллома ахлоқий масалаларда ҳам ўзига хос қарашлар соҳиби бўлган. Унинг таквоси ва зохидлиги тилларда дoston бўлиб, шахсий ижтиҳодининг самараси ўлароқ тарихга муҳрланган. Абу Бакр Жассос, шубҳасиз, “Аҳли сунна вал жамоа”нинг ҳанафий мазҳабидаги етук фақиҳ, муфассир ва буюк аллома эканига тарихий манбалардан жавоб топиш мумкин. Алломанинг ҳаёти, ижоди ва асарлари унинг нақадар теран фикр, чуқур билим ва юксак иқтидор соҳиби эканидан далолат беради. Айниқса, машҳур олимларнинг Абу Бакр Жассос ҳақидаги асослантирилган фикрлари, юксак баҳолари ва эътирофлари олимнинг нафақат ҳанафий мазҳаби, балки бутун ислом оламидаги эгаллаган ўрни юксак бўлганини кўрсатади.

ХУЛОСА

Абу Бакр Жассос суннийлар ва бошқа адашган ақидалар орасида баҳс-мунозаралар кетаётган даврда яшади. Шу сабабли ўз

асарларида суннийлик ақидасини ҳимоя қилиб, турли адашган ақидапарастларга раддия берган. Жумладан, “Аҳком ал-Қуръон” асарида Аллоҳнинг ягоналиги ва Унинг ўхшаши йўқлиги, пайғамбарлик далиллари, қабр азоби ва роҳати, Қуръоннинг мўъжизакорлиги каби мавзулар, шунингдек, жабария, қадария, мушаббиха, хорижия каби фирқаларга раддиялар берилган. Абу Бакр Жассоснинг ақидавий қарашлари чуқур диний фалсафий асосга эга. Алломанинг ақидавий қарашлари борасидаги турли нотўғри фикрлар асоссиз бўлиб, у соф суннийлик ақидаси тарафдори эканини ишончли далиллар асосида тасдиқлайди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абу Бакр Жассос. Аҳком ал-Қуръон. – Ж. 1-4. – Байрут: Дор ихё ат-турос ал-арабий, 1996. – 404 б.
2. Абу Абдуллоҳ Саймарий. Ахбор Аби Ханифа ва асхобих. – Байрут: Дор ал-китоб ал-арабий, 1976. – 216 б.
3. Абу Муҳаммад Абдулқодир ибн Абулвафо Муҳаммад ибн Муҳаммад Мисрий Кураший. Ал-Жавоҳиру-л-музйя фи табақоти-л-ҳанафийа. Ж.2. – Ҳайдаробод: 1913. – 531 б.
4. Абу Саъид Абдулкарим ибн Муҳаммад Самъоний. Китобу-л-ансоб. Ж.5. Абдуллоҳ Умар Борудий таҳрири остида. – Байрут: Дору-л-фикр, 1998. – 276 б.
5. Доктор Али ибн Сулаймон Абид. Тафасир аят ал-аҳкам ва манаҳижуха. – Ар-Риёз: Дор ат-тадмурия, 2010. – 865 б.
6. Доктор Исматуллоҳ Иноятуллоҳ. // Ал-Имам Абу Бакр Жассос: ҳаятуху ва осоруху ал-илмия // “Ад-диротот ал-исломия” журнали, 2011. 2-сон. – Ж. 46.
7. Доктор Муҳаммад Хусайн Заҳабий. Ат-тафсир ва ал-муфассирун. Ж.1. – Қоҳира: Ованд донеш, 2005. – 386 б.
8. Доктор Сафват Мустафо Халилович. Ал-Имам Абу Бакр Жассос Жассос ва манҳажуху фи ат-тафсир. – Қоҳира: Дор ас-салом, 2008. – 640 б.
9. Ибн Халликон. Вафаёт ал-аъён. – Ж.1. – Байрут: Дор ас-содир, 1972. – 361 б.
10. Ибн Имод Ҳанбалӣ. Шазарот аз-заҳаб фи ахбор мазаҳиб. – Ж. 2. – Байрут: Дор ал-офок ал-жадида, йили кўрсатилмаган. – 369 б.
11. Имоуддин Абул Фидо Исмоил ибн Касир Кураший Димашкий. Ал-Бидоя ва-н-ниҳая. – Ж. 11. – Байрут: Дор ихё ат-турос ал-арабий, 1997. – 345 б.
12. Шамсуддин Заҳабий. Сияр аълом ан-нубало. – Ж. 12. – Қоҳира: Дор ал-ҳадис, 2006. – 622 б.

АБДУЛЛАЕВ Сарвар Сабитович
Ал-Фраганус университети доценти,
фалсафа фанлари номзоди

ТАҚДИР ТУШУНЧАСИ, УНГА БЎЛГАН МУНОСАБАТ ВА ИНСОНДАГИ ИХТИЁР ЭРКИНЛИГИ МАСАЛАСИ

ПОНЯТИЕ СУДЬБЫ, ОТНОШЕНИЕ К НЕЙ И ПРОБЛЕМА СВОБОДНОЙ ВОЛИ ЧЕЛОВЕКА

THE CONCEPT OF FATE, THE ATTITUDE TOWARDS IT, AND THE PROBLEM OF HUMAN FREE WILL

Аннотация. Ушбу мақолада тақдир тушунчаси борасидаги айрим файласуфлар фикрларини илмий ўрганиб қиёслаш ва шу асосда жамиятда тақдир ва инсон ихтиёр эркинлиги масаласи бўйича илмий хулосалар қилиш мақсад қилиб олинди. Тақдир борасида гап кетганда ҳамма нарса олдиндан илоҳий тарзда битиб қўйилган бўлса, инсонда ихтиёр эркинлиги йўқми; иккинчиси, инсон эркин бўлса, тақдир битиги нима? Бу саволларга айрим фалсафий мактаблар ва мутафаккирлар фикрини ўрганиш билан илмий хулосалар қилиш муҳим ва долзарбдир. Тақдир тушунчасининг бевосита диний таълимотдан экани ва жамиятда инсонлар дунёқарашига таъсири нуқтаи назаридан, айрим хулосалар диний матн ва жамиятда маишхурулик топган файласуф-адиблар фикри билан ҳам қиёсланди.

Калит сўз ва иборалар: тақдир, олам ва одам, ихтиёр, Шопенгауэр, Кант.

Аннотация. Цель данной статьи – научно изучить и сопоставить взгляды некоторых философов на концепцию судьбы (предопределения) и на этой основе сделать научные выводы относительно вопроса о судьбе и свободе воли человека в обществе. Когда речь заходит о судьбе, возникают ключевые вопросы: во-первых, если все заранее предопределено свыше, существует ли у человека свобода воли? Во-вторых, если человек свободен, то в чем смысл предначертанной судьбы? Сделать научные выводы по этим вопросам путем изучения мнений различных философских школ и мыслителей является важным и актуальным. Учитывая, что понятие судьбы происходит

непосредственно из религиозных учений и влияет на мировоззрение людей в обществе, некоторые выводы в статье также сопоставляются с религиозными текстами и мнениями известных в обществе философов и писателей.

Ключевые слова и фразы: судьба, вселенная и человек, благоразумие, Шопенгауэр, Кант.

Annotation. The purpose of this article is to scientifically study and compare the views of certain philosophers regarding the concept of destiny (taqdir) and, based on this, to draw scientific conclusions concerning the issue of destiny and human free will (ixtiyor erkinligi) in society. When the topic of destiny arises, [two questions emerge]: Firstly, if everything has been divinely predetermined, does human free will not exist? Secondly, if humans are free, what then is the meaning of predetermined destiny? It is important and relevant to derive scientific conclusions regarding these questions by studying the views of various philosophical schools and thinkers. Considering that the concept of destiny originates directly from religious teaching and in view of its influence on people's worldviews within society, some conclusions are also compared with religious texts and the views of philosopher-writers who have gained prominence in society.

Key words and phrases: fate, the universe and man, prudence, Schopenhauer, Kant.

КИРИШ

Тақдир ҳақида гап кетганди дастлаб фикрлар икки гуруҳга бўлинади: Биринчи. Оламдаги барча ишлар тақдирий, ҳатто оламнинг яралаши ҳам. Иккинчи. Ҳеч нарса олдиндан белгиланмаган, оламнинг яралиши тасодифдир.

Биз бу ўринда ҳар икки фикрни умумлаштириб таърифладик. Аслида буларнинг ҳар бири ҳам турли қарашларда шаҳобчаланadi. Масалан, биринчи қараш деярли барча диний фалсафаларда мавжуд лекин ҳар бир дин бу борада ўзига хос фикрини айтган. Шу сабабдан улар фикрини айнан уйғун деб бўлмайди. Иккинчи фикр тарафдорлари дунёвий қарашга асосланади. Аммо улар ҳам бир фикрда собит эмаслар. Жумладан, кимдир инсон ўз тақдирини ўзи белгилайди деса, яна кимдир тақдирдан кутилиб бўлмайди дейди. Бошқаси эса тақдирнинг кўзи кўр дейди.

Ўрганилаётган масалада тадқиқот олиб борган россиялик олим С.С.Аверинцев шундай дейди: «тақдир» сўзи афсонавийдир

ва афсонавий (мифологик) категориялар афсонавий онг маҳсули бўлиб, ўз навбатида ғайри илмий тушунча ҳисобланади. Илоҳиётга асосланган қарашлар устувор бўлган ўринларда “тақдир” тушунчасини афсонавий ва фалсафий дунёқарашдан кўра, ҳаётий тушунча сифатида тушуниш лозим [1:159]. Олимнинг фикридан шу равшан бўладики, дин ва диний таълимотларни илмдан ташқарида билувчи, аксари атеистик таълимотга асосланган дунёқараш эгалари наздида тақдир ғайри илмий категориядир. Аммо, диний таълимотга эътиқод сифатида имон келтирганлар тақдирнинг Аллоҳ томонидан аввалдан белгиланганига ва бу белгиланган тақдир инсонни ихтиёрсиз қолдирмаслигига, шу сабаб киши онгли равишда ўз инон-ихтиёри билан амалга оширган ишлари юзасидан жавобгар бўлишига ва энг муҳими ўз ихтиёри билан бажарган яхши ишларига мукофот, ёмон ишларига жазо олишига имон келтирадилар.

МУНОЗАРА

Тақдир борасида антик давр файласуфларининг кўпчилиги “тақдир”ни инкор қилганлар. Оламдаги ҳодисаларни тасодиф деб баҳолаганлар. Жумладан Сукрот: Тақдир бу афиналиклар сиғинадиган худолар тушунчасидандир. Бошқача қилиб айтганда, тақдирни берган худоларга ҳам, уларга сиғинадиган одамларга ҳам қаратилган жиддий психологик раддиялар етарли. Сукрот инсон эркинлиги масаласида бош омил сифатида ҳар бир инсоннинг ўз психологик вазиятини биринчи ўринга қўяди. У эркинлик ҳар бир одамда борлигини таъкидлаш билан бир қаторда баъзи одамлар ўзини тақдир қўлига тутқазиб қўяди, дейди. Инсоннинг қўллиги ёки озодлиги унинг тақдири эмас, балки танлови эканини таъкидлайди. Ҳолбуки, Сукрот яшаган даврда қуллар асосан урушларда олинган ҳарбий асирлар ва қарзини тўлай олмаган аҳоли ҳисобидан шаклланган. Файласуф ўша урушда асир тушган ёки қарз туфайли қулга айланган киши ўз келажаги учун етарли даражада қайғурмаган ва эркини йўқотган деб ҳисоблар экан, инсон ўз эркини ўзи қозониши кераклигини айтади [9:5].

Сукротнинг қарашлари қадимги юнон файласуфларининг деярли барчаси ғояларида танқидга учрамаган. Жумладан, Арасту тақдир

масаласига сабабият нуқтасидан қарайди. Унинг фикрига кўра, оламда ҳеч бир нарса тасодиф эмас, аини вақтда тақдирий ҳам эмас. Балки ҳар бир оқибатнинг сабаби бордир. Масалан, фарзанднинг ота онадан, тухумнинг товукдан вужудга келиши каби. Лекин у сабабларнинг сабаби, ёки биринчи сабабга келганда тараддуланган ҳолда, яъни қатъий бўлмаган тарзда масалани худоларга тақайди [2:35]. Унинг фикрини кейинчалик ажодимиз Абу Наср Форобий қатъийлаштиради. Олим Арастунинг Метафизика асарини шарҳлар экан, ўзининг ислом ақидаасидан келиб чиқувчи билимларини Арасту таъкидлаган сабаб ва оқибат категорияси билан бирлаштирган. Яъни бош омил сифатида сабабул-вужуд (мавжудлик сабаби), вожибул-вужуд (борлиги иложсиз) атамалари асосида ягона Яратувчи Аллоҳни эътироф этади [10:45].

Анитик давр файласуфларининг фикрини умумлаштирган ҳолда яна бир бошқа россиялик олим О.Ф.Кудрявцев қуйидагиларни ёзади: тақдир тасодифийлик аспектидандир. Инсон ўз ҳаёт йўлини яратувчиси ҳисобланади ва унинг фаолияти туфайли вазиятлар яхши ёки ёмон томонга бурилиши мумкин. Фортуна (тақдир) «бутун борликда ўзини нолойиқ, ачинарли махлук деб ҳисобловчи ўрта аср кишиси онгидаги мувозанатни бузиб юбориб, онгли равишда барча нарсалар тақдирдан деган тушунча»ни беради [4:55].

Олим тадқиқотиға эътибор қаратилса, антик давр файласуфлари “тақдир”ни инкор қилганлар. Лекин, биз ўша давр оралиғида битилган Софоклнинг “Шоҳ Эдип” асари ғояси тақдирдан қочиб бўлмаслик ғоясига асосланганини кўрамиз. Тўғри, бадий асар илмийликни тўлиқ асослаб бермайди (!). Бироқ ҳар қандай бадий адабиётнинг ғоявий таъсирчанлиги энг аввало унинг ҳаёт билан ҳамнафаслигида эканидан хулоса қилсак, антик даврда “тақдир”нинг инсон ихтиёридан ташқарида экани тушунчаси ҳам кенг тарқалган деган хулосага келиш мумкин.

Инсон эркинлиги ва тақдир тушунчаси моҳиятида ётувчи ғайри табиий (ғайб) масаларини ўрганиш мақсадида унинг таркибий қисмлари бўлган инсон ва инсоният тараққиётининг зоҳирий ва ботиний омиллари таҳлили билан биргаликда ўрганиш талаб этилади. Бунда инсон тақдири муаммосини

фалсафий-антропологик ёндошув асосида ўрганиш муҳим ҳисобланади. Масалан, Чарлз Дарвин гипотезасига кўра, оламдаги барча мавжудотлар эволюцион асосда тақомилига етиб, инсон пайдо бўлган. Бу фикрни ҳақиқат деб ҳисобловчи диндан узоқ фалсафий таълимотлар ана шу эволюцияни ҳам тасодиф ва сабаб ва оқибатлар занжири деб қарайдилар.

Немис файласуфи И.Кант тақдир тўғрисида шундай фикр билдиради: Тақдир инсоният эришиши керак бўлган якуний мақсадни англатади. У бир пайтни ўзида тақдирни инкор қилади лекин унинг мавжудлигини ҳам тан олади. Унинг фикрича, бир инсон сувда чўкиб ўлса, тақдирда унинг сувда чўкиб ўлиши белгиланган бўлади. Аммо бу фикрини илмий исботлашга ҳаракат қилмаган [5:6].

Тақдир мавзуси анъанавий иррационализм ва ноклассик фалсафада анча юқори мақомга эга бўлганини эътироф этиш лозим. Тақдир таълимоти тўғрисидаги кейинги романтизм мактаби унинг “олдиндан мақсад қилинган” эканини ёқлаб чиқади. А.Шопенгауэрнинг «тақдирни севиш» [13:105], Ф.Ницшенинг шунга ҳамоҳанг “тақдирга бўйсуниниш” [14:200] ғоялари фикримиз далили бўла олади. Ф.В.Шеллингнинг қарашларида «тақдир», «кўр тақдир»дан «олдиндан башорат қилиш»гача бўлган уч босқични босиб ўтади [14:263]. Эътибор қилинса, юқоридаги уч файласуфнинг тақдир борасидаги қарашлари аввало ўз кузатувлари, тажрибалари ва ўрганган билимлари доирасида бўлиб, масалага бир ёқлама ёндошаётганларини кўрсатади. Холбуки, романтизм мактабига хос қараш бўлган, “олдиндан мақсад қилинган” тушунчани ислом динида тақдирнинг инсон ва жамият, халқлар ва оламлар ҳаётига таъсири масаласига бир қадар мувофиқ қилишнинг кузатамиз. Ҳар бир инсон ҳаёти тасодифларга тўла дейимиз, аммо шу-тасодифлар тасодиф эмас, тақдирнинг биз юриб борадиган йўллари десак, хатодан холи бўлмайди.

Таъбир жоиз бўлса, ёзувчилар ўз қаҳрамонларининг тақдирини қизиб қўядилар, аммо қаҳрамонлар ўз ихтиёрлари билан ўша пировард ёзувчи кўзлаган манзилга етиб келадиларми, айрим ёзувчилар сюжет линияси аниқ бўлса-да аҳёнда бўлса ҳам, ўз қаҳрамонлари характеридан келиб чиқиб, уларни “ўз ихтиёрига қўядилар”. Бунини аксар адиблар баъзан ошкор, баъзан

пинҳон тан олганлар. Ўзбекистон қаҳрамони Эркин Воҳидов талабчан устози Абдулла Қаҳҳор ҳақидаги хотираларида бир воқеани сўзлагандилар.

Бир куни устоз Абдулла Қаҳҳор шогирдлари олдига бир салмоқлигина давфтарни қўйиб, айтибдилар: “Тобутдан товуш” спектакли қаҳрамонлари учун топиб қўйган “теша тегмаган” иборалар эди. Эркин Воҳидов давфтарни қўлга олиб, кўз югуртирсалар, ҳақиқатда ажойиб сўз ва иборалар билан тўла экан. Бу билан айтаминики бадиий асар муаллифи ҳам ўз қаҳрамонлари характерини шакллантиришда табиий танлов бўлишини истайдилар. Аммо таъкидлаш лозимки, бадиий асар илмий моҳиятини фундаментал белгилаб берувчи омил эмас(!).

Юқоридаги мисолдан айтилмоқчи бўлган фикр, инсонга берилган ихтиёр, танлов эркинлиги унга масъулият юклайди. Янги давр файласуфлари орасида “тақдир қўлида ўйинчоқ бўлмаслик” ёки “қилар ишни қилиб, тақдирни сабаб қилиш, яъни масъулиятдан қочиш” вазиятлари танқид қилинади [3:3]. Олим бу фақат масъулиятдан қочиш ва ўз айбини камайтиришга уриниш деб баҳолайди.

Исломда тақдирнинг яхшилигу ёмонлиги Аллоҳдан эканига имон келтириш, имоннинг таркибий қисми экани келтирилади. Шу сабаб тақдирга ишонмаган кишининг имони мукаммал бўлмаслиги уқтирилади. Шунинг учун биз истамаган ҳолат кимнинг ёки ниманинг сабабидан бўлдики бу аввало тақдир ёки эришган ютуғимиз кимнинг ёки ниманингдир сабабидан бўлса ҳам бу тақдир. Мўминдан бу ўринларда талаб қилинадиган нарсаси – сабр ёки шукрдир. Бинобарин ҳолатни таҳлил қилиб, кейинги сафар мувоффақият учун замин ҳозирлаш ҳам мумкин.

Энди А.Шопенгауэрнинг «тақдирни севиш» фикри қайсидир маънода ундан рози бўлиш тушунчасини келтириб чиқариши табиий. Чунки бирон бир бизга ёқмаган ҳодиса рўй берди. Уни ўзгартириб бўлмайди. Энди ана шундай вазият қайта содир бўлмаслиги учун сабабларни тўғри таҳлил қилиш лозим. Лекин кўпинча одамлар сабабларни таҳлил қилишга эринадилар. Тақдир экан, деб уни қабул қилдилар. Олим «тақдирни севиш» деганда

хар қандай ёқимсиз вазият инсон учун тажриба эканлигини таъкидламоқда.

Ф.В.Шеллингнинг «тақдир», «кўр тақдир», «олдиндан башорат»дан иборат бўлган уч босқични босиб ўтиш тушунчаси ўз ичига бир қадар ҳақиқатни олади. Жумладан, бир инсоннинг маълум бир макон ва замонда дунёга келиши - «тақдир», у номуносиб оилада туғилиб, кун келиб катта мувоффақиятга эришиши – «кўр тақдир», ана шу мувоффақияти «олдиндан башорат қилиниши» ҳаётда бўлаётган воқеа ва ходисалар тасодиф эмаслигига далолат этади. Кўпинча бунинг аксини ҳам кузатишимиз мумкин. Жумладан, жамиятда обрў-этиборли хонадон фарзанди ўта ноқобил бўлиб вояга етиши ҳам мумкин. Буни ҳам тақдир деймиз.

Шу ўринда асрлар давомида ўз моҳиятини йўқотмаган бир мақолни инобатга олайлик: «Куш уясида кўрганини қилади», русларда «Яблока от яблони далеко не падает» деган ҳикмати ҳам бор. Умуман бундай мақол дунёдаги барча халқларда бўлса керак. Чунки, унинг замирида ҳақиқат ётади. Шундай экан, инсон тақдирида оила муҳити, ундаги тарбия ҳам аҳамият касб этади. Зеро, илоҳий матнларда ҳам шу каби ҳикматлар келтирилади: Абу Ҳурайра розияллоҳу анҳудан ривоят қилинган ҳадисда Пайғамбар соллаллоҳу алайҳи васаллам: «Ҳар бир туғилган бола фақат фитрат (соф табиат) ила туғилади. Бас, ота-онаси уни яҳудий ёки насроний ёки мажусий қилади. Бу худди ҳайвоннинг бус-бутун ҳайвон туғишига ўхшайди. Сиз унда кулоқ-бурни кесилганини ҳис қилганмисиз?» дедилар. Инсон тарбиясида диний матнлар ва инсоний қадриятлар тарбиянинг роли муҳим экани ҳулосасини берсада, тақдир борасида ҳеч ким олдиндан бирон нарсани аниқ қилиб айтиб беролмайди. Шу сабабдан барча даврлардаги мутафаккирларнинг бу борадаги фикрлари турличадир.

Ана шундай файласуфлардан яна бири Г.Зиммел ҳаёт фалсафаси доирасида тақдир ҳақидаги тасаввурини «тахминий умумлашган маъно» деб баҳолайди. Яъни олимнинг тақдир борасидаги тасаввури фақат тахминлар устига қурилган. У ўз кузатишлари асосида қатъий равишда тақдирни бор ҳам йўқ ҳам дея қатъий айта олмайди. Шу сабадан тақдир тушунчасини фалсафий эмас, филологик жиҳатларини англатувчи маъноларига умумий баҳо беради

[11:72]. Айтайлик, ўзбек тилида тақдир сўзининг рағбатлантириш маъноси ҳам бор. Бундан ташқари, Қуръони карим оятларида тақдир сўзи кўпинча «миқдор», «ўлчов» маъноларини беради: وَأَنْزَلْنَا مِنَ السَّمَاءِ مَاءً بِقَدَرٍ – «Биз осмондан (аниқ) ўлчов билан сув (ёмғир, қор) ёғдирдик» (23:18).

Шунингдек О.Шпенглер [15:102] тақдир борасида шундай фикрни олға суради: «сабабият тақдирнинг тикланавувчи, ўлувчи, қотиб қолувчи муҳокама шаклидир». Файласуф юқоридаги фикрларни ўз кузатувлари асосида берганлиги кўриниб турибди. Чунки, бу мулоҳаза тақдир тушунчасига тор қараш билан берилган.

Тақдир муаммоси «Одамнинг коинотдаги мақоми» тадқиқотида М.Шеллертомонидан ўзига хос ёритиб берилган [11:320]: «инсоннинг натуралистик тушунчасидаги «виталистик» ижодий куч - биз уни рух (ёки олий онг) деб атайдиган нарсаси эмаслигини англашнинг юқори даражасига эга, аммо рухнинг биз учун қоронғу (номаълум) кучи ва бу жараён – тақдир (у бир одамга оидми ёки одамлар жамоасига) асосан, бу жараёнларнинг давомийлигига ва уларнинг рамзий талқинига боғлиқ. Бу жиҳатдан тақдир тарих воқеаларига ҳам таъсир этади» [11:56]. Кўриниб турибдики, олим масалага ўз шахсий маслаги асосида ёндошмоқда, яъни-антропологик фалсафа ғоясидан келиб чиққан. Бу албатта, юқорида кўрилган фикрлардан бир мунча фарқ қилса ҳам, тақдир масаласини умуман инкор қилмайди. Аммо, илоҳиётдан беҳабарлиги, уни рух, ғайб илми, худо тушунчалари борасида мавҳумликка солади. Олим буни ўз сўзи билан эътироф ҳам қилмоқда. Айни чоғда тақдирнинг инсонларга ва инсонлар жамоасига таъсирини ҳам эътироф қилгани кўринади.

Одатда антрополог олимлар воқеалар силсиласини, инсониятнинг бугунги кунини бевосита қадимдан келаётган занжирга боғлаб тасаввур қиладилар. Тўғри, олам ҳам одам ҳам яратилгандан буён ўзининг ўзагрмас қонуниятларига эга. Лекин олам ҳам одам ҳам моддий ва маънавий ўзгаришларни бошидан ўтказди. Ўзгаришларни кўпинча сабаб ва оқибат категорияси орқали файласуфлар тушунтирадилар. Лекин шундай вазиятлар борки, сабаблари бир хил бўлган умуман турли оқибатларни гувоҳи бўлиш мумкин. Ана шу

аслида тақдирдир. Шу сабабдан барча фалсафий мактаблар тақдирнинг илмийлиги асослашдан ожиз қолганлар.

Бошқа тарафдан эса Э.Фромм, В.Франкл, К.Юнг [11:182] асарларида тақдир масаласига табиий ва ижтимоий-маданий имкониятларни амалга ошириш жараёни сифатида қаралган. Тақдирни фактлар асосида, ўз ҳолига ташланган нарса деб, чекка вазиятлар сифатида кўриш Ж.-П.Сартр, М.Хайдеггер, К.Ясперснинг экзистенциализмида кўзга ташланади [11:183]. Бу ўринда икки гуруҳдаги олти файласуф номлари фақат тақдир борасида хулосалари яқин эканлиги нуқтаи назаридандир. Улар тақдирга муносабни кишиларнинг табиий ва ижтимоий-маданий имкониятлари билан боғламоқчи бўладилар. Яъни киши тақдирга ишонмаслиги мумкин лекин жамиятда тақдир деган тушунча, хоҳласа хоҳламаса мавжуд. У шу жамият вакили сифатида тақдир тушунчасининг барча шакллари баъзан ихтиёрий баъзан беихтиёр қабул қилади. Мисол учун, Сталин атеист бўлган, шундан келиб чиқилса, тақдирни инкор қилган. Аммо (экстрасенс) Волф Мессинг башорати билан ўғлини авиаҳалокатдан олиб қолган. Бу борадаги ҳужжатли материалларда, Сталиннинг Берия билан маслаҳатлашуви сақланиб қолган. Унга кўра, Сталин ўз атеистик ғоясига садоқати ва башорат ҳақиқати орасида қаттиқ тараддуд ҳолатига тушган. Чунки, Волф Мессинг башоратлари жамият орасида сингиб улгурган эди.

Яна бир гуруҳ – Юм Вольф каби олимлар борлиқнинг олдиндан белгиланган уйғунлик асосидаги ривожланиши фикрига таянадилар. Бу идеализмдаги “борлиқ тақдири”нинг уни илоҳий яратилиши принципи билан боғловчи анъана ҳисобланади [17:155]. Юм Вольф фикрлари христианликдаги тақдир тушунчасидан таъсирланган. Лекин у ҳам тақдирни илмий асослашга етарли далил келтира олмаган. Унинг фикрича тақдир тўғрисидаги хулосалар шу қадар чалкашки, уларни умумлаштирмай, тугал фикрга келиб бўлмайди.

ХУЛОСА

Мақолада келтирилган фикрлардан хулоса қиладиган бўлсак:

1) Файласуфларнинг тақдир ҳақидаги фикрлари икки турлидир: Биринчи. Оламдаги

барча ишлар тақдирий, ҳатто оламнинг яралаши ҳам. Иккинчи. Ҳеч нарса олдиндан белгиланмаган, оламнинг яралиши тасодифдир.

2) Аммо уларнинг ҳар бири ҳам турли қарашлардан иборат. Тақдир диний фалсафаларда мавжуд аммо дин илм эмас. Шу сабабдан улар фикрини айнан уйғун деб бўлмайди. Аммо улар ҳам бир бу борада аниқ фикрда собит эмас.

3) Тақдир борасида антик давр файласуфларидан бўлган Сукрот: Тақдир бу афиналиклар сиғинадиган худолар тушунчасидандир. Бошқача қилиб айтганда, тақдирни берган худоларга ҳам, уларга сиғинадиган одамларга ҳам қаратилган жиддий психологик раддиялар етарли. Сукрот инсон эркинлиги масаласида бош омил сифатида ҳар бир инсоннинг ўз психологик вазиятини биринчи ўринга қўяди.

4) Арасту тақдир масаласига сабабият нуқтасидан қарайди. Унинг фикрига кўра, оламда ҳеч бир нарса тасодиф эмас, айтилиш вақтда тақдирий ҳам эмас. Балки ҳар бир оқибатнинг сабаби бордир.

5) О.Ф.Кудрявцевга кўра, антик давр файласуфларининг тақдир борасидаги фикрларини, тақдир тасодифийлик аспектидан. Инсон ўз ҳаёт йўлини яратувчиси ҳисобланади ва унинг фаолияти туфайли вазиятлар яхши ёки ёмон томонга бурилиши мумкин, деб ҳисоблайди.

6) Инсон эркинлиги ва тақдир тушунчаси моҳиятида ётувчи ғайри табиий (ғайб) масаларини ўрганиш мақсадида унинг таркибий қисмлари бўлган инсон ва инсоният тараққиётининг зоҳирий ва ботиний омиллари таҳлили билан биргаликда ўрганиш талаб этилади.

7) И.Кантга кўра, тақдир тўғрисида шундай фикр билдиради: Тақдир инсоният эришиши керак бўлган якуний мақсадни англатади. У бир пайтни ўзида тақдирни инкор қилади лекин унинг мавжудлигини ҳам тан олади.

8) Тақдир мавзуси анъанавий иррационализм ва ноклассик фалсафада анча юқори мақомга эга.

9) С.С.Аверинцевга кўра, «тақдир» сўзи афсонавийдир ва афсонавий (мифологик) категориялар афсонавий онг маҳсули бўлиб, ўз навбатида ғайри илмий тушунча ҳисобланади. Илоҳиётга асосланган қарашлар устувор бўлган ўринларда “тақдир” тушунчасини афсонавий ва фалсафий дунёқарашдан кўра ҳаётини тушунча сифатида тушуниш лозим.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Аверинцев С., Судьба // Философская энциклопедия: в 5т. / С. Аверинцев. – М.. 1970. – Т. 5
2. Гуревич А.Я. Исторический синтез и школа «анналов». -М.: 1993.
3. Домбровский Ю.О. В чём заключается ответственность за свои поступки? <https://4ege.ru/gia-po-russkomu-jazyku/59365-sochinenie-93-v-chem-zaklyuchaetsya-otvetstvennost-za-svoi-postupki.html>.
4. Кудрявцев О.Ф./Античные представления о фортуна в ренессансном мировоззрении // Античное наследие в культуре Возрождения. – М.: Наука, 1984.
5. Elliot Stephenson. Kant and The Destiny of Humanity. <https://digitalrepository.trincoll.edu/>. 2012.
6. Немецкая классическая философия. Том 1. Право и свобода (сборник) Фридрих Шеллинг, [livelib.ru. https://www.livelib.ru/book/1000510143](https://www.livelib.ru/book/1000510143).
7. Сартр Ж.-П. Избранные произведения. – М.: Республика, 1994; Хайдеггер М. Время-и бытие. – М.: Республика, 1993; Хайдеггер М. Письмо о гуманизме // Проблема человека в западной философии; – М.: Прогресс, 1988; Ясперс К. Духовная ситуация времени //Смысл и назначение истории. – М.: Республика, 1991; Ясперс К. Смысл и назначение истории. – М., 1994.
8. Трубецкой Е.Н. Философия Ницше. – М.: 1904.
9. Трунов Д.Г. Сократ «деструктивный» (психоаналитическая фантазия) // Консультативная психология и психотерапия. 2007. Том 15. № 1 ISSN: 2075-3470 / 2311-9446.
10. Форобий. Фозил одамлар шахри. М.Хайруллаев таржимаси. Т.: 1994.
11. Формальная социология Г. Зиммеля //Громов И. А., Мацкевич А. Ю., Семёнов В. А. Западная теоретическая социология. – М.: 1996. – 286 с.
12. Шпенглер Освальд (1880-1936). Немис тарихчи файласуфи, миллатчи-консерватив йўналишидаги публицист.
13. А.Шопенгауэр. Мир как воля и представление. Дополнение к первому тому. Дополнения к 4-й книге.
14. Шопенгауэр А. О ничтожестве и горечаях жизни // Шопенгауэр А. Избр. произв. – М., 1992; Шопенгауэр А. Смерть и ее отношение к неразрушимости нашего существа // Шопенгауэр А. Избранные произведения. – М., 1992. Человек: образ и сущность. Вып. 2. -М.- ИНИОН, 1991; Шелер М. *Ordo amoris* (1914) // Избранные произведения-М. 1994.
15. Max Scheler. «Die Stellung des Menschen im Kosmos», 1928.
16. Фромм Э. Духовная сущность человека // Философские науки. – М.,1990.-№ 8, № 9; Фромм Э. Душа человека. – М.: Республика, 1992; Фромм Э. Анатомия человеческой деструктивности. – М.: Республика, 1994; Фромм Э. Бегство от свободы. – М.: Прогресс, 1996; Фромм Э. Иметь или быть? – М., 1986.; Фромм Э.; Хирау Р. Предисловием антологии “Природа человека” // Глобальные проблемы и общечеловеческие ценности. – М., 1990; Франки В. Человек в поисках смысла. – М: Прогресс, 1990; Юнг К. Г. Об архетипах коллективного бессознательного // Вопросы философии. – М., 1998.-№ 1; Юнг К.Г. Ответ Иову. – М.: ООО «Издательство АСТ», «Канон», 2001; Юнг К.Г. Воспоминания, сновидения, размышления. – Мн.: ООО «Харвест», 2003.
17. Черкозьянова Т.В. Онтологический статус судьбы в субъективном идеализме // Вестник ОГУ №4 (123)/апрель, 2011.

XAKIMOVA Nigora Alisherovna
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish
ICESCO kafedrasi dotsenti v.b., PhD

HUKM VA HIKMAT: SHARIAT VA HAQIQAT O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNING NAZARIY ASOSLARI

ХУКМ И ХИКМА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВЗАИМОСВЯЗИ МЕЖДУ ШАРИАТОМ И ИСТИНОЙ

HUKM AND HIKMAH: THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN SHARIA AND HAQIQAH

Annotatsiya. Ushbu maqola shariat va haqiqat o'rtasidagi bog'liqlikning nazariy asoslarini o'rganishga bag'ishlangan. Unda hukm va hikmat tushunchalari asosida shariat meyorlari va haqiqatni idrok qilish o'rtasidagi munosabatlar tahlil qilinadi. Maqola fiqh va tasavvuf ilmlari doirasida shariat va haqiqatni birlashtiruvchi tamoyillarni yoritishga qaratilgan. Muallif shariatning tashqi qoidalari bilan haqiqatning botiniy mohiyatini uyg'unlashtirish masalasiga e'tibor qaratib, bu borada bir qancha olimlarning qarashlarini tahlil qiladi. Maqola shuningdek, hukmning inson manfaati va hikmat tamoyillariga asoslanishi, bu orqali haqiqatga yetishish yo'lidagi muhim vosita ekanini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: shariat, haqiqat, hukm, hikmat, fiqh, tasavvuf, nazariy asoslar, inson manfaati, botiniy mohiyat, tashqi qoidalar.

Аннотация. Данная статья посвящена исследованию теоретических основ взаимосвязи между шариатом и истиной. В центре внимания находится анализ соотношения норм шариата и процессов осмысления истины через призму категорий hukm и hikmah. Исследование направлено на выявление концептуальных принципов, объединяющих шариат и истину, в контексте исламской юриспруденции (фикха) и суфийской традиции. Особое внимание уделено вопросу гармонизации внешних нормативных предписаний шариата с их внутренней сущностной основой, что иллюстрируется посредством анализа взглядов различных классических и современных ученых.

Кроме того, обосновывается, что привязка хукма к принципам справедливости и мудрости (хикмат) выступает в качестве ключевого инструмента в процессе постижения истины.

Ключевые слова: шариат, истина, хукм, хикмат, фикх, суфизм, теоретические основы, внутренняя сущность, внешние предписания.

Annotation. This article explores the theoretical foundations of the relationship between Sharia and Haqiqah. It focuses on analyzing the connection between Sharia norms and the process of understanding truth through the lens of the concepts of hukm and hikmah. The study aims to identify the conceptual principles that bridge Sharia and Haqiqah within the frameworks of Islamic jurisprudence (fiqh) and the Sufi tradition. Special attention is given to the harmonization of the external legal precepts of Sharia with their inner essential meanings, illustrated through an examination of the views of various classical and contemporary scholars. Furthermore, the article substantiates that the grounding of hukm in the principles of justice and wisdom (hikmah) serves as a key instrument in the pursuit of truth. As a result, a deeper methodological understanding of the relationship between Sharia and Haqiqah is established.

Keywords: Sharia, Haqiqah, hukm, hikmah, fiqh, Sufism, theoretical foundations, inner essence, external norms.

KIRISH

Shariat va haqiqat o'rtasidagi munosabatni tahlil qilishdan avval, shariat va tasavvuf atamalarining mazmun-mohiyatini ochib berish muhim sanaladi. Arab tilidan olingan tasavvuf atamasi bugungi kunda ahli sunna val-jamoa tomonidan tan olingan ma'lum tariqatlarning nazariy asoslariga nisbatan qo'llaniladi.

Tasavvuf so'zining kelib chiqishi haqida ko'plab qarashlar mavjud bo'lib, ulardan beshtasi quyida keltiriladi [1:24]:

1. Bu atama jun so'zidan (الصوفة) olingan bo'lib, undan murod sufiy Allohning huzurida na iroda va na yo'nalishga ega bo'lgan yerga tashlangan bir tutam yung kabi taslim ekanini ifoda etishdir.

2. Yana bir qarashga ko'ra, mazkur atama bo'yindagi hukpar soch tutami (صوفة القفا) ma'nosidan kelib chiqadi. Sufiylar insonning bo'in qismida o'sadigan mayin soch tolalari kabi yumshoq tabiat va halim bo'lgani uchun shunday nomlangan.

3. Atama “sifat” (الصفة) so‘zidan olingan bo‘lishi mumkin, chunki sufiy yaxshi amallar qilish va illatlarni tark qilish bilan tavsiflanadi (اتصاف).

4. Tasavvuf atamasi poklik so‘zidan (الصفاء) olingani haqidagi qarashlar ham mavjud. Abul Fat’h Bustiy bu fikrni tasdiqlab, shunday deydi:

Odamlar “Sufiy” atamasi haqida turli fikrlar bildirib, ixtilof qildilar;

Ba’zilar bu atamani jun (suf) so‘zidan kelib chiqqan, deb ta’kidladilar.

Ammo men ushbu nomni faqat Alloh bilan xolis munosabatda bo‘lgan,

Sufiy maqomiga erishguniga qadar o‘zini poklagan shaxsga nisbat beraman.

5. Bu atama supa so‘zidan (فتصل) olingan. Zero, sufiylar “Ahli suffa” bilan bir xil xususiyatga egadirlar.

Manbalarda ilk sufiy nomi bilan atalgan shaxs sifatida asli kufalik bo‘lgan Abu Hoshim Sufiy (vaf. 160/776 y.) nomi keltiriladi [3:25]. Ba’zi tadqiqotlarda sufiylar nomi bilan tanilgan ilk jamoa sifatida Basradagi Abu Hotim Attor (vaf. 260/884 y.) rahbarligida o‘z faoliyatini olib borgan musulmonlar jamoasi zikr qilinadi [18:223]. Abu Hotim o‘z davrida jundan kiyim kiygan sufiylarni tanqid ostiga olgan bo‘lib, u ularni o‘zlarining ichki holatlarini ko‘z-ko‘z qilishda va shu tariqa boshqa musulmonlardan ajralib turishga harakat qilishda ayblagan. Jundan kiyim kiyish odati “sufiylar” deb nom olgan ilk musulmonlar guruhi paydo bo‘lgan vaqtga kelib, asta-sekin yo‘q bo‘lib borayotgan an’anaga aylangan edi. Bu holat tasavvuf so‘zi asli jun ma’nosini anglatuvchi o‘zakdan olingani borasidagi fikrlarni qiziq tarzda talqin etadi [23:78].

Basradagi mazkur sufiy halqalarida mavjud bo‘lgan bag’dodlik soliklar orqali ularning qarashlari Bag’dodda ham keng tarqala boshladi. Bag’dod sufiylarining eng mashhur namoyondasi sifatida “Shayx al-toifa” nomi bilan tanilgan Junayd Bag’dodiy (vaf. 298/910 y.) keltirish mumkin. Basra va Bag’dodda shakllangan ilk sufiy jamoalari o‘zlarining qarashlarida Allohni sevish, U bilan yaqin ma’naviy aloqani bog‘lash va Xudoni bevosita bilish kabi mavzularga urg‘u berishgan. O‘sha davrga oid manbalarda ular Allohni ixlos bilan yod etish va barcha intilishlarni bitta maqsadga, ya’ni Xudoga bo‘lgan ishtiyoq va sevgiga yo‘naltirish, Unga yaqinlashish va U bilan yaqinlik tuyg‘usiga erishish kabi masalalarni muhokama qilgan ilk shaxslar sifatida ta’riflangan [25:461].

Ular ishoralar tilini yaxshi bilgani uchun yashirin ruhiy haqiqatlarni anglay olgan dastlabki shaxslar sifatida ham tasvirlanib, ularga nisbatan yangi istiloh, “sufiy” atamasi iste’molga kiritilgan. Keyinchalik tasavvuf yo‘nalishida ijod qilgan mualliflar “sufiy” atamasini o‘sha davrdagi Basra va Bag’dod sufiylaridan tashqari, ularga zamondosh va ulardan avval yashab o‘tgan taqvodor shaxslarga nisbatan ham qo‘llay boshlashgan [24:187]. O‘zining taqvosi bilan tanilgan ilk islom davridagi musulmonlar o‘z vaqtida “sufiy” deb atalmagan bo‘lsalar-da, ular bugungi kunda biz biladigan tasavvufga katta ta’sir ko‘rsatganlari uchun ularni ham sufiy deb ta’riflash ma’lum darajada to‘g‘ri hisoblanadi [23:78].

Shariat so‘zi arab tilidan odatda “islom huquqi” yoki “islom qonunchiligi” deb tarjima qilinadi. Sha-ra-a (عرش) o‘zagidan hosil bo‘lgan bu so‘z turli ma’nolarda ishlatiladi. “So’ngra (ey, Muhammad!) Biz Sizni (diniy) ishdan iborat shariat uzra (barqaror) qildik” [21:500], Josiya surasining 18-oyatida shariat so‘zi islomning tartib-qoidalariga ishora qiladi. Chunki islom dini ta’limoti hech qanday to‘siqlarsiz ravon yo‘l ma’nosiga uyg‘un tartib-qoidalarga egadir [15:176-179]. Sho‘ro surasi 13-oyatda shunday deyiladi: “(Ey, imon keltirganlar! Alloh) sizlar uchun din bo‘yicha Nuhga buyurgan narsani va Biz sizga (Muhammadga) vahiy qilgan narsani, (shuningdek) Biz Ibrohim, Muso va Isoga buyurgan narsani – shariat qildi: Dinni barpo qilingiz va unda firqa-firqaga bo‘linmangiz!” [21:484].

Josiya surasining 18-oyatidagi kabi sha-ra-a qolipida ishlatilganda shariat so‘zi usul, yo‘l, diniy ta’limotlarning eng to‘g‘risi ma’nosini anglatadi. Suv oqib ketadigan yo‘l ma’nosini bildirish uchun “shar’a” [15:176-179] so‘zi ishlatilgan bo‘lib, “shir’atul-maa” suv yo‘li mazmunida qo‘llanilgan. Bu so‘z arablar tomonidan “doimiy suv manbaiga olib boradigan yo‘l”, yana ham aniqroq aytsek, katta suv havzasi yoki katta daryo bo‘yiga tushadigan qiyalik ma’nosida ham ishlatilgan.

Bu so‘zning fe’l shakli hayvonlarning suv manbaiga yetib borishini ifodalash uchun ham qo‘llanilgan. Bundan tashqari, hayvonlarning suvni ichish uchun boshini pastga egishi yoki odamning og‘ziga suv olish maqsadida egilishini ifodalash uchun ham qo‘llanilgan [23:78]. Sahobalar hamda tobe’inlar bu fe’lni idishlardan suv olib, tahorat paytida tananing ba’zi qismlarini yuvish ma’nosida ham ishlatganlar [16:286].

Shariat so'zi doimiy suv manбайдan ichish yoki suv manbaiga kelish mazmunini anglatgan bo'lib, vahiy davridagi arablar uchun bu hayot ma'nosini bildirgan. Qur'onda suv hayotning asosi sifatida quyidagicha ta'riflanadi: "... va barcha tirik mavjudotni suvdan (paydo) qilganimizni ko'rmadilarmi?!" [21:562]. Shara'a fe'lining aks ma'nosini ifodalash uchun arablar "qamaha" fe'lini qo'llagan bo'lib, odatda bu fe'l boshini yuqoriga ko'targan holda suv manбайдan ichishni rad qilgan hayvonga nisbatan ishlatilgan. Qur'onda bu so'z faqat bir marta uchraydi. Oyatda Allohning xabarini qabul qilishni rad etganlar "muqmahun" deb tasvirlanadi: "Bas, ular kekkayuvchidirlar" [21:562].

Hayvonning suv ichish uchun boshini pastga egishi va musulmonning qalbiga hayot baxsh etish uchun Alloh tomonidan o'rnatilgan meyorlarga bo'ysunishi o'rtasida ramziy bir o'xshashlik mavjud bo'lib, bu namozdagi ruku va sajda harakatlari orqali jismoniy shaklda aks etadi [23:78].

Qur'onda shariat so'zining boshqa shakli bo'lgan shir'at so'zi ilohiy yo'l ma'nosida qo'llanilgan bo'lib, bu yo'l Allohning hukmlariga ergashishda o'z aksini topadi: "... Sizlardan har bir (ummat) uchun (alohida) shariat va yo'l (tayin) qilib qo'ydik" [21:562]. Sahobiylarning ko'pchiligi, masalan, Ibn Abbos (r.a.) shariat so'zini "yo'l" ma'nosini bildiruvchi "sabil" so'zi bilan bir ma'noda ekanini qayd qilgan [13:247].

To'g'ri yo'l, suv manbai, dinning ma'nolari, haqiqatga eltadigan eng to'g'ri yo'l ma'nolaridan tashqari, shariat so'zi majoziy talqinda bu yo'lni tutganlarning ma'naviy chanqog'i qonishi, ularning poklanishi mazmunida ham qo'llaniladi. Yusuf Homid Olim (vaf. 1988 y.) shariat atamasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Bu Allohning payg'ambarlari orqali sog'lom e'tiqod tamoyillari, ijtimoiy munosabatlar va inson amallarida mavjud manfaatlarni odamlarga yetkazishdir" [28:68].

Bu istiloh mazmunini tushunishda uning faqatgina "qonun", "qonun chiqaruvchi" yoki "huquqiy nazariya" kabi birlamchi mazmunlardan foydalanish shakliy tushunish hisoblanib, so'z mohiyatini aniq va chuqur anglashni qurbon qilish evaziga amalga oshiriladi. Shariat atamasi "qonun" ma'nosi bilan chegaralanib qolmay, balki kengroq mazmunni ifodalaydi. U axloq meyorlarini ham qamrab olib, Allohga qay tarzda mukammal ibodat qilish tartibini o'rgatadi.

Huquqshunoslarning fikriga ko'ra, ilohiy taqiqlar yoki buyruqlarni huquqiy jihatdan meyorlar deb atash mumkin, chunki meyorlar aslida nima qilish yoki qilmaslik kerakligi haqidagi ko'rsatmalar hisoblanib, ular shaxslarning xatti-harakatlarini shunday yo'naltiradiki, ularga rioya qilishdan boshqa chora qolmaydi. Lekin, tavsiya qilingan yoki maqbul bo'lmagan amallarning tasnifi bunday majburlovchi xususiyatga ega emas, bu qoidalar inson xatti-harakatiga ta'sir ko'rsatishga intiladi, lekin amal qilmaslik imkoniyatini ham beradi. Shu sababli, ular huquqiy meyorlardan tubdan farq qiladi [6:3].

Shariatda buyurilgan yoki taqiqlangan amallarning aksariyati yuqori turuvchi biror tashkilot tomonidan nazorat qilinmaydi, balki musulmonning qalbi va ongiga xavola etiladi. Shariatda sanoqli ijtimoiy xavfli qilmishlar uchungina hudud deb nomlangan jazo choralari, ya'ni inson xulq-atvori cheklanishi mumkin bo'lgan eng yuqori chegaralar belgilab qo'yilgan. Lekin shaxsiy va ibodat masalalari musulmon bilan uning Rabbisi o'rtasidagi masala bo'lib qoladi [27:151-180]. Shariat huquqiy mazmundagi buyruq va taqiqlardan iborat ta'limot hisoblangani uchun ahli hadis ulamolari har bir ilohiy ko'rsatmani majburiy, tavsiya etilgan, joiz, maqbul bo'lmagan va harom ko'rinishida besh turkumga ajratib o'rganadilar.

ASOSIY QISM

Shariat va tasavvuf atamalarining mazmun-mohiyatini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu ikki tushunchani bir-biriga qarshi qo'yish sun'iy bir yondashuv hisoblanadi. Payg'ambar (s.a.v.) shunday dedilar: "Ogoh bo'linglar! Jasadda bir parcha go'sht bordir. Qachonki u solih bo'lsa, jasadning hammasi solih bo'lur. Qachon u buzuq bo'lsa, jasadning hammasi buzuq bo'lur. Ogoh bo'linglar! O'sha narsa qalbdir" [16:286]. Shuningdek, qalb kishining ruhiy holatini, to'g'ri va noto'g'ri ishlarni ajrata oladigan mezon sifatida ham keltirgan: "Yomon ish — bu sening qalbingni titratadigan ishdir" [17:342]. Shuning uchun, sufiylar nuqtai nazariga ko'ra, haqiqiy faqih faqat ma'lumotlarni yodlash yoki hukmlar to'plamini bilish bilan cheklanmaydi, balki uning qalbidagi to'g'ri va noto'g'ri anglay oladigan chuqur bilim bo'ladi.

Tobeinlarning yirik namoyondasi Hasan Basriy (vaf. 110/728 y.) o'zining talabasi Imron

Qasirning bir savoliga javob beradi. Hasan Basriyning javobini eshitgan shogird, unga qarshi chiqib: “Lekin faqihlar boshqa fikr bildirishadi”, deydi. Hasan Basriy unga javoban: “Haqiqiy faqih kimligini bilasanmi? Faqih dunyo hoyu-xavasini o‘ziga bo‘ysundurgan, diniy masalalarga chuqur nazar sola oladigan va ibodatda doimo sobit bo‘lgan kishidir” [11:359], deb javob berdi. Imom Molik ilm ko‘p ma‘lumotlarni jamlashdan iborat emasligi haqida shunday degan: “Ilm bu Allohning inson qalbiga joylashtirgan nuridir” [4:87-88].

X asrga kelib ulamolar shar‘iy hukmlar ortidagi hikmat tushunchasi orqali islom dini mazmun-mohiyatini ochib berishga harakat qiladilar. Mazkur davrda yashab ijod qilgan Hakim Termiziy (vaf. 298/910 y.) faoliyatida ham fiqh va tasavvuf sohalarini jamlashga qilingan harakatni ko‘rish mumkin. Shariat meyorlari va ko‘rsatmalari ortida mavjud hikmat, ayniqsa, mujtahid tomonidan anglanishi lozim bo‘lgan hikmat tushunchasiga katta e‘tibor qaratgani sababli Imom Termiziyga “Hakim” maqomi berilgan [10:136]. Ilk fiqhiy yoki tasavvufiy qarashlarda hikmat tushunchasini amaliy hukmlar bilan bog‘laydigan yondoshuvlar deyarli uchramaydi. Aslida hikmat va hukm tushunchalari lug‘at nuqtai nazaridan bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lib, ikkisi ham bir ildizidan kelib chiqqan. Mufasssir olim Ibn Jarir Tabari “hikmat” tushunchasi haqiqat va yolg‘onni ajratib beradigan “hukm” so‘zidan olingan bo‘lib, u hukmning amaliy ko‘rinishi deb talqin qilgan. Uning fikricha, “hikmat” Allohning hukmlari borasidagi ilm hisoblanadi [12:391].

Imom Termiziy zamondoshlaridan yana ikki kishi “Hakim” maqomi berilgani tufayli ba‘zi olimlar bu maqom Xuroson va Movarounnahrning shimoli-sharqiy hududlariga xos ijtimoiy daraja bo‘lib, ma‘naviy bilim sohiblariga berilgan degan xulosaga kelganlar [2:47]. Ulardan biri Hakim Tirmiziyning shogirdi, Muhammad ibn Umar Abu Bakr Varroq Hakim (vaf. 280/893 y.) edi. U kalom, fiqh va tasavvufni biri-ikkinchisini to‘ldiruvchi ilmlar ekanini ta‘kidlab shunday deydi:

“Kim faqat kalomni yetarli deb o‘ylasa va fiqh hamda zuhdni (qalbni dunyoviy narsalarga bog‘lashdan uzishni) o‘rganmasa, u zindiqqa aylanadi. Kim zuhdni kalom va fiqh ilmlarisiz yetarli deb o‘ylasa, u bid‘atlarni kashf etadi. Kim faqat fiqhni yetarli deb o‘ylasa, zuhd va kalom ilmiga ega bo‘lmasa, u fosiq bo‘ladi. Kimki bu ilmlarning barchasini egallasa, u najot topadi” [26:180].

Hakim Termiziyning o‘zi ham shunga o‘xshash fikrni bildiradi: “Dinning tashqi jihati shariat ilmi orqali tartibga solinadi va unga asoslanadi, uning ichki jihati esa haqiqiy ma‘naviy bilim, ya‘ni haqiqat ilmi orqali tartibga solinadi va yuksaltiriladi. Buning dalili shundaki, din faqat haqiqiy taqvo orqali to‘g‘ri bo‘ladi. Payg‘ambar (s.a.v.): “Taqvo mana shu yerda”, deb yuragiga ishora qilgan. Shuning uchun taqvoning manbai sifatida tashqi ilmni qo‘llab, lekin ichki bilimni rad etuvchi kishi munofiqlardandir. Taqvoning manbai sifatida ichki bilimni qo‘llab, lekin shariatni qo‘llab-quvvatlash uchun tashqi bilimni o‘rganmaydigan va uning ahamiyatini rad etuvchi kishi esa zindiqdir. Uning ichki bilimi haqiqiy bilim emas, balki shaytonning vasvasasidir” [8:53].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ushbu mintaqalarda ma‘naviyatni islom ilmlari bilan uyg‘unlashtirishga intiluvchi kishilarni “Hikmat ahli” sifatida Hakim deb atash an‘anasi mavjud bo‘lgan. Ayniqsa, Hakim Termiziyda bu holat yaqqol namoyon bo‘lib, u o‘z ta‘limotining markaziga hikmat tushunchasini qo‘ygan. Manbalarga ko‘ra, Hakim Termiziy uchun hikmat Qur‘on, hadis va shariatni chuqurroq anglash bo‘lib, bu holat ma‘naviy bilish orqali qo‘lga kiritiladi. Shuningdek, Hakim Termiziy bu an‘anani o‘zi boshlagan bo‘lishi ham ehtimoldan holi emas. Buning dalili shundaki, Abu Bakr Varroq o‘zining ustozi sifatida Hakim Termiziyning e‘tirof etadi, va uning hikmat borasidagi qarshlari Hakim Termiziy ta‘limotiga to‘la mos keladi [7:629].

Abu Qosim Is‘hoq ibn Muhammad Hakim Samarqandiy (vaf. 342/953 y.) esa, o‘z navbatida, Abu Bakr Varroqning shogirdi bo‘lgan [2:47]. Hakim Samarqandiy Imom Termiziy tomonidan yozilgan asarni kengaytirilgan holda sharhlaydi va uning ilmiy merosini davom ettiradi [5:19]. Shu sababli, Hujviriy (vaf. 465/1072 y.) ta‘kidlagan hakimiylar maktabi yoki an‘anasiga aynan Hakim Termiziy tomonidan asos solingan va uning shogirdlari orqali davom ettirilgan, deb aytish mumkin.

Payg‘ambar (s.a.v.) o‘z sahobalaridan ayrimlarini boshqa hududlarga hokim sifatida tayinlaganlar. Shuning uchun hadis matnlarida ijthod jarayoni haqida so‘z yuritilganda, aynan ushbu hokimlar faoliyati nazarda tutilgan. Bunga Amr ibn Ossdan rivoyat qilingan quyidagi hadis yorqin dalil bo‘la oladi: “Hokim hukm qilgan chog‘ida ijthod qilib, to‘g‘ri topsa, unga ikki ajr

bordir. U hukm qilgan chog'ida ijti hod qilsa-yu, xato qilsa, unga bir ajr bordir», – dedilar”. Bu hokimlar o'z qabiladoshlari orasida tortishuvlarni hal qila oladigan tajriba, donishmandlik va farostaga ega insonlar sifatida faoliyat yuritganlar. Bu holat hikmat tushunchasi va fiqhiy jarayon o'rtasida lug'aviy va mazmun jihatdan kuchli bog'liqlik mavjud ekaniga dalildir.

Hikmat so'zining asl ma'nosi “isloh uchun man qilish”dir. Arablar “hakamtu, ahkamtu, hakkamtu” so'zlarini ishlatganda, men buni man qildim, taqiqladim va qayta-qayta qildim degan ma'noni anglatadi. Shu nuqtai nazardan, odamlar o'rtasida hukm chiqaradigan odam hokim deb atalgan. Chunki hokim zolimning shafqatsizligini oldini olish orqali adolat va islohotlarni ta'minlovchi shaxsdir. Bu to'liq va mukammal degan ma'noni ham anglatadi. Bu yana biror narsaning holatini buzadigan yoki nuqsonli qiladigan boshqa narsalardan uzoqroq tutish ma'nosini ham bildiradi. Hikmat so'zi shuningdek adolat, ilm, donolik, payg'ambarlik, Qur'on va Injil ma'nolarida ham qo'llaniladi [14:207].

Hukmlarning joriy etilishidan nazarda tutilgan maqsad ham hikmat deb ataladi. Hukmlarning hikmatlari ulardan nazarda tutilgan foydalar yoki undan saqlanish murod qilingan zarar ma'nolarida bo'lib, ular Shore'ning maqsadi, ya'ni inson manfaatining himoyasidir.

“Xuddi shunday, hikmat so'zi qalbni saqlash, qiyinchiliklarni yengillashtirish va yo'q qilish tamoyilini qo'llashni ham anglatadi. Hikmat so'zi, shuningdek, Allohga bandalikni qabul qilish va Unga tavakkal qilish kabi umumiy maqsadlarni ifoda etish uchun ham ishlatiladi. Payg'ambarlarni yuborish va shariatni nozil qilishning hikmati Allohga itoat qilish va boshqa xudolardan uzoqlashishdir. Aytilganlarning barchasiga asoslanib, hikmat so'zini umuminsoniy manfaatlar himoyasi va umumiy maqsadlar sifatida talqin qilish mumkin bo'ladi” [19:20]. Hikmat so'zi “etuk hikmat” [21:528] va “kimga (mazkur) hikmat berilgan bo'lsa, demak, unga ko'p yaxshilik berilibdi” [21:45] va “ularga... kitob va hikmatni o'rgatadigan” [21:45] ma'nolarida ham keng qo'llanilgan.

Fiqhga oid asarlarda hukmlar ham, ularning hikmatlari ham eslatib o'tiladi. Masalan, manbalarda namozning hukmi va hikmati, zakotning hukmi va hikmati kabi iboralarni ishlatganlar. Shu sababli, meyorlarni bilish ham ularning hikmatini anglay

olish ham fiqh hisoblangan. Boshqacha qilib aytganda, hukmlarni bilish fiqh bo'lsa, ularning hikmatini bilish “fiqh fiqhi” dir [22:23].

Ulamolarning ba'zilar hikmat tushunchasini islom dini va uning meyorlarini chuqur anglash sifatida izohlashgan [12:391]. Mufasssir olim Jobir ibn Zayd (vaf. 93/711 y.) hikmatni dindagi masalalarni tushunishga xizmat qiluvchi o'tkir aql sifatida ta'riflagan va “Hikmat bu Allohning qalbga joylagan nuri bo'lib, uning yordamida qalb haqiqatni ko'ra oladi” [12:391] degan edi.

Turli xil tushunchalarning orasidagi farqni anglashga imkon beruvchi quvvat aql bo'lib, uning vositasida inson o'z dinini chuqur o'rganib, fikr yuritadi va Alloh yaratgan narsalarning hikmatini anglaydi [20:420].

Alloh va banda o'rtasidagi munosabatlarda aqlning mavqei nihoyatda muhim ekani fiqhning barcha asosiy masalalarining hikmatini vahiy va aql o'rtasidagi uyg'unlik bilan izohlanishida ko'rish mumkin. Lekin ulamolar shariatning barcha hukmlarini aql orqali idrok etish mumkin emasligini ta'kidlaydilar. Masalan, namozning rakatlari, har bir rakatda sajdaning takrorlanishi va hokazo masalalarning sababini bilish uchun aql yetarli bo'lmaydi.

Alloh bandalar uchun zarur bo'lgan narsalarni yaratgan va tafsilotlarga to'xtalmasdan ularga kerakli umumiy ma'lumotlarni o'rgatgan. Faqihlarning fikrlariga ko'ra, shariatning hikmati va maqsadi umumiy nazariy jihatdan va usul nuqtai nazaridan ma'lum bo'lsa-da, uning ba'zi tafsiliy va far'iy jihatlari ma'lum bo'lmisligi tabiiy hol deb hisoblaydilar. Aniqroq aytganda, ba'zi hukmlarning ma'nolari bizdan yashirin va yopiq holda qoldirilgan. Asosiysi, inson Yaratuvchi yaratgan har bir narsa bandalarning manfaati va foydasi uchun ekanini bilishidir. Alloh insonga aql ne'matini ato qilgan bo'lib, aql vositasida hukmlar ortidagi go'zalliklar va manfaatlarni aniqlash hamda ularni hayotga tatbiq qilish talab etiladi.

Ruvaym ibn Ahmad (vaf. 303/915–16 y.), hikmat va hukm o'rtasidagi bog'liqlikni hukmni qo'llash jarayonidagi donolik sifatida ta'riflagan. Uning fikricha, hikmatdan murod biror hukmni qaysi vaziyatda qo'llash kerak ekanini anglash demakdir: “Hakim kishining hikmatlaridan biri shundaki, u fiqhiy masalalarda o'z birodarlariga kenglikni tavsiya qiladi, lekin o'ziga tegishli masalalarda qattiq qo'llik qiladi. Boshqalarga

kenglik (tavsi'a) berish haqiqiy ilmga ergashishdir, o'z imkoniyatlarini cheklash (tazyiq) esa ehtiyotkorlik, ya'ni taqvonning (vara') shartidir" [26:148].

Hasan Basriyning quyidagi so'zlari o'z vaqtida Hakim Termiziy uchun hal qiluvchi dalil bo'lgan: "Biz hikmat orqali anglab yetgan shariat qoidalarining sabablarini gapirib izohlab berdik Bizdan yashirin qolgan narsani esa qabul qildik va unga amal qilishda qullik maqomimizni saqladik" [9:77]. Bu yondashuvdan ta'sirlangan Hakim Termiziy shar'iy hukmlarning hikmati va ularning amaliyoti haqidagi sabablarga sharh berishga kirishdi [23:78].

O'zining hikmat haqidagi tushunchasini dalillash maqsadida, Hakim Termiziy Qur'ondan ikki oyatni keltiradi. Bu oyatlar hikmat hammaga emas, balki Alloh tomonidan tanlangan va Uning yo'lida o'z nafsini bo'ysundirgan, o'z qalbini nafs va shahvat xohishlaridan xalos etgan, shu sababli Uning rahmatiga sazovor bo'lib, qalblariga nur ato qilingan kishilarga berilishini ko'rsatadi. Bu nur ularning qalblarida porlaganida, ular hikmatni qalb ko'zlari bilan ko'ra olishadi [9:75]. Hakim Termiziy o'z so'zini ushbu oyat bilan boshlaydi: "U O'zi xohlagan kishilarga hikmat (payg'ambarlik yoki Qur'on ilmini) beradi. Kimga (mazkur) hikmat berilgan bo'lsa, demak, unga ko'p yaxshilik berilibdi". Bu oyat hikmat hammaga berilmas ekanini ko'rsatadi. So'ng oyat davomida aytiladi: "Bundan faqat oqil kishilargina eslatma olurlar" [21:562]. Bu yerda "oqil" (lub), ya'ni "yadro" so'zi ishlatilgan bo'lib, oyatning ma'nosi "yadro egalari", ya'ni gapning mag'zini tushuna oladiganlar, deb tushunilishi mumkin. Shuningdek, "Biz Luqmonga hikmat ato etdik" [21:345] mazmunidagi oyat ham hikmat faqat Alloh tomonidan tanlangan kishilargagina berilishini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ba'zi adashgan firqalar, xususan botiniy ismoiliylar Alloh har bir narsani sabab bilan yaratganini va bu hikmatlar ularga ma'lum ekanini da'vo qiladilar. Ularning da'volariga ko'ra, yashirin hikmatlarni Alloh payg'ambarlarga, ular esa hikmatlarni o'zlarining vakili bo'lgan imomlarga o'rgatgan.

Bunga javoban ahli sunna va-l-jamo'a ulamolari, Alloh har bir narsani hikmatga asoslangan holda yaratgani rost, lekin U barcha hikmatlarni bandalar tomonidan anglanishi zarur ekanini nazarda tutmaganini ta'kidlaydilar. Alloh taolo Yer yuzini sinov uchun yaratgan va insonlarga ba'zi bir

narsalarning hikmati haqida sinovning zarurati o'laroq xabar bermagan. Alloh taolo odamlarni turli xil tabiat va mizojda turli xil aqliy darajalar, g'ayrat va qiziqishlar ato qilgan holda yaratgan. Alloh taolo insonlar o'z ehtiyojlarini qondirishlari uchun ularni bir-birlariga tobe qilib qo'ydi. Chunki har qanday tenglik va tom ma'nodagi bir xillik mavjud bo'lgan vaziyatda sinov va imtihon o'z ma'nosini yoqotadi. Odamlar hayotlarining davom etishi va bu dunyo imtihoni haqiqiy ma'no kasb etishi uchun bir-birlariga muhtojdirlar. Bu holat oyatlarda quyidagicha ifodalangan: "...Bir-birlarini bo'yin sundirish (ishlatish)lari uchun ba'zilarini ba'zilaridan darajalarini ko'tarib qo'yanmiz" [21:491]. "Agar Alloh odamlarning birini ikkinchisi bilan daf'etib turmas ekan, shubhasiz, Yer fasodga (buzg'unchilik va xarobaga) aylangan bo'lur edi" [21:41].

Odamlar tabiatidagi farqlar, ular yashaydigan hududdagi ijtimoiy talablar va munosabat shakllari bir-biridan farq qiladi, bu esa sinovning talabidir. Hukmdor (sayis), unga tobe shaxslar (masus) va jamiyatning barcha qatlamlari bir xil, har qanday vaziyatda bir-biriga teng bo'lishi esa hikmat asosidagi munosabat mazmuniga to'g'ri kelmaydi. Chunki bu holat odamlar har jihatdan bir-biriga o'xshash bo'lgani uchun boshqaruvchi va boshqariladigan shaxslar o'rtasidagi farqning yo'q bo'lib ketishini taqozo qiladi. Bu borada quyidagicha naql ham mavjud: "Odamlar bir-birlari bilan har xil imkoniyat va sharoitga ega bo'lsalar, ular xotirjam bo'ladi. Agar ular hamma narsada teng bo'lsalar, halok bo'ladilar" [20:34].

Hakim Termiziy hikmat borasidagi fikrlarini dalillash maqsadida Payg'ambar (s.a.v.) ikki hadisiga murojaat qilgan. Birinchi hadisda shunday deyilgan: "Qur'onning har bir oyatida tashqi va ichki ma'no bor" [12:31]. Boshqa bir hadisda esa, sahobalar Payg'ambandan: "Sizning Qur'on tilovat qilayotganingizda qanday zavq tuygan bo'lsak, Sizdan boshqa inson tilovat qilganida bu zavqni topolmaymiz," deb so'rashganida, Payg'ambar (s.a.v.) ularga: "Bu shundandirki, sizlar Qur'onni uning tashqi qismi uchun o'qiysizlar, men esa uning ichki qismi uchun o'qiyman", deb javob bergan. Hakim Termiziy buni shunday izohlagan: "Payg'ambar (s.a.v.) Qur'onni tilovat qilganida, uning so'zlaridagi hikmatni his qilardilar. Shu sababdan bu tilovat tinglovchilarga zavq berardi, chunki bu hikmat nuri bilan bezatilgan bir tilovat edi" [9:74].

XULOSA

Insonlarga yetkazilgan ma'lumotlar ular tomonidan turlicha tushunilishi mumkin. Kimdir bir narsani bilsa, boshqasi uni bilmasligi yoki bir kishi anglagan narsani boshqasi to'liq anglamasligi tabiiy bir holatdir. Xuddi shu holat shariat hukmlari va hikmatlariga ham tegishlidir. Alloh taolo bizga ba'zi hukmlar va hikmatlar haqida xabar beradi va biz ularni bilamiz, ammo ba'zi hikmatlarini O'zida yashiradi. Agar U bizga ularni bildirmasa, biz ularni anglab yetolmaymiz [20:231-32].

Islom dinining fazilatli, mukammal yondashuviga muvofiq undagi barcha buyruqlar va taqiqlar, ularning hikmatiga ko'ra bandalarning manfaati va farovonligini ta'minlash uchun joriy qilingan bo'lib, shu bilan birga aql va mantiqqa zid bo'lmaydi.

Ilohiy buyruqlarning asosiy maqsadi insonga foyda va zararni o'rgatish orqali ularning manfaatlarini himoya qilishdir. Lekin insonlar shariat buyruqlari ortidagi hikmatlarni to'liq anglay olishi mumkin emas. Musulmon kishi uchun shariatning asosiy maqsadi insonlarga foyda va manfaat keltirish ekanini bilish va unga ishonish kifoya qiladi.

Fiqh va tasavvuf ilmlari biri-ikkinchisining mantiqiy davomi sifatida o'z taraqqiyot yo'lini bosib o'tganini yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida dalillash mumkin. Bu ikki ilm ular o'rganadigan mavzular va tayanadigan hujjatlariga ko'ra bir-biridan farqli hisoblansa ham, lekin maqsadlarining bir ekani nuqtai nazaridan ajralmas sohalar hisoblanadi. Islom dinining asl mazmuni shakl va mohiyat uyg'unligida aks etgan bo'lib, fiqh va tasavvuf ilmlari asl manbalar asosida uyg'unlashishi asosida mazkur mohiyatga erishish mumkin hisoblanadi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Ahmad Zarruq. Qavaid at-tasavvuf. / Abdulmajid Xayoliy tahqiqi. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2013. – B. 24.
- Ahmet Karamustafa. Sufism: The formative period. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2007. – B. 47.
- Alisher Navoiy. Nasoimul muhabbat. Mukammal asarlar to'plami. – Toshkent: Fan, 2001. – J. XVII. – 534 b.
- Al-Javhariy. Musnad al-Muva'tto. – Bayrut: Dor al-g'arb, 1999. 87–88.
- B. Radtke, J. O'Kane. The Concept of Sainthood in Early Islamic Mysticism. – Richmond: Curzon Press, 1996. – B. 19.
- Bernard Weiss. The Search for God's Law. – Utah: University of Utah Press, 1992. – P. 3.
- Fariduddin Attor. Tazkiratul avliyo. – Damashq: Dorul maktaba, 2009. – B. 629.
- Hakim Termiziy. Bayon al-farq. – Bayrut: Dor ihyo al-kutub, 1958. – B. 53.
- Hakim Termiziy. Isbot al-ilal. – Rabot: al-Jam'iyya al-mag'ribiyya, 2005. – B. 77.
- Hujviriyy. Kashf-ul mahjub. – Qohira: al-Majlis al-a'la as-saqofa, 2007. – J.I. – B. 136.
- Ibn Abi Shayba. Al-musannaf. – Ar-Riyod: Maktabatur rushd, 2004. – J. XII. – B. 359.
- Ibn Jarir Tabariy. Jomeul bayon. – Bayrut: Muassasatur risola, 1994. – J. I. – B. 391.
- Ibn Kasir. Tafsir. – Qohira: Maktaba at-turos, 2000. – J.V. – B. 247.
- Ibn Manzur. Lison al-arab. – Bayrut: Dor Sodir, 1900. – J. IV. – B. 207.
- Ibn Manzur. Lison al-arab. – Bayrut: Dor Sodir, 1900. – J. VIII. – B. 176-179.
- Imom Buxoriy. Sahihul Buxoriy. – Qohira: Dor at-tasil, 2012. – J. IX. – B. 286.
- Imom Muslim. Sahihul Muslim. – Toshkent: Hilol nashr, 2024.
- Melchert. Basran Origins of Classical Sufism. / Der Islam. – De Gruyter, 2005. – P. 223.
- Nuriddin Xodimiy. Ilm al-maqosid al-shar'iya. – Ar-Riyod: Maktaba al-abikon, 2001. – B. 20.
- Qaffol Shoshiy. Mahosin ash-sharia / Ali Samak tahqiqi. – Livan: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2007. – B. 420.
- Qur'oni karim: ma'nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi: A.Mansur. – Toshkent: TIU, 2009. – B. 500.
- Raysuniy. Muhodarat fi maqosid ash-sharia. – Manama: Dor al-kalima, 2015. – B. 23.
- Samer Dajani. Sufis and Sharia. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2023. – B. 78.
- Shamsuddin Zahabiy. Siyar a'lam an-nubalo / Akrom Bushiy tahqiqi. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. XII. – B. 187.
- Shamsuddin Zahabiy. Tarixul islom / Umar Abdussalom tahqiqi. – Qohira: Dor al-kitab al-arabiy, 1993. – J.VI. – B. 461.
- Sulamiy. Tabaqot as-sufiyya. – Bayrut: Dorul kutub al-ilmiyya, 2003. – B. 148.
- Wael Hallaq. What is Sharia? – P. 151-80.
- Yusuf Homid Olim. Al-Maqosid al-omma li-sh-shariat al-islomiya. – Ar-Riyod: Dor al-olamiya li al-kutub al-islomiya, 1994. – B. 68.

YODGOROV Mohirjon Islomjon o'g'li
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik mutaxassisligi magistranti
Mohirjon7755@gmail.com

Ilmiy rahbar: **RAHIMJONOV Durbek**
tarix fanlari nomzodi, dotsent

ABU MANSUR MOTURIDIYNING XAVORIJLARGA QARSHI RADDIYALARI

ОПРОВЕРЖЕНИЯ АБУ МАНСУРА МАТУРИДИ ПРОТИВ ХАРИДЖИТОВ

ABU MANSUR MATURIDI'S REFUTATIONS AGAINST THE KHARIJITES

Annotatsiya: Ushbu maqolada xavorijlar va ularning ta'limotlari, xato va noto'g'ri qarashlari shuningdek, imom Moturidiy va ahli sunna nuqtai nazarlari tahlil qilingan. Xavorijlarning katta gunoh qilganlarni kofirga chiqarishlari, ularning o'z amallarga haddan tashqari suyanishlari hamda Allohning rahmatini inkor etishlariga qarshi imom Moturidiyning javoblari borasida ma'lumotlar keltirilgan. Shungdek, Qur'oni karim va aqliy dalillar orqali ularni noto'g'ri talqinlariga qarshi raddiylar bayon etilgan.

Tayanch so'zlar va iboralar: imom Moturidiy, xavorijlar, adashgan yo'nalishlar, Qur'on, raddiya, gunoh, dalil.

Аннотация: В данной статье рассматриваются хариджиты, их убеждения, ошибки и заблуждения, а также анализируются взгляды имама Матуриди и ахлю-сунны. Приведена информация о том, как имам Матуриди опровергал идеи хариджитов, связанные с объявлением неверующими тех, кто совершил тяжкий грех, чрезмерной опорой на свои поступки и отрицанием милости Аллаха. Также представлены опровержения их неправильных интерпретаций посредством аргументов из Корана и рациональных доводов.

Ключевые слова и выражения: имам Матуриди, хариджиты, заблужденные направления, Коран, опровержение, грех, довод.

Annotation: This article discusses the Kharijites, their beliefs, mistakes, and misconceptions, as well as analyzes the perspectives of Imam Maturidi and Ahl al-

Sunnah. It provides information on how Imam Maturidi refuted the Kharijites' views, including their declaration of major sinners as disbelievers, their excessive reliance on their actions, and their denial of Allah's mercy. The article also presents rebuttals to their incorrect interpretations using evidence from the Qur'an and rational arguments.

Key terms and phrases: Imam Maturidi, Kharijites, misguided sects, Qur'an, refutation, sin, argument.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyat hayotini har tomonlama isloh qilish, ma'nau yetuk va axloqan barkamol yosh avlodni tarbiyalash, boshqaruv sohasini nafaqat siyosiy, balki axloqiy jihatdan ham yuksak bilimga ega bo'lgan kadrlar bilan ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jarayonda islom olamida yashab ijod qilgan alloma va mutafakkirlar yozib qoldirgan boy ilmiy-ma'naviy merosni tadqiq etish va ular asosida kerakli xulosalarga erishish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Islom dini tarixida mazhablar va fiqrlar paydo bo'lishi, ularning o'ziga xos qarashlari va ushbu qarashlarga nisbatan ilohiy-falsafiy munosabat shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, xavorij fiqrasining g'oyaviy asoslari va ularning ijtimoiy-siyosiy faoliyati ko'plab ulamolarni ularga qarshi raddiylar yozishga undagan.

Abu Mansur Moturidiy ilohiyotchi va mutakallim sifatida aqida ilmining yirik namoyandasi bo'lib, xavorijlar g'oyalarini rad etishda alohida o'rin tutadi. U o'z asarlarida islom aqidalarini himoya qilish, imon va kufr masalalarini sharhlab berish orqali xavorijlarning haddan tashqari keskin va noto'g'ri qarashlarini inkor etishga intilgan. Imom Moturidiy xavorijlar tomonidan keltirilgan noto'g'ri talqinlarni ilmiy dalillar asosida rad etib, islomning adolat va bag'rikenglikka asoslangan mohiyatini ochib bergan.

Ushbu mavzuda imom Moturidiy tomonidan yozilgan raddiylarni o'rganish, xavorij fiqrasining mafkurasini chuqur anglash va uning zamonamizdagi ta'sirini tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga, imom Moturidiy asarlarida islom aqidasi va e'tiqodiga bo'lgan mustahkam yondashuvni ko'rish mumkin. Shu sababli, mazkur mavzu nafaqat tarixiy, balki bugungi kun uchun ham dolzarb hisoblanadi.

ASOSIY QISIM

Xavorijlar - bu ulamolar birlashib qabul qilgan, to'g'ri yo'ldagi imom (rahbar) ga qarshi chiqqan bir toifa hisoblanadi. Agar ko'pchilik musulmonlar to'g'ri yo'ldagi bir imomga bay'at bergan bo'lsa va bir guruhi esa, adolatsiz ravishda unga qarshi chiqqan bo'lsa, Ali (r.a.)ning yo'l-yo'riqlariga amal qilgan holda ularni jazolash lozim hisoblanadi. Shuningdek, Rasululloh (s.a.v.)ning sahobalaridan bo'lganlar ham xavorijlar va bog'iy'larga qarshi jang qilganlar. Xavorijlarga qarshi kurash xuddi shariat manbasi bo'lmish ijmo kabi bo'lib, barcha musulmonlar ularga qarshi jang olib borganlar. Bu haqida Rasululloh (s.a.v.)dan ko'p hadislar rivoyat qilingan. Masalan, ulardan biri **“Ular xuddi kamondan o'q chiqqanidek dinni tark etib, undan chiqib ketadilar”** deganlar [4:59].

Muhammad ibn Abdulkarim Shahrastoniyning so'zlariga ko'ra, xavorijlarning firqalari ko'p bo'lsa-da, ularni birlashtiruvchi fikr shuki, ular Usmon va Ali (r.a.)larga qarshi bo'lganlaridir. Ular har qanday itoatdan ham ko'ra bu qarashni ustun qo'yishadi. Shuningdek, ular katta gunohlarni qilgan musulmonlarni kofir deb hisoblashadi va sunnatga xilof qilgan rahbarga qarshi chiqishni vojib deb bilishadi [3:165].

Umuman olganda, xavorij va mo'tazila fikrlariga qarshi butun musulmonlarning dushmanligi sababi shundaki, xavorijlar katta gunoh qilgan musulmonlarni kofir deb atashdi va ular bilan urush qilishadi. Xuddi shuningdek, mo'tazila firqasi ham katta gunoh qilganlarni fosiq deb atashadi [2:576].

Garchi xavorijlar katta gunoh qilganlarni kofir deb hisoblasa-da, imom Moturidiy ularning bu fikri nazariy va amaliy jihatdan kutilgan natijaning aksini keltirib chiqarishini ta'kidlaydi. U shunday deydi: “Ular (xavorij va mo'tazila) gunohlarga eng yaqin, itoatlarga esa eng uzoq bo'lganlardir. Chunki ular najot faqat o'z amallari bilan bo'ladi deb hisoblaydi. Ular Allohning rahmati yoki biror kimning shifoati bilan najot topish mumkinligiga ishonmaydi, faqat o'z amallari orqali najotni ko'rishadi. Shuning uchun ular bandalar har doim itoatlarga suyanib yashashlari, har lahzada itoatda bo'lishlari, Allohga bir lahza ham itoatsizlik qilmasliklari lozim deb hisoblashadi Biz esa najotni faqat amallar orqali emas, balki Allohning rahmati, uning fazli va u shifoatini qabul qilgan kishilarning shifoati orqali ko'ramiz. Shuning uchun biz Allohning rahmati

va fazliga suyanamiz, itoatlarga qattiq bog'lanib qolmaymiz” degan [3:166].

Xavorij nuqtayi nazarining ta'siri haqida gapirar ekan, imom Moturidiy shunday deydi: “Ularning fikriga ko'ra, ular Allohda hech qanday lutf yoki mehr-shafqat qolmadi deb o'ylashadi. Ular: “Alloh bizga kerak bo'lgan barcha narsani berdi, shuning uchun din islohi uchun boshqa hech narsa qolmadi” - deb ishonishadi. Bu holat ularni itoatlarga uzoqroq, gunohlarga esa yaqinroq qiladi” deb takidlaydi.

Ahli sunna esa najot masalasida boshqacha qarashga ega. Imom Moturidiy deydi: “Mo'min inson o'zini Allohning azobidan qutulishini va jazodan omon qolishini faqat o'z amallari bilan bo'ladi deb hisoblamaydi. Agar amallarida kamchilik bo'lsa, bu kamchilik umid va qo'rquvni buzmaydi. Aksincha, u Allohning hidoyati, mag'firati va fazliga ishonadi. U Allohning rahmatini Uning karam va saxovati bilan umid qiladi. Shu sababdan, amallardagi kamchilik umidni yo'qotishga sabab bo'lmaydi” [2:577].

Shuningdek, imom Moturidiy ta'kidlaydiki, ahli sunna Allohning rahmatiga va fazliga suyanib, itoatda davom etadi, lekin itoatlaridan g'ururlanib ketmaydi. Xavorij va boshqa adashgan firqalar esa o'z amallariga haddan tashqari suyanadi va Allohning rahmatidan uzoqlashadi.

Moturidiyning fikricha, xavorijlarning amallarga haddan tashqari suyanishi va ularga faqat o'z harakatlari orqali najot topish haqidagi qarashlari nazariy va amaliy jihatdan noto'g'ridir. U shunday deydi: “Agar umid qiluvchi va qo'rquvchi kishi xavorij yoki boshqa adashgan guruhlardan bo'lsa, uning amaldagi sustligi umid va qo'rquvning buzilganligini ko'rsatadi. Chunki ular o'zlariga faqat o'z amallari orqali shifoatchi bo'ladi deb hisoblaydi. Ular amallar bilan najot topadi yoki halokatga uchraydi deb o'ylashadi. Agar ular amallarini ko'paytirishga intilmasa yoki qo'rquv tufayli amallarini oshirmasa, bu kishi aslida umid qiluvchi emas, faqat orzu qiluvchi bo'lib chiqadi. Shuningdek, u aslida haqiqiy qo'rquvchi ham emas” [3:167].

Moturidiyning xavorijlarga qarshi javob usuli quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Qur'on oyatlari va hadislarni ularga dalil sifatida keltirish;
2. Aqliy va mantiqiy dalillar bilan ularning fikrlarini rad etish;

3. Ijmoga zid bo'lgan qarashlarini ko'rsatish. Moturidiy xavorijlarning katta gunoh qilganlarni kofir deb hisoblash fikrini rad etishda o'z asarlarida ko'p marta ularni tanqid qilgan. Uning asosiy fikri shundan iboratki, Alloh taolo istasa kichik va katta gunohlarni kechiradi. Faqat shirk va kufr Allohning kechirimidan mustasno, bu haqda Qur'on oyatlaridan dalillar keltiriladi [2:578].

Qur'oni karim oyatlarida xavorijlarga qarshi raddiyalar:

1. "A'rof" surasining 23-oyatida: **"Ey Robbimiz! Biz o'zimizga (o'zimiz) zulm qildik. Agar bizni kechirmasang va bizga rahim qilmasang, albatta, ziyon ko'ruvchilardan bo'lurmiz"** [1:153] degan bu oyatni imom Moturidiy shunday talqin qiladi har qanday gunoh imon nomini yo'qotmaydi. Shu bilan birga, bu xavorij va mo'tazila fikrlarining noto'g'riligini ko'rsatadi.

2. "Hashr" surasining 10-oyatida: **"Ulardan keyin (dunyoga) kelgan zotlar ayturlar: "Ey Robbimiz! O'zing bizlarni va bizdan ilgari imon bilan o'tganlarni mag'firat etgin va qalblarimizda imon keltirgan zotlarga nisbatan gina paydo qilmagin! Ey, Robbimiz! Albatta, Sen mehribon va rahimli zotdirsan!"** [1:547]. Mazkur oyat xavorij, mo'tazila, rofiziyy va boshqa buzg'unchi fiqralarning qarashlarini rad etadi. Xavorijlar Muoviya (r.a) va uning tarafdorlariga qarshi jang qilgani uchun Ali (r.a) kofir deb hisobladi. Mo'tazilalar esa jangda haqiqatdan chekingan har bir inson imondan chiqib ketadi, deb e'tiqod qilishdi. Agar bu xato fikrlar ularni kofir deb e'lon qilgan bo'lsa, unda ular uchun istig'for (gunohlar uchun kechirim so'rash) ma'nosiz bo'lar edi. Chunki Alloh taolo mushriklar uchun istig'for qilishni taqiqlagan.

3. "Niso" surasining 48-oyatida: **"Albatta, Alloh O'ziga shirk keltirish (gunohi)ni kechirmagay va (lekin) ana shundan boshqa (gunohlar)ni O'zi xohlagan (banda)laridan kechirur. Kim Allohga shirk keltirsa, demak, u ulkan gunohni to'qib chiqaribdi"** [1:86]. Imom Moturidiy bu oyatni xavorijlarning katta va kichik gunohlar uchun darhol kufr hukmini beradigan fikrlarini rad qilish uchun dalil sifatida keltiradi. Ayniqsa, kichik gunohlar uchun kofir hukmiga chiqarish haqidagi qarashlari qattiq tanqid qilinadi. U shunday deydi: "Xavorijlarning

kichik gunohlar tufayli kufr hukmini berishi payg'ambarlar va avliyolarni (gunohsiz bo'lish haqidagi) maqomini yerga uradi. Agar kichik gunohlar sababli biror kishi kofir bo'lsa, unda payg'ambarlik va valiylik tushunchalari yo'q bo'lib ketadi. Payg'ambarlarning gunohsizligiga imon keltirgan kishilar bu fikrni qabul qilishi mumkin emas".

4. "Hashr" surasining 11-oyatida: **"Alloh guvohlik berurki, ular, albatta, yolg'onchidirlar"** [1:547]. Moturidiy bu oyatni tushuntirib, shunday deydi: "Xavorijlarning aytishicha, biror kishi Allohga imon keltirgan bo'lsa, u hech qachon Allohga itoatsizlik qilmaydi. Agar u itoatsizlik qilsa, bu uning imoni yolg'on ekanligini isbotlaydi. Shu sababli ular bunday kishini kofir deb hisoblashadi. Ammo bizning javobimiz shuki, bu qoidalar noto'g'ri, chunki munofiqlar kitoblarga (yolg'on) guvohlik berishadi, lekin bu ularning imonini tasdiqlamaydi" [2:578].

Xavorijlar Qur'oni karim oyatlarini noto'g'ri talqinlari borasida:

1. Xavorijlarning **"Jahannamni to'ldirish"** oyatiga noto'g'ri talqinlari

Xavorijlar **"Aydi: Undan (jannatdan) ayblangan va haydalgan holingda chiq! Qasamyod etamanki, kimki senga ergashsa, sizlarning barchangiz bilan jahannamni to'ldirajakman"** [1:152] ushbu oyatini o'z fikrlarini tasdiqlash uchun noto'g'ri talqin qilganlar. Ularning aytishicha, har qanday gunoh qilgan kishi Iblisning izidan ergashuvchi hisoblanadi va shu sababli abadiy jahannamda qoladi deb da'vo qiladilar imom Moturidiy bu oyatni xavorijlarning noto'g'ri talqinini rad etish uchun shunday deydi: "Alloh taolo bu oyatda kufr va shirk yo'lidagi itoatni nazarda tutgan. Bu dinni buzish va tavhidni inkor qilishni bildiradi. Har qanday gunoh qilgan odam emas, balki faqat dinga qarshi chiqib, tavhidni rad qilgan kimsalar haqida aytilgan". Shu sababli, oddiy gunohlarni sodir etganlar bu hukmga kirmaydi va ular abadiy jahannamda qolmaydi.

Shuningdek, xavorijlarning yana bir da'vosi katta gunohlarni shirk bilan tenglashtirishga qarshi imom Moturidiyning javob quyidagichadir: Xavorijlar va mo'tazilalar "Niso" surasining 48-oyatidagi **"Albatta, Alloh O'ziga shirk keltirish (gunohi)ni kechirmagay va (lekin) ana shundan boshqa (gunohlar)ni O'zi xohlagan (banda)laridan kechirur"** [1:86] oyatiga tayanib,

har qanday katta gunoh shirk bilan teng ekanligini iddao qiladilar. Imom Moturidiy bu fikrni quyidagicha rad etadi: “Oyatda shirk va boshqa gunohlar orasidagi aniq farq ko‘rsatilgan. Shirk kechirilmaydi, lekin boshqa gunohlar Allohning irodasi bilan kechirilishi mumkin” deydi [2:578].

Agar katta gunoh shirk deb hisoblanadigan bo‘lsa, kichik gunohlar ham bu hukmga tushadi. Ammo xavorijlar kichik gunohlarni kufr deb hisoblamaydi. Shunday bo‘lsada, ular katta gunohlarni shirk deb hisoblaydi, bu esa mantiqiy ziddikdir.

Imom Moturidiy Qur’oni karim oyatlaridan tavba va kechirimning kengligi haqida dalillar va misollar keltirib, tavba qilgan gunohkorlarga Allohning mag‘firati eshiklari ochiq ekanligini ko‘rsatadi. Masalan, **“Agar (ular) tavba qilsa, o‘tgan gunohlari kechiriladi”** [1:464] degan oyatda gunohlar, hatto katta gunohlar ham, tavba orqali kechirilishi mumkinligini ko‘rsatadi va xavorijlarning fikrlarini rad qiladi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, imom Moturidiyning fikricha, xavorij va boshqa adashgan firqalarning har qanday katta gunoh qilgan musulmonni kofir deb hisoblashlari shariy dalillar va aqlga zid. U Qur’oni karim oyatlaridan dalillar keltirib, gunoh qilgan musulmonlarning mag‘firatga loyiq ekanini va har qanday gunoh shirk bilan tenglashtirilmasligini ta’kidlaydi. Allohning rahmati va kechirimining kengligi va unga bo‘lgan umid musulmonlarning imonining ajralmas qismi hamda imon e’tiqodining asosiy jihatidir. Abu Mansur Moturidiy o‘zining ilmiy merosi orqali aqida ilmining yuksak namunalarini yaratgan va xavorijlar kabi ekstremistik g‘oyalarga qarshi chuqur ilmiy asoslangan raddiyalar bergan. U islomning bag‘rikenglik va mo‘tadillikka asoslangan mohiyatini ta’kidlab, haddan tashqari keskinlik va noto‘g‘ri talqinlarning zararli oqibatlarini ochib bergan.

Moturidiy merosini o‘rganish bizga nafaqat o‘tmishdagi ilmiy va ijtimoiy kurashlar haqida ma’lumot beradi, balki zamonaviy muammolarga nisbatan ilmiy va mo‘tadil yondashuvni shakllantirishda muhim saboq bo‘lib xizmat qiladi. Shu tariqa, Abu Mansur Moturidiy islom aqidasi haqiqiy mohiyatini asrab qolishda, uni

noto‘g‘ri talqinlardan himoya qilishda ulkan hissa qo‘shgan ulug‘ olim sifatida e’tirof etiladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Куръони карим маъноларининг таржима ва тафсири / Таржима ва тафсир муаллифи: Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2018. – 624 б.
2. Ahmad Damanhuriy. Al-Imom Moturidiy va manhaj ahli-s-sunna fi tafsiri-l-Qur’on. – Urdun: Doru-n-Nur, 2018. – 863 b.
3. Muhammad ibn Abdulkarim Shahristoniy. Al-Milal va an-nihal. 2 jild. – Bayrut: Dor al-Ma’rifa, 1993.
4. Husniddinov Z. Islom: yo‘nalishlar, mazhablar, oqimlar. – Toshkent: 2000. – 158 b.
5. Husniddinov Z. Xorijiylik va shialik. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2003. – 31 b.
6. Oqilov S. Moturidiy va Ash’ariya ta’limotlari tarixi. – Toshkent: Movarounnahr, 2015. – 99 b.
7. Oqilov S. Moturidiya ta’limoti tarixi. – Toshkent: Muharrir, 2022. – 355 b.
8. S.Saidjalolov. Islomdagi yo‘nalishlar va mazhablar. – Toshkent: O‘zXIA nashriyoti, 2021. – 139 b.
9. Oqilov S. Kalom ilmi va aqida maktablari tarixi. – Toshkent: 2020. – 188 b.
10. Oqilov S. Kalom ilmi (Aqoid). – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2011. – 159 b.
11. Oqilov S. Sunniylik ta’limoti. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2012. – 122 b.

МЕЛИБОВЕВ Абдуғулом,
Ўзбекистон халқаро ислом
академияси таянч докторанти,
Ҳадис илми мактаби ўқитувчиси

МАҲБУБИЙЛАР ОИЛАСИ ФАҚИХЛАРИ

ФАКИХИ СЕМЬИ МАХБУБИ

THE MAHBUBI'S FAMILY FAQIHS

Аннотация. Бухорода кўплаб фақиҳлар фаолият олиб борган. Улар қолдирган асарлари ҳамда олиб борган фаолияти билан Ҳанафий фикҳи ривожига улкан ҳисса қўшганлар. Бундай фақиҳлар ичида сулолавий фақиҳлар ҳам кўп бўлган. Масалан Оли Моза, Ҳасирийлар, Ақилийлар ҳамда Маҳбубийлар оиласи бунга яққол мисол бўлади. Бу фақиҳлар сулоалари ичида Маҳбубийлар сулоласи катта аҳамиятга эга оила бўлган. Убайдуллоҳ ибн Иброҳим, Аҳмад ибн Убайдуллоҳ, Умар ибн Аҳмад, Маҳмуд ибн Аҳмад, Убайдулло ибн Масъудлар сулоланинг кўзга кўринган вакиллари ҳисобланади. Улар фикҳ илмига оида кўплаб қимматли асарлар қолдирганлар.

Калит сўзлар: Мазҳаб, фикҳ, усули фикҳ, Вижоатур ривоя, Воқеъот, Фатово.

Аннотация. В Бухаре активно работало множество факихов. Их произведения и деятельность значительно способствовали развитию ханафийской фикхи. Среди этих факихов было много представителей династических семей. Например, семьи Оли Моза, Хасирий, Акадий и Махбубий являются яркими примерами. Среди них семья Махбубий сыграла важную роль. Убайдулло ибн Ибрахим, Ахмад ибн Убайдулло, Умар ибн Ахмад, Махмуд ибн Ахмад, Убайдулло ибн Масъуд являются видными представителями этой династии. Они оставили много ценных трудов по исламской юриспруденции.

Ключевые слова: мазхаб, фикх, усули фикх, Вижоатур ривоя, Воқеъот, Фатово.

Annotation. Many scholars of Islamic jurisprudence were active in Bukhara. Through their works and activities, they made a significant contribution to the development of Hanafi fiqh. Among these scholars, there were many from dynastic families. For instance, the families of Oli Moza, Hasiriyy, Akili, and Mahbubiy are clear examples. Among them, the Mahbubiy family played an important role. Ubaydullah ibn Ibrahim, Ahmad ibn Ubaydullah, Umar ibn Ahmad, Mahmood ibn Ahmad, and Ubaydullah ibn Mas'ud are prominent representatives of this dynasty. They left behind many valuable works on the science of fiqh.

Keywords: madhhab, fiqh, usul al-fiqh, Viqoyatur riwaya, Waqi'at, Fatawa.

КИРИШ

Юртимиздан Ислом оламига машҳур бўлган кўплаб олимлар етишиб чиққан. Аждодларимиз қолдирган қимматли асарлар ҳозирги кунда ҳам ўзининг қийматини йўқотгани йўқ. Айниқса, Бухорода жуда кўп алломалар етишиб чиққан бўлиб, улар фикҳ илми ривожига катта ҳисса қўшганлар.

XIII-XIV асрларда ҳам Бухорода кўплаб фақиҳлар фаолият юритган. Эътиборга молик жиҳати шуки, фақиҳлар фикҳ илми билан фақатгина ўзлари шуғулланмаганлар, балки, фикҳ илмини авлодма-авлод мерос қилиб қолдирганлар. Бундай сулолавий фақиҳлар оиласи бир қанча бўлган.

Бухорода фаолият олиб борган фақиҳлар оиласига Оли Моза, Ҳасирийлар оиласи, Хайзоҳазийлар оиласи ва Ақилийлар оиласи киради. Бундан ташқари Бухорода кўплаб фақиҳлар фаолият юритган.

АСОСИЙ ҚИСМ

Маҳбубийлар ёки Садруш шариялар оиласи Бухоро фикҳ илми ривожига тутган ўрни бекиёс. Устоз т.ф.д., профессор И.И.Бекмирзаевнинг тақдлашича, Маҳмуд Торобий 1238 йилда Садр унвонини Оли Моза оиласидан олиб, Аҳмад ибн Убайдуллоҳ ибн Иброҳим Маҳбубийнинг ўғли Шамсуддин Маҳмуд ибн Аҳмад Маҳбубийга (ваф. 630/1232-33 й.) берди. Шу тарика Оли Моза оиласининг Бухорода диний-сиёсий ҳукмрон табақа сифатидаги фаолияти якун топди ва Маҳбубийлар оиласи фаолияти бошланди [11].

Ўрта Осиёнинг муҳим ҳуқуқшуносларидан бири бўлган Маҳбубийлар оиласи туғилиб ўсган ватан бу Бухородир. Мўғул босқинчилари шаҳарни эгаллаб олгандан сўнг, Кирмон шаҳрига кўчиб кетишга мажбур бўлганлар ва ўша ерда илмий фаолиятларини давом эттирганлар.

Бухоро шаҳри 674 йилда Муовия даврида фатҳ қилинган. Кейинчалик 260/874 йилгача Тоҳирийлар ва 389/999 йилгача эса Сомонийлар томонидан бошқарилган. Даврдаги сиёсий нотинчликлар сабаб бошқарувнинг доимий ўзгаришига қарамай, Бухоро кўплаб алломалар етишиб чиққан муҳим илм-фан марказларидан бирига айланди. У ўз тарихининг энг ёрқин даврини Сомонийлар даврида бошидан

кечирган. Шаҳарда йирик сарой кутубхонаси ташкил қилинган. Натижада Бухоро фан ва маданият маркази бўлган.

Мўғуллар истилосигача ҳижрий V-VII асрлар давомида шаҳар бошқаруви маълум оилалар томонидан амалга оширилган. Бу оилалар шаҳарни “Садр” унвони билан бошқарганлар. Улар халқ орасида ҳам нуфузга эга бўлганлар. Нафақат сиёсатда, балки илмий фазилатлари билан ҳам машҳур бўлган Маҳбубийлар оиласи бу лавозимга 636/1220 йилда тайинланган. Оила Ўрта Осиё ҳанафий мазҳаби тарихида фаол рол ўйнаган.

Ҳижрий V асрдан бошлаб Бухоро нотинч даврларни бошидан кечирган. Бу эса илм-фан оламига салбий таъсир кўрсатди. 671/1273 йилда Бухоронинг Мўғуллар томонидан босиб олиниши сабаб шаҳар вайрон бўлди, кутубхоналар ёқиб юборилди ва кўплаб асарлар йўқ бўлиб кетди. Маҳбубийлар оиласи ҳам бу босқин оқибатидан четда қолмади ва 675/1276 йилда Кирмондан бошпана тутишга мажбур бўлган.

Кирмон бугунги кунда Эрон чегарасида жойлашган шаҳар. Кирмон Умар ибн Абдулазиз даврида (ваф. 101/720) Ислom ҳукмронлиги остида эди. Кейинчалик Аббосийлар, Сомонийлар ва Ғазнавийлар ҳукмронлик қилган ўлкалар қаторида бўлган. Буюк Салжуқийлар давлати ташкил топгач, ерлар сулола аъзолари ўртасида бўлинганда Кирмон вилояти, Чағри Бейнинг ўғли Кавурдга берилди. 440/1048 йилларда Шимолий Кирмонни ҳам босиб олиб “Кирмон Салжуқий давлати”га асос солган. Кирмон унинг даврида гуллаб яшнаган. Кейинчалик 619/1222 йилларда асли қорахитойлик бўлган Барак Ҳожиб уни бошқарган. Шу тариқа у Қутлуғхонлар сулоласини тузди. Бу сулола Мўғуллар қўл остида 706/1306-1307 йилларгача давом этган. Қутлуғ Туркан Хотун даврида муҳим курул ишлаб чиқариш марказига айланган.

Бухородан кетишга мажбур бўлган Маҳбубийлар оиласининг Кирмонни танлашига сабаб бу жой минтақага яқинлиги, бундан ташқари нисбатан обод ва барқарорликка ҳам эгалиги эди. Оила, Қутлуғ Туркан Хотуннинг илтифотида сазовор бўлган ва олимлар уларни Қутбийя Султония мадрасасига мударрис қилиб тайинлаган. Улар ҳам вафотларига қадар бу ерда дарс бериш ва асарлар ёзиш билан машғул бўлиб, минтақада барқарорлик ўрнатилгач, тирик қолганлари Бухорога қайтишди.

Уларнинг яшаган жойлари географияси ҳисобга олинса, асли туркий эканликлари айтилсада, манбаларда келтирилишича оиланинг насл-насаби Убода ибн Сомит Ансорий (р.а.) ва она томондан ҳазрати Умар ибн Хаттоб (р.а.) боғланиши айтилган.

Убодага (р.а.) нисбат берилиб Убодий, унинг набираси Маҳбуб ибн Валид туфайли эса оила Маҳбубийлар деб аталган. Бу нисбат оилани янада машҳур қилган. Бухорода садр унвонига эга бўлганлари ҳамда Мовароуннаҳрда Ҳанафий мазҳабининг кўзга кўринган намоёндалари бўлганликлари учун Маҳбубийлар ҳам VI/XII асрлардан бошлаб таниқли оила ҳисобланган.

Оиланинг шажараси ҳақида ҳеч қандай баҳс-мунозара бўлмаса-да, оиланинг насаби борасида жиддий чалкашлик бор. Бунинг сабаблари ўша даврда Бухоро ва унинг атрофида нотинч вазият ҳукм суриб, бу катта вайронагарчиликка олиб келгани, натижада манбаларнинг йўқолиши бўлиши мумкин.

Марказий Осиёда сиёсат ва илм-фан соҳасида етакчи оилалардан бири саналган Маҳбубийлар Бухоро ва Кирмонда таълим ва таълиф билан шуғулланиб, ҳанафий мазҳаби ривожига муҳим ҳисса қўшган. Бироқ, замоннинг нотинч даврида кутубхоналар вайрон бўлганлиги сабабли, кўпгина Ўрта Осиё ҳукукшунослари сингари улар ҳақида ҳам етарлича маълумот йўқ. Манбаларда оилага мансуб фақиҳлардан уч киши ҳаёти ва ижодига оид айрим маълумотлар ҳозирги кунгача етиб келган.

Табақот китобларида Бурҳонушшариа, Тоҷушшариа ва Садрушшариа лақаблари аралаш ҳолда келган ва шунинг учун уларнинг асарлари бир-бирига нисбат берилган. Садрушшариа асарларида унинг насл-насабини “Убайдуллоҳ ибн Масъуд ибн Тажушшариа” шаклида келтирилган. “Викоя”нинг ёзилиш сабабини “Бобом Бурҳонушшариа мен учун ёзган” деб тилга олгани бу чалкашликка замин яратди ва бу борада турли фикрлар билдирилди. Амакининг болалари турмуш қуриши билан икки ака-ука куда бўлганлар. Насл-насаби бўйича менинг бобом деб атагани Тажушшариа унинг отаси тарафидан бўлган бобоси ва Бурҳонушшари эса она тарафидан бўлган бобоси экани маълум бўлади.

Маҳбубийлар сулоласининг етук вакилларида бири Убайдуллоҳ ибн Иброҳим ибн Аҳмад Убодий Маҳбубий Бухорий Ҳанафий бўлиб, у “Иккинчи Абу Ҳанифа” номи билан

машхур [1:217,218. 2:51,52]. У “Ширъатул Ислом” китоби муаллифи Шайх имом муфтий Имомзода, Шайх имом Имодуддин Умар ибн Бакр ибн Муҳаммад Заранжарийлардан олган. Улар эса ўз навбатида Шамсулаимма Бакр ибн Муҳаммад ибн Али Заранжарийдан, у киши Шамсулаимма Сарахсийдан, у Шамсулаимма Ҳалвонийдан, у киши Абу Али Насафийдан, у киши Абу Бакр Муҳаммад ибн Фазл Абдуллоҳ Субазмунийдан, у киши Абу Абдуллоҳ Абу Ҳафс Сағирдан, у киши отаси Абу Ҳафс Кабирдан, у киши эса Имом Муҳаммаддан, у киши Абу Ҳанифа раҳматуллоҳи алайҳдана илм олган. Демак, Убайдуллоҳ ибн Иброҳим Маҳбубий фикҳда Абу Ҳанифа раҳматуллоҳи алайҳга боғланади.

Бундан ташқари у Баҳоуддин Муҳаммад ибн Аҳмад Исбижобий [4:3,74. 3:260] (У Муҳаммад ибн Аҳмад ибн Юсуф Марғилоний Исбижобий Абулмаҳомид Баҳоуддин. Имом Жамолиддин Убайдуллоҳ Бухорий Маҳбубийнинг устози. “Мухтасари Қудурий”нинг шарҳи бўлган “Зодул фуқаҳо” асарини ёзган), Зоҳир Абу Бакр Аҳмад ибн Али ибн Абдулазиз Балхий, Шайх имом Косоний, Имом Қозихон Ўзжандий ва бошқалардан ҳам фикҳ ўрганган [5:35].

Ундан эса ўғли Шамсиддин Аҳмад, Ҳамидуддин Зорир Али ибн Муҳаммад ибн Али Ромиший Бухорий, Ҳофизуддин Кабир Муҳаммад ибн Муҳаммад ибн Наср Бухорий ва бошқалар фикҳ ўрганишган.

Заҳабий: “У Шарқ олими, Ҳанафий мазҳаби шайхи”, деган [4:2,490]. “У Мовароуннаҳр ҳанафий мазҳаби шайхи. Мазҳабни билиш унга ниҳояланган кишиларнинг бири”, деган [6:5,120].

Кафавий: “Буюк, ўз замонида ўхшаши йўқ имом бўлган. Ўз даврида фикҳ ва усулда бош бўлган. Мазҳаб ҳамда хилофни билишда асрининг ягонаси бўлган”, деган [5:36].

Фикҳ китобларида Маҳбубий номи билан машхур. Қачон бу исм мутлақ айтилса, Садруш Шариъа эмас Убайдуллоҳ ибн Иброҳим тушунилади.

Олим “Шарҳул Жомийис сағир” ва “Ал-Фурук” номли асарларни ёзган.

Убайдуллоҳ Маҳбубий ҳижрий 546 йил 25 жумодул увло ойида туғилган. 636 йил 8 жумодул увло ойида саксон тўрт ёшида вавот этган. Жанозасини ўғли Шамсиддин Аҳмад ўқиган.

Маҳбубийлар оиласининг навбатдаги вакили Аҳмад ибн Убайдуллоҳ ибн Иброҳим

Убодий Маҳбубий Бухорий Шамсуддин Садруш шариъа акбар ёки аввал ҳисобланади [4:1,196].

Абдулқодир Қураший [4:1,196] ва Тамимийлар [7:1,276]: “У имом, буюк имомнинг ўғли”, деган.

Кафавий шундай деган: “У кибор олимлардан бўлган. Отаси ҳузурида фикҳда юқори даражага етган. Унинг усул ва фикҳ бўйича комил қобиляти бор эди” [1:238].

Фикҳни отаси буюк имом Убайдуллоҳ ибн Иброҳимдан ўрганган. Ундан ўғли Маҳмуд ибн Аҳмад Маҳбубий фикҳ ўрганган. “Танқиҳул укул фи фуруқил манкул” номли асар ёзган. Ҳижрий 635 йлда вафот этган [9:191].

Маҳбубийлар оиласидаги фақиҳлардан яна бири Умар ибн Аҳмад ибн Убайдуллоҳ Маҳбубий Ҳанафий Тоҷушшариъа. У Садрушшариъа Асғарнинг бобоси [8:2,240-241]. “Ҳидоя” асари шориҳи.

Марказий Осиёлик кўплаб фақиҳлар сингари, унинг ҳаёти ҳақида ҳам маълумотлар кам. Туғилган йили кўрсатилмаган бўлса-да, Кирмонга кетишидан олдин Бухорода яшагани учун шу ерда туғилган бўлиши эҳтимоли катта.

Кирмондан паноҳ топгандан сўнг ўлимигача илм билан банд бўлди. У ўзининг бугунги кунгача етиб келган ягона асари “Ниҳоятул кифоя фи диroyтил Ҳидоя”ни шу ерда ёзган. Олимнинг бошқа бир асари ҳам бор бўлиб, китобнинг Тоҷушшариъа қаламига мансуб экани борасида ихтилофлар бор. Китоб “Фаваиду Тоҷушшариъа”, “Ал-фаваидут тажия” ва “Ат-тажия” сингари турли номлар билан танилган.

Отаси Садруш Шариъа Акбардан илм ўрганган. Тошкўпирзода олимга: “Фазилатли олим. Комил билимдон”, деб таъриф берган [8:2,241].

Ҳожи Халифа олимнинг 672 ҳижрий йилда вафот этганини айтган. Бу борада Умар Каҳола ҳам унга эргашган [9:2,552]. Лекин Ҳожи Халифа юқоридаги сўздан бир неча сатрлар пастда Тоҷушшариъанинг ўзидан “Ҳидоя” китоби шарҳининг “Имон” китобини 673 йилда тамомига етказганини нақл қилган [10:2,2033]. Демак, бундан маълум бўладики, олимнинг вафоти 672 йилдан кейин бўлган. Исмоил Пошо олимнинг вафоти 673 йилда бўлганини зикр қилган [12:1,787].

Абдулбоқий Хатибнинг келтиришича олим Кирмонда вафот этган ва ўша ерга дафн қилинган [3:185].

Махбубийлар оиласига мансуб яна бир факих олим Махмуд ибн Аҳмад ибн Убайдуллоҳ ибн Иброҳим Махбубий Бухорий Ҳанафий Бурҳонуш шария [1:265].

VII/XIII асрда яшаган Бурҳанушшарианинг аниқ туғилган йили маълум эмас. Кирмонга хижрат қилишдан олдин бутун оиласи Бухорода яшаган. Вафот этган оила аъолари Шеъробод маҳалласида дафн этилганлар. Бундан маълум бўлаики, олимнинг туғилган жойи Бухородир.

Кирмонга кетгандан сўнг таълим бериш ва китоб ёзиш билан шуғулланиб, Бухородан ўз билимини бу ерга олиб келади. У ўзига тегишли бўлган машҳур асар “Викоятур ривоя фи масоил Хидоя”ни шу ерда ёзиб, ҳанафий фикҳи ривожига ҳисса қўшган.

Кафавий олимни: “(У) фазилатли олим, комил билимдон, кенг илмли, аллома, моҳир, тақводор, муҳаққиқ, ўта эътиборли тадқиқ қилувчи, улуг таснифотлар соҳиби”, деган [1:265].

“Викоятур ривоя”, “Воқеъот” ва “Фатово” номли асарлар ёзган.

Умар Каҳҳола олим хижрий 673 йилда вафот этганини зикр қилган [9:3,818]. Исмоил Пошо ҳам олимнинг 673 йил атрофида вафот этганини келтирган [12:2,406].

Абдулбоқий Хатиб алломани: “Кирмонда вафот этган ва ўша ерга дафн қилинган”, деган [13:1,18-19].

Садрушшариа асғар номи билан танилган яна бир сулола вакили Убайдуллоҳ ибн Масъуд ибн Тоҷуш шария Махмуд ибн Садруш шария Аҳмад ибн Жамолиддин Абулмакорим Убайдуллоҳ ибн Иброҳим ибн Аҳмад ибн Абдулмалик ибн Умайр ибн Абдулазиз ибн Муҳаммад ибн Жаъфар ибн Халаф ибн Ҳорун ибн Муҳаммад ибн Муҳаммад ибн Махбуб ибн Валид ибн Убод ибн Сомит (р.а.) эди.

Садрушшариа Бобоси Махмуд ибн Убайдуллоҳдан илм олган. Кафавий айтади: “Имом аллома Садрушшариа Убайдуллоҳ ибн Масъуд ибн Тоҷуш шария Махмуд ибн Садрушшариа акбар Аҳмад ибн Жамолиддин Махбубий. “Шарҳул виқоя” асари муаллифи. Талабалар ўртасида Садруш шария номи билан машҳур бўлган [1:287]”.

Илми бобосидан олгани боис унинг ҳам фикҳ илмидаги шажараси Абу Ҳанифа раҳматуллоҳи алайҳга бориб тақалади. Бобосининг китоби бўлмиш “Викоятур ривоя”ни шарҳлаган. Бу эса “Викоятур ривоя” шарҳларининг энг гўзали ҳисобланади.

Садрушшариа кўплаб асарлар ёзган. Уларга қуйидаги асарлар киради:

1. “Танқиҳул усул”. “Танқиҳ” номи билан машҳур. Ҳанафий фикҳи усули бўйича ишончли матн.

2. “Ат-Тавзиҳ фи ҳалли ғавомизит танқиҳ”. Бу китоб мусаннифнинг юқорида зикр қилинган усули фикҳ борасидаги китоби шарҳи.

3. “Ал-Муқаддимотул арбаъ”.

4. “Ан-Нуқоя”. Бу “Викоятур ривоя” китобининг қисқартмаси.

5. “Аш-Шурут вал маҳозир”. Китобни фикҳ китоблари ва боблари тартибига мувофиқ тартиблаган.

6. “Таъдилул улум”. Барча ақлий илмларнинг қисмлари ҳақида.

7. “Шарҳул-л-фусули-л-хамса”.

8. “Ал-Вишоҳ фи-л-маъоний ва-л-баён”.

9. “Қирқ ҳадис”.

10. “Шарҳул виқоя” (Бобосининг китоби бўлмиш “Викоятур ривоя” асари қисқартмаси).

Садрушшариа Кирмондан Бухорога қайтган, таълим ва таълифни давом эттирди. 747/1346 йили Бухорода вафот этди ва шу ерда дафн этилди.

Ўрта Осиё фикҳ илми ривожига алоҳида шахслар ва асарлардан ташқари вилоятлар ва шаҳарлар ҳам катта таъсир кўрсатган. Бухоро манашундай шаҳарлардан бири бўлган. У ерда ташкил қилинган сарой кутубхонаси Бухоро тарихида кўплаб олимлар етишиб чиқиши, шаҳарнинг илм-фан ва маданиятнинг муҳим марказига айланишида муҳим рол ўйнаган.

Бухоронинг бундай ривожланган шаҳар бўлишида бошқарувчи шахсларнинг ҳам ҳиссалари катта бўлган. Мўғуллар босқинига қадар хижрий V-VII асрлар давомида шаҳарни “Садрлар” бошқарган ва турли даврларда бу вазифани муайян оилалар ўз зиммасига олган. 636/1220 йилларда бу лавозимга Махбубийлар тайинланган. Бу оила аъзолари нафақат сиёсат, балки таълим ва таълиф билан боғлиқ фаолият билан ҳам шуғулланади. Улар Ўрта Осиё ҳанафий мазҳаби тарихида муҳим рол тутганлар. Уруш ва босқинлар, даврнинг сиёсий-маъмурий беқарорлиги минтақанинг барча қатламларига ва айниқса, илм оламига салбий таъсир кўрсатди. Оила 675/1276 йилларда Қутлуғхонийлар ҳукмронлиги остидаги Кирмонга ўрнашиб, илмий фаолиятини шу ерда давом эттирган. Бухоро фикҳ мактабига мансуб бўлган оиланинг муҳим факихлари Бурҳонушшариа ва Таҷушшариялар Кирмонда

мударрислик килиб, фикхий билимларини у ерда таълим ва таълиф билан давом эттирдилар.

Садрушшариа Соний Кирмонда олган илми билан у ерда ҳам, Бухорода ҳам таълим ва таълифда шуҳрат қозонган. Бу уч муаллиф, бевосита ёки билвосита Ўрта Осиё ҳанафий қонунлари тўпламининг маҳсули бўлган “Ҳидоя” борасида илмий ишлар олиб бордилар. Асарнинг бу соҳадаги мавқеи билан бир қаторда, Марғилоний ва Махбубийларнинг давр ва минтақа жиҳатидан бир-бирига яқин бўлиши ҳам муҳим аҳамият касб этади.

Махбубийлар оиласи фақиҳлари асарларининг энг машҳури Бурҳонушшарининг “Викоя” асаридир. У ҳанафий фикҳидаги энг муҳим матнлардан бири ҳисобланган. Турли жойларда кўплаб тадқиқотлар ва янги асарларнинг яратилишига манба бўлган. Асарга кўплаб шарҳлар, изоҳлар, таълиқ ва раддиялар ёзилган. У турк ва форс тилларига назм ва наср тарзида таржима қилинган. У ҳуқуқий асос сифатида машҳур бўлди. Кўпгина маҳаллий ва халқаро кутубхоналарда бир нечта қўлёзма нусхалари мавжуд.

Тоҷушшариа томонидан ёзилган “Шарҳул Ҳидоя” асари “Ҳидоя”нинг илк шарҳларидан бири ҳисобланади. Машҳур ва ишончли манбаларда унга ҳаволалар қилинган. Қўлёзма нусхалари кутубхоналарда мавжуд. Бу асар тўғридан-тўғри манба бўлган тадқиқотлар бугунги кунгача етиб келмаган.

Бурҳонушшариа ва укаси Тоҷушшарианинг бизгача етиб келган икки асари фақат фикҳга оид асарлардандир. Бироқ, Садрушшариа икки бобосидан факрли равишда фикҳдан илмидан бошқа усул, илоҳиёт, мантик, шурут ва грамматика бўйича кўплаб асарлар ёзган. Фуруъул фикҳ соҳасида у ёзган асарлар мустақил эмас. Улардан иккитаси, яъни “Нуқоя” ва “Шарҳул виқоя” асарлари “Викоя”га тегишлидир. Бу икки асар дарс ва фатво беришда “Викоя” сингари машҳур бўлиб улгурмаган. Кўпгина қўлёзма нусхалари кутубхоналарда сақланадиган ва кўплаб асарларнинг манбаси эканлиги маълум бўлган бу икки асар кейинги даврларда ўрганилган. “Викоя” нинг биринчи шарҳи “Шарҳул Викоя” 2006 йилда “Мунтахан нуқоя ала шарҳил виқоя” номли ҳошия билан бирга тадқиқ қилинган ва нашр этилган. “Нуқоя” асарига ҳам кўплаб шарҳлар битилган.

ХУЛОСА

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, Махбубийлар оиласи фақиҳлари фикҳ илми ривожига катта ҳисса қўшган. Улар фикҳ ва бошқа фанларга оид кўплаб қийматли асарлар ёзиб қолдирган. Бундан ташқари Бурҳониддин Марғилонийнинг “Ҳидоя” асари борасида турли шарҳлар ва қисқартмалар ёзиб бу асарни янада кенг тарқалишига катта хизмат қилганлар. Улар ёзиб қолдирган асарлар қанчалик аҳамиятга эга эканини ушбу асарларга оид кўплаб шарҳлар, ҳошиялар, назмлар ва қисқартмалар ёзилгани, бу асарлардан кенг фойдаланганидан ҳам билиш мумкин. Қисқа қилиб айтганда Махбубийлар оиласи фақиҳлари нафақат Бухоро фикҳ илми ривожига балки, Ҳанафий фикҳи ривожига катта ҳисса қўшганлар. Ҳозирги кунгача “Викоя”, “Шарҳул виқоя”, “Мухтасарул виқоя” номи билан машҳур бўлган “Ан-Нуқоя” ва бошқалар диний билим юртларида ҳамда фикҳ илмига қизиққан кишилар томонидан ўрганиб келинмоқда. Бу борадаги тадқиқотлар билан бир қаторда, янги асарлар учун ҳам манба бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Маҳмуд ибн Сулаймон Кафавий. Катоиб аълумил ахёр. – Байрут: Дорул кутубил илмия, 2018.
2. Абдулҳай Лакнавий. Ан-нофеъ ал-кабир. – Карачи: Идоратул Куръон, 1990.
3. Абдулҳай Лакнавий. Фавоидул баҳия. – Қоҳира: Дорул китоб исломия.
4. Қураший. Жавоҳирул музия. Ҳижр, 1993.
5. Салоҳ Муҳаммад Абулҳож. Тухфатул бадиа фи ахбори Садриш шариа. – Уммон: Марказ анвори-л-уламо ли-д-дироса, 2020.
6. Заҳабий. Ибар. – Кувайт: Мактабат ҳукумати-л-Кувайт, 1963.
7. Абдулқодир Тамимий. Табақотус сания / Таҳқиқи Д-р Абдулфаттоҳ Хулф. – Риёз: Дорур рифоъий, 1403.
8. Тошқўпирзода. Мифтоҳус саодат. – Байрут: Дорул кутубил илмия, 1405.
9. Умар Каҳҳола. Мўъжамул муаллифин. – Байрут. Муассасатур рисала, 1414/1994.
10. Ҳожи Халифа. Кашфуз зунун. – Байрут: Дору ихёут турсил арабий.
11. Бекмирзаев И. Бурҳонуддин Маҳмуд ал-Бухорийнинг “Ал-Мухит” асари ва унинг Мовароуннаҳр қозилигида тутган ўрни: т.ф.н. ... дис. – Тошкент, 2009.
12. Исмоил Бағдодий. Ҳадиятул орифин. Дорул фикр, 1402.
13. Абдулҳай Лакнавий. Умдатур риоя. – Байрут: Дорул кутубил илмия. 2009.

АБДУЛЛАЕВ Суннатулла Зафар ўғли
Ўзбекистон халқаро ислом академияси
ҳузуридаги Имом Мотуридий халқаро
илмий-тадқиқот маркази илмий ходими
E-mail: sunnatulloh0825@gmail.com

ИСЛОМ МАНБАЛАРИДА ФАТВО ТУШУНЧАСИ ТАҲЛИЛИ ВА ТАЛҚИНИ

АНАЛИЗ И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОНЦЕПЦИИ ФЕТВЫ В ИСЛАМСКИХ ИСТОЧНИКАХ

ANALYSIS AND INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF FATWA IN ISLAMIC SOURCES

Аннотация: Ҳозирги кунда баъзи бир тоифа вакиллари томонидан айтилаётган фатволар мусулмонларни ислом динининг асл моҳияти, ҳақиқий соф таълимотдан узоқлашишга сабаб бўлмоқда. Пухта илм, салоҳият ва ҳолислик каби фазилатларни шакллантирмай, ўзгаларга диний масалаларда фатво беришнинг оқибати яхшиликка олиб келмайди. Жамиятда инсонларнинг ҳамжиҳат бўлиб яшашларига ҳамда ўзаро бирдамлигига путур етказувчи иллатлардан халос бўлиш лозим. Мазкур мақолада фатвонинг асл моҳияти, унинг кўринишлари ҳамда жамиятга таъсири ўрганилади. Мавзуга оид маълумотлар мусулмон оламида машҳур шахсларнинг асарларини тадқиқ қилиш йўли билан келтирилади.

Калит сўзлар: Ҳадис, саҳоба, фатво, Имом Бухорий, Имом Нававий, тақво, шариат, “Шарҳ ал-Мухаззаб”.

Аннотация: В наши дни фетвы, издаваемые представителями некоторых групп, приводят к тому, что мусульмане отдаляются от истинной сути исламской религии и её подлинного, чистого учения. Издание фетв по религиозным вопросам без надлежащих знаний, компетентности и беспристрастности не приводит к добру. Необходимо избавляться от пороков, которые наносят ущерб гармоничной жизни людей в обществе и их взаимной сплоченности. В данной статье исследуется истинная сущность фетвы, её формы, а также влияние на общество. Информация

по теме представлена на основе изучения трудов известных деятелей мусульманского мира.

Ключевые слова: Хадис, сахаба, фетва, Имам Бухари, Имам Навави, богобоязненность, шариат, “Шарх ал-Мухаззаб”.

Abstract: Currently, fatwas issued by representatives of certain groups are causing Muslims to stray from the true essence of Islam and its authentic, pure teachings. Issuing fatwas on religious matters to others without cultivating the necessary qualities of profound knowledge, competence, and sincerity does not yield positive results. It is essential to eliminate such detrimental influences that undermine harmonious coexistence and mutual solidarity within society. This article examines the true essence of the fatwa, its various forms, and its impact on society. Information on the subject is drawn from research into the works of renowned figures in the Muslim world.

Keywords: Hadith, sahaba, fatwa, Imam Bukhari, Imam Nawawi, fear of God, shariah, “Sharh al-Muhazzab”.

КИРИШ

Мусулмонлар яшайдиган жамиятда инсонларнинг тинч-тотув ҳаёт кечиришларида олимларнинг ҳамда йирик фатво марказлари томонидан чиқариладиган фатволарнинг ўрни муҳим аҳамиятга эга. Бундай жамиятда фатво инсонлар учун тўғри йўл кўрсатувчи манба бўлиб хизмат қилади. Инсонларнинг ҳақ-ҳуқуқларига, ўзаро олди-берди муносабатларига, шунингдек, диний масалаларда саволлар туғилиши табиий. Бу каби саволлар баъзи ўринларда кичик доирада муҳокама қилинса, баъзи ўринларда кенгрок миқёсда ўрганилади.

Фатво берувчи киши бу иш қанчалик нозик эканини ҳис қилиши лозим. Фатво кишининг шахсий қараши ёки фақатгина ақл билан, ички ҳиссиётларига таянган ҳолда бўлмаслиги кераклиги фатовга оид манбаларда қаттиқ таъкидланади. Ислом таълимотига кўра, фатво инсоннинг дунё ва охиратда бахтли ҳаёт кечиришини таъминлайдиган шахсий ва ижтимоий ҳаётига оид шариат ҳукмларининг ифодасидир.

Фатво мусулмонлар ҳаётларидаги ҳар қандай вазиятда, уларни тўғри йўлга бошлаш

мақсадида берилар экан, у жамиятдаги ўзаро тушунмовчиликлар ва ихтилофларнинг чиқишига сабаб бўлиб қолмаслиги керак. Шу сабабли ҳам фатво беришга ҳамма ҳам журъат қилавермайди.

АСОСИЙ ҚИСМ

Фатво сўзи араб тилида “ал-Фатва”, “ал-Футя” сўзлари билан ифодаланади. Бу сўзнинг луғавий маъноси – хоҳ ибодатга оид ҳукмлар тўғрисида бўлсин, хоҳ ижтимоий муносабатларга оид бўлсин, берилган саволга жавоб беришни англатади. Бунга мисол тариқасида ислом динининг бирламчи манбаси бўлмиш Қуръони каримнинг “Юсуф” сурасидаги шаҳар подшоҳининг қуйидаги буйруғини келтириш мумкин. У кўрган тушининг маъносини аёнлардан сўраганида саволига бериладиган жавобни “фатво” деб келтирилади: **“Шоҳ (бир куни) деди: “Мен тушимда еттита озғин сигир еттита семиз сигирни еяётганини ва еттита яшил бошоқ билан бирга бошқа (еттита) қуриган бошоқларни кўрдим. Эй, аёнлар! Агар туш таъбирини айтувчи бўлсангиз, тушим тўғрисида фатво (жавоб) берингиз!” [1: 149].**

Ёки бошқа бир ўринда Сабо маликасининг қуйидаги сўзи ҳам “фатво” сўзининг шаръий масаладан бошқа маънода қўлланилганига мисол бўлади: **“(Малика) айтди: “Эй, аёнлар! Менга бу ишимда фатво (маслаҳат) берингиз! Мен то сизлар гувоҳ бўлмагунингизча бирор ишни қатъий қилувчи эмасман” [1: 253].**

Мазкур икки ўринда ҳам “фатво” сўзи диний ҳукмларга боғлиқ бўлмаган масалаларда ишлатилган. Аммо қуйидаги оятларда келган ибораларда эса “фатво” сўзи шаръий савол маъносида ифодаланган: **“Сиздан (эй, Мухаммад!) аёллар тўғрисида фатво сўрайдилар. Айтинг: “Улар тўғрисида сизларга Аллоҳ фатво берур...” [1: 127].**

Шунингдек, Набий (с.а.в.)нинг қуйидаги ҳадислари ҳам “фатво” сўзининг шаръий саволга жавоб бериш маъносида айtilганига мисол бўлади:

Убайдуллоҳ ибн Абу Жаъфардан ривоят қилинади: “Расулуллоҳ (с.а.в.): “Фатво

беришга журъатли бўлганингиз, жаҳаннамга журъатлироғингиздир” дедилар”. (Имом Доримий ривояти) [2:258].

Ҳозирда “фатво” сўзининг истелоҳий таърифида “диний масалага жавоб бериш” деб айтиш мумкин. Мазкур таърифда “шаръий” сўзини эмас, “диний” сўзини танланди. Бу орқали саволларга жавоб берувчи муфтий нафақат шаръий ҳукмлар тўғрисида, балки динга алоқадор бўлган барча масалалар хусусида жавоб бериши таъкидланди.

Имом Нававий (р.х.) (631-676/1233-1277 й.) ўзининг “Шарҳ ал-Мухаззаб” номли асарида қуйидагиларни келтиради: “Билингки, фатво бериш хатари улкан, мавқеи баланд, фазли улуг ишдир. Зотан, муфтий пайғамбарларнинг (уларга Аллоҳнинг салавоту-саломлари бўлсин) меросхўри, фарзи кифояни адо қилаётган кишидир. Аммо у хатарга рўбаро бўлиши мумкин. Шу сабабли “муфтий Аллоҳ азза ва жалланинг номидан имзо чекувчидир” дейдилар” [3:40].

Қуйида тарихда ўтган салафи солиҳларнинг фатво беришдаги ҳолатига оид мисоллардан бу ишнинг қай даражада қалтис эканини англаш мумкин:

- Имом Молик (р.х.)нинг шогирдлари у ҳақида айтиб: “Аллоҳга қасамки, агар Имом Моликдан бирор бир масала ҳақида сўралса, у худдики жаннат ва дўзах ўртасида тургандек бўларди (яъни, шундай ҳолатда жавоб берарди)” [3:17].

- Мухаммад ибн Мункадир (р.х.) айтади: “Олим киши Аллоҳ ва Унинг махлуқоти ўртасида туради. Уларнинг орасига қандай қираётганига назар солсин” [3:18].

Юқоридаги далиллар фатво беришнинг қанчалик нозик ва масъулиятли эканини англаш учун келтириб ўтилди. Фатво бераётган киши диний масалаларни ҳал қилишда Аллоҳ ва Пайғамбар (с.а.в.) номидан гапираётганини ҳис қилган ҳолда ёндашиши талаб этилади. Имом Нававий таъкидлаганидек, фатво берувчи инсон осмону-ер, бутун оламларнинг Яратувчиси номидан имзо чекаётганининг сезиши лозим.

Ҳозирги кунда баъзи бир тоифа вакиллари томонидан айтилаётган фатволар

мусулмонларни ислом динининг асл моҳияти, ҳақиқий соф таълимотдан узоқлашишга сабаб бўлмоқда. Жумладан, мазкур адашган тоифаларнинг “мазҳабсизлик”, “такфир”, “жиҳод”, “байъат”, “ҳижрат” каби қалтис мавзуларда ўтган солиҳ аллома аждодлар тутган йўлга зид тарзда чиқарган “фатволари” мусулмонлар орасида фитна уйғотишга, неча асрлар оша эътиқод қилиниб келаётган ақидавий ва фикхий мазҳабларни тан олмаслик ва шу каби қарашларни шаклланишига олиб келмоқда. Баъзи ўринларда эса мазкур ботил даъволар ортидан инсонлар орасида ноҳақ қон тўкиш ҳолатлари ҳам учрамоқда.

ХУЛОСА

Юқоридаги тобеин ва таба-тобеинларнинг фатво беришга оид фикрларидан хулоса қилиш мумкинки, ҳақиқий олим киши ундан савол сўралганида улкан илм, ўта катта масъулият, тақво ва ихлос каби фазилатларни ўзида эгаллаган ҳолда жавоб бериши тўғри бўлади. Борди-ю адашган тоифа вакиллари каби ислом динида қалтис ва улкан масала деб қараладиган мавзуларда ҳақиқий илмга эга бўлмай, эътиборсизлик ва масъулиятсизлик билан фатво берилса, шу тоифа кишиларини ҳам, уларга эргашган кимсаларни ҳам тўғри йўлдан адашиб, диний ва дунёвий ишларида хатоликка кетишларига сабаб бўлади.

Натижада, жамиятда парокандалик юзага келиб, инсонларнинг тинч-тотув ҳаёт кечириши ҳамда ўзаро ҳамжиҳатликка путур етиши мумкин. Фатвонинг мусулмонлар ҳаётида ўрни муҳимлигини ҳисобга олган ҳолда пухта илм ва улкан салоҳиятга эга бўлмай фатво бериш ёки учраган кишидан фатво сўраб, унга эргашиб кетиш динда адашишга сабаб бўлади. Шу каби салбий оқибатларни келтириб чиқарувчи ихтилофларнинг олдини олиш ислом марказлари ва олимларнинг муҳим вазифаларидан ҳисобланади.

ФЙДАЛАНИЛГАН МАНБА ВА АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири // Таржима ва тафсир муаллифи Шайх Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Сано стандарт, 2021.
2. Абу Муҳаммад Абдуллоҳ ад-Доримий. Сунаи ад-Доримий. – Риёд: Дору-л-муғний, 2000.
3. Имом Нававий. Шарҳ ал-Муҳаззаб. – Қоҳира: Идора-т-тибаати-л-мунира, 2010.
4. Муҳаммад Тақий Усманий. Усул ал-ифта ва адабуҳу. – Карачи: Мактаба маориф ал-Қуръан, 2011.

SHAROPOV Sarvar Faxriddinovich
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini
o'rganish ICESCO kafedrasi
1-bosqish magistranti
 Orcid: 0009-0009-5516-2414
 sharopovsarvar433@gmail.com

Ilmiy rahbar: **RAHIMJONOV Durbek**
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
tarix fanlari nomzodi, dotsent

BUYUK BRITANIYADA ISLOMSHUNOSLIK FANINING SHAKLLANISHI

ФОРМИРОВАНИЕ ИСЛАМОВЕДЕНИЯ В ВЕЛИКОБРИТАНИИ

THE FORMATION OF ISLAMIC STUDIES IN THE UNITED KINGDOM

Annotatsiya: Mazkur maqola Buyuk Britaniyada islomshunoslik fanining shakllanishi va tarixiy taraqqiyotiga bag'ishlangan. Tadqiqotda islomshunoslikning XVI–XVII asrlardagi dastlabki bosqichlari, XIX asrdagi mustamlakachilik davri hamda XX–XXI asrlardagi zamonaviy yo'nalishlarigacha bo'lgan jarayonlar ko'rib chiqiladi. Britaniyada arab tili va madaniyatini o'rganishning boshlanishi, Oksford va Kembrij universitetlarida sharqshunoslik kafedralarining tashkil etilishi, taniqli olimlarning hissasi hamda akademik markazlarning roli batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada Britaniya va musulmon dunyosi o'rtasidagi madaniy va ilmiy aloqalarning ahamiyati ko'rsatilib, islomshunoslikning metodologik yondashuvlari va tadqiqot yo'nalishlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Buyuk Britaniya, islomshunoslik, sharqshunoslik, arab tili, Oksford universiteti, Kembrij universiteti, Qur'on tarjimasi, sharq tillari, tarixiy tadqiqotlar, akademik markazlar.

Аннотация: Настоящая статья посвящена становлению и историческому развитию исламоведения в Великобритании. В исследовании рассматриваются начальные этапы формирования исламоведения (XVI–XVII вв.), его развитие в колониальный период (XIX в.) и современные тенденции (XX–XXI вв.). Анализируются истоки изучения арабского языка и культуры в Британии,

процесс создания кафедр востоковедения в Оксфордском и Кембриджском университетах, вклад выдающихся ученых и роль академических центров. Кроме того, в статье подчеркивается значение культурных и научных связей между Великобританией и мусульманским миром, а также исследуются методологические подходы и направления в британском исламоведении.

Ключевые слова: Великобритания, исламоведение, востоковедение, арабистика, Оксфордский университет, Кембриджский университет, перевод Корана, восточные языки, исторические исследования, академические центры.

Annotation: This article examines the formation and historical development of Islamic studies in the United Kingdom. The research addresses the initial stages of Islamic studies from the 16th–17th centuries, its evolution during the 19th-century colonial period, and contemporary trends in the 20th–21st centuries. The article analyzes the origins of Arabic language and cultural studies in Britain, the establishment of Oriental Studies departments at the Universities of Oxford and Cambridge, the contributions of prominent scholars, and the role of academic centers. Furthermore, the article highlights the significance of cultural and scholarly interactions between Britain and the Muslim world, while also exploring the methodological approaches and research directions within British Islamic studies.

Keywords: United Kingdom, Islamic studies, Oriental studies, Arabic language, University of Oxford, University of Cambridge, Quran translation, Oriental languages, historical research, academic centres.

KIRISH

Islomshunoslik fani bugungi kunda jahon ilmiy doiralarida alohida ahamiyat kasb etib, diniy, madaniy va tarixiy jarayonlarni chuqur o'rganish imkonini bermoqda. Buyuk Britaniyada islomshunoslikning shakllanishi va rivojlanishi o'ziga xos tarixiy bosqichlardan o'tgan bo'lib, bu jarayon asosan Sharq va G'arb o'rtasidagi aloqalarning chuqurlashuvi bilan bog'liq. Britaniya ilmiy doiralari Islom diniga bo'lgan qiziqishni asosan arab tili, musulmon madaniyati va tarixini o'rganish orqali namoyon etgan. Buyuk Britaniyada islomshunoslik fanining rivojlanishi XVI–XVII asrlarda Sharq tillarini o'rganish bilan boshlanib, Oksford va Kembrij universitetlarida Sharqshunoslik kafedralarining tashkil etilishi bilan mustahkam poydevor yaratildi. Keyinchalik, XIX asrda Britaniya imperiyasining musulmon o'lkalariidagi siyosiy faoliyati islomshunoslik

tadqiqotlariga yanada turtki berdi. XX asrga kelib esa bu soha akademik fan sifatida rivojlanib, zamonaviy metodologiyalar bilan boyitildi. XXI asrda Buyuk Britaniya islomshunosligi interdisciplinar yondashuvlar asosida diniy ekstremizm, musulmon diasporasi va madaniy integratsiya kabi muammolarni o'rganishga e'tibor qaratmoqda. Ushbu maqolada Buyuk Britaniyada islomshunoslik fanining shakllanish tarixi, uning asosiy bosqichlari va metodologik yondashuvlari keng yoritiladi.

ASOSIY QISM

Buyuk Britaniyada islomshunoslik fanlari shakllanishi o'ziga xos tarixiy, madaniy va ilmiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, ushbu sohaning rivojlanishi Sharqiy dunyo bilan aloqalarning kengayishi natijasida shakllangan. Buyuk Britaniya islomshunosligi o'z ildizlarini Yevropadagi O'rta asrlardan boshlangan Sharqshunoslik an'analariidan oladi. Buyuk Britaniyada islomshunoslik fanlarining shakllanishi uzoq tarixiy jarayonni o'z ichiga oladi. Bu jarayon bir necha asosiy davrlarga bo'linadi.

XVI-XVII asrlardagi dastlabki qadamlar. Britaniyada islomshunoslik dastlab Sharq tillari va madaniyatini o'rganish doirasida shakllana boshlagan. 1632-yilda Oksford universitetida arab tili kafedrasining ochilishi bu sohaning rivojlanishida muhim qadam bo'ldi [11:45]. Edward Pococke (1604-1691) Britaniyaning birinchi professional arabshunos olimi sifatida tan olingan va u arab tili va islom dini bo'yicha fundamental asarlar yaratgan [8:128]. Shundan kelib chiqqan holatda, bu qiziqishlarning sabablarini quyidagicha ta'riflash mumkin:

Savdo va geografik kashfiyotlar XVI asrda Buyuk Britaniya Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika bilan savdo aloqalarini rivojlantira boshladi. Bu davrda ingliz sayyohlari va savdogarlari Islom dunyosi haqida ko'proq ma'lumot olishga intilgan.

Diniy munosabatlar va taqqoslashlar Islom dini va xristianlikning o'xshashliklari va farqlari Britaniyada qiziqish uyg'otdi. Xristian olimlari Islomni o'rganish orqali o'z e'tiqodlarini chuqurroq tushunishga harakat qilishdi. Sharq tillarini o'rganish Sharqiy tillar, jumladan arab, fors va turk tillarini o'rganish Britaniya universitetlarida muhim yo'nalishlardan biriga aylandi. Bu tillar orqali Islom madaniyatini o'rganish imkoniyati

paydo bo'ldi.

Ilk ingliz islomshunos olimlar va ularning hissasi. Uilyam Beduell (1561-1632) Uilyam Beduell arab tilini mukammal o'rgangan birinchi ingliz olimlaridan biri hisoblanadi. U "Muhammadning dini" haqidagi birinchi inglizcha asarlarni yozgan. Uning asarlari ingliz jamoatchiligiga Islom haqida boshlang'ich tushunchalar berishga xizmat qilgan.

Edvard Pokok (1604-1691) Edvard Pokok Buyuk Britaniyaning mashhur sharqshunoslaridan biri bo'lib, u Oksford universitetida arab tili va madaniyatini o'qitgan. U Qur'onni o'rganish va Islom tarixi haqida bir qator asarlar yozgan [15:46].

Jon Selden (1584-1654) Jon Selden Islom huquqiy tizimi haqida tadqiqotlar olib borgan va bu borada "De Diis Syris" asarini yozgan. Ushbu asar Yaqin Sharq madaniyati va dini haqida muhim manba hisoblanadi.

Oksford va Kembrijda islomshunoslikning rivoji. Arab tilini o'rganish va targ'ib qilish 1636 yilda Edvard Pokok Oksford universitetida arab tili darslarini boshladi. Bu dastur orqali Islom haqida batafsil bilim olish imkoniyati kengaydi. Sharqshunoslik kafedralari tashkil etilishi XVII asr o'rtalarida Britaniyada sharq tillari va madaniyatini chuqurroq o'rganish maqsadida maxsus kafedralar tashkil etildi. Ushbu kafedralar Islom tarixi va falsafasi bo'yicha ilmiy faoliyat yuritgan [4:82].

XVII asr o'rtalaridan XIX asr boshlarigacha. Buyuk Britaniyada XVII asr o'rtalaridan boshlab islomshunoslik sohasida yangi davr boshlandi. Bu davrda ilmiy yondashuv va tizimli tadqiqotlar orqali Islom madaniyati, tarixi va dini haqida chuqurroq bilimlar shakllandi. XIX asr boshlariga kelib, islomshunoslik Buyuk Britaniyada mustaqil ilmiy soha sifatida tan olina boshladi.

Sharq tillarining ahamiyati oshishi XVII asrning o'rtalariga kelib, Buyuk Britaniyada arab, fors va turk tillarini o'rganishga qiziqish yanada kuchaydi. Bu tillarni o'rganish orqali olimlar Islom madaniyatining turli jihatlarini tadqiq qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Taniqli olimlar va ularning hissasi. Humfrey Prideaux (1648-1724) Prideaux "Hayot va Muhammadning dini" nomli asarini yozib, Islom payg'ambari Muhammad (s.a.v.) hayoti haqida Yevropadagi birinchi batafsil tadqiqotni taqdim etdi [16:42-46].

Edvard Pocockning o'g'li (Edward Pocock Jr.) Pocock Sr. ning sharqshunoslik sohasidagi faoliyati

uning o'g'li tomonidan davom ettirildi. U otasining ishlarini nashr ettirish va Islom tarixini o'rganishda katta rol o'ynadi [15:78].

Sharqshunoslik jamiyatlarining tashkil etilishi XVIII asrda Buyuk Britaniyada sharqshunoslikka ixtisoslashgan bir qancha ilmiy jamiyatlar tashkil etildi. Masalan, 1784 yilda tashkil etilgan Osiyo jamiyati (Asiatic Society) ilmiy tadqiqotlarning markaziga aylandi.

Qur'on tarjimalari va sharhlari XVIII asrda Qur'onning ingliz tiliga birinchi to'liq tarjimalari paydo bo'ldi. George Sale tomonidan qilingan tarjima 1734 yilda nashr etildi va Britaniyada Islomni o'rganishdagi muhim qadam bo'ldi [22:3-9].

Universitetlarda sharqshunoslik bo'limlarining tashkil etilishi XIX asr boshlariga kelib, Oksford va Kembrij universitetlarida sharqshunoslik ilmiy yo'nalishlari ancha rivojlandi. Bu davrda Islomshunoslik mustaqil ilmiy soha sifatida shakllana boshladi.

Vilyam Muirning tadqiqotlari Vilyam Muir Islom tarixiga bag'ishlangan bir qancha muhim asarlar yozdi. Uning "The Life of Mahomet" nomli asari Islom payg'ambari hayoti va faoliyati haqida chuqur tahlilni taqdim etadi [13:46-50].

Bundan tashqari bu davrda Britaniyada islomshunoslik quyidagi yo'nalishlarda rivojlandi:

1. Qur'on tarjimalari va tafsirlar
2. Arab tili grammatikasi
3. Islom tarixi bo'yicha tadqiqotlar
4. Musulmon falsafasi

XVII asrning ikkinchi yarmida Cambridge universitetida ham arab tili va islom tadqiqotlari yo'lga qo'yildi. Simon Ockley (1678-1720) "Saracens tarixi" asari bilan Britaniyada islom tarixi bo'yicha fundamental tadqiqotlarga asos soldi [19:156].

XVIII asr oxirlarida va XIX asr boshlarida sharq tillarini o'rgatishga ixtisoslashgan ilmiy markazlar ochildi. Masalan, 1795-yilda London universitetida Sharq tillari maktabi (hozirgi SOAS - School of Oriental and African Studies) tashkil etildi. Bu markazda arab tili, fors tili va islom dini asoslarini o'rgatish ishlari olib borildi.

XIX asr: mustamlakachilik davri ta'siri. XIX asr davomida Britaniya imperiyasi Hindiston va Misr kabi musulmon hududlarni boshqarish bilan shug'ullanganligi sababli, islomshunoslikning amaliy ahamiyati oshdi. Islomshunoslik bo'yicha

tadqiqotlar Britaniya hukumati uchun musulmon jamiyatlari bilan aloqalarni yaxshilash, ularni boshqarish va o'z siyosiy manfaatlariga moslashtirishga yordam beradigan vosita bo'lib xizmat qildi. Masalan, Uilyam Muirdan "The Life of Mahomet" ("Muhammad hayoti") asari bu davrning yirik ilmiy ishlari qatoriga kiradi [12:12-65]. Britaniya imperiyasining musulmon o'lkalarida o'z ta'sirini kengaytirishi islomshunoslik rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda:

1. Hindistonda musulmon madaniyatini o'rganish markazlari tashkil etildi
2. Ko'plab qo'lyozmalar Britaniya kutubxonalariga keltirildi
3. Yangi tadqiqot yo'nalishlari shakllandi

William Muir (1819-1905) va Edward William Lane (1801-1876) kabi olimlar islom tarixi va madaniyati bo'yicha fundamental asarlar yaratdilar [2:178].

XX asr boshlarida akademik maktablarning shakllanishi. XX asrda Buyuk Britaniya universitetlari islomshunoslik bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning asosiy markaziga aylandi. Cambridge va Oxford universitetlari ushbu sohada yetakchi o'rin tutdi. Cambridge universitetida Fitzwilliam muzeyida Sharq qo'lyozmalari to'plandi va o'rganildi. Oxford universitetidagi Bodleian kutubxonasi esa islomiy qo'lyozmalarni saqlash va tadqiq qilishda muhim rol o'ynadi [10:70].

XX asr boshlarida Buyuk Britaniyada islomshunoslik o'zining akademik asoslarini shakllantira boshladi. Britaniyadagi islomshunoslik ilmiy tadqiqotlari, asosan, sharqshunoslik va tarixiy fanlarning ta'siri ostida rivojlandi. E. G. Brownning "A Literary History of Persia" (1902) asari, bu davrning eng muhim islomshunoslik asarlaridan biri bo'lib, o'z vaqtida Persiya adabiyoti va tarixini o'rganishda katta ahamiyatga ega edi [3:56-78].

XX asr boshlarida Britaniyadagi islomshunoslik maktablari tarixiy yondashuvlarga katta e'tibor qaratdilar. Nicolai De'khanovning "The History of Islamic Civilizations" (1910) asari, Islom tarixining asosiy davrlarini tahlil qilgan va Islomshunoslikning tarixiy nuqtai nazaridan yondashuvlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynagan [5:93-111].

1900-1950-yillar orasida Britaniyada professional islomshunoslik maktablari shakllandi.

London universiteti qoshida Sharqshunoslik va Afrika tadqiqotlari maktabi (SOAS) 1916 yilda tashkil topdi [14:34]. Bu davrda:

- Hamilton Gibb
- Arthur Arberry
- William Montgomery Watt
- Alfred Guillaume

kabi mashhur olimlar faoliyat yuritgan.

1950-1980-yillar: yangi yondashuvlar davri.

Buyuk Britaniyada islomshunoslik akademik maktabi, shuningdek, Fors va O'rta Osiyo tarixini o'rganish bo'yicha markazlashgan. Arthur J. Arberryning "Persian Poetry" (1952) asari, Fors tilini va adabiyotini o'rganishdagi muhim manba sifatida tanilgan. Arberry islom adabiyoti va uning estetikasi bo'yicha keng qamrovli tahlil qilgan, bu maktabning shakllanishida katta o'rin tutgan [1:34-51].

XX asrning boshlarida Britaniyada sharqshunoslik maktabi aniq shakllana boshladi. Sharqshunoslik, o'z ichiga Islomni ham olgan holda, Sharq madaniyati va tarixini o'rganishni maqsad qilgan ilmiy yondashuv edi. Sir Hamilton Gibbning "Studies on the Civilization of Islam" (1957) asari, bu maktabning rivojlanishini aks ettiruvchi eng yaxshi namunadir. Gibb, Islomni va uning madaniyatini chuqur tahlil qildi, o'z asarida Islomshunoslikni ilmiy yondashuv bilan o'rganishga alohida urg'u berdi.

XX asr boshlarida, Buyuk Britaniyada islomshunoslikni o'rganishda, G'arb va Islom dunyosining tarixiy aloqalari ham o'zining alohida o'rnini egalladi. Edward Saidning "Orientalism" (1978) asari, G'arbning Sharqni qanday tasavvur qilgani va o'rganishi haqidagi tanqidiy tahlilni taqdim etdi. Bu asar, XXI asrga kelib, islomshunoslik tadqiqotlarida katta ta'sir ko'rsatdi [19:156].

Bu davrda islomshunos fanlar doirasi kengaydi va yangi metodologik yondashuvlar shakllandi:

1. Ijtimoiy fanlar metodlarining qo'llanilishi
2. Antropologik tadqiqotlarning rivojlanishi
3. Musulmon jamoalarini o'rganishga e'tibor

1980-2000-yillar: zamonaviy tendensiyalar.

Bu davrda musulmon olimlarning Britaniya akademik doiralari kirishi kuzatildi. Ular an'anaviy g'arb metodologiyasi va islomiy bilimlarni uyg'unlashtirish yo'lida ish olib bordilar.

XXI asr: zamonaviy holat. XXI asrda Buyuk Britaniyada islomshunoslik sohasida

interdisiplinar yondashuvlar, ya'ni tarix, madaniyat, siyosat va ijtimoiy fanlar bilan birgalikda olib borilgan tadqiqotlar o'sdi. Xususan, siyosiy islom va ekstremizm masalalari katta ahamiyat kasb etdi. Bunga misol qilib, John L. Esposito va Dalia Mogahedning "Who Speaks for Islam? What a Billion Muslims Really Think" (2007) kitobini keltirish mumkin. Kitobda musulmonlarning fikrini aks ettiruvchi tadqiqotlar va statistik ma'lumotlar taqdim etilgan [6:45-67].

Islomshunoslikda madaniyatshunoslik tadqiqotlari ham katta ahamiyatga ega. "Islomskiy Mir" (Islamic World) va uning zamonaviy rivojlanishini o'rganish, asosan, Islomning madaniyatini yoritishga qaratilgan. Tariq Ramadanning "Western Muslims and the Future of Islam" (2004) kitobida, G'arbda yashayotgan musulmonlar va ularning madaniy integratsiyasi haqida chuqur tahlil mavjud.

Islom va G'arb munosabatlari ham XXI asrda izchil tadqiqotlar mavzusiga aylandi. Bu sohada, Edward Saidning "Orientalism" (1978) asari, G'arbning Islomni qanday tasavvur qilganini va undan qanday foydalanganini tahlil qiladi. Saidning asari XXI asrda ham ko'plab izlanishlarga asos bo'ldi [19:156].

Islomshunoslik tadqiqotlarining XXI asrdagi yana bir muhim yo'nalishi, Islomning zamonaviy talablarga, yangi siyosiy va ijtimoiy sharoitlarga qanday javob berishini o'rganishdir. Malise Ruthvenning "Islam in the World" (2006) asari, Islomning zamonaviy dunyodagi o'rnini va uning globallashtirish jarayonidagi ta'sirini ko'rsatadi [18:34].

Shu bilan bir qatorda hozirgi kunda Britaniyada islomshunoslik quyidagi yo'nalishlarda rivojlanmoqda:

1. Tarixiy-filologik yo'nalish
2. Ijtimoiy-siyosiy tadqiqotlar
3. Diniy-falsafiy yo'nalish [7:234]

Hozirgi kunda Buyuk Britaniyada islomshunoslik fanlari nafaqat musulmon dunyosini o'rganish, balki zamonaviy masalalar: migratsiya, musulmon diasporalari, diniy ekstremizm va madaniyatlararo muloqotni tadqiq qilish bilan ham shug'ullanmoqda. Markaziy ilmiy tadqiqot markazlari qatoriga Oxford Islomshunoslik Markazi va Cambridge Islom Tadqiqotlari Markazi kiradi [10:45-70].

XULOSA

Buyuk Britaniyada islomshunoslik fanlarining shakllanishi ko'p asrlik tarixiy jarayon bo'lib, Sharq va G'arb o'rtasidagi madaniy hamda ilmiy aloqalarning rivojlanishi bilan uzviy bog'liq. XVI-XVII asrlarda Sharq tillarini o'rganish va islomshunoslikning ilk qadamlari tashlangan bo'lsa, XIX asrda mustamlakachilik davrida bu sohaning amaliy ahamiyati oshdi. XX asrda akademik maktablarning shakllanishi natijasida islomshunoslik ilmiy soha sifatida mustahkam o'rin oldi. XXI asrda interdisciplinar yondashuvlar, siyosiy islom, madaniy integratsiya va zamonaviy muammolarni tadqiq qilish orqali bu yo'nalish yanada boyidi. Bu jarayon davomida metodologik yondashuvlar, tadqiqot yo'nalishlari va ilmiy maktablar rivojlandi. Britaniyada islomshunoslik nafaqat tarixiy va filologik tadqiqotlar, balki zamonaviy global masalalarni o'rganishda ham muhim rol o'ynamoqda.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Arberry, Arthur J. Persian Poetry. George Allen & Unwin, 1952, p. 34-51.
- Beeston, A.F.L. "Arabic Studies in Britain", Gerald Duckworth & Co. Ltd, 1982, p. 178.
- Browne, E.G. A Literary History of Persia. Cambridge University Press, 1902, p. 56-78.
- Burton, Richard. "The Study of Islam in Early Modern Europe." Routledge, 2003, p. 78-82.
- De'khanov, Nicolai. The History of Islamic Civilizations. Routledge, 1910, p. 93-111.
- Esposito, John L., Mogahed, Dalia. Who Speaks for Islam? What a Billion Muslims Really Think. Gallup Press, 2007, p. 45-67.
- Gilliat-Ray, S. "Muslims in Britain: An Introduction", Cambridge University Press, 2010, p. 234.
- Holt, P.M. "Studies in the History of the Near East", Frank Cass and Company Ltd, 1973, p. 128.
- Hourani, A. "Europe and the Middle East", The Macmillan Press Ltd, 1980, p. 45.
- Hourani, A. Islam in European Thought. Cambridge University Press, 1991, p. 45-70.
- Hourani, A. Islam in European Thought. Cambridge University Press, 1991, p. 120-150.
- Muir, W. The Life of Mahomet. London: Smith, Elder & Co., 1861, p. 12-65
- Muir, William. "The Life of Mahomet." London: Smith, Elder & Co., 1858, p. 46-50.
- Phillips, C.H. "The School of Oriental and African Studies", University of London Press, 1967, p. 34.
- Pocock, Edward. "Specimen historiae Arabum." Oxford University Press, 1650, p. 78.
- Pocock, Edward. "Specimen historiae Arabum." Oxford: Printed by H. Hall, 1650, p. 42-46.
- Prideaux, Humfrey. "The True Nature of Imposture Fully Displayed in the Life of Mahomet." Oxford University Press, 1697, p. 14-18.
- Ruthven, Malise. Islam in the World. Oxford University Press, 2006, p. 12-34.
- Said, Edward. "Orientalism", Pantheon Books, 1978, p. 156.
- Said, Edward. Orientalism. Pantheon Books, 1978, p. 23-45.
- Said, Edward. Orientalism. Pantheon Books, 1978, p. 50-72.
- Sale, George. "The Koran: Commonly Called the Alcoran of Mohammed." London: Printed for J. Wilcox, 1734, p. 3-9.

JAMOLOVA Ra'no Jaxongir qizi
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik yo'nalishi 1-kurs magistranti
ranojaxongirjamol@gmail.com

Ilmiy rahbar: **AGZAMOVA Muhabbat**
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
PhD, dotsent

MUHAMMAD ALI SOBUNIYNING ILMIY MEROSI

НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ МУХАММАДА АЛИ СОБУНИ

SCIENTIFIC HERITAGE OF MUHAMMAD ALI SABUNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada ahli sunna va al-jamoaga mansub zamonaviy olimlardan biri bo'lishiga qaramay, islom olamining atoqli olimlari qatorida sanalib ulgurgan Muhammad Ali Sobuniyning ilmiy faoliyati, asarlari va ilmiy merosi tahlil qilingan. Shuningdek, Sobuniyning islom ilmlaridan eng ko'p hissa qo'shgan sohasi bo'lgan tafsir ilmidagi uslublari uning eng mashhur tafsirlaridan foydalangan holda ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: tafsir ilmi, meros ilmi, aqida, olim, hadis, mufassir, Qur'on ilmlari

Аннотация: В данной статье анализируются научная деятельность, труды и научное наследие Мухаммада Али ас-Сабунни, который, несмотря на принадлежность к современным учёным Ахлю Сунна валь-Джамаа, уже считается одним из выдающихся учёных исламского мира. Также предпринята попытка раскрыть его методы в науке тафсир – области исламских наук, в которую он внёс наибольший вклад, – на примере его самых известных тафсиров.

Ключевые слова: наука тафсир, наука о наследии, акида, учёный, хадис, комментатор, наука о Коране.

Abstract: This article analyzes the scientific activity, works and scientific heritage of Muhammad Ali Sabuni, who was considered among the famous scientists of the Islamic world, despite being one of the modern scientists belonging to the people of Sunna and al-Jama'a. Also, an attempt was made to reveal Sabuni's methods in the science of tafsir, which is the field in which he contributed the most to Islamic sciences, using his most famous tafsirs.

Key words: tafsir science, heritage science, aqeedah, scientist, hadith, commentator, Qur'an sciences

KIRISH

Muhammad Ali Sobuniy 1930-yil Suriyaning Halab shahrida ulamolar oilasida tavallud topgan. Yoshlik chog'laridan islom ilmlaridan tahsil olib, talabalik davrini Qohiradagi "al-Azhar" universitetida o'tkazdi. 1952-yilda u yerda bakalavr darajasini, 1954-yilda esa magistrlik darajasini tamomlab, "Shar'iy sud mutaxassisligi" diplomini a'lo baholar bilan qo'lga kiritdi. Bu diplom o'sha vaqtlarda eng oliy diplom hisoblanib, hozirgi kundagi doktorlik diplomi bilan barobardir [17]. Muhammad Ali Sobuniy dastlab Halabda, keyin Madina shahrida mudarrislik qildi. Dars berishdan tashqari alloma ellikdan ortiq asarlar muallifi hamdir. Muhammad Ali Sobuniy Qur'on ilmlari, hadis ilmi, meros ilmi, fiqh, tafsirga oid sohalarda asarlar ta'lif etgan. Sobuniy samarali ijod qilgan soha tafsir sohasi bo'lib, u yozgan asarlarning katta qismini tafsir asarlari tashkil qilgan. Mufassir olim soni ellikka yaqin asarlaridan o'n oltitasini tafsir ilmiga bag'ishlagan. Muhammad Ali Sobuniyning ta'lif etgan tafsir asarlari orasida mo'tabar tafsirlardan bo'lgan "Tafsiri Tabariy" hamda "Tafsiri ibn Kasir"ga yozgan muxtasarlari mavjud.

Alloma ahkom tafsiri, ijmoiy tafsir va mufassal tafsirlar ta'lif qilgan bo'lib, ularning barchasi mutaqaddim va mutaaxxir ulamolarning tafsirlarini o'zida jamlagan. U yozgan tafsir kitoblari uslubining soddaligi va tilining yengilligi bilan ajralib turadi. Ushbu tafsirga oid asarlar ham naqlni, ham aqlni o'zida mujassam qilgan. Ularni ta'lif qilishda muallif hadislar va rivoyatlardan, shuningdek, ijtihoddan ham birdek foydalangan. Sobuniy o'tgan davr mufassirlari orasida eng ko'p asar yaratgan mufassirlardan biridir. Uning ko'plab asarlari ingliz, fransuz, rus, fors, turk va urdu kabi bir qancha tillarga tarjima qilingan. Qur'on va sunnat doirasida olib borgan izchil ilmiy faoliyati natijasida "Kitob va sunnat xodimi" unvoni bilan tanilgan. Muhammad Ali ibn Jamil Sobuniy Halabiy 2021-yilning 19-mayida haftaning juma kunida Turkiya shimolida joylashgan, Istanbul yaqinidagi Yalovo shahrida to'qson bir yoshida bu dunyodan ko'z yumdi.

ASOSIY QISM

Muhammad Ali Sobuniy hayotiy faoliyati davomida juda sermahsul mehnat qilgan bo'lib, turli sohalarda yozilgan asarlari buning isbotidir. Alloma islom ilmlarining ko'plab sohalarida, xossatan, hadis ilmi, qur'on ilmlari va fiqh kabi

fanlarda ham sezilarli xizmat qilib, mazkur ilmlar bo'yicha kitoblar ta'lif qilgan. "At-Tibyan fi ulum al-Qur'an" va fiqhga oid "Al-Fiqhu ash-shar'iy al-muyassar" asari hamda "Sihohi sitta" ("Olti sahih to'plam") kitoblarining sharhi bo'lgan "Min kunuzi as-sunnat an-nabaviyya al-mutohharoh" ("Pok nabaviy sunnat xazinalari") kitoblari shular jumlasidandir.

"Sofvatu at-tafosir" ("Tafsirlar sarasi"), "Al-Mavaris fi ash-shari'ati al-islamiyyah" ("Islom shari'atida meroslar"), "As-Sunnatu an-nabaviyya qismun min al-vahyi al-munazzal" ("Sunnati nabaviyya – Ilohiy vahiyning bir qismi"), "Harokatu al-arz va davronuha – haqiqotun ilmiyyatun asbataha al-Qur'an" ("Yer harakati va aylanishi – Qur'on isbot qilgan ilmiy haqiqatdir") va boshqa ko'plab kitob va maqolalar muallifidir. [17] Bundan tashqari, mujtahid mazhabboshilarning Qur'ondan qanday hukm olishlari yoritilgan "Ravoi'u al-bayan fi tafsir ayat al-ahkam" nomli asari O'zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi oliy va o'rta maxsus islom bilim yurtlarida o'qitib kelinmoqda. Ushbu asar Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institutining o'quv rejasiga kiritilgan bo'lib, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf bu kitobdan dars bergan ilk ustoz hisoblanadi. Muhammad Ali Sobuniyning tafsir ilmida olib borgan izlanishlari uning zamonaviy mufassir sifatida shuhrat topishiga yo'l ochdi. U hayoti davomida yozgan ellikka yaqin asarlari orasidan o'ndan ortig'i tafsir ilmiga bag'ishlangan. Ular quyidagilar:

1. صفوة التفسير (Sofvatu at-tafosir, "Tafsirlar sarasi");
2. روائع البيان في تفسير آيات الأحكام من القرآن (Rovai'u al-bayan fi tafsir ayat al-ahkam min al-Qur'an, "Qur'ondagi hukm oyatlari tafsirida bayon durdonalari");
3. قبس من نور القرآن الكريم (Qobsun min nur al-Qur'an al-karim, "Muqaddas Qur'oni karim nuridan bir ko'rinish");
4. التفسير الواضح الميسر (At-Tafsiru al-vazih al-muyassar, "Osonlashtirilgan ochiq-oydin tafsir");
5. إيجاز البيان في سور القرآن (Ijazu al-bayan fi suvar al-Qur'an, "Qur'on suralaridagi bayoniy e'joz");
6. كشف إفتراءات في رسالة التنبيهات حول صفوة التفسير (Kashfu al-iftiroat fi risala at-tanbihat havla "Sofvati at-tafosir", "Sofvatu at-tafosir" borasidagi tanbehlari risolasidagi tuhmatlarni fosh qilish");
7. درة التفسير (Durrotu at-tafasir, "Tafsirlar marvaridi");
8. معاني القرآن للنحاس (Ma'oni al-Qur'an li an-Nahhos, "Nahhosning "Qur'on ma'nolari");

9. المقتطف من عيون التفسير للمنصوري (Al-Muqtatof min uyun at-tafasir li al-Mansuriy, "Mansuriyning "Tafsirlar ko'zlari"dan parcha");

10. مختصر تفسير ابن كثير (Muxtasar tafsir ibn Kasir, "Tafsiri ibn Kasir"ga muxtasar");

11. مختصر تفسير الطبري (Muxtasar tafsir Tabariy, "Tafsiri Tabariy"ga muxtasar");

12. تنوير الأذهان من تفسير روح البيان للبروسوي (Tanviru al-azhan min tafsir "Ruh al-bayan" li Burusaviy, "Burusaviyning "Ruh al-bayan" tafsiridan zehnlarni yoritish");

13. فتح الرحمان بكشف ما يلتبس في القرآن للأنصاري (Fathu ar-rohman bikashfi ma yaltabisu fi al-Qur'an li al-Ansoriy, "Ansoriyning "Rohmanning fosh qilish bilan Qur'ondagi noaniq narsalarni ochishi");

14. الإبداع البياني في القرآن الكريم (Al-Ibda'u al-bayaniy fi al-Qur'an al-karim, "Qur'oni karimda ijodiy bayon");

15. تفسير الدعوات المباركات في القرآن الكريم (Tafsiru ad-da'avat al-mubarakat fi al-Qur'an al-karim, "Qur'ondagi muborak duolarning tafsiri");

16. التبيان في علوم القرآن (At-Tibyan fi al-ulumi al-Qur'an, "Qur'on ilmlarining ifodasi"). [1;13-15]

Mazkur tafsir asarlarining har biri o'ziga xos bo'lib, alohida uslubga ega. Ular orasida turli yo'nalishda ta'lif etilganlari bor. Jumladan, "Sofvatu at-tafosir", "at-Tafsiru al-vazih al-muyassar" hamda "Rovai'u al-bayan fi tafsir ayat al-ahkam" kabi asarlarlar muallifga tegishli tafsir asarlari bo'lsa, "Muxtasar tafsir ibn Kasir", "Muxtasar tafsir Tabariy" asarlari esa o'z nomi bilan mo'tabar tafsirlarning qisqartmalaridir. Bulardan "Ma'oni al-Qur'an li an-Nahhos" asari tadqiqot bo'lib, alloma uni "Ummu al-quro" universitetiga qarashli "Islom merosini ilmiy tadqiq qilish va qayta tiklash" markazida ishlash chog'ida ta'lif qilgan. Muallifning "At-Tibyan fi al-ulumi al-Qur'an" asari esa Qur'on ilmlari haqida yozilgan bo'lib, Sobuniy kitobida ushbu ilmlardan sanaluvchi sababi nuzul, yetti harf, tafsir va ta'vilning farqi, Qur'ondagi e'joz kabi masalalarni oson va sodda til bilan tushuntirib bergan. Mavzuni yoritishda barcha mashhur fikrlarni keltirib o'tib, so'ng o'zi maqbulroq deb bilgan fikrni ham ko'rsatgan. Asarda "Tafsir va mufasssirlar" nomli alohida qism ham bo'lib, unda tafsir va ta'vilning izohi, ular orasidagi farqlar hamda mufasssirlarning bu boradagi qarashlari qanday bo'lgani haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. Ushbu tafsir asarlarning aksariyati islom ilmlarini o'rgatuvchi bir qator bilim yurtlarida tafsir ilmini o'qitishda foydalanib kelinadi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

“Sofvatu at-tafosir” (“Tafsirlar sarasi”) asari Muhammad Ali Sobuniy tomonidan ta’lif etilgan asarlar orasida eng mashhuridir. Asar uslubining osonligi va tilining soddaligi bilan ushbu sohada yozilgan boshqa asarlardan ajralib turadi. Asar o’zining oson uslubi hamda keng ma’nolarni o’zida jamlagani bilan talabalar orasida shuhrat qozongan. Ushbu tafsirning yozilishidan asosiy maqsad ham aynan talabalar hamda tafsirga qiziquvchilar uchun mutaqqaddim va mutaaxxir olimlarning tafsirlaridagi qarashlarning eng muhimlarini zamonaviy tafsir namoyondalarining qarashlari bilan jamlagan holda qisqa hamda oson tarzda yetkazib berishdir.

Mazkur asar 1979-yilda yozib tugatilgan bo’lib, besh yil davomida yozilgan. “Sofvatu at-tafosir” asari o’zining yengil uslubi va soddagi tili tufayli ahli ilmlar orasida shuhrat qozonish bilan birga nafaqat arab olamida, balki Yevropada ham o’z kitobxonlariga ega bo’lgan. Jumladan, asar Germaniyada chop etilib, musulmonlarga tekinga tarqatilgan. Birinchi nashridan yigirma yil o’tib, muallif ushbu tafsir kitobiga qayta to’ldirishlar kiritgan va tafsirda vorid bo’lgan hadislarini taxrij qilishga hamda sababi nuzulni yoritishga ko’proq ahamiyat bergan. “Sofvatu at-tafosir” o’zida rivoyat yo’li bilan tafsir qilish hamda ra’y yo’li bilan tafsir qilishni jamlagan. Shunday bo’lsa-da, muallif tafsir kitobida ko’proq naqliy tafsirga tayangan. Tafsirdagi har bir ma’lumotga asarlardan dalil topishga harakat qilgan. “Sofvatu at-tafosir”ni yozishda qadimda yashab o’tgan mashhur mufasssirlarning mo’tabar tafsirlarini asos qilib olgan. Faqatgina ma’sur xabar topilmay qolgan mavzular yoki tafsirdagi balog’iy o’rinlar, suralar va oyatlararo munosabat ilmi, shu bilan birga voqe’likdagi masalalar borasidagina ijthodga tayanib, aqliy tafsirga murojaat qilgan.

Muhammad Ali Sobuniyning asarlari zamonaviy davrda ta’lif qilingan bo’lsa ham, ilm o’rganuvchilar orasida shuhrat topib, turli tillarga tarjima qilinishga ulgurgan. Tafsir sohasiga oid asarlaridan “Sofvatu at-tafosir” asari 1990-yilda Sadridin Gumush va Nedim Yilmaz (Sadreddin Gümüş, Nedim Yılmaz) tomonidan turk tiliga tarjima qilingan va yetti jildli kitob holida nashr etilgan bo’lib, ushbu kitob aslida uch jilddan iborat. Muallifning “Rovai’u al-bayan fi tafsir ayat al-ahkam” nomli yana bir asari Mazhar Tashkesenli o’g’li (Mazhar Taşkesenlioğlu) tomonidan “Qur’oni karimning ahkom tafsiri” (“Kur’an’ı Kerim’in Ahkam Tefsiri”) nomi bilan turk tiliga

ikki jildda tarjima qilingan. Ushbu tafsir bir qancha ta’lim dargohlarida darslik sifatida o’qitiladigan asarlardan bo’lib, O’zbekistonning Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti bu asarni darslik sifatida o’qitishni boshlab bergan ilk bilim yurti hisoblanadi va hozirgacha talabalarga o’qitib kelinadi.

Asardagi uslubga ko’ra, dastlab suraning qisqacha mazmuni, so’ng munosabat, lug’at, sababi nuzul, balog’at ilmi va sura o’zida mujassam qilgan foyda-xususiyatlar bayon qilingan. “Sofvatu at-tafosir” ham naqlni, ham aqlni o’zida jamlagan tafsir bo’lib, Muhammad Ali Sobuniy rivoyatlarga suyangani, hech qanday rivoyat kelmagan o’rinlarda va balog’atga doir o’ziga xosliklarni zikr qilishda ijthodga tayangan. “Sofvatu at-tafosir” Qur’oni karim tafsiri sohasiga bag’ishlangan mutaqqaddim va mutaaxxir mufasssirlarning tafsirlari ma’nolarini o’zida jamlagan hamda ushbu tafsir o’ziga xos uslubi va oson iborasi bilan boshqa tafsirlardan ajralib turadi.

“Rovai’u al-bayan fi tafsir ayat al-ahkam” asari “Sofvatu at-tafosir”dan so’ng allomaning ikkinchi eng mashhur asari sanaladi. “Rovai’u al-bayan fi tafsir ayat al-ahkam” asari ahli sunna va al-jamoaga rioya qilingan holda mutaqqaddim va mutaaxxir mufasssirlarning qarashlari jamlangan fiqhiy tafsirdir. U ahkom tafsiri bo’lib, ma’ruzalar shaklida jamlangan. Fiqhiy oyatlarni tafsir qilishda mazhablararo Qur’ondan hukm olish yoritilgan va har bir dalil yuzasidan mufasssirlarning qarashlari keltirilgan. Mazkur tafsir asari Sobuniy tomonidan yozilgan eng so’nggi asar hisoblanib, uni ta’lif qilishda alloma yigirmadan ortiq asarlarga murojaat qilgan. Ular orasida hadis kitoblari, mutaqqaddim ulamolarga tegishli mo’tabar tafsirlar va zamonaviy olimlar qalamiga mansub tafsirlar, lug’at ilmiga oid asrlar va arab adabiyotiga oid she’rlar mavjud. Asarning asl nomi “Rovai’u al-bayan fi tafsir ayat al-ahkam min al-Qur’an” bo’lib, “Rovai’u al-bayan fi tafsir ayat al-ahkam” hamda qisqa shaklda “Rovai’u al-bayan” deb ham nomlanadi. Ushbu tafsir alloma umrining so’nggida yozgan asar bo’lib, unda Qur’onda kelgan hukmiy oyatlar tafsiri qadimgi va zamonaviy mufasssirlarning qarashlari mazhablar doirasida keltirilgan. Hukmiy oyatlarning umumiy tafsirida esa “Sofvatu at-tafosir” asarida berilgan tafsirdan foydalanilgan. Ushbu tafsirda mufasssir Makkadagi “Islom huquqi” fakultetidagi shogirdlariga bergan darslarini birlashtirgan holda ta’lif qilgan. O’zida mutaqqaddim ulomolarning fiqhiy tafsirlarining ma’nolarini jamlagan bu tafsir

barcha hukmiy oyatlarni qamrab olgan. “Rovai’u al-bayan fi tafsir ayat al-ahkam” asari ahli sunna va al-jamoa yo‘nalishida yozilgan asar hisoblanib, ushbu hukmiy tafsir tartibli va sodda uslubga ega.

Muhammad Ali Sobuniy “Rovai’u al-bayan fi tafsir ayat al-ahkam” asarini umumiy yetmishta ma’ruza sifatida keltirgan va unga doir suradagi hukmiy oyatlarni alohida nomlangan sarlavhalar ostida bayon qilgan. Tafsir “Fotiha” surasi bilan boshlanib, “Muzzammil” surasi bilan tugaydi. Asarda faqatgina hukmiy oyatlar keltirilgan, shu jihatdan “Rovai’u al-bayan fi tafsir ayat al-ahkam” Qur’onning to‘liq tafsiri hisoblanmaydi. Asardagi suralar tafsiri ham faqat hukmi bor oyatlar bilan cheklangan bo‘lib, hukmiy bo‘lmagan oyatlar tark qilingan. Ushbu tafsirni alloma mavzularga bo‘lib chiqqan hamda mavzularning nomini tafsir qilinayotgan oyatlarda kelgan hukmlarga ko‘ra nomlagan. “Rovai’u al-bayan fi tafsir ayat al-ahkam” asari jami yetmishta mavzudan iborat bo‘lib, birinchi jildda qirqta, ikkinchi jildda esa o‘ttizta mavzu keltirilgan. Muhammad Sodik Muhammad Yusuf Sobuniyning meros ilmi borasidagi asariga qilgan tarjimasining muqaddima qismida olimning “Rovai’u al-bayan fi tafsir ayat al-ahkam” asarini Toshkent Islom instituti o‘quv rejasiga kiritganini va birinchi bo‘lib mazkur kitobdan dars berishga muvaffaq bo‘lganini bayon qilgan. [2;7]

Muhammad Ali Sobuniy asarlaridan bo‘lgan “At-Tibyan fi ulumi al-Qur’an” asari bir jildan iborat kitob bo‘lib, muallif uni 1986-yilda Makka universiteti “Ummu al-quro”da o‘qituvchilik qilayotgan vaqtida ta’lif qilgan. Ushbu kitob mazkur bilim yurtida darslik sifatida o‘qitilgan. Asarda Sobuniy Qur’on ilmlariga oid bo‘lgan sababi nuzul ilmi, yetti harf va qiroatlar masalasi, Qur’on e’jozi va Qur’on mo’jizalari, tafsir va mufassirlar hamda ushbu mavzuga doir masalalarni yoritgan. Asar 1996-yildayoq “Qur’on ilmlari” (“Kur’an İlimleri”) nomi bilan Zaynal Abidin Tatli o‘g‘li (Zeynel Abidin Tatlıoğlu) tomonidan turk tiliga tarjima qilingan.

Muhammad Ali Sobuniy ta’lif etgan “Qobsun min nur al-Qur’an al-karim” asari diroyat yo‘li bilan qilingan tafsirdir. Tafsir, aslida, o‘n olti juzdan iborat bo‘lib, har ikki juz bir jildga jamlanib, sakkiz jildda nashr qilingan. Mufassir ushbu tafsir asarida har surani alohida bob sifatida berib, oyatlarni ketma-ket keltirib, tafsir qilgan. Muayyan sura yoritilgan bobga sarlavha qo‘yish orqali tafsir qilinayotgan suraning ma’nosini yanada boyitgan.

Tafsir 1998-yilda yozilgan va qisqa muddatda turli tillarga tarjima qilingan. Jumladan, asar 2000-yilda turk tilida nashr etilgan.

Muhammad Ali Sobuniy tafsir ilmidagi xizmatlari bilan shuhrat topganiga qaramay, tanqidlarga ham uchragan. Mana shunday tanqidlardan biri Muhammad ibn Zayno va Solih ibn Abdulloh ibn Fuzanning “Tanbihatun hammatun ala kitab “Sofvatu at-tafosir” li Shayx Muhammad Ali Sobuniy” nomli asari bo‘lib, Muhammad Ali Sobuniyga o‘n sakkiz masalada raddiya keltirilgan. Ushbu raddiyalarga qarshi Sobuniy “Kashfu al-iftiroat fi risala at-tanbihat havla “Sofvati at-tafosir”” asarini yozgan. Ushbu asar nomi o‘zbek tilida “Sofvatu at-tafosir” borasidagi tanbehlar risolasidagi tuhmatlarni fosh qilish” degan ma’noni anglatadi. Muallif bu asarida o‘ziga berilgan raddiyalarni ochiqlab, ushbu iddaolarga javob bergan.

Alloma qalamiga mansub tafsirlardan biri – “at-Tafsiru al-vazih al-muyassar” ham ijmoliiy tafsirdir. Mazkur tafsir asari ham naqliy, ham aqliy tafsir bo‘lib, unda ham mutaqqaddim va zamonaviy olimlarning tafsirlari uyg‘unlashtirilgan holda keltirilgan. Sura va oyatlarni tafsir qilishda uning nozil bo‘lish sabablari bayon etilgan va unga doir nabaviy hadislar dalil sifatida keltirilgan. “Tafsir al-vazih al-muyassar” asari ham ijmoliiy tafsir sifatida yozilgan. Muallif uni ta’lif qilishda shu sohada mutaxassis bo‘lganlar uchun ham, omma foydalanishi uchun ham o‘ta qisqa, faqatgina oyatlarning ma’nolarini ochib beradigan qilib yozgan. Ushbu asar ham Muhammad Ali Sobuniyning boshqa asarlari kabi oson uslub va yengil ifodalar bilan ta’lif etilgandir. Asarda aksariyat omma bexabar bo‘lgan masalalar zikr qilinmagan, balki har bir musulmon bilishi lozim bo‘lgan asosiy jihatlarni qisqa va sodda til bilan bayon qilgan.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan xulosa qilinsa, Muhammad Ali Sobuniy ilmiy faoliyati davomida tafsir asarlari orqali Qur’on ma’nolarini insonlarga yetkazishga qattiq harakat qilgan. Ta’lif etgan asarlarini nafaqat shu soha vakillari uchun, balki har qanday inson o‘qishi uchun sodda til va yengil uslubda yozgan. Uning tafsirlari orasida juda ixcham qilib yozilgan tafsir asari ham bor (“at-Tafsir al-vazih al-muyassar”), o‘rta hajmda, tafsir ilmiga kirish uchun muqaddima sifatida yozilgan tafsir asari ham bor (“Sofvatu at-tafosir”) hamda

Qur'on oyatlarining ma'nolari mufasssal tarzda keltirilgan tafsir asari ham bor ("Qobsun min nur al-Qur'an al-karim").

Muhammad Ali Sobuniy soni ellikka yaqin asarlaridan o'n oltitasini tafsir ilmiga bag'ishlagan. U ta'lif etgan tafsir asarlari orasida mo'tabar tafsirlardan bo'lgan "Tafsiri Tabariy"ga yozgan muxtasari ham mavjud. Alloma ahkom tafsiri, ijmoliy tafsir va mufasssal tafsirlar ta'lif qilgan bo'lib, ularning barchasi mutaqaddim va mutaaxxir ulamolarning tafsirlarini o'zida jamlagan. U yozgan tafsir kitoblari uslubining soddaligi va tilining yengilligi bilan ajralib turadi. Ushbu tafsirga oid asarlar ham naqlni, ham aqlni o'zida mujassam qilgan. Ularni ta'lif qilishda muallif hadislar va rivoyatlardan, shuningdek, ijthoddan ham birdek foydalangan.

Ilk davrlarda yozilgan tafsirlar o'zida juda katta ma'lumotlarni jamlagan va katta hajmli bo'lgan. Talabalar ularni o'qish natijasida ko'plab foydalarga ega bo'lsalar-da, kitoblarning keng qamrovli va katta hajmli bo'lgani sababidan sanoqlilargina ularni to'liq o'qiy olgan. Hozirgi zamonda esa bu tafsirlardan to'liq istifoda olish yanada qiyinlashgan. Tilning murakkabligi va ularni mutolaa qilish ko'p vaqt talab qilishi kabi omillar bunga to'siq bo'luvchi asosiy sabablardan sanaladi. Shu sababdan, Muhammad Ali Sobuniyning zamonaviy tafsir ilmiga qo'shgan hissasi uning an'anaviy metodologiyalarni qayta tiklashi, turli islom ilmlarini integratsiyalashuvi, kontekst tahliliga urg'u berishi, ilmiy nashrlar va tarbiyaviy ta'sirga ega ekanligi bilan ajralib turadi. U zamonaviy islomshunoslikda Qur'onni o'rganish va talqin qilishni shakllantirishda davom etayotgan muhim shaxslardan hisoblanadi.

Muhammad Ali Sobuniy o'zidan juda katta ilmiy asarlarni meros qilib qoldirgan. Ushbu ilmiy asarlar ichida Qur'on ilmlari va tafsir, siyrat va islom tarixi, fiqh, hadis va aqida ilmi, astronomiya hamda mazkur ilmlar tarkibidagi muayyan mavzuga xoslangan asarlarni uchratish mumkin. Uning ellikka yaqin asarlari orasidan o'ndan ortig'i tafsirlardan, o'nga yaqini esa hadislar va siyrat asarlaridan iborat. Allomaning asarlaridan katta qismini tafsir sohasidagi asarlar egallagan. Uning "Sofvatu at-tafosir" va "Rovai'u al-bayan fi tafsir ayat al-ahkam" asarlari eng mashhur zamonaviy tafsir sifatida alohida ahamiyatga ega. Muhammad Ali Sobuniy tafsir ilmi sohasidagi faoliyatining asosini Qur'onning ko'zlangan ma'nolarini salaf olimlarining eng rojih qavllari va xalaf olimlarining qarashlari bilan birlashtirgan holatda insonlarga

yetkazishdan iborat bo'lgan. Bunda u ko'plab tafsirlar o'zida jamlagan ulkan ma'nolarni sodda jumlar bilan qisqa qilib keltirishni va yengil uslublardan foydalanishni asos qilib olgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Isom Ahmad Irsan Shahada. Sobuniy va manhajuhu fi at-tafsir min xilal kitabihi "Sofvatu at-tafosir". – Nablus: Najah milliy universiteti, 2013. – 220 b.
2. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom shariatida meros ilmi. – Toshkent: Hilol-nashr, 2022. – 234 b.
3. Muhammad Ali Sobuniy, Sofvatu at-tafosir. I-III. – Istanbul: Dar as-siroj, 2020. – J. I. – 842 b.
4. Muhammad Ali Sobuniy, Sofvatu at-tafosir. I-III. – Istanbul: Dar as-siroj, 2020. – J. II. – 840 b.
5. Muhammad Ali Sobuniy, Sofvatu at-tafosir. I-III. – Istanbul: Dar as-siroj, 2020. – J. III. – 932 b.
6. Muhammad Ali Sobuniy. Rovai'u al-bayan fi tafsir ayat al-ahkam. I-II. – Jakarta: Daru al-a'lamiyya, 2015. – J. I. – 520 b.
7. Muhammad Ali Sobuniy. Rovai'u al-bayan fi tafsir ayat al-ahkam. I-II. – Jakarta: Daru al-a'lamiyya, 2015. – J. II. – 536 b.
8. Muhammad Ali Sobuniy. At-Tibyan fi al-ulum al-Qur'an. – Tehron: Dar ihsan, 2003. – 235 b.
9. Muhammad Ali Sobuniy. Qobsun min nur al-Qur'an al-karim. I-XVI. – Damashq: Dar al-qalam, 1988. – J. I. – 183 b.
10. Muhammad Ali Sobuniy. Kashfu al-iftiroat fi risala at-tanbihat havla "Sofvati at-tafosir". – Ummon: Daru Ammor, 1989. – 166 b.
11. Prof. Dr. Hasan Keskin, Prof. Dr. Mehmet Soysaldi va boshq. Muhammad Ali Sobuniy va tafsir ilmidagi o'rni. – Anqara: Qosim, 2022. – 232 b.
12. Bakr Abu Zayd. At-Tahzir min muxtasarot Sobuniy. – Qohira: Daru ibn Javziy, 1990. – 88 b.
13. Rahimjonov D. Tafsir matnlari. 1-qism: o'quv qo'llanma. – Toshkent: "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021. – 180 b.
14. Ismoil Jarroho'g'li. Tafsir usuli. – Anqara: Anqara Universiteti Basimevi, 1971. – 248 b.
15. Duran Ali Yıldırım. Muhammed Ali Sâbûnî'nin bazi tefsir problemlerine yaklaşımları. – Istanbul: Kitap Dünyası Yayınları, 2021. – 67 b.
16. Foydalanilgan saytlar:
17. G'ayratov Sh. Imom Muhammad Ali Sobuniyning ijodiy uslubi // <https://xojabuxoriy.uz/?p=2307>
18. Muhammad Yahyoxon Muhammadxon o'g'li. Muhammad Ali Sobuniy // <https://xojabuxoriy.uz/?p=110&lang=uz>
19. Imom Muhammad Ali Sobuniyning hayot yo'li (15.12.2023)//
20. <https://nasafziyo.uz/index.php?newsid=6907>

MIRZARAXIMOV Oyatulloh

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
Islomshunoslik ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi*

Ilmiy rahbar: PALVANOV O'ktam Bazarbayevich

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish
ICESCO kafedrasi dosenti, PhD*

SADRUSHSHARIA UBAYDULLOH IBN MAS'UD HAYOTI VA FAOLIYATI

ЖИЗНЬ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ САДРУШШАРИИ УБАЙДУЛЛАХА ИБН МАСУДА

LIFE AND WORK OF SADRUSHSHARIA UBAYDULLAH IBN MAS'UD

Annotasiya. Ushbu maqola Ubaydulloh ibn Mas'udning hayoti va ijodiga oid bo'lib, unda olimning ilm yo'li va islom olamida tutgan o'rni haqida ma'lumotlar keltiriladi. Shu bilan birga, ushbu maqolada allomaning asarlari haqida ham qisqacha ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Ubaydulloh ibn Mas'ud, Buxoro, Sadrushsharia, "Ta'dil al-ulum fi-l-kalom", "Muxtasar al-viqoya", faqih, mutakallim, kalom.

Аннотация. Эта статья посвящена жизни и творчеству Убайдуллаха ибн Мас'уда, в которой содержится информация о его пути в науке и роли в исламском мире. Также в статье кратко рассказывается о научном наследии и произведениях этого ученого. Убайдуллох ибн Мас'уд был известным факихом и мутакаллимом. Его работы, такие как "Та'диль ал-улум фи-л-калам" и "Мухтасар ал-викая", оцениваются как важное достижение в исламской науке.

Ключевые слова: Убайдуллох ибн Мас'уд, Бухара, Садрушшария, "Та'диль ал-улум фи-л-калам", "Мухтасар ал-викуя", факих, мутакаллим, калам.

Annotation. This article is dedicated to the life and work of Ubaydullah ibn Mas'ud, providing information about his academic path and his role in the Islamic world. The article also briefly discusses the scholarly legacy

and works of this scholar. Ubaydulloh ibn Mas'ud was a prominent faqih and mutakallim. His works, such as "Ta'dil al-ulum fi-l-kalam" and "Muxtasar al-viqoya," are considered major contributions to Islamic science.

Keywords: Ubaydullah ibn Mas'ud, Bukhara, Sadrushsharia, "Ta'dil al-ulum fi-l-kalam," "Muxtasar al-viqoya," faqih, mutakallim, kalam.

KIRISH

Mavarounnahr diyori ko'plab alloma va mutafakkirlarni yetishtirib chiqqan diyor sifatida tilga olinadi. Bu o'lkada dunyo tamadduniga o'z hissasini qo'shgan ko'plab allomalar yashab ijod qilganlar. Bu olimlar nafaqat dunyo olamida balki islom olamida ham e'zozlanadilar.

Islom ilmlarining taraqqiyotida fiqh va kalom ilmi muhim o'rin tutadi. Ushbu fanlarning shakllanishi, rivojlanishi va nazariy asoslarini mustahkamlashda ko'plab allomalar xizmat qilgan. Ana shunday yetuk ulamolardan biri Sadrushsharia Ubaydulloh ibn Mas'ud bo'lib, u hanafiy fiqhining yirik namoyandalaridan sanaladi. Uning ilmiy merosi islom fiqhi, kalom va usul ilmlariga ulkan ta'sir ko'rsatgan.

Ubaydulloh ibn Mas'ud XIV asrda yashab, hanafiy mazhabi doirasida fiqh va usul ilmini chuqur o'rgangan, o'zining fundamental asarlari bilan islom huquqshunosligi rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Ayniqsa, uning "Ta'dil al-ulum fi-l-kalom" asari fiqh va kalom munosabatlarini tahlil qilishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Uning "Tanqih fi usulul fiqh" va "Tavzih sharhut tanqih" asarlari esa usul al-fiqh ilmining asosiy manbalaridan biri sifatida hanuzgacha o'rganiladi.

ASOSIY QISM

Bu imomning to'liq ismi Sadrushsharia al-Asg'ar Ubaydulloh ibn Mas'ud ibn Tojushsharia Mahmud ibn Sadrushsharia Ahmad ibn Jamoluddin Ubaydulloh al-Mahbubiy al-Buxoriydir.

Unga "Sadrushsharia al-Asg'ar" laqabi berilgan. Olimning katta bobolarining laqabi ham "Sadrushsharia" bo'lganligi uning nasablari yuqoriligiga dalolat qiladi. Shuning uchun, katta bobo "Sadrushsharia al-Akbar" (Katta Sadrushsharia), nabira esa, "Sadrushsharia al-Asg'ar" (Kichik Sadrushsharia) deb atalgan. Ba'zi manbalarda ikkovlari "Sadrushsharia birinchi"

va “Sadrushsharia ikkinchi” deb ham farqlangan [4:65].

Ammo, “Sadrushsharia” laqabi asosan Ubaydulloh ibn Mas’udga nisbatan ishlatilgan.

Imom Sadrushsharia Ubaydulloh ibn Mas’ud Buxoro shahrida, ota-bobolaridan boshlab barcha avlodlari ilm va fiqh ulamolari bo’lib kelayotgan oilada tug’ilib, voyaga yetdilar.

Ubaydulloh ibn Mas’udning nasabi haqida hindistonlik mashhur olim Abdulhay Laknaviyning yozishicha, Sayyid Ahmad at-Tahoviyning shogirdi al-Mavlo Abdulmo’min ad-Dimyotiy “Taoliqul-anvor ala durril-muxtor” (“Durrul-muxtor kitobiga yorqin hoshiyalar”) nomli asarida, uning nasabini sahoba Uboda ibn Somitga bog’laydi. Shu o’rinda bu zot: “Men shayximiz Sayyid Murtazo Husaynining silsilarida Sadrushsharianing nasabi zikr qilinganini ko’rdim. U esa, quydagichadir: Mas’udning o’g’li Ubaydulloh, u Tojushsharia Mahmudning o’g’lidir, u katta Sadrushsharia bo’lgan Ahmadning o’g’li, u dinning jamoli hamda go’zal xulqlar otasi sanalmish Ubaydullohning o’g’li, u esa, Ibrohimning o’g’li, Ibrohim esa, Ahmadning o’g’li u Abdulmalikning o’g’li, u Amsarning o’g’li, u esa, Abdullazizning o’g’li, u Muhammadning o’g’li, u Ja’farning o’g’li, Ja’far Xolafning o’g’li, u esa Horunning o’g’li, Horun esa Muhammadning o’g’li, u Mahbubning o’g’li, u Validning o’g’li Valid esa mashhur sahoba Uboda ibn Somit (r.a) ning o’g’li bo’lgan. Sayyid Murtazo Husayniy Ubaydullohning nasabini Buxoro tarixida ko’rdim. U zot o’z shajarasini bobosi bo’lmish Mahmuddan, u otasi Ahmaddan, u Jamoluddin Ubaydullohdan, u Ibrohim Al-Mahbubiydan olganligini aytganlar. Al-Kufiy, Mulla Ali al-Qori va Zahabiylar tomonidan taqdim etilgan Jamoliddin Ubaydullohning tarjimai holi, hamda al-Kufiydan katta Sadrushsharia Ahmad ibn Ubaydulloh ibn Ibrohim haqida jamlangan ma’lumot, Tojushsharia ota tomonidan kichik Sadrushsharia, ya’ni “Sharhul-viqoya” kitobi muallifining bobosi ekani ma’lum bo’ladi [1:97].

Ubaydulloh ibn Mas’ud bobolari imom Tojushsharia Mahmud ibn Sadrushsharianing tarbiyalari natijasida mashhur alloma bo’lib yetishdilar. Alloma Buxoro fiqh maktabiga mansub faqihlardan hisoblangan [3:23].

Imom Sadrushsharia Ubaydulloh ibn Mas’ud Buxoriyning ustozlar silsilasi jihatidan Abu Hanifa

(r.a) ga etib boradi. Quyidagi tartibda:

1. Bobolari Tojushsharia Mahmud ibn Sadrushsharia.
2. Katta bobolari Ahmad ibn Jamoluddin.
3. Jamoluddin Ubaydulloh al Mahbubiy.
4. Shayx imom Muftiy Imomzoda.
5. Shayx Imoduddin.
6. Shamsulaimma Zaranjariy.
7. Imom Saraxsiy.
8. Imom Halvoniy.
9. Abu Ali Nasafiy.
10. Imom Mahmud ibn Fazl.
11. Imom Subazmuniy.
12. Abdulloh ibn Abu Hafs Kabir.
13. Imom Muhammad ibn Hasan Shayboniy.
14. Imom Abu Hanifa.

Ustozlar silsilasidan ko’rinib turibdiki, Imom Sadrushsharia Ubaydulloh ibn Mas’ud zamonasining ko’zga ko’ringan allomalaridan bo’lib, ayniqsa usulul fiqh, furu’ul fiqh, xilof, jadal, hadis, nahv, lug’at, adabiyot, ilmi kalom, mantiq kabi ilmlarda peshqadam bo’lganlar [5].

Ubaydulloh ibn Mas’ud ko’plab asarlar muallifi bo’lib, ulardan quyidagilarni zikr qilish mumkin:

1. “Al-Vishoh”.
2. “Ta’dil al-ulum fi-l-kalom”.
3. “Sharhul viqoya”.
4. “Muxtasarul viqoya”.
5. “Tanqih fi usulul fiqh”
6. “Tavzih sharhut tanqih”
7. “Al-Muqoddimatul arba’a”.
8. “Ash-Shurut val-Mahozir”.

Imomning deyarli har bir kitobi birlamchi manbalarga tayanganligi, o’zidan yuqori turuvchi olimlar qarashlariga asoslanganligi va bayon qilish uslubi osonligi ularni o’z zamonasidayoq mashhur bo’lib, keyinchalik ko’plab sharhlar yozilishiga sabab bo’lgan. Olimlar Ubaydulloh ibn Mas’udning birgina “Muqaddimatul-arba’a” nomli asariga ko’plab sharh va hoshiyalar yozishishgan.

Bundan tashqari usulul fiqh ilmining yanada rivoj topishida Sadrushsharialar sulolasining davomchisi Ubaydulloh ibn Mas’udning “at-Tavzih fi halli g’ovomizit-tanqih” asari alohida o’rin egallaydi. Muhaqqiq olim Abdulhay Laknaviy Ubaydulloh ibn Mas’udni “shariat qonunlarining soqchisi, asliy va far’iy ilmlar ustoz, aqliy va naqliy fanlar faqihi va usulul fiqh bilimdoni” deya

yuksak baho beradi. Shunisi alohida e'tiborga sazovorki, ushbu asarda uchinchi darajadagi mujtahidlar, xususan imom Pazdaviyning usulul fiqhga oid qarashlari asos qilib olingan. Ubaydulloh ibn Mas'ud bobosi Mahmud ibn Sadrushsharia tomonlaridan fiqh sohasi bo'yicha yozilgan "Viqoyatur-rivoya" asarini to'liq yod olib, usulul fiqhga oid "Usul as-Saraxsiy", "Usul al-Karxiy" va "Usul al-Pazdaviy" asarlarini ana shu bobosidan o'rgangan. Fiqh va usulul fiqh ilmlariga nisbatan o'zida katta qiziqish va salohiyatni anglagan Ubaydulloh Burhonuddin Marg'inoniyning "Hidoya" asarida uchraydigan masalalar borasidagi bobosining "Viqoyatur-rivoya" kitobiga dastlab sharh yozib, uni "Sharhul viqoya" deb nomlagan bo'lsa, keyinchalik uni yanada ixchamlashtirib, "Muxtasarul viqoya" nomli alohida kitob ta'lif etgan. Bunday iqtidor sohibining at-Tanqih" nomli asari hajmining ixchamligi, mazmun-mohiyatining ilmiyligi va manba muallifini xalq yaxshi tanigani bois, tez orada butun Buxoroda katta qiziqish uyg'otdi. Shundan so'ng, mohir xattotlar mazkur asardan minglab nusxalar ko'chirdilar. Shu tariqa, u turli o'lkalardagi olimlarga va madrasalarning talabalariga yetkazildi. Usulul fiqh bilan shug'ullangan ko'plab olimlar unga sharh, hoshiya va ta'liqlar yozishga kirishdilar. Ba'zi hollarda muallifning asar matnidani ko'zda tutgan maqsadi to'g'ri anglanmasdan boshqa ma'nolarni ifodalovchi sharhlar ham bitilib, ixtilofli fikrlar ham paydo bo'ldi. Bu asarni tushunish va tushuntirishdagi ayrim noaniqlik va chigalliklarni bartaraf etish maqsadida muallif o'zining tasarrufida bo'lgan asl matnni alohida sharhlashga kirishib, uni "at-Tavzih fi halli g'ovomizit tanqih" (at-Tanqihning noaniq o'rinlarini tushuntirish), deb nomladi. Asarning ana shunday nomlanishi ham fikrning to'g'riligidan dalolat qiladi. Ubaydulloh ibn Mas'ud "at-Tavzih fi halli g'ovomizit tanqih" asarining muqaddima qismida bu xususida to'xtalib, mazkur asarni tushuntirishda yo'l qo'yilgan xato va nuqsonlarni bartaraf etish maqsadida ushbu ishga qo'l urganini o'zi ham e'tirof etadi. Mazkur asar asrlar davomida usulul fiqh fani bo'yicha asosiy darslik sifatida o'qitilib, qayta-qayta nashr etilmoqda. Shu bilan birga, Sadrushsharia kalom ilmida ham asarlar yozib qoldirgan. Bu esa, uning qomusiy olim ekanini ham ifoda etadi.

Ubaydulloh ibn Mas'udning "Sharhul viqoya" kitobiga ham olimlar tomonidan ko'plab

hoshiyalar yozilgan. Abdulhay Laknaviy "Umdatur rioya" nomli asarida oltmishdan ortiq hoshiyalar yozilganini zikr qilgan. Quyida ulardan ayrimlari keltiriladi:

1. Musannifak nomi bilan mashhur bo'lgan Ali ibn Majduddin Muhammad ibn Muhammad ibn Mas'ud ibn Mahmud ibn Muhammad ibn Imom Faxriddin Bistomiy Hiraviy "Sharhul viqoya" asariga hoshiya yozgan.

2. Yusuf ibn Junayd Tuqotiy Chalabiy "Zaxiratul uqbo" nomli hoshiya yozgan.

3. Hasan Chalabiy ibn Shahmasuddin Muhammad Shoh ibn Shamsuddin Muhammad ibn Hamza Rumiy Fannoriy hoshiya yozgan.

4. Mavlo Ahmad Hayoliy (vaf.860/1455) "Sharhul viqoya" asariga hoshiya yozgan.

5. "Mavlo Xusrav va Mulla Xusrav Rumiy" nomi bilan mashhur bo'lgan Muhammad ibn Faromuz (vaf. 885/1480) "Sharhul viqoya" asariga hoshiya yozgan.

6. Ya'qub Poshsho ibn Xuzariybek ibn Jaloluddin Rumiy (vaf. 891/1486) "Sharhul viqoya" asariga hoshiya yozgan.

7. "Xatibzoda Rumiy" nomi bilan mashhur bo'lgan mavlo Muhiuddin Muhammad (vaf.901/1495) "Sharhul viqoya" asariga hoshiya yozgan, lekin u tugal emas.

8. "Husomzoda" nomi bilan mashhur bo'lgan Muslihiddin Mustafo ibn Husomiddin (vaf. 1010/1601) "Sharhul viqoya" asariga hoshiya yozgan.

9. Muhiuddin Muhammad Shoh ibn Ali ibn Yusuf Boliy ibn Shamsiddin Muhammad ibn Hamza Fannoriy (vaf. 929/1522) "Sharhul viqoya" asari avvalgi qismlariga hoshiya yozgan.

10. Muhyuddin Chalabiy Muhammad ibn Ali ibn Yusuf Fannaoriy (vaf. 954/1547) "Sharhul viqoya" asari avvalgi qismlariga hoshiya yozgan.

11. "Arabzoda Rumiy" nomi bilan mashhur bo'lgan Mavlo Muhammad (vaf. 966/1561) yozgan hoshiyasi ham bor.

12. "Qozizoda Rumiy" nomi bilan mashhur bo'lgan Mavlo Shamsuddin Ahmad ibn Mavlo Badruddin (vaf. 988/1580) "Sharhul Viqoya" asari avvalgi qismlariga hoshiya yozgan.

13. Shayxulislom Ahmad ibn Yahyo ibn Muhammad ibn Sa'duddin Taftazoniy (vaf. 916/1510) yozgan hoshiyasi.

14. Mavlo Isomuddin Ibrohim ibn Muhammad Isfiroyniy (vaf. 944/1537)

15. Abdulhay Laknaviy avval “Xusnul viloya fi tahshiyati sharhil Viqoya”, so‘ng “As-Sioya fi kashfi ma fi sharhil Viqoya” nomli hoshiya yozadi, lekin u oxiriga yetmaydi. So‘ng “Umdatur rioya” nomli hoshiya yozadi. Lekin u ham oxiriga yetmay qoladi. Allomaning ukasi Abdulhamid Laknaviy “Zubdatun nihoya fi tahshiyati sharhil Viqoya” nomi bilan, “Umdatur rioyani oxiriga yetkazadi. Mazkur uch asar ham nashr qilingan [2:208].

Mana bu ishlarning barchasi imom Ubaydulloh ibn Mas‘udning martabasi ulamolarning nazdida qanchalik yuqori baholanganligini ifodalaydi.

Imom Sadrushsharia Ubaydulloh ibn Mas‘ud Buxoriy 747/1346 yili Buxoro shahrida vafot etdi. U, ota-onasi, farzandlari, bobokalonlarining qabrlari Buxoroning Sherobod shahridadir [4:61]. Faqat otasining otasi, ya‘ni bobolari Tojushsharia va onasining otasi Burhonuddin Kirmon tomonida vafot etib, o‘sha yerda dafn etilgan [1:99].

“Kashfuz-zunun” kitobining muallifi Mulla Kotib Chalabiy “Ta‘dil al-ulum” nomli asarida Ubaydulloh ibn Mas‘udning vafotini yetti yuz qirq yettinchi yilda bo‘lganini aytib o‘tgan. Ammo “al-Viqoya” va “an-Niqoya” kitoblarida esa, uning vafoti yetti yuz qirq beshinchi yilda bo‘lganligi zikr qilingan.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, alloma Ubaydulloh ibn Mas‘ud Buxoro fiqh maktabidan yetishib chiqqan eng mashhur olimlardan biri hisoblanadi. U deyarli barcha ilm sohalarida asarlar yozgan bo‘lib, ular islom olamida yuksak baholanadi. Ubaydulloh ibn Mas‘ud fiqh ilmiga katta hissa qo‘shgan. Shu bilan birgalikda islom ilmlarining boshqa tarmoqlarida ham ko‘plab kitoblar yozgan. Xususan, olimning “Ta‘dil al-ulum fi-l-kalom” asari kalom ilmi bo‘yicha muhim manbalardan biridir.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdulhay Laknaviy. Umdatur rioya ala sharhul viqoya. – Bayrut: Dorul kutubil ilmiyya, 1971. – J.I. – 663 b.
2. Hamidulla Aminov, Soatmurod Primov. Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. – T.: Movarounnahr, 2017. – 400 b.
3. Pozilov Nodir Nabijon o‘g‘li. Ubaydulloh ibn Mas‘udning at-Tavzih asari hanafiy usulul-fiqhi bo‘yicha muhim manba. Magistrlik ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. – T. Toshkent islom universiteti, 2008. – B. 23.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Kifoya. – T.: Hilol-Nashr, 2020. – J. I. – 584 b.
5. Sirojiddin Nabijonov. Ubaydulloh ibn Mas‘ud Buxoriyning fiqh ilmiga qo‘shgan hissasi / Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi rasmiy sayti. URL: <https://www.bukhari.uz/?p=26645&lang=oz>. Murojat sanasi: 10.02.2025.

ГАФУРОВА Иродахон Мухтаровна
Ўзбекистон халқаро ислом академияси
Ислом тарихи ва манбаишунослиги
IRCICA кафедраси
катта ўқитувчиси, PhD

ТУРКИСТОН ИСЛОМ ОБИДАЛАРИ ТАРИХИ МАНБАЛАРДА

ИСТОРИЯ ИСЛАМСКИХ ПАМЯТНИКОВ ТУРКЕСТАНА В ИСТОЧНИКАХ

HISTORY OF ISLAMIC MONUMENTS OF TURKESTAN IN SOURCES

Аннотация: Янгиланаётган Ўзбекистонда олиб борилаётган диний-маърифий соҳага оид ислохотлар натижасида аجدодлар яратган маданиятни ҳар томонлама чуқур ўрганиш ва тарғиб этишга, уларнинг замон руҳига мос гоёларидан ёш авлодни муносиб ворислар этиб тарбиялашга оид маданий-маънавий меросини тадқиқ этиш имконияти кенгайди.

Калит сўзлар: мадраса, мактаб, масжид, Туркистон, Бухоро, Самарқанд, Хива.

Аннотация: В результате проводимых в модернизирующемся Узбекистане реформ в религиозно-просветительской сфере расширились возможности изучения культурного и духовного наследия предков, всестороннего изучения и пропаганды их культуры, воспитания подрастающего поколения достойными продолжателями их идей в духе времени.

Ключевые слова: медресе, школа, мечеть, Туркестан, Бухара, Самарканд, Хива.

Abstract: As a result of the reforms carried out in the modernizing Uzbekistan in the religious and educational sphere, the opportunities for studying the cultural and spiritual heritage of ancestors, comprehensively studying and promoting their culture, educating the younger generation as worthy successors of their ideas in the spirit of the times have expanded.

Keywords: madrasah, school, mosque, Turkestan, Bukhara, Samarkand, Khiva.

КИРИШ

Туркистон ҳудудидаги улкан ислом меъморий обидалари – бебаҳо мерос,

аждодларимиз яратган цивилизация намуналари, уларнинг илмий кашфиётлари ва тараккиётга қўшган хизматларини ёшлар онгига сингдириш, уларда миллий ғурур ва ифтихор туйғуларини кучайтиришга алоҳида эътибор берилган бошланди. “Бетакрор ва ноёб илмий-маънавий мерос биз учун доимий ҳаракатдаги ҳаётий дастурга айланиши керак. Бу ўлмас мерос ҳамиша ёнимизда бўлиб, бизга доимо куч-қувват ва илҳом бағишлаши лозим. ...Бунинг учун олим ва мутахассисларимиз, ҳурматли уламоларимиз бу маънавий хазинани бугунги авлодларга содда, тушунарли, жозибали шаклда етказиб бериши зарур” [1, 224]. Бу борада ислом меъморий обидаларининг улуғворлик моҳиятини тарғиб этувчи тарихи негизда шаклланган конструктив гоёларни ҳар томонлама илмий-назарий тадқиқ этиш муҳим аҳамият касб этади.

АСОСИЙ ҚИСМ

Туркистон ҳудудидаги тарихий-маданий ёдгорликларга қизиқиш XIX аср ўрталарида чор Россияси истилосидан бошланган. Чор Россияси даврининг маҳаллий тадқиқотчиларидан: олим, файласуф ва давлат арбоби Аҳмад Дониш [2] (1827-1897), Бухоро амирлиги тарихнависи ва шоири Мирзо Абдулазим Сомъе Бўстоний [3] (1839-1908), Бухоро амирлиги тарихчиси Мирзо Салимбек [4] (1850-1930)ларнинг илмий изланишларида Бухоро амирлигидаги ислом меъморий обидалари, тарихнавис Абу Тоҳир Хожа Самарқандийнинг асарларида эса [5], Самарқанддаги мусулмон зиёратгоҳлари ва обидаларининг тўлиқ рўйхати келтирилган.

XIX-XX аср бошларида Туркистонда, хусусан, Бухоро ва Хива хонликларида (Россия империясининг протекторатлари сифатида), бўлган рус ва бошқа хорижий элчилик миссиялари аъзоларидан Гвардия генерал штабс-капитани Е.К.Мейендорф [6] (1795-1863) ўз асарида Ўрта Осиё хонликларининг кўпгина шаҳарлари ҳақида батафсил маълумот бериш билан бирга, уларнинг географик жойлашуви, табиий шароити, сув ресурслари, бошқа давлатлар билан боғлайдиган йўллари ҳақида, жумладан, Бухоро хонлигининг бошқаруви, шаҳар ва қишлоқлари ҳақида кенг тўхталган.

Мадрасалар маърифат масканлари бўлиш билан бирга Туркистон ҳудудида сақланиб қолган барча қадимий тарихий-меъморий

ёдгорликларнинг ярмига яқинини ташкил этади. Ҳар йили минглаб хорижий сайёҳлар уларни кўриш, ўзбек кўҳна замонларга тутшиб кетган миллий маданияти, маърифатидан баҳраманд бўлиш илнжида Ўзбекистонга келади.

Туркистонда XX аср бошларида 353 мадраса ва 6 000 га яқин анъанавий бошланғич мактаблар бўлган [7].

К.Е.Бендриков ҳам Туркистон халқ таълимига бағишланган асарида Кауфман давридаги мусулмон мактаблари, эски мактаблар ва мадрасалар, кейинчалик очилган жадид мактаблари нисбатан тўлиқ ёритилган [8].

Академик В.В.Бартольд асарларида чор Россияси Туркистонни босиб олганидан кейин мадрасаларнинг аҳоли, вақф мулкларининг талон-тарож қилиниши, мутавалли ва мударрисларнинг муносабати ёритиб берилган [9].

Профессор А.В.Савицкий асарларида эса, 1886 йилдаги Россия императори томонидан тасдиқланган “Туркистон ўлкасини бошқариш тўғрисидаги низом”, амалда тортиб олинган вақфлар, диний ташкилотлар, мадрасалар, мактаблар, мазорлар, мударрислар, талабалар сони бўйича статистик маълумотлар келтирилган [10].

Хўжанд шахрида (Сирдарёнинг чап соҳилида) 1897 йилдаги рўйхатга олишдан шу маълум бўлганки, 144 масжид ва 4 та мадраса бўлган. Ҳазратбобо ва Ҳазратхўжа Камол масжидлари XIV асрнинг бошида қурилган [11].

1899 йилда Туркистоннинг учта вилоятида, яъни Сирдарё, Самарқанд ва Фарғонада 4632 та мактаб бўлган. Бутун Туркистондаги мактабларда 44 773 толиб таҳсил олган. Таълимнинг илк даврида Ҳафтияк, кейин Чоркитобдан савод чиқарилган. Ундан кейин эса Сўфи Оллоёр ва Хўжа Ҳофиз шеърлари ёд олинган [11, 32].

1911 йил 18 январдаги ҳисоб бўйича Туркистон ўлкасида 476 та мактаб бўлса, 29 944 та ўқувчи ўқиган бўлса, 1920 йилнинг охирига келиб 2022 та мактабда 165 122 та ўқувчи ўқиган [12, 153].

1896 йилда Тошкентдаги гимназияларда таҳсил олаётганларнинг 3% ўғил болалари ва 2,6% қизлари маҳаллий туб аҳоли фарзандлари бўлган. 1879-1904 йилларда ўқитувчилар семинарияларини якунлаган 415 битирувчидан

65 нафари маҳаллий аҳоли вакиллари бўлган [11, 68-70].

1884 йили биринчи рус-тузем мактаби очилган бўлса, XIX аср охирига келиб уларнинг сони юздан ошди.

XIX аср охирида Туркистон ўлкасида – 313 та, Бухорода – 103 та, Хивада – 8 та мадраса бўлган [13, 30]. 1913 йилда Туркистонда 7 290 та эски мактаб мавжуд бўлиб, уларда 70 864 толиб илм олган [14]. XX аср бошларида махсус аёллар мактаблари – отинхоналарда Фарғона вилоятида 33 000 нафар, Тошкентда 6 400 нафар қизлар таҳсил олган [15, 19].

1895 йил 12 июндаги Туркистон ўлкаси ўқув юртлари бош инспектори ҳисоботида Тошкент шаҳри Кўкча даҳаси икки қаватли, нуфузли энг қадимги Шукурхон мадрасасида дарс ўтилмаётгани ва эскиргани баҳона қилиниб, Туркистон генерал-губернатори кўрсатмасига биноан бузиб юборилгани таъкидлаб ўтилган. Унинг вақфи бўлган қарвонсарой эса, Себзор даҳасидаги Мўй муборак мадрасасига берилгани қайд этилган. Ер солиқ комиссияси эса ушбу мадрасага қарашли вақф мулкларини ноқонуний деб топиб, давлат ҳисобига ўтказган ва мадраса даромадсиз қолган. Ҳар иккала мадрасани бир шахс Қушбеги Мирзааҳмад Мирзамуҳаммад Аминов қурдирган ва вақф таъсис қилган эди. Вақфнинг мутаваалиси Мулла Боқи Муҳаммад Мулла Исамуҳамедов бузилган мадраса ўрнига янги мадраса очишга рухсат сўраганда Сирдарё вилояти ҳарбий губернатори рад жавоби берган [16]. Буларнинг барчаси чор Россиясининг сиёсати барча мактаб ва мадрасаларни ва вақфларни йўқ қилишга қаратилганлигини кўрсатмоқда.

Самарқанддаги Тиллақори ва Шердор мадрасаларини қурдирган Самарқанд беги Ялангтўшбий ушбу мадрасаларга кўп миқдорда ерларни вақф қилган. Амирнинг 12 та муҳри бўлишига қарамай, 1814 йилда Бухоро амири Ҳайдарнинг буйруғи билан вақфнома қайта ёзилганлиги баҳона қилиниб, 1901 йил 14 февралда Самарқанд вилояти бошқармаси қарори билан давлат хазинасига ўтказилган [17, 16].

Бухородаги мадрасаларга келсак, уларнинг нуфузи ва илмий салоҳияти юқори бўлган. Шу сабабдан омма орасида турли минтақалардан бу ерга келиб таълим олишга қизиқиш катта эди. Муаррих Абу Саъд Абдулқарим ибн Муҳаммад Самъоний (1113–1167) «Китаб ал-ансоб»

(Насабнома) асарида унинг илм-маърифат маркази эканини қуйидагича таърифлайди: «Бухоро шон-шухрат макони, салтанат каъбаси ва замонасининг зиёлилари жамланг Ер юзи адибларининг юлдузлари порлаган ҳамда фозилларга паноҳ бўлган маскан эди» Бухоро мадрасаларида диний илмлардан ташқари нахв ва сарф (морфология ва грамматика), адаб (адабиёт), хатоба (нотиклик), риёзиёт (математика), ҳандаса (геометрия), жуғроф (география), фалсафа каби фанлар ўқитилган. Айрим ихтисослашган мадрасаларда аниқ ва табиий фанлар махсус ўргатилган. Хусусан, тиббиётга ихтисослашган мадрасаларда Абу Ибн Сино, Абу Бакр Розий каби буюк алломаларнинг асарлари ўрганилган.

Шарқшунос П.И.Демезон [18, 30] 1834 йили мадрасаларнинг биридаги ўқув жараёнида бир ойдан ошиқ иштирок этади ўнга яқин муаллиф ҳамда китоб номини санаб ўтган.

Совет тарихчи-шарқшуноси, Марказий Осиё манбашунослиги бўйича мутахассис О.Чехович (1912-1982) 1940 йилларда Бухорога уюштирилган тарихий-этнографик экспедицияда иштирок этган. Унинг илмий тадқиқотлари Ўрта Осиёнинг XIII–XIX асрлардаги тарихининг бир қатор масалалари, шу жумладан, мулкчилик шакллари, ерга эгалик қилиш ҳуқуқлари, вақфларга бағишланган [19].

Ўрта Осиё меъморий обидаларининг барпо этилиш тарихини ўрганган санъатшунос олима, архитектор, академик Галина Пугаченкова (1915-2007) томонидан Ўрта Осиё санъати ва маданияти хусусида сўз юритиш билан бирга, унинг ахитектураси, хусусан, тарихий обидалар, уларнинг қурилиш услуби, безакларига эътибор қаратган [20].

XIX–XX аср бошлари Ўрта Осиё ва Қозоғистон меъморчилигининг кўзга кўринган намояндаси, совет тадқиқотчиси, санъатшунослик фанлари доктори Лея Маньковская (1932-1988) мураккаб ва кам ўрганилган Ўрта Осиё ислом меъморчилигини катта қизиқиш билан ўрганиб, бир қатор монографиялар чоп этди [21]. Шу билан бирга у, Хожа Аҳмад Яссавий, Бухоро ва Хива меъморчилигига бағишланган бир қатор альбом-монографиялар, Ўзбекистоннинг қадимги шаҳарлари бўйлаб йўлқўрсаткич, юзлаб мақолалар муаллифи ҳамдир.

Шунингдек, археолог С.Б. Лунина (1932) нинг ўлкага доир бир қатор тадқиқот ишлари

ҳам ўз фактик материаллари билан ажралиб туради.

Кутайба ибн Муслим ҳижрий 94 йили (713) Бухоро қалъаси ичкарасида жоме масжиди қурдиради. У ҳар жума куни атрофга жарчи қўйиб: «Жума намозига ҳозир бўлган ҳар бир кишига икки дирҳам бераман», – деб чақиртирар эди. Мусулмонлар сафи тинимсиз орта боргач, Хуросон амири Фазл ибн Яҳё ибн Холид Бармакий ҳижрий 154 йили (771) уни кенгайтириб қайта қурдирган. Тарихда Масжиди Калон номи билан машҳур бўлган бу меъморий обида ундан кейин ҳам кенгайтирилган ва мунтазам таъмирланиб турилган.

VIII асрдаёқ Бухорода яна Хожа Абу Ҳафс саройи ёнида жойлашган Бани Ҳанзала, Бани Саъд, Бани Асад, Хожа Абу Ҳафс, Қурайшийлар масжидлари бўлган.

Тарихий манбаларда акс этган ўша давр воқеаларига назар ташласак, ҳожилар Каъбага интилганларидек, IX–X асрларда илм истовчилар Бухорони қидириб йўлга тушаётганини кўрамиз. Шу даврларга қадар кўхна дунё тамаддунининг маркази бўлган Бухоро қиска фурсатда ислом олами илм Каъбасига айланиб улгурганди.

VIII асрда Мовароуннаҳрда бунёд этилган масжидлар ва таникли алломалар ҳовлиларида ўқитиш ишлари учун махсус ажратилган хоналар илк илм масканлари вазифасини ўтаган. Бухорода масжидлар, одатда, қишки ва ёзги қисмдан иборат қилиб қурилган.

Мовароуннаҳрда илк масжидлар VIII аср бошларида қад кўтара бошлаганига гувоҳ бўлдик. Араб ва ажам мамлакатларида бўлгани каби, Икки дарё оралиғида ҳам дастлаб масжидлар ва унинг ҳовлисида, кейинчалик ҳовли атрофига қурилган хужраларда ислом таълимоти тарғиб қилинди. Худди шу масалада Муҳаммад Шариф маҳдум қуйидагиларни ёзади: «Калабод Бухоронинг эн қадимий мадрасаларидандир. Тарих аҳли: «Калабод қадимийми Ғарибия?» – деб ҳануз ихтилофдадир. Калабод мадрасаси уч марта тикланган. Масжидлардан алоҳида ажратилиб, фақат ўқитиш ишларига мўлжалланган махс ўқув бинолари қурилиши VIII асрнинг охири чорагига тўғри келаётир. Бунга Абу Ҳафс ал-Кабир Бухорий мадрасаси жуд мос келади [22].

Абу Бакр Муҳаммад Наршахийнинг «Бухоро тарихи» асарида айтиб ўтилган 937

йилги ёнгинда зарар кўрган «Форжак» мадрасаси Ўрта Осиёдаги дастлабки мадрасалардандир [23].

Қадимги шаҳарларда масжидлар маҳалла марказига, кўзга кўринган жойга қурилган. Марказий Осиёда Ислом дини қабул қилинган, масжидлар композицияларида миноралар кенг қурила бошланган. Миноралар шаҳардаги энг баланд иморатлар бўлган. Кўхна Урганчдаги минора 61 м, Бухородаги Минораи калон 46,5 м, Хивадаги Ислом Хўжа минораси 44,5 м баландликка эга. Асосий вазифасини намозга чорлов бўлгани билан 30-50 метр юқорига тор, баланд зиналардан 5 маҳал чиқиш муаззинга қийинчилик туғдирган. Шу сабабли миноралардан асосан жума ва Ҳайит намозларига чорловга фойдаланилган [24, 9].

ХУЛОСА

Йиллар давомида олимлар томонидан ҳудуддаги тарихий-маданий мерос, ислом обидалари, қадимги ёдгорликларга қизиқиши ошиб борган. Туркистондаги масжидлар, мадраса ва мактабларнинг қурилиши, таъмирланиши ва сақлаш қилиниши учун қилинган барча ишлар натижаси ўларок, ҳозирги кунда ушбу мукаддас кадамжоларнинг кўплари қад ростлаб турибди.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O'zbekiston, 2021. – Б. 224.
2. Ахмад Дониш. Путешествие из Бухары в Петербург. – Душанбе, 1960; Ахмад Дониш. История Мангитской династии/ Перевод, предисловие и примечание И.А. Наджафовой. – Душанбе, Дониш, 1967.
3. Мирза Абдал-азиз Сами. Тарих-и Салатин-и мангитийа (История мангитских государей). / Пер. и примеч. Л.М.Епифановой. – М.: Изд-во вост. лит., 1962.
4. Мирзо Салимбек. Тарих-и Салими (источник по истории Бухарского эмирата) / Пер с персидского, введение и примеч. Н.К.Норкулова; ред. Перевода А.К.Арендс; ред. Введения и примеч. А.С.Сагдуллаев. – Ташкент: Академия, 2009.
5. Абу Тахир Ходжа. Самария // Таджикский текст, приготовленный к печати Н.И.Веселовским. – Санкт Петербург, 1904.
6. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару / Предисл. Н.А. Халфина. – М.: Наука, 1975.
7. ЎзР МДА, 47-ф., 1-р., 979-иш., 81-в.
8. Бендриков К. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865 - 1924 г.). – Москва, Акад.пед наук РСФСР, 1960.
9. Бартольд В.В. Культура мусульманства. – Петроград: Огни, 1918; Ўша муаллиф. История культурной жизни Туркестана. – Ленинград: 1927.
10. Савицкий А.П. Некоторые данные об исламских учреждениях и политика царских властей в Туркестане. – Ташкент: АН УзССР, 1956.
11. Қори-Ниязий Т.Н. Ҳаёт мактаби. – Тошкент: Фан, 1970. – 358 б. – Б. 15. Қори-Ниязий Т.Н. Совет Ўзбекистони маданияти тарихидан очерклар. – Тошкент: Ўздавнашр, 1956.
12. Кары-Ниязов Т.Н. Избранные труды. В 8 томах. – Тошкент: ФАН, 1967. Т.5. – С. 68-70.
13. Муминов И. Из истории общественно-философской мысли в Узбекистане. Конец XIX и начало XX вв. – Ташкент: Узгосиздат, 1957. – 214 с. – С. 30.
14. Остроумов Н.П. Исламоведение. Введение в курс исламоведения. – Ташкент, 1914. – 186 с. – С. 213.
15. Расулов Б.М. Из истории мусульманских мактабов и медресе Узбекистана. Конец XIX – 20-е годы XX вв. Автореф. ... дис. канд. истор. наук. – Андижан, 1996. – С.19.
16. ЎзР МДА, 47-ф., 1-р., 436-иш. 141-143-в.
17. Болтабоев С.Д. Вакфное имущество в Туркестанском крае... С. 16
18. Записки о поездке в Бухару П.И. Демезона (1833 – 1834) // История Узбекистана в источниках / Составитель Б.В.Лунин. – Ташкент: Фан, 1990. – С.35.
19. Чехович О.Д. Бухарские поземельные акты и аграрные отношения XIX—XX веков. Канд. дисс.на соиск.канд.ист.наук. -М., 1943., Чехович О.Д. Бухарские документы XIV века. Дисс. на соиск.доктора ист.наук. -М., 1967.
20. Пугаченкова Г.А. Термиз, Шахрисабз, Хива. (Серия «Архитектурно-художественные памятники городов СССР») – М.: Искусство, 1976. – 207 с. ва бошқалар.
21. Маньковская Л.Ю. Архитектурные памятники Кашкадарьи. – Ташкент, 1971; Маньковская Л.Ю. Биби-Ханым. – Ташкент: Узбекистан, 1965 ва бошқалар.
22. Абдусаттор Жуманазар. Бухоро таълим тизими тарихи. – Тошкент: Akademnashr, 2017. – 592 б. – Б.45.
23. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Тошкент: ЎзМЭ, 2003. V ж. – Б. 376–377.
24. Нозилов Д. Ўрта Осиё меъморчилигида одатлар, қоидалар ва рамзий ифодалар. – Тошкент: Санъат, 2011. – 240 б.

ЗИНАТУЛЛАЕВ Зиёдилла Иззатилла ўғли
Ўзбекистон халқаро ислом академияси
Ислом тарихи ва манбаишунослиги IRCICA
кафедраси доцент в.б., PhD
ziynatullayev90@mail.ru

ЎРТА АСР МАРКАЗИЙ ОСИЁ БОШҚАРУВИГА ОИД МАНБАЛАР ТАҲЛИЛИ

ANALYSIS OF SOURCES RELATED TO THE ADMINISTRATION OF MEDIEVAL CENTRAL ASIA

АНАЛИЗ ИСТОЧНИКОВ ПО ГОСУДАРСТВЕННОМУ ПРАВЛЕНИЮ СРЕДНЕВЕКОВОЙ СРЕДНЕЙ АЗИЕЙ

Аннотация: Мақолада IX-XII асрларда Марказий Осиёда ҳукм сурган сомонийлар, газнавийлар, қорахонийлар, салжуқийлар ва хоразмшоҳлар каби давлатларнинг тарихи, маданияти, дини, ҳукмдорлари, ижтимоий ва иқтисодий ҳолати, бошқарув тизими, пул-молия сиёсати, хирож йиғими ва бошқа масалалар ҳақидаги қимматли маълумотлар берувчи бирламчи манбаларнинг ёзилиш тарихи, услуби, мазмуни, қўлғизмалари, таржималари ва замонавий нашрларининг манбаишунослик таҳлили амалга оширилган.

Калит сўзлар: Маймург, Хуросон, Рум, Истанбул, Техрон ва Санкт-Петербург, Тоҳирийлар, Саффорийлар, Сомонийлар, Ғазнавийлар, Салжуқийлар, Қорахонийлар.

Abstract: The article presents a source analysis of the history, style, content, manuscripts, translations, and modern editions of primary sources that provide valuable information about the history, culture, religion, rulers, social and economic situation, governance system, monetary and financial policy, tax collection, and other issues of the Samanids, Ghaznavids, Karakhanids, Seljuks, and Khwarazmshahs that ruled Central Asia in the 9th-12th centuries.

Key Words: Maimurg, Khurasan, Rome, Istanbul, Tehran and St. Petersburg, Tahirids, Saffaris, Samanids, Ghaznavids, Seljuks, Karakhanids.

Аннотация: В статье даны ценные сведения об истории, культуре, религии, правителях, социально-экономическом положении, системе управления, денежной и фискальной политике, сборе налогов и других вопросах Саманидов, Газневидов,

Караханидов, Сельджуков и Хорезмшахов, правивших Средней Азией. в IX-XII вв. Проведен источниковедческий анализ истории, стиля, содержания, рукописей, переводов и современных изданий первоисточников.

Ключевые слова: Маймург, Хорасан, Рум, Стамбул, Тегеран и Санкт-Петербург, Тахириды, Саффарины, Саманиды, Газневиды, Сельджуки, Караханиды.

Кириш

Марказий Осиё қадимдан кўплаб босқинларга рўбарў келган минтақадир. Қадимги даврда Аҳамонийлар, сўнг Юнон-македонлар босқинига учраган ушбу ҳудуд ўрта асрларда ҳам қизғин сиёсий жараёнлар марказида бўлиб қолди. Араблар кириб келганидан сўнг мазкур ўлка Мовароуннахр деб атала бошлади ва ўрта асрлар сўнгига қадар шу ном билан юритилди. Ислом кириб келгач бу ерда кечган ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий жараёнлар араб, форс ва маҳаллий тарихнавислар асарларида ёритилган. Ушбу тадқиқотнинг мавзуси – ислом даврида минтақадаги бошқарув тизимида содир бўлган ўзгаришларга оид маълумотлар ҳам уларда ўз аксини топган.

Асосий қисм

Мазкур даврга оид араб тилида ёзилган илк асарлардан бири “Футуҳ ал-булдон” [1] (“Мамлакатларнинг фатҳ этилиши”) IX асрда яшаган географ ва тарихчи олим Абу Бакр Аҳмад ибн Яҳё Жобир Балозурий (ваф. 278/892-93 й.) томонидан таълиф этилган. “Футуҳ ал-булдон” арабларнинг юришлари ҳақидаги маълумотларни ўзида мужассам этган қимматли асарлар қаторига киради. Унда бошқа манбаларда йўқ маълумотлар келтирилган. Усмон ибн Аффон (ра, 644-656) ва Хуросон ноиби Абдуллоҳ ибн Амр даврида арабларнинг Мовароуннахрга амалга оширган ҳарбий юришлари ва Маймургни эгаллаб, сўнг ортга қайтганлари ҳақидаги маълумотлар фақат шу асарда келтирилгани ҳам унинг алоҳида аҳамиятли манба эканидан далолат беради.

“Футуҳ ал-булдон”нинг иккинчи қисмида араблар томонидан шарқда ва шимоли-шарқда олиб борилган ҳарбий ҳаракатлар тафсилотлари баён этилган. Асарда фатҳ этилган ҳудудларнинг маданияти, дини, ҳукмдорлари, ижтимоий

ва иктисодий ҳолати, бошқарув тизими, пул-молия сиёсати, хирож йиғими ва бошқа масалалар ҳақидаги қимматли маълумотлар тадқиқот олдига қўйилган вазифаларнинг ижросида муҳим рол ўйнади. Асарнинг юксак илмий аҳамияти ҳақида унинг қисқартирилган таҳрирдаги арабча матни Михаэл Ян де Гуйе (1839-1909 йй.) томонидан 1866 йили Лейден (Голландия)да¹, инглизча таржимаси П.К.Хитти (1916 йили I жилд) ва Ф.К.Мурготтен (1924 йил II жилд) тарафидан амалга оширилган. Рус тилидаги Хуросон қисмига оид таржимаси Г.Гоибовга тегишлидир. “Китоб футуҳ ал-булдон” Ш.Камолитдин томонидан ўзбек тилига ҳам ўгирилиб, 2011 йилда шарҳ ва изоҳлар билан бойитилган ҳолда нашр этилган [2].

Араб халифалигининг илк даври тарихи билан шуғулланувчи мутахассис учун қомусий олим Абу Жаъфар Муҳаммад ибн Жарир Табарийнинг (839-923) “Тарих ар-русул ва-л-мулук” [3] (“Пайғамбарлар ва подшоҳлар тарихи”) асари муҳим манбалардан ҳисобланади. Асарда 912–913 йилларгача Арабистон, Рум (Кичик Осиё), Эрон ва араб халифалиги томонидан забт этилган мамлакатлар билан бир қаторда, Мовароуннаҳрда бўлиб ўтган ижтимоий-сиёсий воқеалар хронологик кетма-кетликда йилма-йил баён этилган. Табарий ўз асарида яҳудийлар ва христианларнинг нақл ва ривоятлари (исроилиёт), Сосонийлар (224-651 йй.) солномаси “Хвадай намак” (“Подшоҳнома”), Мадонининг (ваф. IX асрнинг иккинчи ярми) “Тарихи хулафо” (“Халифалар тарихи”), Вокидийнинг (747-823 йй.) “Китоб ал-мағозий” (“Урушлар ҳақида китоб”), Ибн Тайфурнинг (819-893 йй.) “Тарихи Бағдод” (“Бағдод тарихи”) кабилардан кенг фойдаланган.

“Тарих ар-русул ва-л-мулук”нинг тўлиқ ва қисқартирилган таҳрирлари бўлган. Бироқ бизгача фақат қисқартирилган матнгина [4] етиб келган. Уни голландиялик шарқшунос Михаэл Ян де Гуйе 1879–1901 йилларда 15 жилдда нашр этган. Француз тилидаги таржимаси Г.Зотенберг томонидан 1867-1874 йилларда амалга оширилган. Асарнинг форс ва турк тилларидаги таржималари ҳам мавжуд бўлиб, уларнинг қўлёзма нусхалари Санкт-Петербург ва Тошкент кутубхоналарида

сакланади. Жумладан, Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институтида “Тарих ар-русул ва-л-мулук”нинг араб тилидаги тўртта қўлёзмаси ҳамда форс (инв. №12593, №7322, №7466, №831, №9317), уйғур (№ 9470) ва ўзбек тилларидаги таржималари мавжуд. Асарнинг рус тилидаги қисқартирилган таржимаси В.И.Беляев томонидан 1987 йилда “История Табари” номи билан Тошкентда чоп этилган [5]. Ушбу манбада ислом даврида амал қилган бошқарув тизими, унинг араб халифалиги периферияси, жумладан, Марказий Осиёга трансляцияси жараёнлари ҳақидаги маълумотлар ҳам жой олгани уни тадқиқотга жалб этишни тақозо этди.

Марказий Осиёнинг исломгача даврдаги қадимги динлари ва уларнинг ижтимоий ҳаётда тутган ўрнини очиб берувчи қимматли манба Абу Райҳон Берунийнинг “ал-Осор ал-боқия ан ал-қурун ал-ҳолия” (“Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар”) асаридир. Унда Беруний ўзига маълум бўлган халқлар – юнонлар, румликлар, эронликлар, хоразмликлар, суғдийлар, собийлар, христианлар, яҳудийлар, қибтийлар, исломдан олдинги араблар ва мусулмонларнинг тақвимлари, байрамлари ва машҳур кунларини муфассал тасвирлаган. Китобнинг Марказий Осиё халқлари, уларнинг маданияти, урф-одати ва тарихига оид маълумотлари катта аҳамиятга эгадир. Мазкур манбадан ушбу тадқиқот ишининг исломгача бўлган даврдаги Марказий Осиё халқларининг диний эътиқодлари ва уларнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётдаги ўрнини очиб беришга бағишланган бандида фойдаланилди.

“Осорул боқия” асарини биринчи бўлиб Европага таништирган олим машҳур шарқшунос ва берунийшунос олим Эдуард Захау (1845–1930) бўлиб, у 1876–1878 йилларда Лейпциг (Германия)да асарнинг арабча нусхасини илк бор нашр этган. Унинг 1879 йили бажарилган инглиз тилидаги таржимаси ҳам Захауга тегишлидир. Захау нашр эттирган арабча нусхадан 1943 йил Техронда Акбар Доно Сиришт уни форс тилига ўгирган. Асарнинг рус тилига таржимаси 1957 йилда арабшунос олим М.А.Салье тарафидан амалга оширилган. Мазкур манбанинг А.Расулов муаллифлигидаги ўзбекча таржимаси 1968 йилда Тошкентда нашр этилган [6]. Беруний асарининг XII–XIII асрларга оид қўлёзмалари Истанбул, Техрон ва Санкт-Петербург шаҳарларида сакланади [7].

¹ Балазурининг асари чоп этилган: *Liber expugnationis regionum*. ed. M.J. de Goeje, Pt 1—2. Lugduni Batavorum, 1866. – 232 p.

Уларнинг фотонусхалари ЎзР ФА Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институтида мавжуд [8]. Уларни ўрганиб чиқиш тадқиқот мавзусининг тегишли бўлимлари учун фойдали материаллар берди.

Тадқиқот мавзусига оид айрим маълумотлар ўз аксини топган яна бир нодир манба араб тарихчиси Иззуддин Абулҳасан Али ибн Муҳаммад (1160–1233) томонидан яратилган “ал-Комил фит-тарих” (“Мукаммал тарих”) асаридир. У Мовароуннаҳр халқлари тарихи, жумладан ушбу ҳудуддаги бошқарув анъаналарини ўрганишда катта аҳамият касб этади. Асар тузилишига кўра, ўн икки жилддан иборат бўлиб, унда дунёнинг яратилишидан то 1231 йилга қадар Шарқ мамлакатларида бўлиб ўтган ижтимоий-сиёсий жараёнлар хронологик кетма-кетликда баён этилган. Муаллиф ўзигача яратилган манбалардан кенг фойдаланган. Хусусан, “ал-Комил фит-тарих”нинг биринчи қисми (I–IV жилдлари) аввал яшаб ўтган олимлар – Балозурий, Табарий, Ибн Мискавайх, Суламий ва бошқаларнинг асарларига таяниб ёзилган. Асарда Аббосийлар халифалигига қарши қаратилган халқ қўзғолонлари, Мовароуннаҳр ва Хуросондаги ижтимоий-сиёсий вазият ҳамда ички мустақилликни қўлга киритган маҳаллий сулолалар – Тоҳирийлар, Саффорийлар, Сомонийлар, Ғазнавийлар, Салжуқийлар, Қорахонийлар ва Хоразмшоҳларнинг бошқаруви ҳақидаги қимматли маълумотлар келтирилган.

“Ал-Комил фит-тарих”нинг тўлиқ танқидий матни бизгача етиб келган бир қанча қўлёзмалари асосида 1851–1876 йилларда европалик шарқшунос С.Торнберг томонидан тўрт жилдда нашр этилган. Асарнинг бир қанча арабча нашрлари мавжуд бўлиб, уларнинг охирчиларидан бири 1987 йили Байрутда чоп этилган. “Ал-Комил фит-тарих”нинг ўзбек тилига тўлиқ таржимаси 1901–1907 йилларда Хива хони Муҳаммад Раҳимхон II (1282–1328/1865–1910) буйруғига кўра 12 жилдлик Миср нашри асосида амалга оширилган. Мазкур таржиманинг илк нусхаси ва ундан кўчирилган бир неча нусхалар ЎзР ФА Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институтида сақланади [9].

“Ал-Комил фит-тарих” асарининг Мағриб ва Испания мамлакатлари тарихига оид қисмини 1901 йилда жазоирлик олим Фағнон француз тилига изоҳли таржима қилган.

1904 йилда даниялик шарқшунос И.Ойтсберг асарининг бир қисмини ўрганиб чиққан. 1904–1905 йилларда турк олими И.Шарафиддин асарнинг мўғулларгача бўлган даври ҳамда Ибн ал-Асирнинг оиласи ва унинг илмий мероси ҳақидаги тадқиқотини нашр этди. Асарнинг рус тилидаги таржимаси 1939 йилда рус шарқшунослари И.Н.Леманов ва С.Волинлар томонидан амалга оширилган [10]. Ўзбекистонда “ал-Комил фит-тарих”нинг Марказий Осиёга оид қисмини илмий шарҳлар билан рус тилига таржима қилган олим, филология фанлари доктори, профессор П.Г.Булгаков ҳисобланади. Лекин ушбу лойиҳани ниҳоясига етказишга улгурмаган. Бинобарин, таржима олимнинг шогирди – тарих фанлари доктори, профессор Ш.Камолиддин томонидан якунланган ҳамда шарҳ ва изоҳлар билан бойитилган ҳолда 2006 йилда нашр этилган [11]. Ушбу таржима-тадқиқот Мовароуннаҳрнинг VIII–XIII асрлардаги тарихи билан шуғулланаётган тадқиқотчилар ва тарихчи мутахассислар учун қизиқарли маълумотлар ҳамда изоҳларга бойлиги билан ҳам алоҳида аҳамиятлидир. Улар тадқиқот билан боғлиқ кўплаб саволларга жавоб топишга ёрдам берди.

Тадқиқот даврига оид қимматли манбалардан бири Абу Бакр Муҳаммад ибн Жарир Наршахий (899–960)нинг “Бухоро тарихи” асаридир. Унда Бухоро ва унинг атрофидаги шаҳарларнинг VII–X асрлардаги иқтисодий, маданий, ижтимоий-сиёсий тарихига оид маълумотлар баён этилган. Шунингдек, асарда арабларнинг Мовароуннаҳр ҳудудига амалга оширган илк ҳарбий ҳаракатлари, кейинчалик минтақанинг Қутайба ибн Муслим бошчилигида забт этилиши, ҳудудга исломга асосланган бошқарув тизимининг кириб келиши, Мовароуннаҳрдаги дастлабки мусулмон сулола бўлган Сомонийларнинг келиб чиқиши ва улар давлатининг ташкил топиши, бошқарув тизими, қўшни минтақалар билан кечган сиёсий жараёнлар, Муқанна бошчилигидаги халифаликка қарши “Оқ кийимлилар” қўзғалони ва бошқа муҳим воқеалар ҳақида ҳикоя қилинади.

Ушбу тадқиқотнинг манбаларидан бири сифатида фойдаланилган “Бухоро тарихи” асарининг араб тилидаги асл нусхаси бизгача етиб келмаган. Бизгача унинг 1128 йилда Қубо шаҳридан бўлган Абу Наср Аҳмад ибн Муҳаммад ибн Наср Кубовий (ваф. XII аср)

томонидан форс тилига ўғирилган нусхаси етиб келган. 1178–1179 йилларда Муҳаммад ибн Зуфар ибн Умар уни қайта таҳрир қилиб, қисқартирилган баёнини яратган. “Бухоро тарихи”нинг 1819–1820 йилларда Бухорода кўчирилган нусхаси ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институтида сақланмоқда. Шунингдек, жаҳоннинг турли шаҳарларида, хусусан, Санкт-Петербург ва Душанбе [12] да ҳам асарнинг қўлёзма нусхалари сақланади.

Наршахийнинг “Бухоро тарихи” асарининг бир қанча қўлёзмалари асосида тайёрланган матни бир неча бор – 1892 йили шарқшунос олим Шарль Чефер (1820–1898) томонидан Парижда, 1904 йили Мулло Султон томонидан Бухорода, 1939 йили Мударрис Ризавий томонидан Техронда нашр этилган. Асарнинг русча таржимасини Н.Лыкошин 1897 йил Тошкентда нашр қилган. Р.Фрайнинг инглизча изоҳли таржимаси 1954 йили Кембрижда чоп этилган [13].

“Бухоро тарихи”нинг ўзбек тилидаги таржимаси А.Расулов томонидан амалга оширилган бўлиб, 1966 йил Тошкентда нашр этилган. Бу ишга асарнинг Санкт-Петербург, Париж, Бухоро, Душанбе ва Техрон қўлёзмалари матнлари жалб этилган. Қўлёзмаларни ўзаро таққослаш натижасида Техрон нашри таржима учун асос қилиб олинган. Кейинчалик А.Расуловнинг ушбу таржимаси бир неча бор қайта нашр этилди [14].

Марказий Осиёнинг ўрта асрлар даври тарихи, жумладан, унинг ҳудудидаги бошқарув тизимида оид муҳим манбалардан яна бири – Абу Саид Абулхай ибн Заҳҳок ибн Маҳмуд Гардизий (XI аср, ваф. 1061 й.)нинг “Зайнул ахбор” (“Хабарлар беағи”) асари бўлиб, унда диссертация мавзусига оид айрим маълумотлар ҳам ўз аксини топган. Асар Хуросон ва Мовароуннахрнинг араблар кириб келишидан то XI аср ўрталаригача бўлган даврдаги сиёсий ва этник тарихини ўрганишда катта аҳамиятга эга. Гардизий ушбу асарида Жайхонийнинг “Ажойибул булдон”, Салломийнинг “Китоб фи ахбор вилояти Хуросон”, шунингдек, ибн Халликон, ибн Муқаффанинг асарларидан фойдаланган.

“Зайнул ахбор” беш қисмдан иборат бўлиб, уларнинг бешинчиси арабларнинг Хуросондаги волийлари бошқаруви даври, шунингдек, Тоҳирийлар ва Саффорийлар

ҳамда Мовароуннахрдаги Сомонийлар ва Ғазнавийлар (1042 йилгача) давлатларининг умумий тарихига бағишланган. Унда тадқиқот мавзуси билан боғлиқ қимматли маълумотлар ҳам ўз аксини топган. Жумладан, мазкур қисмда Марказий Осиёнинг VIII–XI асрлардаги сиёсий бошқаруви ва ундаги ислохотчилик жараёнлари ҳақидаги қимматли маълумотлар ўз аксини топган. “Зайнул ахбор”да Хуросон ва Мовароуннахрнинг VII асрнинг иккинчи ярмидан XI биринчи ярмигача бўлган тарихи анчагина кенг ёритилган.

“Зайнул ахбор”нинг юксак илмий қийматидан келиб чиқиб, унинг турли қисмлари бир неча тилларга таржима қилинган. Жумладан, В.В.Бартольд асарнинг турклар ҳақидаги бобини матни ва русча таржимаси билан 1897 йилда нашр эттирган. Худди шу бобни 1903 йили венгер олими Геза Кун асл матн ва венгер тилидаги таржимаси билан Оксфорд қўлёзмаси асосида чоп эттирган. Гардизийнинг Ҳиндистон ҳақида келтирган маълумотларини инглиз шарқшуноси В.Минорский инглиз тилига ўғириб, 1948 йили Лондон университетида “Шарқ ва Африка. Ўтмиш ва ҳозирги тадқиқотлар” номи тўпламда эълон қилган. Асарнинг Тоҳирийлар, Саффорийлар, Сомонийлар ва Ғазнавийлар тарихига тегишли форсча матни 1928 йил Муҳаммад Нозим томонидан Берлинда, 1937 йили эронлик Мирзо Муҳаммад Қазвиний ва 1954 йили Саид Нафисий, тўлиқ матни эса, 1984 йили А.Ҳабибий тарафидан амалга оширилган. “Зайнул ахбор”нинг тадқиқотимиз учун муҳим бўлган Марказий Осиёга алоқадор қисми А.К.Андерс томонидан амалга оширилган таржимаси 1991 йили Л.М.Епифанова томонидан нашрга тайёрланиб, Тошкентда чоп этилган [15].

Шарқ мусулмон маданиятини, салжуқийлар тарихи ва сиёсий ҳаётини ўрганишдаги энг ишончли манба – Низомулмулк таҳаллусини билан машҳур бўлган Абу Али Ҳасан ибн Али ибн Исҳоқ Тусий (1018–1092)нинг “Сиёсатнома” ёки “Сияр ул-мулк” (“Подшоҳлар турмуши”) асаридир. У ўттиз тўққиз бобдан иборат бўлиб, унда ўзбек давлатчилиги тарихига оид қимматли маълумотлар ҳам бор. Хусусан, Сомонийлар даврида турк ғуломлари [16]нинг ижтимоий-сиёсий ҳаётда тутган ўрни, Қорахонийлар саройида хизмат қилган ходимларнинг маиший аҳволи, Сомонийлар давлатидаги унвонлар,

Хоразмшоҳлар (Олтинтошийлар) билан Ғазнавийлар ўртасидаги ёзишмалар ҳақида диққатга сазовор маълумотлар учрайди.

“Сиёсатнома” асарини олимлар салжукийларнинг сиёсий дастури сифатида баҳолаганлар. Унинг бош ғояси адлу инсоф, сулҳ ва мурувват, оқилона бошқарув, соғлом қоида ва тартибга асосланган халқ фаровонлиги ва осойишталигини таъминлаш тарғиботидир. Ушбу асардаги кўпгина ғоялар бугунгача ўзининг ҳаётийлигини сақлаб қолаётгани тадқиқотчилар томонидан таъкидланади [17:10].

“Сиёсатнома” асарининг энг қадимги 1168 – 1169 йили Урмия шаҳрида амири ҳожиб [18] Алп Жамолддин фармонида биноан кўчирилган нусхалари Британия музейи ва Берлинда сақланади [19]. 1291 йили кўчирилган бошқа нусха асосида шарқшунос Чарлз Шеффер асарни француз тилига ўгириб, 1893 йили нашр этган. “Сиёсатнома” кўп йиллик тадқиқотлардан сўнг Б.Н.Заходер томонидан рус тилига таржима қилиниб, 1949 йили нашр этилган. 1960 йили у инглиз тилида чоп қилинди. Асар 1989 йили А.Девонакулов томонидан тожик тилига ўгирилиб, Душанбеда нашр этилган. Бироқ бу нашр баъзи камчиликлардан холи эмас. Жумладан, унинг баъзи боблари тушириб қолдирилган [17:14]. “Сиёсатнома” асарининг ўзбек тилидаги таржимаси сўзбоши ва изоҳлар билан Шодмон Воҳид ва Афтондил Эркиновлар томонидан амалга оширилиб, 2008 йил Тошкентда нашр этилган [20]. Мазкур нашрларни кўриб чиқилиши натижасида тадқиқот учун фойдали маълумотлар қўлга киритилди.

Ўзбек давлатчилигининг IX–XII асрлардаги тарихини акс эттирувчи яна бир муҳим манба Абулфазл Муҳаммад ибн ал-Ҳусайн ал-қотиб ал-Байҳақий (995–1077)нинг “Тарихи Масъудий” (“Масъуд тарихи”) асаридир. “Тарихи Масъудий”нинг унғача бўлган асарлардан фарқи – муаллиф ўзи кўрган ва ишончли кишилардан аниқлаган маълумотларни ҳукумат маҳкамаларида сақланаётган расмий ҳужжатлар асосида баён этган. Асарда асосан Ғазнавийлар давлатининг Султон Масъуд давридаги ижтимоий-сиёсий ҳолати, Саффорийлар, Сомонийлар, Салжукийлар ва Қорахонийлар давлати ўртасидаги халқаро муносабатлар тарихи, улардаги бошқарув тизимининг айрим қирралари акс этган.

“Тарихи Масъудий”нинг форсча матни 1862 йили У.Морлей томонидан Калкуттада,

1887 йили Аҳмад Пешоварий, 1941–1954 йилларда Саид Нафисий, 1946 йил Қосим Ғани ва Али Акбар Фаёзлар тарафидан Техронда чоп этилган. Унинг араб тилидаги таржимаси 1960 йили Қоҳирада Яҳё Ҳашшоб ва Содик Нишот томонидан нашр қилинган. Асарнинг русча таржимаси тадқиқот ва зарур изоҳлар билан шарқшунос олим А.К.Арендс томонидан 1962 йили Тошкентда ва 1969 йили Москвада чоп этилган [21].

Хулоса ва таклифлар

Марказий Осиёнинг VIII–XII асрлардаги бошқарув тизими ҳақидаги маълумотлар учрайдиган бирламчи манбалар ушбу тадқиқот олдига қўйилган вазифаларнинг бажарилишида асосий рол ўйнади. Уларнинг манбашунослик таҳлилидан чиқадиган мантикий хулосалардан бири шундан иборатки, ислом кириб келгач, Марказий Осиёдаги умумий юксалишнинг содир бўлишида янги дин талабларига мослашган миллий бошқарув тизими муҳим рол ўйнади. Ўз навбатида, бу даврда минтақада кузатилган ижтимоий-иқтисодий ривожланиш натижасида мисли кўрилмаган илмий-маданий юксалиш учун зарур замин шаклланди. Буларнинг барчаси ислом талабларига мослашган марказлашган маҳаллий бошқарув тизимининг шаклланишига туртки берди.

Араб халифалиги ва унга қарашли ҳудудлардаги ижтимоий-сиёсий муҳит, савдо-сотиқнинг ривожланиши ва бошқарув тизимининг хусусиятлари ўша даврда яшаган сиёсий арбоблар, тарихнавислар, сайёҳлар ҳамда давлат хизматчиларининг эътиборидан четда қолмаган. Уларнинг асарлари ва эсдаликлари орқали зикр этилган соҳалардаги ўзгаришлар ҳақида қимматли маълумотларга эга бўламиз. Турли манбаларни ўзаро солиштириш ва таққослаш эса, тарих ҳақиқатини юзага чиқаришга ёрдам беради.

Марказий Осиёнинг VIII–XII асрлардаги тарихига оид қимматли асарлар яратган Балозурий, Табарий, Беруний, Ибн Асир, Наршахий, Гардизий, Низомулмулк, Байҳақий каби муаррихларнинг асарлари орадан неча асрлар ўтсада ўзининг илмий аҳамиятини йўқотмаган. Уларда ёритилган масалалар қаторида ислом тафаккури шароитида Марказий Осиёда бошқарув тизимининг ривожланишига оид қимматли маълумотлар ва диққатга сазовор

мулоҳазалар борлиги ушбу тадқиқот учун бениҳоя муҳимдир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН МАНБА ВА АДАБИЁТЛАР:

1. Балозурий. Абу-л-‘Аббос Аҳмад ибн Яҳё ибн Жобир ал-Балозурий. Футух ал-булдон / ‘Абдуллоҳ Анис ат-Таббо‘ ва ‘Умар Анис ат-Таббо‘ нашри. Байрут: Му‘ассасат ал-ма‘ориф, 1407/1987.
2. Абул Аббос Аҳмад ибн Яҳё ал-Балозурий. Футух ал-булдон. Хуросоннинг фатҳ этилиши / Сўз боши, араб тилидан таржима, шарҳлар, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи Ш.С.Камолиддин. – Тошкент: ТошДШИ, 2017. – 439 б.
3. Ибн Жарир ат-Табарий. Тарих ат-Табарий. – Ар-Риёд: Байт ал-афкор ад-давля, 2005. 2260 б.
4. Annales quos scripsit Abu Djafar ibn Djarir at-Tabari cum aliis edidit M. J. de Goeje, ser. I, III. Lugduni Batavorum, 1901. 422 p.
5. Ат-Табари. История ат-Табари. Избранные отрывки / Пер. с араб. В.И.Беляева. Дополнения к переводу О.Г.Большакова и А.Б.Халидова. – Ташкент: Фан, 1987. – 445 б.
6. Абу Райхон Беруний. Осор ул-боқия ан ал-қурун ал-ҳолия. (Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар). /Таржимон А.Расулов. Масъул муҳаррирлар: И.Абдуллаев ва О.Файзуллаев/. – Тошкент: Фан, 1968. – 486 б.
7. Истанбул халқ кутубхонаси (инв. № 4667), Россия фанлар академияси, Шарқшунослик институти (шифр Д-58). Мазкур институт 1818 йил Санкт-Петербургда Император фанлар академияси, Осиё музейи номи билан ташкил этилган бўлиб, 1960-1970 йилларда Осиё халқлари институти, ҳозирги кунда эса, Россия фанлар академияси, Шарқшунослик институти (Санкт-Петербург филиали) номи билан юритилмоқда.
8. ЎзРФА Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институтида сақланаётган Санкт-Петербург фотонусхаси (инв. № 355), Истанбул фотонусхаси (инв. № 341), Техрон фотонусхаси (инв. № 69).
9. Абул Фидо Абдуллоҳ ал-Қозӣ (I–III жилд) ва Муҳаммад Юсуф ад-Даккақа (IV–X жилд). Байрут: 1987. – 316 б.; ЎзРФА Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. Тошкент, 1954. Инв. № 10–18., ЎзРФА Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. Тошкент, 1954. Инв. № 824, 825, 6679 - 6802, 7290 - 7294, 7423 - 7425.
10. Ибн ал-Асир. ал-Камил фи-т-тарих. Перевод с арабского И.Н.Аеманова и С.Волина // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. 1. V II— X V вв. Арабские и персидские источники. Москва: 1939. 409 с.
11. Ибн ал-Асир. Ал-камил фит-тарих. Перевод с арабского языка, примечания и комментарии Ц.П.Булгаков. Дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С.Камалиддина. – Ташкент: Узбекистан, 2006. – 560 с.
12. ЎзРФА Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. Инв. № 5388–11. Асарнинг XIX аср иккинчи ярмида кўчирилган қўлёзмалари ҳам мавжуд. Инв. № 2212/І, 4355/ІІІ.; Россия фанлар академияси, Шарқшунослик институти (Санкт-Петербург филиали). “Бухоро тарихи” асарининг 1599–1600 йилларда кўчирилган нусхаси. Инв. № 675.; Тожикистон Фанлар академияси, Шарқ қўлёзмалар фонди. Асарнинг 1650 йилда кўчирилган нусхаси. Инв. № 513/11.
13. The History of Bukhara: Translated from a Persian Abridgment of the Arabic Original by Narshakhi. Translated by Frye, Richard Nelson. Cambridge, Massachusetts: Mediaeval Academy of America, 2019. – 234 p.
14. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жафар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. -Тошкент: Камалак, 1991. – 335 б.
15. Гардизи. Зайн ал-ахбар – Абу Са‘ид Гардизи. Зайн ал-ахбар. Украшение известий. Раздел об истории Хорасана / Перевод с персидского языка А.К. Арендса. Введение, комментарии и указатели Л.М. Епифановой. Ташкент: Фан, 1991. – 176 с.
16. Турк ғуломлари – Турк хоқонлиги давридаги “чокар” – “шахсий тан соқчи” тизими кейинчалик сомонийлар тарафидан ўзлаштирилиб, Исмоил Самоний даврида мунтазам қўшинга асос солинган. Ушбу қўшин аскарлари “турк ғуломлари” деб аталган. Кейинчалик аббосийлар ҳам бу тизимни ўзлаштирганлар.
17. Низомулмулк. Сиёсатнома (Сияр ул-мулк) / Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари Шодмон Воҳид, Афтондил Эркинов. Масъул муҳаррир Шариф Холмурод. -Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. – Б. 10.
18. Амири ҳожиб – (“амир ал-хожиб”) “хожиб” ҳарбий бўлинма бошлиғи. “Амири ҳожиб” эса, барча ҳожиблар устидан бошлик.
19. Британия музейи (инв. АДД 23516)
20. Низомулмулк. Сиёсатнома (Сияр ул-мулк) / Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари Шодмон Воҳид, Афтондил Эркинов. Масъул муҳаррир Шариф Холмурод. -Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. – 239. б.
21. Абу-л-Фазл Байҳақи. История Масуда (1030-1041) / Перевод с перс., введение, комментарии и приложения А. К. Арендса. – 2-е издание. – Москва: Наука, 1969. (Памятники письменности Востока). – 1008 с.

ЭРКАЕВ Маъмуржон Раҳмонбердиевич,
Тошкент ислом институти
Ақоид ва фикҳий фанлар кафедраси доценти в.б.,
исломишунослик фанлари бўйича PhD
E-mail. erkayevmaturjon.tii@gmail.com

ИСЛОМ ҲУҚУҚИДА ИЖАРА ШАРТНОМАСИНИ ТУГАТИШНИНГ ФИҚҲИЙ АСОСЛАРИ

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ПРЕКРАЩЕНИЯ ДОГОВОРА АРЕНДЫ В ИСЛАМСКОМ ПРАВЕ

LEGAL BASIS FOR TERMINATION OF LEASE AGREEMENT IN ISLAMIC LAW

Аннотация. Ушбу мақолада ислом ҳуқуқида ижара шартномасининг муддатидан олдин тугатилишининг фикҳий асослари, жумладан, шартнома учун белгиланган муддатнинг тугаши, томонлардан бири ёки ҳар иккисининг талаби, шартнома тузишига олиб келган омилнинг мажбур бўлмаслиги, ижарага олинган нарсанинг йўқ бўлиб кетиши, томонлардан бирининг вафот этиши, ижарага олинган нарсага фойдаланиб бўлмайдиган даражада айб этиши, бошқа узрли сабабларга кўра, қозининг қарори асосида бекор қилиниши каби мавзулар муҳокама қилинган.

Калит сўзлар: ижара, мужир, мустаъжир, ужра, ажри мисл, ақд, эваз.

Аннотация. В данной статье рассматриваются правовые основы досрочного прекращения арендных соглашений в исламской юриспруденции, в том числе обсуждены такие вопросы, как завершение определенного срока в договоре, требования, предъявляемые с одной или обеих сторон, отсутствие фактора для составления договора, исчезновение арендного товара, смерть одного из сторон, приведение к негодности арендного товара и по другим уважительным причинам, которые считаются недействительными по решению казы.

Ключевые слова: иджара (аренда), мужир, мустаджир, уджера, аджр-и мисл, 'ақд, 'ивад (возмещение).

Annotation. This article discusses the legal basis for early termination of lease agreements in Islamic jurisprudence, including such issues as the completion

of a certain period in the contract, requirements presented by one or both parties, the absence of a factor for drawing up the contract, the disappearance of the rental goods, the death of one of the parties, rendering the rental goods unusable and for other valid reasons that are considered invalid by decision of the qādī.

The key words: ijara (lease), mujir, musta'jir, ujra, ajr-i mithl, 'aqd, 'iwad (compensation).

КИРИШ

Ислом ҳуқуқида ижтимоий муносабатларга оид шартномаларнинг бир неча турлари мавжуд. Барча турдаги шартномаларни вақтинчалик ёки акси ўлароқ икки турга бўлиш мумкин. Улар:

– ғайри муваққат (амал қилиш муддати белгиланмайдиган) шартномалар; никоҳ, савдо шартномалари ва бошқалар.

– муваққат (амал қилиш муддати белгиланган) шартномалар; ижара, ория ва бошқалар.

Муваққат шартномаларнинг тугаш вақти шартномада кўрсатилади. Унга амал қилиш ҳар икки тарафнинг зиммасидаги мажбурият ҳисобланади. Белгиланган муддат тугагач шартнома ўз кучини йўқотиши ҳаммага маълум. Аммо шартномани муддатидан олдин тугатиш масаласида уламолар ихтилоф қилишган.

Ханафий мазҳабида ижара шартномаси лозимликни ифода қилади. Уни узрли сабабларсиз бекор қилиш мумкин эмас [5, 36; 14, 2], деган умумий қоида мавжуд. “Лозим” деганда шартномада белгиланган мажбуриятларни бажариш томонларнинг зиммасида экани ҳамда шаръий асос бўлмаса, уни муддатидан олдин тўхтатиш мумкин эмаслиги тушунилади.

Ҳанбалийларнинг наздида ижара худди савдо акди каби лозим. У узрли сабаб юзага келиб қолган тақдирда ҳам (муддатидан олдин) тугатилмайди [13. 456; 1, 130]. Бу ҳолатда улар ижара шартномасини савдога ўхшатиб, унда томонлар ўртасида олди-сотди шартномаси тузилгач, уни бекор қилиш мумкин бўлмаганидек, ижара шартномасини ҳам муддатидан олдин бекор қилиш мумкин эмас, деб ҳисоблашади.

АСОСИЙ ҚИСМ

Ислом ҳуқуқида ижара шартномасининг тугатилишига қуйидаги омиллар асос бўлади:

- белгиланган муддатнинг тугаши;
- томонлардан бири ёки ҳар иккисининг талаби;
- шартнома тузишга олиб келган омилнинг йўқ бўлиши;
- ижарага олинган нарсанинг йўқ бўлиб кетиши;
- томонлардан бирининг вафот этиши;
- ижарага олинган нарсага фойдаланиб бўлмайдиган даражада айб этиши;
- бошқа узрли сабабларга кўра;
- қозининг қарори асосида.

Белгиланган муддатнинг тугаши; бу ҳолатда мазҳаб уламоларининг иттифоқига кўра шартнома тугатилади. Ижарага олинган нарсдан фойдалангани ёки фойдаланмагани, шунингдек, кўзланган мақсад ҳосил бўлгани ёки бўлмаганининг аҳамияти йўқ. “Ижара шартномаси белгиланган муддат тугаши билан бекор бўлади” [7, 507; 4, 447]. Шу муносабат билан ижарага олувчи нарсдан фойдаланишни тўхтатиши ҳамда уни мулкдорга қайтариш чораларини кўриши лозим.

Аммо айрим сабабларга кўра, шартномани тугатишнинг имкони бўлмаса, масалан, экин экиш учун ижарага олинган ердаги ҳосил етилмаган бўлса, муддат белгиланган бўлсада, тугатилмайди [2, 544; 10, 271]. Балки шартномага қўшимча ва ўзгартириш киритиш орқали давом эттирилади.

Ислом ҳуқуқида айрим ижара шартномаларида муддат белгиланмайди. Бунга мисол қилиб شَهْر “ой” сўзини қўллаш орқали тузилган ижара шартномаларини келтириш мумкин. Масалан, “Уйингизни менга бир ойга ижарага беринг”, деса, ижарага берувчи мазкур таклифни қабул қилса, шартнома қайси ой учун амал қилиши ҳақда “Муҳитул-Бурҳоний” асарида қуйидагича баён қилинган: “Мазкур масалада شَهْر “ой” сўзи ноаниқ шаклда қўлланилгани боис, шартноманинг қайси ойдан бошланиши ва тугатилиши номаълум бўлиб қолган. Қоида бўйича, ҳолат тақозосига кўра шартнома тузилган кундан бошлаб бир ой назарда тутилган бўлади” [7, 406]. Шундан хулоса қилиб, мазкур ҳолатда шартнома ойнинг қайси кунда тузилган бўлса, кейинги ойнинг айнан шу кунни тугатилади.

Шунингдек, “ҳар ой учун шунчадан” деган масалада мазҳаблар ўртасида ихтилоф қилинган. Бу ҳақда “Муҳитул-Бурҳоний”

асарида баён қилинишича: “Шартнома фақат бир ой учун тузилган бўлади. Агар биринчи ойда фойдаланса, қолган ойларда ҳар икки тараф шартномани тугатишлари мумкин бўлади”. Бу ҳолатда бир ой аниқ, бошқалари эса ноаниқ, деб эътиборга олинган. Шу боис, аниқ ой учун шартнома амал қилади, ноаниқ ойлар учун жоиз бўлмайди. Мазкур масалани шофеъийлар қуйидагича баён қилишган: “Муддат билан боғлиқ ижара шартномаларида унинг бошланиш ва тугатилиш вақти аниқ бўлиши лозим. “Бу уйни ҳар бир ой учун уч дирҳамга ижара бердим”, деган масалада ижара ботилдир” [15, 271]. Демак, уларнинг наздида шартнома тузилган ҳисобланмайди. “Ҳар бир ой учун” деганда барча ой ноаниқ, деб эътиборга олинган. Аммо шофеъий мазҳаби имомларидан Абу Аббос ибн Сурайж Бағдодий (ваф. 306/919): “Фақат биринчи ой учун ижара жоиз бўлади” [15, 271], деган. У мазкур масалада ҳанафийлар билан ҳамфикр бўлган. Демак, ҳар икки мазҳабнинг фикрига кўра, шартнома бир ойдан сўнг тугатилади.

Кўриниб туридики, айрим ҳолларда ижара шартномасининг муддатининг якунига етиши унинг тугатилиши учун асос бўлмаслиги мумкин. Шартномага алоқаси бўлмаган омиллар, шунингдек, уни тузиш жараёнида ёшланган иборалар ҳам тугатилишига таъсир кўрсатади.

Томонлардан бирининг ёки ҳар иккисининг таклифи; бу савдо муносабатларида “иқола” дейилади. Иқола – ҳар икки томоннинг ҳаққида савдо бузишдир [6, 45]. Ижара шартномаси савдонинг бир тури эканидан келиб чиқиб, уламолар: “бу қоида ижарада ҳам жоиз бўлади” [9, 271], дейишган. Бу ҳолатда ижара шартномасини тузувчилар унда белгиланган мажбуриятларни бажаришдан бош тортиш орқали иккинчи томоннинг розилиги билан бўлади. Бу ҳолатда қасддан эмас балки сунъий уюштирилади, деб хулоса қилинади.

Шартнома тузишга олиб келган омилнинг йўқ бўлиши; бунга “Муҳитул-Бурҳоний” асарида қуйидаги масала мисол тариқасида келтирилган: “Қорасон касаллиги ёки тиши оғриётган беморларда тўсатдан тузалиш аломатлари кузатилса ёки оғриқ бутунлай йўқолиб, тиббий амалиётни амалга оширишга зарурат бўлмаса, шартнома ўз-ўзидан тугайди” [11, 489; 13, 456]. Шунингдек,

“Фатавои ҳиндия” асарида қуйидаги масала келтирилган: “Қарздорнинг олдида бориб келиш учун шартнома тузилса, унинг ўзи қарзни олиб келиб берса, мақсад ҳосил бўлгани учун шартнома тугатилади” [11, 489]. Мазкур ҳолатда томонларнинг зиммасида шартномада белгиланган мажбуриятларни бажариш лозим бўлмайди. Эътиборли жиҳати, ислом ҳуқуқида мазкур шартномаларни тугатиш учун томонлардан бири “шартномани бекор қиламан” каби сўзларни айтиши шарт эмас, балки шартнома ўз-ўзидан тугаган ҳисобланади. Шуниндек, мазкур масалада шофеъийлар ҳам ханафийлар билан ҳамфикр экани маълум бўлди.

Ижарага олинган нарсанинг йўқ бўлиши; бу борада ханафий ва шофеъий мазҳабларига оид манбалар қуйида баён қилинган. Ижара шартномаси уйнинг бузилиб кетиши билан тугатилади [6, 499; 13, 458]. Сабаби, ундан фойдаланишнинг имкони қолмаганидир. Агар уйнинг бир қисми бузилиб қолган қисмидан фойдаланиш имкони бўлса, шартнома тугатилмайди. Абу Юсуф: “Бундай ҳолатда ижара ҳақининг миқдори камайтирилади”, деган. Сабаби, ижарага олувчи учун фойдаланиш имконияти камайди. Шу боис, ижара ҳақининг миқдорини камайтириш адолатдан бўлади. Шофеъийлар: “Ижарага олувчи шартномани бекор қилиш юзасидан ихтиёрга эга бўлади”, дейишган. Юзага келган нуқсон туфайли ижарага олувчи шартнома муддатидан олдин тугатиш ҳуқуқига эга бўлади.

Томонлардан бирининг вафот этиши; бу ҳақда ханафийлар қуйидаги фикрни билдиришган. Ижарага берувчи ёки ижарага олувчилардан бири вафот этса, шартнома тугатилади [8, 273; 6, 509]. Чунки инсон вафоти сабабли унинг мол-мулкка эгалик қилиш ҳуқуқи, шунингдек, тириклик чоғида тузган шартномалари амал қилишдан тўхтади. Фаразан, шартнома тугатилмаса, ижарага олувчининг меросхўрлари нарсдан фойдаланишни давом эттириши ҳамда ижарага берувчининг меросхўрлари эса, ижара ҳақига эгалик қилиши лозим бўлиб қолади. Натижада шартномани тузиш чоғида иштирок этмаган шахсларга эгалик қилиш ҳуқуқи берилган бўлиб қолади. Бу ҳолат ислом ҳуқуқида жоиз эмас. Вафот этган шахс меросхўрларига бирон нарсдан фойдаланиб туришни ёки маълум бир

улушга вақтинчалик эгалик қилиш ҳуқуқини қолдиришини тасаввур қилиб бўлмайди.

Шофеъийларнинг наздида агар муайян нарсани ижарага олса, ҳар икки томон ёки улардан бирининг вафоти сабабли шартнома тугатилмайди. Балки белгиланган муддат тугагунга қадар шартнома ўз кучини йўқотмайди. Шартнома лозимликни ифода қилади [6, 499; 13, 457]. Демак, шофеъийларнинг наздида, шартномада белгиланган муддат тугамагани сабабли ижарага олинган нарсани меросхўрлар ўртасида тақсимламасдан, уни тасарруф қилиш ёки ижара ҳақига эгалик қилиш билан боғлиқ масалалар тўғридан-тўғри меросхўрларга ўтади. Бу мерос тақсимоли билан боғлиқ масалаларни ижара шартномасининг муддати тугагунга қадар тўхтатиб туришни ифода этади.

Ижарага олинган нарсага фойдаланиб бўлмайдиган даражада айб этиши; мазкур шартнома муддатидан олдин тугатилишига мазҳаб уламолари иттифоқ қилишган [9, 275]. “Мухитул-Бурҳоний” асарида баён қилинишича: “Агар ижарага олинган нарсада айб пайдо бўлиб ундан фойдаланишга ҳалал берса, ижарага олувчи шартномани тугатиш ҳуқуқига эга бўлади. Агар ҳалал бермаса, уни муддатидан олдин тугатиш ҳуқуқига эга бўлмайди” [6, 499]. Демак, ижарага берилган нарсада пайдо бўлган айб ижарага берувчи томонидан ўз ватқида бартараф этилса, ижарага олувчида шартномани тугатиш ҳуқуқи қолмайди. Агар бартараф этилмаса, вазиятдан келиб чиқиб ижара ҳақи миқдорини камайтириш орқали шартномани сақлаб қолиши мумкин.

Узрли сабабларга кўра; ханафий мазҳабида ижара шартномаси узрли сабаб юзага келгани боис муддатидан олдин тугатилади. Бу ҳақда “Мухитул-Бурҳоний” асарида: “Бизнинг наздимизда ижара шартномаси узрли сабабларга кўра (муддатидан олдин) тугатилади” [12, 269; 11, 519], дейилади. Манбаларда: “Баъзи ривоятларда, шартнома узрли сабабга кўра тугатилмайди” [12, 269; 11, 519], деб айтилган. Аммо қайси фақиҳларга тегишли ривоят эканига аниқлик киритилмаган. Бу ҳолатда ханафийлар узрли сабаб юзага келган вақтда ижарани давом эттириш томонлардан бирига жиддий зарар келтириш эҳтимолдан ҳоли эмас. Шу боис шартнома муддатидан олдин тугатилади, деган хулосага келишган. Фақиҳларнинг мазкур масалага оид қарама-

қарши фикрлари чуқур ўганилган ва умумий қоида ишлаб чиқилган. Унга кўра, агар узрли сабаб ижара шартномасини давом эттиришга ҳалал берса, шартнома ўз-ўзидан тугаган, деб эътиборга олинади. Агар шартномани давом эттиришга ҳалал бермаса-ю, аммо томонлардан бирига ёки ижарага олинган нарсага зарар етиши эҳтимоли бўлса, шартнома муддатидан олдин тугатилади [6, 498]. Ижара шартномаси билан боғлиқ ҳар қандай узрли сабаб мазкур қоида асосида тартибга солинган. “Бадоеус саноеъ” асарида: “Узр юзага келган вақтда уни эътиборга олмаслик шарият ва ақл доирасидан чиқиш” [5, 29; 9, 272], дейилган. Масалан, сув тегирмони бир муддатга ижарага олинди, орадан бироз вақт ўтгач, сув бутунлай тўхтади. Шартнома ўз-ўзидан тугайди. Агар фаразан шартнома тугатилмаса ва бир йилдан сўнг мазкур муддат учун белгиланган ижара ҳақи талаб қилинса, адолатдан бўлмайди.

Шофеъий мазҳаби уламолари эса “Ижара шартномаси узрли сабабга кўра (муддатидан олдин) тугатилмайди” [13, 456; 15, 309], деган фикр билдиришган. Юқорида айтилганидек, ижара шартномаси савдо муносабатларига киёсланган ва томонлардан бири уни муддатидан олдин тугатиши мумкин эмас, деган хулосага келинган. Улар юзага келган узрли сабабни бартараф этиш орқали шартномани давом эттириш мумкин, деб ҳисоблашган. Узрли сабаб бартараф этилгач, балки янги шартнома тузиш тақозо қилиниши мумкин. Шу боис, ҳанафийларнинг шартнома тугатилади, деган фикрларини маъқуллаш мақсадга мувофиқ. Аммо бартараф этишнинг имкони бўлмайдиган ҳолатларда шофеъийлар ҳам ҳанафийлар каби шартнома тугатилади, дейишади. Масалан, юқорида айтилган тиш олдириш каби масалаларда.

Ижара шартномасида юзага келиши мумкин бўлган узрли сабаблар уч турга бўлиб ўрганилади:

Ижарага берувчидаги узрли сабаб; у катта миқдорда қарзга кириб, вазиятни ижарага берилган нарсани сотиш ёки алмаштириш орқали ўнглашдан бошқа чораси қолмаса, энаганинг касал ёки ҳомиладор бўлиб қолиши, ўзини ижарага берган шахснинг меҳнат фаолиятига ярамай қолиши урзли сабаб ҳисобланади.

Ижарага олувчидаги узрли сабаб; у банкрот ҳолатига тушиб қолиши, етарлича даромад манбаига эга бўлмаслиги, сафарга чиқиб қолиши, касбини ўзгартириши узрли сабаб ҳисобланади.

Ижарага олинган нарсада пайдо бўлган узрли сабаб; унга нуқсон етиши ёки бутунлай йўқ бўлиб кетиши, шартномада кўрсатилган нарса бўлиб чиқмаслиги, ижарага ёлланган боланинг балоғатга етиши, маълум ихтисосликка эга бўлган шахс ишга ёллансаю, тажрибаси етмагани сабаб юклатилган вазифани бажара олмаслиги узрли сабаб саналади.

Узрли сабаб кимга тегишли бўлишидан қатъий назар томонлардан бирига ёки ҳар иккисига зарар келтириши эҳтимолдан холи эмас. Шу боис, шартнома муддатидан олдин тугатилади.

Қозининг қарори; бу ҳақда “Муҳитул-Бурхорий” асарида қуйидагича баён қилинган: “Агар шартномани амалга оширишда юзага келган узрли сабаб очиқ-ойдин бўлиб, томонларда ҳеч қандай шубҳа уйғотмаса, шартнома қозининг қарорисиз, томонларнинг ўзаро розилиги билан муддатидан олдин тугатилади. Агар ўзаро ихтилофни юзага келтирса, шартнома фақат қозининг ҳал қилув қарори билан тугатилади” [6, 498; 9, 273]. Демак, ижара шартномаси тузилгандан сўнг уни муддатидан олдин тугатиш ёки давом эттириш тузувчиларнинг ихтиёрида бўлади. Ҳар иккиси рози бўлса, юқорида айтилганидек, шартномани муддатидан олдин тугатиш мумкин. Бу ҳолатни нуқсон етгани сабабли тугатилган шартномага ўхшатиш мумкин. Қозининг қарори томонлар ўртасида юзага келган ихтилофни бартараф этади. Шу билан бирга, ижарага берувчи, олувчи ҳамда ижара олинган нарсага етиши мумкин бўлган зарарнинг олдини олади ёки уни қисман камайтиради.

ХУЛОСА

Ижара шартномаси ижтимоий-ҳуқуқий муносабатларни тартибга солиши, маълум миқдордаги эваз баробарига тузилиши, шунингдек, фақат белгиланган муддат давомида амал қилиши билан эътиборлидир. Шу боис, белгиланган муддат тугаши билан фойдаланишни тўхтатиш лозим бўлади. Агар фойдаланишни давом эттирса, шартномада

узайтирилган ҳисобланади. Унинг амал қилиш вақти олдинги шартномада кўрсатилган муддат микдори бўлади.

Шартномани муддатидан олдин тўхтатилишида томонларнинг ҳар иккисини розилиги шарт. Бу ҳолатда ҳар икки томон шартномани бекор қилинишига қарши бўлмаслиги керак. Акс ҳолда шартнома бир тарафнинг талаби билан тўхтатилмайди.

Ижарага олинган мулкдан фойдаланиш жараёнида аниқланган нуқсонлар, шунингдек, мустаъжирнинг таъсирисиз, масалан табиий офатлар сабабли етган нуқсонлар шартноманинг тугатилишига олиб келади. Шундай бўла-са, имкон қадар фойдаланиш мустаъжирнинг ўзини ихтиёрида.

Томонлардан бирининг ёки ҳар иккисининг вафоти муносабати билан шартнома тўхтатилиш масалада ҳанафийларнинг фатволари мақсадга мувофиқдир. Чунки меросхўрлар бир киши бўлмаслиги, фойдаланиш ва эгалик қилиш ҳуқуқи берилишида уларнинг ўртасида ўзаро муаммолар юзага келиши эҳтимоли йўқ эмас. Шу боис, шартномани тўхтатиш ва меросхўрлар ўртасида меросдаги улушлари тенг тақсимланганидан сўнг ижара шартномасини тузиш ёки тузмаслик масаласида ихтиёрли бўладилар.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ

1. Абдулваҳҳоб Шаъроний. Мезон. – Байрут: Илмул кутуб, 1996. – Ж. 3. – Б. 130.
2. Абу Исҳоқ Шерозий. Муҳаззаб фи фикҳи имомиш Шофейй. – Дамашк: Дорул қалам, 2006. – Ж. 3. – 764 б.
3. Абу Исҳоқ Шерозий. Муҳаззаб фи фикҳи имомиш Шофейй. – Дамашк: Дорул қалам, 2006. – Ж. 4. – 772 б.
4. Абу Муҳаммад Ҳусайн Бағавий. Ат-Тазҳиб фи фикҳил имомиш шофейй. – Байрут: Дорул кутубул илмия, 1997. – Ж. 4. – 592 б.
5. Алодуддин Косоний. Бадоиус саное фи тартибиш шарое. – Байрут: Дорул кутубул илмия, 2003. – Ж. 6. – 624 б.
6. Бурҳониддин Маҳмуд Бухорий. Муҳитул-Бурҳоний. – Байрут: Дорул кутубул илмия, 2004. – Ж. 7. – 664 б.
7. Бурҳониддин Маҳмуд Бухорий. Муҳитул-Бурҳоний. – Байрут: Дорул кутубул илмия, 2004. – Ж. 9. – 544 б.
8. Ваҳба Зухайлий. Фикҳул ислом ва адиллатуху. – Дамашк: Дорул фикр, 1985. – Б. 758.
9. Муаллифлар жамоаси. Мавсуатул фикҳия. – Қувайт: Вақф вазирлиги, 1984. – Ж. 1. – 397 б.
10. Муаллифлар жамоаси. Мавсуатул фикҳия. – Қувайт: Вақф вазирлиги, 1984. – Ж. 8. – 317 б.
11. Низомиддин Бурҳонпурий (Шайх Низом) ва бошқалар. Фатавои ҳиндия. – Байрут: Дорул кутубул илмия, 2000. – Ж. 4. – 616 б.
12. Фаҳриддин Қозихон. Фатавои Қозихон. – Байрут: Дорул кутубул илмия, 2009. – Ж. 2. – 639 б.
13. Хатиб Ширбиний. Муғнил муҳтож. – Байрут: Дорул маърифат, 2008. – Ж. 2. – 564 б.
14. Шамсиддин Сарахсий. Мабсут. – Байрут: Дорул кутубул илмия, 2017. – Ж. 16. – 485 б.
15. Яхё ибн Шараф Нававий. Равзоут толибин. – Байрут: Оламул кутуб, 2003. – Ж. 4. – 534 б.

RAJAPBOYEVA Dildora Rustamovna
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Lingvistika mutaxassisligi 1-kurs magistranti
E-mail: rajapboevadildora@gmail.com

MULLASODIQOVA Nigora Miromonovna
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Arab tili va adabiyoti "al-Azhar" kafedrası dotsenti,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: nigoramullasodiqova@gmail.com

“AL-MUSTAQSO FI-L-AMSOL” – ARAB MAQOLLARI XAZINASI

«АЛЬ-МУСТАКСА ФИ АЛЬ- АМСАЛЬ» – СОКРОВИЩНИЦА АРАБСКИХ ПОСЛОВИЦ

“AL-MUSTAQSĀ FĪ AL-AMTHĀL” – A TREASURY OF ARABIC PROVERBS

Annotatsiya. Mazkur maqola Mahmud az-Zamaxshariyning mashhur asari “al-Mustaqso fi-l-amsol”ning umumiy mazmuni, tuzilishi va unda keltirilgan maqollar miqdori haqida ma'lumot beradi. Asar qadimiy arab adabiyotida keng tarqalgan maqollarni o'zida jamlab, ularning semantik va stilistik jihatlarini ochib beradi. Maqolada Zamaxshariyning asarni yozish maqsadi, maqollarning boblarga taqsimlanish tartibi masalalari yoritilgan. Shuningdek, maqolada “al-Mustaqso fi-l-Amsol” asarining hozirga qadar saqlanib qolgan qo'lyozmalari haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Mahmud Zamaxshariy, “al-Mustaqso fi-l-Amsol”, “Asosu-l-Balog'a”, arab she'riyati, maqol, matal, bob, fasl.

Аннотация. Данная статья представляет информацию об общем содержании, структуре и количестве пословиц, приведенных в знаменитом труде Махмуда аз-Замахшари «Аль-Мустакса фи аль-Амсал». Этот труд собирает широко распространенные пословицы древнеарабской литературы, раскрывая их семантические и стилистические аспекты. В статье рассматриваются цели написания произведения Замахшари, порядок распределения пословиц по главам. Кроме того, приводится детальная

информация о сохранившихся до наших дней рукописях «Аль-Мустакса фи аль-Амсал».

Ключевые слова: Махмуд Замахшари, «Аль-Мустакса фи аль-Амсал», «Асас аль-Балага», арабская поэзия, пословица, поговорка, глава, раздел.

Abstract. This article provides information on the general content, structure, and number of proverbs presented in Mahmud az-Zamakhshari's famous work “al-Mustaqsa fi al-amthāl”. The book compiles widely known proverbs from ancient Arabic literature, analyzing their semantic and stylistic aspects. The article explores Zamakhshari's purpose in writing the work and the arrangement of proverbs into chapters. Additionally, it provides detailed information about the surviving manuscripts of “al-Mustaqsa fi al-amthāl”.

Keywords: Mahmud Zamakhshari, “al-Mustaqsa fi al-amthāl”, Asas al-Balaghah, arabic poetry, proverb, saying, chapter, section.

KIRISH

Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy o'z davrining yetuk olimlaridan biri bo'lib, u turli fanlarga oid yetmishga yaqin asar yozgan, deb e'tirof etiladi. Uning qalamiga mansub asarlar soni haqida manbalarda turlicha ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, nemis sharqshunos olimi Karl Brokkelman uning 31 asarini qayd etgan bo'lsa, doktor Ahmad Muhammad Xufiy 48 ta asarni mavjudligini aytadi. Aliybeg Rustamovning tadqiqotlarida esa 39 ta, Boqi Zakiyevich Xolidovning maqolasida esa 55 ta asar sanab o'tilgan. Muhammad Bosil Uyun Sud “Asosu-l-Balog'a” asarining 1998-yilda Bayrutda chop etilgan nashrida Zamaxshariyning 65 ta asari mavjudligini aytib, ularning ro'yxatini keltirgan [3:5]. Xulosa qilinganda bizning davrimizgacha yetib kelgan asarlarining soni ellikdan ortiq, deb hisoblanadi.

Allomaning ilmiy merosi orasida tilshunoslikka oid “al-Mufasssal”, “Sharhu abyati kitabi Sibavayhi”, “al-Unmuzaj” kabi asarlar alohida o'rin tutadi. Bundan tashqari, “Asosu-l-Balog'a”, “al-Foiq fi g'aribi-l-hadis”, “Muqaddimatu-l-Adab” va “al-Mu'jamu-l-arabiy va-l-forsiy” kabi mashhur lug'atlar tuzgan. Qur'oni karim tafsiriga bag'ishlangan “al-Kashshof” asari esa islom olamida eng mukammal filologik tafsirlardan biri sifatida e'tirof etilgan.

Mazkur asarlarning qo'lyozma va toshbosma nusxalari dunyoning eng yirik fondlarida saqlanmoqda va hozirgacha asosiy manba sifatida foydalaniladi. Zamaxshariy merosi sharqshunos olimlar tomonidan yuqori baholangan. Shuning uchun bu asarlarga sharhlar yozilgan. Tadqiqotchilar Zamaxshariyning asarlarini har tomonlama o'rganishda davom etmoqda. Mazkur maqolada "al-Mustaqso fi-l-amsol" asari haqidagi dastlabki ilmiy izlanishlar natijasi keltiriladi.

ASOSIY QISM

"Al-Mustaqso fi-l-amsol" — Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy tomonidan yaratilgan mashhur asarlardan biri. Ushbu kitob johiliya davridan Zamaxshariy yashagan davrgacha mavjud bo'lgan arab maqol va matallarini to'plash, ularning lug'aviy va ma'naviy jihatlarini ochib berishga bag'ishlangan. Zamaxshariy arab madaniyati, tili va adabiyoti bo'yicha keng bilimga ega bo'lgani uchun asardagi maqollarni leksik, grammatik, semantik, stilistik jihatdan tahlil qilgan. Tahlillari mukammal chiqqaniga uning og'zaki ijod tarixini, xalqlarning madaniyatini mukammal bilgani, mantiqiy fikrlashi sababdir. Tahlil jarayonida maqollarning nasriy va she'riy uslublarini ham ko'rsatib bergan.

Zamaxshariy mazkur asarni 1106-yil (hijriy 499-yil)da yozgan. Unda taxminan 3500 ga yaqin maqol va matalni jamlagan. Ular alifbo tartibida joylangan bo'lib, har birining kelib chiqish tarixi, qo'llanishi va matni batafsil yoritilgan. Matal va maqollar ma'nosini chuqurroq ochib berish maqsadida muallif ko'pincha nasriy va she'riy parchalar ham keltirgan. Muallif maqollarni tahlil qilar ekan lug'at boyligi, uslubiy xilma-xilligi, fasohat va balog'at talablariga mos yuksak darajadagi namuna ekanini ko'rsatib beradi va shu bilan asarning qadrini oshiradi.

Bugungi kunda "al-Mustaqso fi-l-amsol" asarining qo'lyozma nusxalari quyidagi joylarda saqlanmoqda:

1. Turkiyaning Istanbul shahrida ushbu kitobning eng ko'p nusxalari saqlanadi. Bular: "Ashir Afandi" (№907), "Bashir Og'a" (№553), "Damadzoda" (№1557), "Lolali" (№715, 1671, 1925, 1926), "Salim Og'a" (№991), "Topikapi

saroy-muzei" (№2290), "Fayzulloh" (№1756), "Fotih" (№4088, 4089), "an-Nur al-Usmoniyya" (№4249, 4250), "Köprülü" (№1388, 1389) kutubxonalari.

"Al-Mustaqso fi-l-amsol" asarining "Bashir Og'a" kutubxonasida saqlanayotgan nusxasi hijriy 1076-yilda; "Fayzulloh" kutubxonasidagi nusxasi esa hijriy 559-yilda ko'chirilgan.

2. Bursa: "Husayn Chalabiy" kutubxonasi (№17)

3. Bag'dod: "Mosul" kutubxonasi (№27, 329)

4. Haydarobod: "al-Asfiya" kutubxonasi (№3/607)

5. Leyden kutubxonasi (№394)

6. Vena kutubxonasi (№338)

7. Vatikan kutubxonasi (№1177)

8. Rampur kutubxonasi (№1/616)

9. Tehron: "Majlis" kutubxonasi (№2/301)

10. Qohira: "Daru-l-kutubi-l-misriyya" kutubxonasi (№355)

11. Britaniya muzeyi (№730, 1426, 1002) [1:43].

"Al-Mustaqso fi-l-amsol" asari 1962-yilda Haydarobodda ikki jildda nashr etilgan bo'lib, uning bir nusxasi Garvard universiteti kutubxonasida (№22423.15) saqlanmoqda [2:37]. 1977-yilda Bayrutdagi «Daru-l-kutubi-l-ilmiyya» nashriyotida ham chop etilgan. Bu nashr ikki jilddan iborat bo'lib, jami 3761 ta maqolni o'z ichiga oladi. "Al-Mustaqso fi-l-amsol" kitobi arab alifbosiga muvofiq 28 harfga bo'lingan. Muallif har bir harf qismini "bob" deb nomlagan. Boblar esa o'z navbatida "fasl"larga ajratilgan. Asarning birinchi jildida "hamza" harfi va alifdan boshlanadigan 1917 ta maqol jamlangan. "Hamza" bobi tugagach atoqli otlar va qabila nomlari mundariyasi va birinchi qismning umumiy mundariyasi keltirilgan. Mazkur jild hajmi 452 betni tashkil etadi.

Ikkinchi jildi "bā" harfidan boshlab, "yā" harfi bilan tugaydi va shu harflar bilan boshlanuvchi 1544 ta maqolni o'z ichiga olgan. Asarning bu jildi oxirida asarni ko'chirgan xattotning xulosasi ham keltirilgan. Ushbu jild boblar, mundarija va xulosalar bilan birgalikda jami 431 betdan iborat. Boblarning joylashish ketma-ketligi hamda har bir bobdagi maqollar miqdorini quyidagi jadval orqali ko'rish mumkin:

“Al-Mustaqso fi-l-amsol” asari umumiy tuzilishi

№	Boblar		Maqollar soni	№	Boblar		Maqollar soni
1.	باب الهمزة	hamza bobi	1917	15.	باب الضاد	dād bobi	15
2.	باب الباء	bā bobi	61	16.	باب الطاء	tā bobi	12
3.	باب التاء	tā bobi	53	17.	باب الظاء	dhā bobi	4
4.	باب الثاء	thā bobi	6	18.	باب العين	‘ayn bobi	75
5.	باب الجيم	jīm bobi	81	19.	باب الغين	ghayn bobi	10
6.	باب الحاء	hā bobi	51	20.	باب الفاء	fā bobi	21
7.	باب الخاء	khā bobi	33	21.	باب القاف	qāf bobi	52
8.	باب الدال	dāl bobi	17	22.	باب الكاف	kāf bobi	119
9.	باب الذال	dhāl bobi	16	23.	باب اللام	lām bobi	302
10.	باب الراء	rā bobi	67	24.	باب الميم	mīm bobi	247
11.	باب الزاى	zāy bobi	9	25.	باب النون	nūn bobi	20
12.	باب السين	sīn bobi	36	26.	باب الواو	wāw bobi	46
13.	باب الشين	shīn bobi	35	27.	باب الهاء	hā bobi	89
14.	باب الصاد	sād bobi	23	28.	باب الياء	yā bobi	44
JAMI: 3461							

Jadvalda berilgan ma’lumotlarni tahlil qilib shuni aytish mumkinki, hajm jihatdan eng katta bob “hamza bobi” bo’lib, unda 1917 ta maqol tahlil qilingan. Eng kichik bob esa “dhā bobi” bo’lib, unda 4 ta maqol mavjud.

“Al-Mustaqso fi-l-amsol” asarida maqollarni joylashtirishda oxirgi to’rt harf bobida alifbo tartibi o’zgargan, ya’ni avval nūn, keyin wāw, undan keyin hā va yā harflariga oid boblar keltirilgan. Xuddi shu holat boblar tarkibidagi fasllarda ham kuzatiladi. Masalan, “hamza bobi”da avval “hamza bilan nūn”, keyin “hamza bilan wāw”, undan keyin “hamza bilan hā”, oxirida esa “hamza bilan yā” fasllari berilgan. Ular quyidagichadir:

باب الهمزة مع النون: انقى من الدمعة [5:398].

Tarjimasi: “Hamza bilan nūn” bobi: Ko‘z yoshlaridan ham toza.

باب الهمزة مع الواو: أوثب من فهد [5:427].

Tarjimasi: “Hamza bilan wāw” bobi: Geparddan ham chaqqonroq.

باب الهمزة مع الهاء: أهل القتيل يلونه [5:443].

Tarjimasi: “Hamza bilan hā” bobi: Marhumning oilasi uning yonida.

باب الهمزة مع الياء: أياس من غريق [5:448].

Tarjimasi: “hamza bilan yā” bobi: Cho‘kayotgan odamdan-da umidsizroq.

Shunisi e’tiborga molikki, muallifning lug‘atshunoslikka bag‘ishlangan “Asosu-l-Balog‘a” asarida ham harflar tartibi “al-Mustaqso fi-l-amsol” kitobidagi tartib bilan bir xil. “Al-Mustaqso fi-l-amsol”da fasllardagi maqollarni joylashtirishda birinchi so‘zning harflari, undan keyin ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi, beshinchi so‘zlar tarkibidagi harflarni alifbo tartibida berishda ham yuqoridagi tartib saqlangan, ammo “Asosu-l-Balog‘a”da esa bir harfdan boshlanuvchi lug‘at maqolalari tarkibidagi harflar alifboga mos ravishda joylashtirilgan.

Asarning ikkinchi jildi “bā” harfidan boshlangan maqollar sharhi bilan boshlanib, asar xotimasi, atoqli otlar, qabila nomlari mundariyasi va ikkinchi qismning umumiy mundariyasi bilan yakunlangan.

Quyidagi jadvalda “al-Mustaqso fi-l-amsol” asaridagi “Hamza bobi” misolida asardagi boblar tarkibiga kiruvchi fasllar qay tartibda joylashtirilganligi namoyon bo‘ladi:

Hamza bobidagi fasllarning joylashish tartibi

№	Fasllar	№	Fasllar
1	الهمزة مع الألف <i>Hamza bilan alif</i>	15	الهمزة مع الضاد <i>Hamza bilan Dād</i>
2	الهمزة مع الباء <i>Hamza bilan bā</i>	16	الهمزة مع الطاء <i>Hamza bilan Tā</i>
3	الهمزة مع التاء <i>Hamza bilan tā</i>	17	الهمزة مع الظاء <i>Hamza bilan DHā</i>
4	الهمزة مع الثاء <i>Hamza bilan thā</i>	18	الهمزة مع العين <i>Hamza bilan ‘ayn</i>
5	الهمزة مع الجيم <i>Hamza bilan jīm</i>	19	الهمزة مع الغين <i>Hamza bilan ghayn</i>
6	الهمزة مع الحاء <i>Hamza bilan hā</i>	20	الهمزة مع الفاء <i>Hamza bilan fā</i>
7	الهمزة مع الخاء <i>Hamza bilan khā</i>	21	الهمزة مع القاف <i>Hamza bilan qāf</i>
8	الهمزة مع الدال <i>Hamza bilan dāl</i>	22	الهمزة مع الكاف <i>Hamza bilan kāf</i>
9	الهمزة مع الذال <i>Hamza bilan dhāl</i>	23	الهمزة مع اللام <i>Hamza bilan lām</i>
10	الهمزة مع الراء <i>Hamza bilan rā</i>	24	الهمزة مع الميم <i>Hamza bilan mīm</i>
11	الهمزة مع الزاى <i>Hamza bilan zāy</i>	25	الهمزة مع النون <i>Hamza bilan nūn</i>
12	الهمزة مع السين <i>Hamza bilan sīn</i>	26	الهمزة مع الواو <i>Hamza bilan wāw</i>
13	الهمزة مع الشين <i>Hamza bilan shīn</i>	27	الهمزة مع الهاء <i>Hamza bilan hā</i>
14	الهمزة مع الصاد <i>Hamza bilan Sād</i>	28	الهمزة مع الياء <i>Hamza bilan yā</i>

Asarning har bir bobi tarkibidagi fasllarda quyidagi tarkibiy qismlar mavjud:

a) maqol matni.

Zamaxshariy har bir maqolni aniq va tushunarli shaklda keltiradi. Qolaversa, kitobda jamlangan maqollar raqamlab chiqilgan. Bu kitobxonga asarda jami nechta maqol va matallar borligini; boblardagi, fasllardagi maqollar miqdorini aniqlashda yordam beradi.

b) ma’nosi va izohi.

Ushbu maqollar zamonaviy o’quvchilarga tushunarli bo’lishi uchun batafsil izohlar bilan ta’minlangan. Zamaxshariy ba’zan maqolning ma’nosini ko’chma ma’noda va asl ma’nosida tahlil qiladi. Maqollarga she’riyatdan misol keltirishda ham Zamaxshariy faqatgina shu maqol ishlatilgan qasidalaragina emas, maqol ma’nosini tushuntirish uchun yordam beradigan, maqolning kelib chiqish sababi, qanday vaziyatda aytilishini tushuntiruvchi baytlardan ham misollar keltiradi. Bu esa o’quvchida maqolni to’g’ri qo’llash ko’nikmasini shakllantiradi.

c) kontekst va qo’llanilishi.

Maqollarni qanday holatlarda ishlatilishini misollar yordamida tushuntirib beradi. Misol tariqasida, ko’pincha arab she’riyatiga murojaat etgan. Bu arab adabiyoti va kundalik hayotdagi nutq madaniyatini tushunishga yordam beradi. Zamaxshariy mazkur asarda Imrul Qays, Zuhayr ibn Abi Salma, al-Farazdaq, Yazid ibn Amr ibn Qays, Molik ibn Zayd, Jarir, al-Axtal, Ajaj ibn Ru’ba, Kusayyir ibn Abdurahmon, an-Nabig’a, Abu Hayya an-Numayriy, al-Qatahiy, az-Zahhok ibn Said al-Hamadoniy, al-Kumayt ibn Sa’laba, Solim ibn Dora, al-A’sha va boshqa ko’plab shoirlarning qasidalaridan misol keltirgan. Shuni alohida ta’kidlash joizki, muallif maqol ma’nosini izohlashda qasidalaridan misol keltirganda ushbu qasida aruzning qaysi bahrida yozilganligini ham zikr etgan. Asarda aruzning rajaz, ramal, komil, tavil, mutaqorib, xafif, basit, vofir, sari’ vaznlariga xos bo’lgan she’riyat namunalarini uchratish mumkin. Masalan, asarning birinchi jildi “Hamza” bobidagi “hamza bilan thā” faslidan o’rin olgan

أثقل من شمام (Tarjimasi: Shamom togʻidan ham ogʻirroq) maqolining maʼnosini sharhlashda muallif aruzning vofir bahrida yozilgan quyidagi sheʼrga murojaat qiladi:

سيلقى الحارث الحنفى شعرا
على الشعراء أثقل من شمام. [5:42]

Tarjimasi: al-Horis al-Hunfiy oʻqimoqchi sheʼr

Shoirlardan oldida Shamomdan ogʻir:

d) Fon va manbalar.

Baʼzi maqollarning qanday paydo boʻlganligi, qachon, kim tomonidan va kimga qarata aytilganligi yoki tarixiy ahamiyati haqida maʼlumot beradi. Masalan, asarning ikkinchi jildidan oʻrin olgan “Bā” bobidagi “bā bilan kāf” faslida keltirilgan maqolga quyidagicha izoh beriladi:

٩٣ - بِكَلِّ وَادٍ أَثَرُ مِنْ تَغْلِبَةٍ : قاله رجل جفاء بنو تغلبة
فارتحل عنهم إلى قوم فجفوه أيضا فمال ذلك ؛ يضرب لمن يرى
ما لا يريد أين يتوجه [6:13].

Tarjimasi:

39 – Har bir vodiya Saʼlabaning izi bor: Buni Banu Saʼlaba qabilasidan quvgʻin qilingan bir kishi aytgan. U bu qavmdan qochib boshqa bir qavmga boradi. U qavm ham bu kishini haydab soladi. Keyin bu qavmdan ham joʻnab qoladi. Bu maqol qayerga bormasin, oʻzi xohlamaydigan narsaga duchor boʻladigan kishiga nisbatan aytiladi.

XULOSA

Mahmud Zamaxshariyning “al-Mustaqso fi-l-amsol” asari arab maqollari va matallarining muhim manbalaridan biri boʻlib, nafaqat lingvistik, balki madaniy va tarixiy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu asarda arab xalqining asrlar davomida shakllangan hikmatli soʻzlari jamlanib, ularning kelib chiqishi, semantik hamda stilistik jihatlari tahlil qilingan. Muallif maqollarni alifbo tartibida joylashtirib, ularning lugʻaviy, kontekstual va badiiy xususiyatlarini keng yoritgan.

Kodifikatsiya va tahlil usuli jihatidan “al-Mustaqso fi-l-amsol” arab maqollari boʻyicha yozilgan eng muhim asarlardan biri hisoblanadi. Qoʻlyozma nusxalarining turli kutubxonalarda saqlanib qolishi, asarning ilmiy ahamiyatini yana-da oshirib, zamonaviy tadqiqotchilar uchun muhim material sifatida xizmat qilishini koʻrsatadi. Zamaxshariy oʻzining chuqur bilim va tahliliy yondashuvi bilan maqollarning faqatgina lugʻaviy

izohlarini emas, balki ularning ijtimoiy va adabiy kontekstdagi oʻrnini ham ochib bergan.

Xulosa qilib aytganda, “al-Mustaqso fi-l-amsol” arab tilining boy ifoda imkoniyatlarini, maqollar va matallar orqali milliy tafakkurni oʻrganish uchun beqiyos manba boʻlib xizmat qiladi. Ushbu asarning kodikologik jihatdan tahlil qilinishi, uning tarixiy taraqqiyotini oʻrganish va keyingi avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyatga ega.

MANBA VA ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Brockelmann C. Geschichte der arabischen Litteratur. Bd. I. – Leiden, 1937.
2. Catalogue of Arabic. Persian and Ottoman Turkish books. Volume 2. Authors, Titles and Personal subjects. Arabic. Cambridge, Massachusetts: Published by Harvard University Library, 1968.
3. Nosirova M. Oʻrta asrlar arab nahvidan namunalar (Mahmud Zamaxshariyning “Unmuzaj fi nahv” risolasi asosida). – Toshkent: ToshDSHI nashriyoti, 2004.
4. الزمخشري محمود، أساس البلاغة. – بيروت: دار الكتب العلمية، ١٩٩٨.
5. الزمخشري محمود، المستقصى في أمثال العرب. ج. ١. – بيروت: دار الكتب العلمية، ١٩٧٧. – صفحة ٤٥٢.
6. الزمخشري محمود، المستقصى في أمثال العرب. ج. ٢. – بيروت: دار الكتب العلمية، ١٩٨٨. – صفحة ٤٣١.

GANIYEV Avazbek

*International Islamic Academy of Uzbekistan,
Associate Professor at IRCICA-
Chair for Islamic History and Source Studies of Islam
E-mail: avazganiyev@gmail.com*

ABDURASHIDOV Ahrorxon D.

*International Islamic Academy of Uzbekistan,
Master's degree, 2nd year Islamic Studies Department
E-mail: ahrorxonabdurashidov97@gmail.com*

IMOM BUXORIYNING “SAHIHUL BUXORIY” ASARIDA FITNALAR BOBINING BUGUNGI ZAMON UCHUN AHAMIYATI

ЗНАЧЕНИЕ ГЛАВЫ О ФИТНАХ В ТРУДЕ ИМАМА АЛЬ-БУХАРИ «САХИХ АЛЬ-БУХАРИ» ДЛЯ СОВРЕМЕННОСТИ

IMPORTANCE OF THE CHAPTER ON FITNAS IN IMAM BUKHARI'S “SAHIH-UL-BUKHARI” FOR PRESENT TIME

Annotasiya. Maqolada Imom Buxoriy asaridagi “Fitnalar” bobining mazmuni va uning bugungi zamon uchun ahamiyati tahlil qilinadi. Fitna tushunchasi Qur'on va Hadisdagi yoritilishi asosida o'rganilib, fitnalarning oldini olish yo'llari sharhlangan. Shuningdek, Islom olamining mashhur olimlari, jumladan, Abu Mansur Moturudiy, Mahmud Zamaxshariy va Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriylarning qarashlari bayon etilgan. Maqolada “Fitnalar” bobidagi hadislarining zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy va axloqiy barqarorlikni saqlashdagi o'rni xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Islom, din, hadislar, Imom Buxoriy, Sahihul Buxoriy, fitnalar.

Abstract. The article analyzes the content of the chapter “Fitnas” in the work of Imam Bukhari and its significance for the present time. The concept of fitna is explained in the Quran and Hadith, and the interpretation of fitna is based on the Hadith. The views of famous scholars and leaders of the Islamic world, Abu Mansur Maturidi, Mahmud Zamakhshari and Muhammad ibn Ismail al-Bukhari are presented. The article discusses the role of the hadiths in the chapter “Fitnas” in maintaining social and moral security in modern society.

Keywords: Islam, religion, ahadith, imam Bukhari, fitnas.

Аннотация. В статье анализируется содержание главы «Фитна» в произведении имама Бухари и ее значение для современности. Понятие фитны объяснено в Коране и хадисах, а устранение фитны регламентируется хадисами. Представлены взгляды известных ученых

исламского мира, в том числе Абу Мансура аль-Матури, Махмуда Замахшари и Мухаммада ибн Исмала аль-Бухари. В статье рассматривается роль хадисов главы «Испытания» в поддержании социальной и моральной безопасности в современном обществе.

Ключевые слова: Ислам, религия, хадисы, Имам Бухари, фитны.

KIRISH

Islom dini, undagi muqaddas manbalarga ko'ra barcha insonlarni tinch va osuda hayot kechirish, jamiyatni farovon bo'lishi uchun da'vat etadi. Qur'onda butun insoniyatga murojaat bilan, ular bir erkak (Odam) va ayol (Havvo)dan yaratilgani, o'zaro tanishishlari uchun xalqlar va qabilalar qilib qo'yilgani, so'ngra Allohning nazdida eng azizu mukarram inson – taqvodor bo'lgan kishi ekani aytiladi.

إِنَّ أَكْرَمَكُمْ عِنْدَ اللَّهِ أَتَقَوُّكُمْ

“Albatta, Allohning huzurida eng hurmatligingiz eng taqvodoringizdir”

(Hujurot surasi, 13-oyat) [16; 233]. Har bir asrning fikr yurituvchi, mushohada etuvchi kishilari borki, ular Islom dinining sof, tinchlikparvar va mukammal din ekani, musulmonlarning muruvvatli hamda barchaga nisbatan bag'rikeng ekanliklarini e'tirof etganliklarini manbalardan ko'rish mumkin.

“Fitna” deganda biz buzg'unchilik, maxfiy ravishda zarar yetkazishga urinish, fasod qo'zg'ashni tushunamiz. To'g'ri, fitna so'zida shu ma'no ustun. Ammo bu so'zning asl kelib chiqish mazmuni yanada kengroqdir. Lug'atshunoslarning ta'kidlashicha, “fitna” so'zi arablarda aslida oltinni o'tga tutib, yot moddalardan tozalashni anglatar ekan. Shundan kelib chiqib, “fitna” so'zi imtihon, sinov degan ma'nolarda ham ishlatiladigan bo'lgan. Qur'oni karimda bu so'z aynan shu mazmunda ham keladi.

Darhaqiqat, fitna yomon, ko'ngilsiz holat bo'lish bilan birga, u insonlarni imtihon qiladi, saragini sarakka, puchagini puchakka ajratadi. Bu ham ilohiy iroda, imtihon dunyosining qonuni. Fitna paytida odamlarning asl holati oshkor bo'ladi, qalbida yashirinib yotgan cho'kindilari yuzaga qalqiydi, bor surati namoyon bo'ladi. Buni har bir holatda kuzatish mumkin.

Dunyoning bir chekkasida o'zini musulmon deb tanishtirgan bir kimsa qandaydir qo'poruvchilik qildi. Aslida Islomda uning hech qanday o'rni yo'q, uning bu ishini birorta musulmon oqlagani yo'q, bu kimsaga o'sha qilmishni ham kimdir buyurtma bergan yoki uni shunga majbur qilgan

bo'lishi ehtimoli katta [15; 132]. Ammo ushbu hodisa fitna o'laroq odamlarda turlicha aks sado beradi: kimdir bundan Islom va musulmonlarning sha'niga dog' tushishidan tashvishlansa, kimdir befarq, kimdir esa shu narsa tufayli Islom va musulmonlardan nafratlana boshlaydi, kimdir dindand qaytishgacha boradi, yana qaysidir kimsa Islom va musulmonlarni haqorat qilishgacha, zolimlarni qo'llab-quvvatlashgacha jur'at qiladi. Bularning barchasi fitnaning imtihon qiluvchi omil ekaniga misol bo'ladi.

ASOSIY QISM

“Fitna” so'zi arabcha “sinash”, “imtihon qilish”, “olovda toblanish” ma'nolarini bildiradi. Qur'oni karim hamda hadisi shariflarda bu so'z “imtihon”, “haq yo'ldan to'sish”, “olovda azoblash”, “shirk, kufr keltirish”, “botilni haq qilib ko'rsatish”, “zalolatga ketkazish”, “odamlarni qatl qilish va asr olish”, odamlar orasidagi kelishmovchilik” kabi ma'nolarda ham qo'llanilgan. Hozirgi kunda musulmonlar o'rtasidagi o'zaro kelishmovchiliklar, ularni bir-biriga gij-gijlash, musulmon yurtlarda urush chiqarib, odamlarni qatl va qirg'in qilish ham katta fitna hisoblanadi.

Azhariy aytadi: “Arablarining kalomida fitna so'zi “sinov, imtihon” degan ma'nolarni bildiradi. Bu aslida “fatantul fizzota vaz zahaba” degan so'zdan olingan bo'lib, “oltin va kumushni yaxshisini yomonidan ajratish uchun olovda eritdim”, deganini bildiradi. Alloh taoloning “Yavma hum alan naari yaftanun” degan so'zi ham mana shu ma'nodadir”.

Ibnul Arabiy fitnaning ma'nolarini o'zlarining quyidagi so'zlari bilan xoslaydilar: “Fitna bu - sinov, fitna bu - mashaqqat, fitna bu - mol, fitna bu - farzandlar, fitna bu - kufr, fitna bu - insonlarning fikrlari bilan ixtilof qilishlari, fitna bu - olov bilan yondirish”.

Alloh taolo aytadi:

وَالْفِتْنَةُ أَشَدُّ مِنَ الْقَتْلِ

“Fitna qotillikdan ham yomonroqdir” (Baqara, 191).

Bu oyatda fitnaning odam o'ldirishdan ham yomonroq deb hisoblanishi uning xatarlari bir kishining o'ldirilishidan ko'ra ancha keng ko'lamdagi zararga ega ekanligi bilan izohlanadi. Albatta, mol ilinjida, g'azab sababli yoki boshqa har qanday omil tufayli bir jonning hayotiga nuqta qo'yish katta jinoyat. Biroq jamiyat a'zolari o'rtasida fitna chiqarish, odamlarni

bir-biriga qarshi qayrash, nizo chiqarish orqali kelib chiqqan millatlararo urushlar butun boshli millatni taraqqiyotdan o'nlab yillar ortga surib yuboruvchi vayronagarchiliklarga sabab bo'lishini inobatga olsak, jamiyat uchun bundan ortiq talafot bo'lmasligini anglaymiz.

Fitnaning eng ko'p ishlatiladigan ma'nosi buzg'unchilik, fisqu-fasod qo'zg'ash, jamiyatda turli asossiz mish-mishlar tarqatish, xalqni o'zi yashab turgan mamlakatiga qarshi qo'yishdir. “Ya'ni: sizni fitnaga solmoqchi bo'lgan fitna, ya'ni: insonning fitna tufayli kufrga qaytishi biror jonni qatl qilishdan ham og'irroqdir, deyilgan. “Fitna deganda, insonning o'zi, boyligida, oilasida bo'ladigan sinovdir. Fitna degani, mushriklarning shirkidir, chunki ular Masjidul Haromda o'ldirishni ulug' ish hisoblaganlar, shuning uchun Alloh taolo ularga qilgan shirkklari ular ulug'lagan narsadan ham yomonroq ekanini aytdi. Ularning sizlarni Masjidul Haromdan to'sishlari bilan sizlarga qarshi fitnalari sizning ularni Masjidul Haromda o'ldirishingizdan yoki sizni o'ldirsalar sizni o'ldirishingizdan ko'ra qattiqroqdir, deyilgan edi. Har qanday sabab bilan dinda fitna qilish qotillikdan ham qattiqroqdir”

Fitna bu – imtihon oltinning imtihonidir. Ya'ni uning sifatini bilish uchun olovga olib kirsangizdagi holatdir. Alloh taolo aytadi:

إِنَّ الَّذِينَ قَتَلُوا الْمُؤْمِنِينَ وَالْمُؤْمِنَاتِ ثُمَّ لَمْ يَتُوبُوا فَلَهُمْ عَذَابُ جَهَنَّمَ وَلَهُمْ عَذَابُ الْحَرِيقِ

“Albatta, mo'min va mo'minalarni fitna qilib, so'ngra tavba qilmaganlarga, ana o'shalarga jahannam azobi va kuydiruvchi azob bor” (Buruj surasi 10-oyat)

Fitna insonning ahvolini yaxshilik va yomonlikdan tozalaydigan narsa” dedilar: “Fitna degani, podshohlikka intilishdagi ixtilofdan kelib chiqadigan narsadir, bunda to'g'ri odam noto'g'ri odamdan bilinmaydi”[4; 455].

Imom Buxoriyning “Sahihul Buxoriy” asaridagi “Fitnalar” bobida keltirilgan hadislar, nafaqat o'sha davr musulmon jamiyati uchun, balki bugungi zamon uchun ham dolzarbdir. Ushbu hadislar jamiyatni barqarorlikka, insonlarni esa tinchlikka chaqiruvchi asosiy manbalardan biridir.

Imom Buxoriyning “Sahihul Buxoriy” asaridagi “Fitnalar” bobida jami 80 ta hadis o'rin olgan bo'lib bu hadislar fitnaning turli xil ko'rinishlarini, u sodir bo'lganda musulmon insonning pozitsiyasini aks ettirgan.

Fitnalar bobida hadislar 45 nafar roviydan olingan. Ushbu roviylar orasida Abu Hurayra, Ibn Umar, Anas ibn Molik kabi taniqli sahobalar ham

bor. Imom Buxoriy hadislarini yig'ishda isnodlar zanjirining uzviyligiga va roviylarning adolatli, xotirasi kuchli hamda ishonchli bo'lishiga alohida e'tibor bergan. Bobdagi roviylarning aksariyati bir necha isnod zanjirlari orqali kelgan, bu esa hadislarining qat'iyligini tasdiqlaydi. [1; 355].

MUHOAKAMA

Imom Buxoriy o'z asaridagi fitnalar bobini Alloh taoloning quyidagi oyati bilan boshlaydi :

وَأَتُوا فِتْنَةً لَا تُصِيبُنَّ الَّذِينَ ظَلَمُوا مِنْكُمْ خَاصَّةً وَاعْلَمُوا أَنَّ اللَّهَ شَدِيدُ الْعِقَابِ

“Sizlardan faqat zolimlarga xos bo'lmagan (balki hammalaringizga ommaviy bo'ladigan) fitna (azob)dan saqlaningiz va bilib qo'yingizki, Alloh jazosi qattiq (zot)dir”. (“Anfol” surasi 25-oyat)

“Fitna” deganda dinda fitnaga tushishni ko'zda tutishgan. Ya'ni fitnani imon haqiqatlariga, islom xislatlari, sifatleri va farzlariga beparvo bo'lishdan saqlanish, deb talqin qilishgan [3; 454]. Ayrim ulamolar esa Alloh taoloning kitobi va Rasulullohning (s.a.v) sunnatiga xilof ishlarning vujudga kelishi eng katta fitna deb aytadi. Shuning uchun ham barcha muhaqqiq ulamolar musulmonlarni fitnalardan saqlanish, Alloh taolo belgilab qo'ygan chegaralardan chiqmaslik haqida ogohlantiradi.

عن ابن عمر: أن النبي صلى الله عليه وسلم قال: من حمل علينا السلاح فليس منا

Ibn Umar (r.a.) rivoyat qiladi: Nabiyy (s.a.v) shunday dedilar: “Kim bizga qarshi qurol ko'tarsa, bas, bizdan emas” (Imom Buxoriy rivoyati). Bu hadisda islom ahliga qarshi qurol ko'tarishdan hazir bo'lishga chorlov va u gunohi kabiralardan biri ekani bayon qilinmoqda. “Kim bizga qarshi qurol ko'tarsa, bas, bizdan emas”, dedilar. Ma'lumki, yurtga va xalqqa xiyonat eng katta xiyonatlardan hisoblanadi. Hadisdan ko'rinib turibdiki, xalqiga dindoshlariga qarshi qurol ko'tarishni harom qilgan islomni niqob qilib olib, turli yurtlardagi jangarilarga qo'shib ketayotganlarga Payg'ambar (s.a.v) “bizlardan emas”, demoqda [6;221].

Abdulloh ibn Mas'ud rivoyat qiladilar: “Rasululloh sallallohu alayhi vasallam bizga qarata: “Men vafot qilganimdan keyin asara, ya'ni mol-dunyo to'plab manmanlik qilmoqning hamda o'zlaringiz nafratlanadigan boshqa ishlarning guvohi bo'lasizlar”, dedilar. Sahobalar: “Yo Rasululloh, bizga nima deb amr qilasiz?”. U zot alayhissalom: “Amirlaringizning farmoyishlariga

itoat eting va Alloh taolo oldidagi burchingizni bajo keltiring!” dedilar (Imom Buxoriy rivoyati).

Rasululloh (s.a.v) bizga qarata: “Men vafot qilganimdan keyin asaraning hamda o'zlaringiz nafratlanadigan boshqa ishlarning guvohi bo'lasizlar”, dedilar.

Mol-dunyo fitnasi ham boshqa fitnalar kabi juda xatarli bo'lib, o'z sohibini turli balolarga va oxiratda alamli azobga muhtalo etuvchidir. Shuning uchun Rasuli akram sollallohu alayhi vasallam sahobalarini hamda butun ummatni fitnalardan ogoh bo'lishga chaqirib, zamonlar kelib mol-dunyo bilan fitnalangan manman, mutakabbir kishilarni va Islom diniga nomuvofiq ishlarga guvohi bo'lishlarini bashorat qildilar.

Sahobalar: “Yo Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bizga nima deb amr qilasiz?” dedilar. Sahobalarning odatlaridan biri dunyo va oxirat ishlarini barchasini Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bilan maslahatlashib bajarish bo'lgan. Shuning uchun sahobalar o'z odatlariga binoan, vaqti kelib ana shunday fitnalarga duch bo'lganda musulmon kishilar qanday yo'l tutishsalar najot topishlari mumkinligini so'radilar. U zot alayhissalom: “Amirlaringizning farmoyishlariga itoat etinglar va Alloh taolo oldidagi burchingizni bajo keltiringlar!” [5; 322].

Rasululloh (s.a.v) musulmonlar jamiyati orasida turli fitnalar boshlanganda ummat uchun eng to'g'ri yo'l – yurt rahbariga, hokimlarga itoat etish, farmonlarini bajarishga buyurdilar. Chunki bunday vaqtda qanday qilib bo'lsa ham mamlakatda fuqarolarga tinchlikni ta'minlab berish va fuqarolarning farovon hayot kechirishi uchun boshqalarga nisbatan juda qattiq qayg'uradigan, mana shunga intilib yashaydigan inson faqat yurt rahbari bo'lar ekan. Shuning uchun turli fitnalarning oldini olishda musulmonlar suyanadigan eng ishonchli kishi faqat yurt rahbari bo'lishi mumkin. Shu bilan birga musulmon kishi o'z zimmasidagi Alloh taoloning haqlarini, farz ibodatlarni bajarishi lozim ekanligini uqtirdilarki, boshqa manbalarda keltirilishicha Rasululloh (s.a.v) : “Fitna va qatl ko'paygandagi ibodat xuddi menga hijrat qilgan kabidir”, deb o'sha vaqtdagi ibodatning savobini Rasulga bo'lgan muhabbat va hijratga tenglashtirgan ekanlar [5; 398].

Fitnalar boshlanganda musulmon kishining bu ikki narsa – itoat va ibodatga chorlanishini buyuk hikmati bordir. Inson yurt rahbariga itoat qilish bilan jismi-jonini jismoniy fitnalardan himoya qilsa, ibodat bilan o'z qalbini mafkuraviy

fitnalardan himoya qiladi. [9; 311] Zero, dunyo fitnalarga aralashib turgan davrda oxirat saodatiga yetaman degan kishi uchun eng maqbul va so'ngi yo'l shudir.

Hadisdan olinadigan foydalar:

Fitnalarga to'lgan zamonlar Rasululloh (s.a.v) vafotlaridan keyin kelishi;

Mol-davlat insonni dunyoning turli fitnalariga solishi;

Musulmonlar orasida ham din-diyonatdan ko'ra bu dunyo boyliklariga ko'proq e'tibor beradigan kishilar paydo bo'lishi;

Musulmonlarni nafratlantiradigan ishlarni ko'payishi;

Dunyo va din ishlarini olim kishilardan maslahat so'rab bajarish;

Musulmon kishilar yurt amiriga, podshohiga itoat qilishi lozim ekanligi;

Bilmagan ishning hikmatini rahbardan so'rashning joizligi;

Fitnali zamonlar kelganda ham musulmonlar o'z zimmalaridagi Allohning haqlarni unutmasligi;

Inson yurt rahbariga itoat qilish bilan jismi-jonini jismoniy fitnalardan himoya qilsa, ibodat bilan o'z qalbini mafkuraviy fitnalardan himoya qilishi.

Hadisi sharifda jamiyat fuqarolarini o'zaro ittifoqlikka chaqirib, fitnalardan ehtiyot bo'lishga buyuriladi. Ibn Abbos roziyallohu anhu rivoyat qiladilar: "Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam: "Kimki o'z amirining biror ishidan nafratlansa, sabr qilsin. Chunki sultonning itoatidan bir qarich bo'lsa ham chiqqan kishi johiliyat, ya'ni Islom dinidan bexabar, johillar o'limini topadi!" dedilar.

NATIJA

Inson ogoh bo'lsagina o'zining kelajagiga aql bilan teran nazar tashlaydi, kelishi yoki sodir bo'lishi mumkin bo'lgan fitna-fasod, xavf-xatarni oldini olish va bartaraf qilish harakatida bo'ladi. Aksincha, g'ofil, beparvo va loqayd bo'lgan kimsa esa atrofida nimalar bo'layotganiga ham e'tibor bermay, oxir oqibat turli balo va musibatlarga duchor bo'ladi.

Har bir musulmon turli fitna, fasod ishlardan, buzg'unchilik, dinda fitnaga tushish, xususan bir jamiyatda yashovchi insonlar o'rtasida tafriqa solish, buzg'unchi fikr va botil g'oyalarni tarqatish kabi noshar'iy amallardan ehtiyot bo'lishi zarur. Bu borada Payg'ambar Muhammad (s.a.v) hayot vaqtlarida aslo vujudga kelmagan, ammo kelajak asrlarda vujudga kelishi mumkin bo'lgan, xalq va

millatlar birligi va osoyishtaligiga tahdid soluvchi fitna-fasod, buzg'unchiliklar haqida xabar berib, ogoh etgan edilar:

"Ummatimdan qaysi biri ummatimga qarshi chiqsa, uning yaxshi va yomonini farqiga bormasa, mo'miniga ziyon tegishidan o'zini tiymasa, bergan va'dasiga vafo qilmasa, u mening ummatim emas!" [2; 212].

Nofe' roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Ibn Zubayr fitnasi paytida ikki kishi Ibn Umar oldiga kelib: "Odamlar nima ishlar qilishyapti, siz bo'lsangiz Payg'ambarimizning yaqin sahobalari bo'laturib indamay o'tiribsiz, ularga qarshi kurashishingizga nima mone'lik qiladi?" deyishdi. Ibn Umar: "Alloh taoloning o'z birodarlarim qonini to'kishdan qaytargani mone'lik qiladi", dedilar. Boyagilar: "Axir, Alloh taolo: "Fitna bosilib, butun din Allohgagina bo'lmagunicha ular bilan urushinglar" demaganmidi?!" deyishdi. Ibn Umar: "Biz fitna qolmagunicha va Alloh taolo dini qoim bo'lgunicha urushdik. Nima, endi sizlar yana fitna sodir bo'lib, Alloh taoloning dini barbod bo'lgunicha urush qilmoqchimisizlar?!" dedilar" (Imom Buxoriy rivoyati).

Hozirgi paytda yana bir fitna haqida gapirmaslik ham din va millatga xiyonat sanaladi. Bu ham bo'lsa, dunyodagi mustamlakachi kuchlarning ma'naviy bo'shliqdan foydalanib yurtimiz yoshlari ongiga ma'naviyatimiz va axloqimizga butunlay yot bo'lgan va eng xatarli illatlarni o'z ichiga olgan "ommaviy madaniyat"ni singdirishga katta fitnalarga sabab bo'lmoqda.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi. Rasululloh (s.a.v) :

«يَكُونُ فِي آخِرِ الزَّمَانِ دَجَالُونَ كَذَّابُونَ، يَأْتُونَكُمْ مِنَ الْأَحَادِيثِ بِمَا لَمْ تَسْمَعُوا أَنْتُمْ، وَلَا آبَاؤُكُمْ، فَإِيَّاكُمْ وَإِيَّاهُمْ، وَلَا يُضِلُّونَكُمْ وَلَا يَقْنُونُكُمْ»

"Oxir zamonda dajjollar, (firibgarlar) yolg'onchilar (jamoasi) bo'ladi. Ular sizlar ham ota-bobolaringiz ham eshitmagan gaplarni gapiradilar. Bas, sizlar ulardan o'zlaringizni uzoq qilinglar va o'zlaringizdan ham ularni uzoq qilinglar. Sizlarni adashtirib va aldab fitnaga (shirkka) solib qo'ymasin", dedilar (Imom Muslim rivoyati).

Yoshlarni xudbin va loqayd kimsalarga aylantirish, axloqiy buzuvchilik va zo'ravonlikni targ'ib qilish, bir jinslar nikohi, zino, giyohvandlik, buzuvchilik, nima qilib bo'lsa ham, qanday yo'l bilan bo'lsa ham faqat boylik orttirishga intilish, oilani tan olmaslik, ko'ngil istagan ishlarni qilish orqali "erkin bo'lish" kabi zararli illatlarni yoyishni asosiy maqsad qilib olgan bu "madaniyat" jamiyatdagi

ma'naviy hayotni izdan chiqaradi, yoshlar axloqiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi [10; 197]. Bundan bir asr muqaddam atoqli o'zbek ma'rifatparvari Abdurauf Fitrat: "Kimki badaxloq bolalarni tarbiya etsa, insoniyatga katta dushmanlik qilgan bo'ladi", degan edi. Bunday fitnalardan mamlakatimiz musulmonlari ham nihoyatda ogoh bo'lishlari lozim.

Bugun insoniyat g'oyaviy urushlar, ma'naviy ziddiyatlar, bir hovuch zo'ravon g'oyalarning dunyoni qayta taqsimlashga qaratilgan o'yinlari avj olgan bir vaziyatda yashayapti. Hozir zulm va istibdod, terror va buzg'unchiliklar, axloqsizlik va ma'naviy inqirozlar har qachongidan xatarli tus olmoqda. Musulmonlar bunday sharoitlarda har qachongidan hushyor va ogoh bo'lishlari, do'st kimu, dushman kimligini yaxshi ajrata olishlari, g'animlar fitnasiga uchmasliklari, yovuz kuchlar qo'lidan qo'g'irchoq bo'lib qolib, dindoshlari va millatdoshlari qotiliga aylanmasliklari zarur.

XULOSA

Imom Buxoriyning "**Sahihul Buxoriy**" asaridagi "Fitnalar" bobida jamiyatning asosiy muammolarini o'rganish orqali musulmon jamiyatining ijtimoiy barqarorligi va ahloqiy qadriyatlarini saqlash yo'llari ochib berilgan. Ushbu bobda fitna tushunchasi nafaqat sinov va balo sifatida, balki jamiyatni izdan chiqaruvchi asosiy omillar sifatida yoritiladi. Hadislar orqali fitnalarning oldini olish, ijtimoiy birdamlikni saqlash va axloqiy qadriyatlarni targ'ib qilish asosiy maqsad sifatida belgilangan.

Bugungi globallashuv va axborot urushlari davrida ushbu hadislar nafaqat musulmonlar, balki butun insoniyat uchun dolzarb bo'lib, tinchlik va birdamlikni saqlashda yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Rasululloh (s.a.v) hadislarida: «Kim fitnadan uzoqlashsa, u dunyo va oxiratda yutuqqa erishadi», degan o'gitlar zamonaviy muammolarning yechimi uchun asosiy mezon sifatida talqin qilinishi mumkin.

Imom Buxoriy tomonidan keltirilgan hadislar jamiyatni fitnalardan saqlash uchun sabr, bag'rikenglik, ilm va adolat kabi tamoyillarni ilgari suradi. Ulamolar, xususan, Abu Mansur Moturudiy va Mahmud Zamaxshariy kabi buyuk mutafakkirlar, bu tamoyillarni chuqur tahlil qilib, ularning hayotiy ahamiyatini belgilab bergan.

Xulosa qilib aytganda, "Fitnalar" bobidagi hadislar nafaqat diniy o'git sifatida, balki jamiyatni

barqaror saqlash va insonlar o'rtasida tinchlikni ta'minlashda muhim manba hisoblanadi. Bu hadislarini o'rganish va ulardan saboq olish bugungi zamonaviy jamiyatni muammolardan xoli qilishga qaratilgan amaliy qadamdir. Shunday ekan, ushbu hadislarini o'rganish bugungi kunda namoyon bo'layotgan ayrim din niqobidagi fitnalarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: «Tafsir books» nashriyoti, 2023. – 334 b.
2. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxori. Sahihul Buxoriy. – Damashq: Muassasa ar-risola noshirun, 2001. – 776 b.
3. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Bakr al-Qurtubiy. Al-Jome' al-Ahkom al-Qur'on. O'ninchi juz. – Bayrut: Muassasa ar-risola, 2001. – 332 b.
4. Abul Husayn Muslim ibn Hajjoj ibn Muslim al-Qushayriy. Sahih Muslim. – Ar-Riyoz: Bayt al-afkar ad-davliyya li an-nashri va at-tavzi, 1998 b.
5. Abul Valid Muhammad Ahmad ibn Rushd al-Qurtubiy al-Molikiy. Al-Muqoddamat al-Mumahhidat. Bayrut – Lubnon: Dar al-g'arb al-islomiy, 1988. – 322 b.
6. Ahmad ibn Hanbal. Musnad al-Imam Ahmad ibn Hanbal. –Ar-Riyoz: Maktaba dor as-salom, 2013. –798 b.
7. Al-mavsua al-fiqhiyya. Vizarat al-avqof va ash-shu'un al-islamiyya. – Quvayt: Toba' zot as-salom, 1989. –144 b.
8. Fuqaro muhofazasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni // <https://lex.uz/docs/32994>.
9. Ibn Manzur al-Ansoriy al-Xazrajii. Lisan al-arab. – Qohira: Dor al-maorif, 1119 h. – 344 b.
10. Shovosil Ziyodov. Islom dinida tinchlik. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, 2023. – 66 b.
11. Muhammad Said Ramazon Butiy. Islomda jihat. Toshkent: «Azon kitoblari» nashryoti, 2023. –233 b.
12. Nigora Yusupova. Fiqh I. – Toshkent: «Bookmany Print», 2023.
13. Qarorot va tavsiyat majma' al-fiqh al-islomiy ad-davliy al-munbasiq a'n munazzomati at-ta'avun as-islom. Al-Mamlakat al-Arobiyya as-Saudiya: Al-isdor ar-robi', 2020. – 455 b.
14. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. –Toshkent: «O'zbekiston» nashriyoti, 2022.
15. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Iymon. – Toshkent: «Hilol-Nashr», 2021. – 24 b.
16. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 1-juz. Tuzatilgan va to'ldirilgan qayta nashr. –Toshkent: «Hilol Nashr», 2020. – 332 b.

ARIFDJANOV Zokir Toxirovich
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
katta o'qituvchi

FORS TILINI O'QITISHDA TEKNOLOGIYANING ROLI: TILNI O'RGANISH DASTURLARI, INTERFAOL ONLAYN O'QUV PLATFORMALARI

РОЛЬ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ПЕРСИДСКОГО ЯЗЫКА: ПРОГРАММЫ ДЛЯ ИЗУЧЕНИЯ ЯЗЫКА, ИНТЕРАКТИВНЫЕ ОНЛАЙН-ПЛАТФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ

THE ROLE OF TECHNOLOGY IN TEACHING PERSIAN: LANGUAGE LEARNING PROGRAMS, INTERACTIVE ONLINE LEARNING PLATFORMS

Annotatsiya: Ushbu maqolada fors tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyalar, xususan, tilni o'rganish dasturlari va interfaol onlayn platformalarning ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada texnologik vositalarning til o'rganish jarayonidagi samaradorligi, afzalliklari va cheklovlari muhokama qilinib, ularni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: fors tili, til o'qitish texnologiyalari, onlayn ta'lim platformalari, til o'rganish dasturlari, raqamli ta'lim resurslari.

Аннотация: В данной статье анализируется значение современных технологий, в частности, программ для изучения языка и интерактивных онлайн-платформ, в преподавании персидского языка. В статье обсуждаются эффективность, преимущества и ограничения технологических средств в процессе изучения языка, а также рассматриваются вопросы их интеграции в образовательный процесс.

Ключевые слова: персидский язык, технологии обучения языкам, платформы онлайн-обучения,

приложения для изучения языков, цифровые образовательные ресурсы.

Abstract: This article analyzes the importance of modern technologies in teaching Persian, in particular language learning programs and interactive online platforms. The article discusses the effectiveness, advantages and limitations of technological tools in the process of language learning and considers the issues of their integration into the educational process.

Keywords: Persian language, language teaching technologies, online educational platforms, language learning programs, digital educational resources.

KIRISH

Globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda chet tillarini o'qitish metodikasi tubdan o'zgarib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim tizimiga, jumladan til o'rganish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Fors tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zarurati kundan-kunga ortib bormoqda [1:45]. Bugungi kunda fors tili o'qituvchilari va o'rganuvchilari uchun ko'plab texnologik imkoniyatlar mavjud bo'lib, ular til o'rganish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar, xususan, maxsus til o'rganish dasturlari va interfaol onlayn platformalar fors tilini o'rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish imkonini bermoqda. Bu vositalar nafaqat an'anaviy ta'lim metodlarini to'ldiradi, balki masofaviy ta'lim imkoniyatlarini ham kengaytiradi [2:156]. Shu bilan birga, texnologik vositalardan foydalanish o'qituvchi va o'quvchilar oldiga yangi talablar qo'yimoqda.

Tadqiqotning maqsadi fors tilini o'qitishda zamonaviy texnologik vositalarning samaradorligini o'rganish va ularning amaliy ahamiyatini tahlil qilishdan iborat. Asosiy muammo sifatida an'anaviy ta'lim metodlari bilan zamonaviy texnologik yondashuvlarni optimal nisbatda qo'llash masalasi ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, mavjud texnologik resurslarning sifati, ulardan foydalanish imkoniyatlari va cheklovlari ham tadqiqot doirasiga kiritilgan.

Ta'lim jarayoniga texnologiyalarni joriy etish bir qator muhim masalalarni hal qilish imkonini

beradi: o'quv materiallarining yangilanishi va boyitilishi, talabalarning mustaqil ishlash imkoniyatlarining kengayishi, til muhitini yaratish va amaliy mashg'ulotlar samaradorligining oshishi [3:82]. Biroq, bu jarayonda texnologiyalardan oqilona foydalanish, ularning pedagogik maqsadga muvofiqligi va samaradorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy texnologiyalarning til o'qitishdagi roli bo'yicha bir qator mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Aliyev o'zining "Zamonaviy ta'limda axborot texnologiyalari" asarida ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarning ahamiyatini tahlil qilib, ularning afzalliklari va kamchiliklarini batafsil yoritib bergan [1:45]. Muallif ta'kidlaganidek, zamonaviy texnologiyalar til o'rganuvchilarning motivatsiyasini oshirish va individual yondashuvni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Rahimov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda chet tillarini o'qitishda innovatsion yondashuvlar tahlil qilingan. Uning xulosalariga ko'ra, zamonaviy texnologiyalar til o'rganish jarayonini 40-50% ga samaraliroq qilishi mumkin [2:156]. Karimova esa o'z tadqiqotlarida mavjud til o'rganish platformalarining qiyosiy tahlilini amalga oshirgan. Uning fikricha, platformalarning samaradorligi ularning interaktivlik darajasi va foydalanuvchi interfeysi sifatiga bevosita bog'liq [3:82].

Xorijiy tadqiqotchilardan Smit va Jons texnologiyalarning til o'rganishdagi rolini o'rganib, mobil ilovalar va onlayn platformalarning samaradorligini statistik ma'lumotlar asosida isbotlab berganlar [4:234]. Petrov o'z asarida zamonaviy texnologiyalarning an'anaviy o'qitish metodlari bilan uyg'unlashuvini tadqiq qilgan va amaliy tavsiyalar ishlab chiqqan [5:167].

Rasulov fors tilini o'qitish metodikasiga bag'ishlangan asarida zamonaviy texnologik vositalarning ahamiyatini alohida ta'kidlab, ularni dars jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha metodologik tavsiyalar bergan [6:92]. Yang o'z

tadqiqotlarida raqamli ta'lim vositalarining samaradorligini o'rganib, ularning til o'zlashtirishdagi rolini statistik ma'lumotlar bilan asoslagan [7:123].

Azimov tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida til ta'limida raqamli texnologiyalardan foydalanishning kompleks tizimi ishlab chiqilgan. Muallif ta'kidlaganidek, texnologik vositalar til o'rganish jarayonining barcha bosqichlarida samarali qo'llanilishi mumkin [8:178].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy texnologiyalarning til o'qitishdagi roli kundan-kunga ortib bormoqda. Tadqiqotchilarning umumiy xulosalariga ko'ra, texnologik vositalar:

- ✓ til o'rganish jarayonini individuallashtirish;
- ✓ talabalarning mustaqil ishlash qobiliyatini oshirish;

✓ real til muhitini yaratish;

✓ til ko'nikmalarini kompleks rivojlantirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, tadqiqotchilar texnologik vositalardan foydalanishda me'yorni saqlash va an'anaviy metodlar bilan optimal muvozanatni ta'minlash zarurligini ta'kidlaydilar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Fors tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Xususan, maxsus ishlab chiqilgan til o'rganish dasturlari va onlayn platformalar talabalarning mustaqil ishlash imkoniyatlarini kengaytirmoqda [6:92]. Bu esa o'z navbatida o'qituvchi va talaba o'rtasidagi an'anaviy munosabatlarning o'zgarishiga olib kelmoqda. O'qituvchi ko'proq yo'naltiruvchi va maslahatchi rolini bajarmoqda.

Texnologik vositalarning eng muhim afzalliklaridan biri - bu til o'rganish jarayonini individuallashtirishdir. Har bir talaba o'z sur'ati va qobiliyatiga mos ravishda materialni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda [7:123]. Zamonaviy dasturlar talabaning bilim darajasini doimiy monitoring qilib borish va shunga mos topshiriqlar taqdim etish imkonini beradi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Interfaol platformalar fors tilining barcha aspektlarini - tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam bermoqda [3:82]. Virtual muhitda yaratilgan autentik materiallar, audio va video resurslar talabalarga real til muhitini his qilish imkonini beradi. Bu ayniqsa, til muhiti mavjud bo'lmagan sharoitlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, mobil ilovalar va onlayn platformalar talabalarining til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirmoqda [4:234]. Zamonaviy texnologiyalar ta'lim jarayonini qiziqarli va interaktiv qilish bilan birga, talabalarga darhol qayta aloqa olish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida o'qish samaradorligini oshiradi.

Biroq, texnologik vositalardan foydalanishda bir qator muammolar ham kuzatilmoqda. Jumladan, sifatli dasturiy ta'minotlarning yetishmasligi, internet tezligi bilan bog'liq muammolar, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasi darajasi pastligi kabi masalalar hal etilishi zarur. Bundan tashqari, ba'zi hollarda texnologiyaga haddan tashqari bog'lanib qolish xavfi ham mavjud.

Zamonaviy texnologiyalar jonli muloqotning o'rnini to'liq bosa olmasligi aniqlangan. Fors tili o'qituvchilari bilan o'tkazilgan so'rovlar shuni ko'rsatmoqdaki, texnologik vositalar an'anaviy o'qitish metodlarining to'ldiruvchisi sifatida eng yaxshi natija beradi [8:178]. Shuning uchun ularni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishda muvozanatni saqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnologik vositalarning samaradorligi ko'p jihatdan ularning pedagogik maqsadga muvofiqligi va to'g'ri qo'llanilishiga bog'liq. Tadqiqotlar natijasida aniqlangan eng samarali yondashuv - bu an'anaviy va zamonaviy metodlarni optimal nisbatda qo'llashdir. Bu yondashuv texnologiyalarning afzalliklaridan foydalangan holda, jonli muloqot va amaliy mashg'ulotlarning ahamiyatini saqlab qolish imkonini beradi.

Shuningdek, texnologik vositalarning ta'lim jarayoniga ta'sirini baholashning aniq mezonlarini ishlab chiqish zarurati mavjud. Bu fors tili o'qitishda qo'llanilayotgan dasturlar va platformalarning samaradorligini ob'ektiv baholash va ularni takomillashtirish imkonini beradi.

Fors tilini o'qitishda texnologik vositalarning qo'llanilishi bo'yicha o'tkazilgan keng qamrovli tahlil natijasida quyidagi ma'lumotlar aniqlandi.

1-jadval.

Zamonaviy til o'rganish dasturlarining asosiy turlari va xususiyatlari

Dasturlar turi	Asosiy xususiyatlari	Qo'llanilish sohalari
Mobil ilovalar	Moslashuvchan interfeys Erkli foydalanish Offlayn rejim Personallashtirilgan mashqlar	Individual o'rganish Kundali mashg'ulotlar Lug'at boyitish
Veb-platformalar	Keng qamrovli content Onlayn muloqot imkoniyati Progress monitoring Interaktiv topshiriqlar	Guruhlarda ishlash Masofaviy ta'lim Kompleks o'rganish
AI-asoslangan dasturlar	Real vaqtdagi tuzatishlar Adaptiv o'qitish So'zlashuv amaliyoti Grammatik tahlil	Nutq ko'nikmalarini Talaffuzni yaxshilash Grammatikani o'rganish

Nurmatov o'z tadqiqotlarida ta'kidlaganidek, raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi talabalarining til o'zlashtirish tezligini sezilarli darajada oshirgan [9:145]. Uning kuzatishlariga ko'ra, an'anaviy metodlar bilan solishtirganda, zamonaviy texnologiyalar yordamida o'qitish yuqori samara bergan.

2-jadval.

**Fors tili o'qitishda qo'llaniladigan
zamonaviy texnologiyalarning afzalliklari va
kamchiliklari**

Texnologiya turi	Afzalliklari	Kamchiliklari
Onlayn platformalar	Material xilma-xilligi Doimiy yangilanish Qulaylik	Internet bog'liqligi Jonli muloqot cheklangan Texnik muammolar
Virtual reallik	To'liq immersiya Amaliy tajriba Hissiy bog'lanish	Qimmat uskunalar Cheklangan kontent Texnik murakkablik
Mobil ilovalar	Tezkor kirish Moslashuvchanlik Offlayn rejim	Chuqur o'rganish qiyinligi Ekran cheklovlari Kontentning cheklanganligi

Zaripova va Mahmudovning kuzatishlariga ko'ra, zamonaviy texnologiyalar yordamida o'qitishda talabalarning kommunikativ kompetensiyasi sezilarli darajada rivojlangan [10:178]. Wilson va Chen o'z tadqiqotlarida mobil ilovalarning til o'rganishdagi rolini o'rganib, ularning samaradorligini bir qator mezonlar bo'yicha baholashgan [11:234].

Yusupova o'zining tadqiqotlarida fors tilini o'qitishda qo'llanilayotgan zamonaviy dasturiy vositalarning pedagogik-psixologik jihatlarini tahlil qilgan [12:92]. Uning xulosalariga ko'ra, raqamli texnologiyalar talabalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga, ularning emotsional intellektini ham shakllantirmoqda.

Yangi tahlillar natijasida aniqlangan muhim jihatlardan biri - bu sun'iy intellekt texnologiyalarining til o'qitish jarayoniga integratsiyasi masalasidir. Zamonaviy AI-asoslangan dasturlar fors tilini o'rganuvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, adaptiv ta'lim muhitini yaratish imkonini bermiqda.

Shuningdek, virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) texnologiyalarining til ta'limidagi roli ham alohida e'tiborga loyiq. Bu texnologiyalar talabalarni virtual til muhitiga «sho'ng'ish»

imkoniyatini beradi, bu esa ayniqsa nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fors tilini o'qitishda texnologik vositalarning o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritganda, yana bir muhim jihatlarga e'tibor qaratish lozim. Zamonaviy ta'limda gibridd yondashuvning roli tobora ortib bormoqda. Bu yondashuv an'anaviy ta'lim metodlari bilan raqamli texnologiyalarni optimal tarzda birlashtirish imkonini beradi. Masalan, fors tili darslarida o'qituvchi tomonidan beriladigan nazariy bilimlar onlayn platformalardagi amaliy mashg'ulotlar bilan mustahkamlanishi mumkin.

Shuningdek, texnologik vositalar talabalar o'rtasidagi hamkorlik va o'zaro ta'limni ham kuchaytirmoqda. Onlayn muhitda tashkil etiladigan guruh loyihalari, hamkorlikdagi topshiriqlar va munozaralar talabalarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam bermiqda. Bu ayniqsa pandanli ta'lim sharoitida o'z samaradorligini ko'rsatdi.

Zamonaviy texnologiyalar yordamida yaratilgan autentik o'quv materiallari ham alohida e'tiborga loyiq. Videodarslar, podkastlar, interaktiv mashqlar va o'yinlar talabalarga fors tilini real hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatini bermiqda. Bu esa o'z navbatida tilni o'zlashtirish jarayonini yanada samaraliroq qilmoqda.

Texnologik vositalar talabalarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynamoqda. Ular o'z bilim darajalarini muntazam baholab borish, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda o'z ta'lim yo'nalishlarini belgilash imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. Bu esa uzluksiz ta'lim tamoyillarining amalga oshirilishiga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, ta'lim jarayonida axborot xavfsizligi masalalariga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim. O'quv platformalari va dasturlarni tanlashda ularning xavfsizlik darajasi, ma'lumotlar himoyasi va shaxsiy maxfiylik masalalari inobatga olinishi kerak. Bu ayniqsa bolalar va o'smirlar uchun mo'ljallangan ta'lim resurslarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelajakda fors tili o'qitishda texnologik vositalarning roli yanada ortishi kutilmoqda. Xususan, sun'iy intellekt va mashinali o'rganish texnologiyalari tilni o'rganish jarayonini

yanada individuallashtirish va samarali qilish imkonini beradi. Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari esa til muhitini yanada realistik tarzda yaratish imkonini beradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalariga ko'ra, fors tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Texnologik vositalar talabalarning mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish, til muhitini yaratish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Biroq, shuni ta'kidlash joizki, texnologik vositalar an'anaviy o'qitish metodlarining o'rnini to'liq bosa olmaydi, balki ularni to'ldiradi va boyitadi.

Zamonaviy til o'rganish dasturlari va interfaol platformalar fors tilini o'rganishda qo'shimcha resurs sifatida muhim rol o'ynaydi. Ular talabalarning individual ehtiyojlariga moslashish, o'z sur'atida ishlash va mustaqil o'rganish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, o'qituvchining roli ham o'zgarib, u ko'proq yo'naltiruvchi va maslahatchi vazifasini bajaradi.

Kelajakda fors tilini o'qitishda texnologik vositalardan yanada samarali foydalanish uchun quyidagi tavsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi: o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish, sifatli va maqsadga muvofiq dasturiy ta'minotlarni tanlash, an'anaviy va zamonaviy metodlarni optimal nisbatda qo'llash, hamda texnologik resurslardan foydalanishning aniq mezonlarini ishlab chiqish. Bu esa o'z navbatida fors tili ta'limining sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aliyev B.M. Zamonaviy ta'limda axborot texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023.
2. Rahimov U.E. Chet tillarini o'qitishda innovatsion yondashuvlar. – Samarqand: SamDU, 2022.
3. Karimova S.T. Til o'rganish platformalari tahlili. – Buxoro: BuxDU, 2023.
4. Smith J., Jones, P. Technology in Language Learning. – London: Routledge, 2023.
5. Петров А.В. Современные методы преподавания иностранных языков. Москва: Просвещение, 2022.
6. Rasulov M.A. Fors tilini o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 2023.
7. Yang L. Digital Tools in Language Education. Beijing: Educational Press, 2023.
8. Azimov K.T. Til ta'limida raqamli texnologiyalar. Toshkent: Fan, 2023.
9. Nurmatov A.R. Til ta'limida raqamli innovatsiyalar. Toshkent: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2023.
10. Zaripova K.M., Mahmudov, R.T. Zamonaviy ta'lim metodlari: nazariya va amaliyot. Namangan: Namangan davlat universiteti nashriyoti, 2023.
11. Wilson M., Chen, H. Mobile Applications in Language Learning: Modern Approaches and Implementation. Oxford: Oxford University Press, 2023.
12. Yusupova M.A. Fors tili o'qitishning zamonaviy aspektlari: Innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Ta'lim nashriyot-matbaa uyi, 2023.

МИРҒИЁСОВА Мумтоза Шухрат кизи,
Ташкентский государственный университет
востоковедения
студентка 2-курса корейско-английской группы
Институт языков и литературы
народов Востока
Высшая школа Корееведения
mumtoza0754@gmail.com

ВДОХНОВЛЕННАЯ НАВОИ

NAVOIYDAN ILHOMLANGAN

INSPIRED BY NAVOI

Аннотация: В статье рассматривается жизнь и научная деятельность учёного-навоиеда Суйимы Ганиевой в области литературоведения, востоковедения, источниковедения и текстологии. В статье также идёт речь о её сотрудничестве с зарубежными учёными и о её работах, которые получили высокую оценку и признание как в нашей стране, так и за рубежом.

Ключевые слова: Алишер Навои, узбекская классическая литература, востоковедение, литературоведение.

Annotatsiya: Ushbu maqolada navoiyshunos olim Suyuma Ganiyevaning adabiyot, sharqshunoslik, manbashunoslik va tekstologiya sohalaridagi ilmiy faoliyati va hayoti haqida soʻz yuritilgan. Shuningdek, maqolada uning xorijlik olimlar bilan hamkorligi, xorijda nashr etilgan asarlari va adabiy yutuqlari haqida soʻz yuritiladi, ular nafaqat mamlakatimizda, balki xorijda ham yuqori baholangan va tan olingan.

Tayanch soʻzlar: Alisher Navoi, oʻzbek mumtoz adabiyoti, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik.

Abstract: The article discusses the life and scientific work of the scholar-specialist in Navoi studies, Suyuma Ganieva, in the fields of literature, oriental studies, source studies, and textology. The article also highlights her collaboration with foreign scholars, the works published abroad, and her literary achievements, which have received high recognition both in our country and abroad.

Keywords: Alisher Navoi, Uzbek classical literature, oriental studies translation.

ВВЕДЕНИЕ

В начале 60-х годов XX века начала формироваться история узбекской литературы нового времени. Она охватывает практически весь XX век. Для данного этапа характерны

взлеты и падения, творческие поиски и зарождение новых жанров узбекской литературы. И этот период в развитие узбекской классической литературы сыграли большую роль труды многих ученых навоиедов, в том числе и ученая-литературовед, профессор, Герой Узбекистана Суйима Ганиева.

ОСНОВНАЯ ЧАСТЬ

Суйима Ганиева родилась в 1932 году в городе Ташкенте в интеллигентной семье служащих. С раннего возраста Суйима улавливала слова из стихов, песен, старалась их запоминать. Кроме того, она самостоятельно училась четко произносить сложные газели классиков, особенно Алишера Навои. Спустя годы детская увлеченность выросла в желание заняться творчеством. После окончания седьмого класса Суйима поступает на подготовительное отделение Среднеазиатского государственного университета, окончив которое, она без экзаменов поступила на ирано-афганское отделение восточного факультета данного вуза. После окончания университета, была направлена в аспирантуру Ленинградского госуниверситета. Там под руководством ученого-востоковеда А.Н. Болдырева продолжила свои научные изыскания, начатые еще в Ташкенте [1.4]. В 24 года защитила кандидатскую диссертацию на тему «Научно-критический текст «Мажолус ун-нафоис» Алишера Навои и его историко-литературное значение», высоко оцененную специализированным научным советом. Интересно, что составление критического текста «Мажолус ун-нафоис» было начата в Берлине и закончено в Ташкенте. Первой начала ее немецкий филолог Ирмагд Энгельке [2.23]. Приехав однажды в Ташкент, она познакомилась с кандидатом филологических наук Ганиевой С. Г., которая также в тот момент занималась этой работой. Ирмагд Энгельке подружившись с ней, решила, что представительница Востока может лучше справиться с делом, и предложила С.Г. Ганиевой воспользоваться собранными ею рукописными списками антологии. Также С. Г. Ганиева при составлении критического текста использовала очень близкий к венскому список, хранящийся в фондах восточных рукописей Ташкента, рукописи из фондов Баку, Парижа

и другие. Её издание Ирмгард Энгельке позже перевела на немецкий язык.

Благодаря своим глубоким исследованиям она создала уникальную научную школу навоиведения. Такие ее научные труды, как «Жизнь и творчество Алишера Навои», «Основные принципы изучения прозы Алишера Навои», «Творческое наследие великого поэта-гуманиста Алишера Навои», «Автограф Навои» стали настоящим научным открытием в отечественном и зарубежном литературоведении [3.4].

С.Ганиева нашла и опубликовала оставшееся долгие годы неизвестным науке уникальное произведение Алишера Навои «Муноджот». раскрывает внутренний мир автора, Произведение «Муноджот» было включено в состав куллията «Хазаин уль-маони» (Сокровищницей смыслов) и считалось его предисловием. С.Ганиева доказала, что «Муноджот» является самостоятельным произведением и написано под влиянием труда Шейха Абдуллы Ансари «Илахийнаме». С.Ганиева справедливо подчеркивала, что «Муноджот» Алишера Навои и «Муноджот» Ходжи Абдуллаха Ансари имеет как сходства по языку, стилю и намерениям авторов, так и своеобразие.

Также труд Навои «Муншаот» стал одним из серьезных источников исследования ученого. «Посредством писем Навои Суйима Ганиева исследует неизведанные стороны мира мыслителя и души государственного деятеля, объясняет духовное значение его писем, их влияние на общество и его представителей, а также роль письма в социальном процессе» [9.8].

Область изысканий С. Ганиевой на редкость обширна. На фоне проявляющейся в наши дни узкой специализации научных исследований разносторонность ученой достойна уважения. Кроме текстологического изучения рукописей восточной классики, источниковедение, она также хороша в литературно-критической, переводческой редакторской деятельности. Именно благодаря прекрасному знанию персидского и русского языков увидели свет такие произведения Алишера Навои, как «Маджолис ун-нафоис» (Собрание утонченных), «Холоти Пахлаван Мухаммад» (Жизнеописание Пахлавана Мухаммада), «Холоти Саййид Хасан

Ардашер» (Жизнеописание Сайида Хасана Ардашера), «Муноджот» (Обращение к богу) на русском языке, а также образцы творчества многих поэтов персидско-таджикской классики на узбекском. Среди них такой всемирно известный шедевр, как «Калила и Димна». Переводческая деятельность С. Ганиевой не только способствовала ознакомлению русскоязычной аудитории с творчеством Навои, но и послужила школой мастерства для последующих переводов трудов великого мыслителя.

Результатом текстологической работы над древними рукописями, ценнейшими источниками классической литературы явились современные издания ряда произведений о жизни и творчестве не только Алишера Навои, но и поэтов, таких как Абдурахман Джами, Хусейн Байкара, Мавляна Лутфи, Мавляна Гадаи, Саккаки.

Книга С.Ганиевой в соавторстве «Абдурахман Джами и Алишер Навои», ее трактат «Мавлана Абдурахман Джами» и ряд статей направлены на освещение литературного сотрудничества между Навои и Джами. «Суйима Ганиева изучала жизнь и творчество Абдурахмана Джами через призму литературных контактов, то есть в направлении Навои и Джами» [11.158].

В статье «Навои и Хусейн Байкара» С.Ганиева рассматривала роль Хусейна Байкара в социально-политической жизни, его заслуги в экономическом и культурном развитии страны, ну, и разумеется, его отношение к Навои. С.Ганиева смогла показать важное место Хусейни в истории узбекской литературы в то время, когда в научной литературе, учебниках и пособиях на личность Хусейни было наложено клеймо феодально-клерикального и придворного поэта и его творчество было недооценено. Несмотря на то, что Суйима Ганиева занималась изучением творчества персидско-таджикских и тюркоязычных и многих других поэтов. Но главным объектом преклонения, любви и исследования С. Ганиевой было творчество Алишера Навои. «Можно с уверенностью сказать, что С.Ганиева-единственная в республике женщина-навоивед, которая до конца своих дней жизни занималась проблемами навоиведения. И значительную часть ее исследований составляет прозаическое наследие поэта» [1.4].

С.Ганиеву также интересовала проблемы современного и зарубежного литературоведения. Сюда можно отнести ее работы о Х.Алимджане, С.Абдулле, Хамзе, Руми, Ломоносове, А.С.Пушкине и других. Ее труды хорошо известны не только в научных кругах или советах не только Узбекистана, но и России, Турции, Ирана, Таджикистана, Азербайджана, Чехословакии.

Суйима Ганиева своей научной деятельностью не только обогатила классическую литературу, но и внесла большой вклад в узбекскую культуру. 1 января 1991 года С.Ганиева участвовала во Всемирном конгрессе, посвященном 1000-летию «Шахнаме». И там, она посетила музей «Кохи Гулистон», знакомясь с рукописным фондом ученая обнаруживает черновик 2-го официального дивана «Наводир ун-нихоя», собственноручно написанный самим Алишером Навои, содержащей на 1 странице «Хотя это черновик моего второго дивана, на него падают светлые лучи Создателя, и в стихах его также есть благодатные лучи». И закреплено это было личной печатью поэта. Увидев эту печать, ученая решила к 550-летию юбилею Навои подарить узбекскому народу. Ученая добивается аудиенции министра культуры Ирана и просит разрешения микрофильмировать автограф Навои. Вскоре микрофильм великого поэта был получен взамен микрофильма одной из поэм Хосрова Дехлави, хранящейся в фонде Института востоковедения А. Н. Узбекистана.

В 2011 году она приняла активное участие в подготовке к изданию 20-томного собрания избранных сочинений Алишера Навои. Также благодаря мастерскому переводу С. Ганиевы увидели свет многие произведения Навои в 10-томном издании поэта на русском языке.

Самоотверженная ученая, обладавшая ярким талантом и огромным научным потенциалом, скончалась на 86-году жизни. С.Ганиева воспитала множество учеников. Под ее непосредственным руководством были защищены десятки докторских и кандидатских диссертаций.

За свою почти 60-летнюю научно-педагогическую деятельность С.Ганиева опубликовала 14 монографий, написала свыше 350 научно-теоретических статей и являлась автором более чем 20 учебно-методических пособий. Ее многолетний труд, особый вклад в развитие науки и литературы были высоко

оценены государством. «В 1999 году Суйима Ганиева награждена орденом «Эл-юрт хизмати», в 2008-м — орденом «Буюк хизматлари учун». Кроме того, был снят документальный фильм о Суйиме Ганиевой «Дорога». В 2015 году С.Ганиевой присвоено звание «Героя Узбекистана» [10.51].

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Суйима Ганиева – выдающийся ученый, посвятившая свою жизнь изучению творчества Алишера Навои и классической узбекской литературы. Ее деятельность охватывает обширный спектр научных направлений, включая литературоведение, текстологию, востоковедение и переводческую работу. Она внесла значительный вклад в изучение и популяризацию творчества Навои не только в Узбекистане, но и за его пределами. Ее работы служат фундаментом для дальнейшего изучения узбекской классической литературы и сохраняют свое значение как в научной, так и в культурной среде.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Парпиева Г. Женщина, дарящая людям Навои // Учитель Узбекистана, 2002.
2. Носов В. Принадлежит самому Алишеру Навои // Правда Востока, 1963.
3. Ганиева С. Хусайн Бойқаро асарларининг қўлёзма ва нашрлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1969. – № 1.
4. Ганиева С. Жизнь и творчество Алишера Навои. – Т.: Фан, 1962.
5. Ганиева С. Основные принципы изучения прозы Алишера Навои // Фольклор литература и история Востока – Т.: Фан, 1984.
6. Ганиева С. Творческое наследие великого поэта-гуманиста Алишера Навои // Правда Востока. – 1991.
7. Ганиева С. Автограф Навои // Сирли олам. – 1991. № 2.
8. Ибрагимов Н. Востоковеды Узбекистана. – Т.: ТДШИ. 2005.
9. Жумахўжа Нусратулло. Нафис мажлислар муҳибаси / Ватанпарвар, 2008.
10. Мирзиёев Ш., Йулдошев Н., Исмоилов Н., Арипов А., Йулдошев Б., Каримов Н. Герой Узбекистана Суйима Ганиева. Ўзбекистон овози, 2018, 4 сентябрь.
11. Умарова С. Суйима Ганиеванинг илмий-адабий мероси: тадқиқот усуллари ва мезонлари. Ф.ф.д. ... дисс. – Т. 2021 г.

РАХМАТХОНОВ Аюбхон Жаҳонгир ўғли
Ўзбекистон халқаро ислом академияси
Тарих (ислом тарихи ва манбашунослиги)
йўналиши 2-курс талабаси
E-mail: ayubxonrahmatxonov@gmail.com
ORCID: 0009-0002-8051-5110

ИБН АБДУЛҲАКАМ ВА УНИНГ “ФУТУҲИ МИСР ВА АХБОРУҲО” АСАРИ

ИБН АБДУЛҲАКАМ И ЕГО ТРУД “ФУТУХИ МИСР ВА АХБАРУХА”

IBN ABDULHAKAM AND HIS WORK “FUTUH MISR VA AKHBARUHA”

Аннотация. Мақолада IX асрда аббосийлар халифалигига қарашли бўлган Мисрда яшаб, ижод этган Абдурахмон ибн Абдуллоҳ ибн Абдулҳакамнинг ҳаёти, асарлари, машҳур тарихчиларнинг у ҳақидаги фикрлари шу давр манбалари ва илмий адабиётлар асосида ёритилган. Шунингдек, ибн Абдулҳакамнинг “Футуҳи Миср ва ахборуҳо” (“Мисрнинг фатҳ этилиши ва унинг хабарлари”) номли асарининг мазмуни, таркибий тузилиши, илмий аҳамияти ҳақида тўхталиб ўтилган. Ушбу нодир асарнинг ҳозирги кунда мавжуд қўлёзма нусхалари ва замонавий нашрлари тўғрисида маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: Миср, фатҳ, ибн Абдулҳакам, халифа, “Футуҳи Миср ва ахборуҳо”, саҳоба, фақиҳ, қози, қўлёзма.

Аннотация. В статье рассматривается жизнь, труды и мнения известных историков о Абдурахмане ибн Абдуллах ибн Абдулҳакам, который жил и творил в Египте при Аббасидском халифате в IX веке. Статья основана на исторических источниках и научной литературе того времени. Кроме того, внимание уделено содержанию, структуре и научной значимости его работы “Футуҳи Миср ва Ахбаруҳа” (“Завоевание Египта и его сообщения”). Также приведена информация о существующих манускриптных копиях и современных изданиях этого редкого труда.

Ключевые слова: Египет, завоевание, ибн Абдулҳакам, халиф, “Футуҳи Миср ва Ахбаруҳа”, сподвижник, фақиҳ, кади, манускрипт.

Annotation. This article discusses the life, works, and the views of famous historians on Abdurahman ibn Abdullah ibn Abd al-Hakam, who lived and worked in Egypt under the Abbasid Caliphate in the 9th century.

The article is based on the historical sources and scientific literature of the time. Additionally, it focuses on the content, structure, and scholarly significance of his work “Futuh Misr va Akhbaruha” (“The Conquest of Egypt and Its Reports”). Information about the existing manuscript copies and modern publications of this rare work is also provided.

Keywords: Egypt, conquest, Ibn Abd al-Hakam, caliph, “Futuh Misr va Akhbaruha”, companion, faqih, qadi, manuscript.

КИРИШ

Ҳижрий II-III (милодий VIII-IX) асрларда ёзилган асарлар илк ислом тарихини ўрганишда дастлабки ва асосий манба бўлиб хизмат қилади. VIII-IX асрларда мусулмон тарихчилари қўплаб асарлар яратган бўлиб, шу даврда Араб халифалигида ёзилган асарларнинг бир қисми ҳарбий ҳаракатлар тарихини ёритишга қаратилган. Уларда тарихий воқеа-ҳодисалар билан бирга юриш қилинган шаҳар ва минтақанинг араблар келишидан олдинги тарихи, давлат бошқаруви шакли, аҳолиси, табиати, минтақа аҳолисининг эътиқоди, урф-одати ва анъаналари ҳақида маълумотлар келтирилган.

Мазкур йўналишида асар ёзиш IX-X асрларда ривожланди. Муҳаммад ибн Умар ал-Воқидий (747-823), Муҳаммад ибн Оиз ад-Димашқий (767-847), Аҳмад ибн Яҳё ал-Балозурий (ваф. 892), Аҳмад ибн Аъсам ал-Куфий (ваф. 926) ва бошқалар ҳарбий ҳаракатлар ҳақида китоб ёздилар[8:123]. Шундай муаллифлардан яна бири мисрлик муаррих - Ибн Абдулҳакам (802-871) бўлиб, биринчилардан бўлиб арабларнинг фатҳ юришлари тўғрисида китоб ёзган.

АСОСИЙ ҚИСМ

Ибн Абдулҳакамнинг тўлиқ исми Абулқосим Абдурахмон ибн Абдуллоҳ ибн Абдулҳакам (أبو القاسم عبد الرحمن بن عبد الله بن عبد الحکم) бўлиб, бобоси исмига берилган нисбат, яъни Ибн Абдулҳакам (بن عبد الحکم) исми билан машҳур бўлган. Ибн Абдулҳакам ҳижрий 187 (милодий 802)-йилда туғилиб, ҳижрий 257 (милодий 871)-йилда Фустотда вафот этган. Туғилган йили турли манбаларда 798, 801, 802, 803 деб ҳам кўрсатилади[7:13]. Ибн Абдулҳакамнинг отаси Абдуллоҳ ибн Абдулҳакам (155/772-214/829-йиллар) машҳур муҳаддис ва моликий фақиҳлардан бўлиб Ибн

ан-Надимнинг “Ал-Фихрист”[6:281], имом Заҳабийнинг “Сияру аълам ан-нубало” каби манбаларда ишончли муҳаддис сифатида тилга олинган. Жумладан, Заҳабий у ҳақида: “Миср диёрининг имоми, фақиҳи ва муфтийи” деган[4:220]. Унинг халифа Умар ибн Абдулазиз (717-719) таржимаи ҳоли баён қилинган “Манокиби Умар ибн Абдулазиз” (“عمر بن عبد العزيز مناقب”) номли асари мавжуд[4:222].

Абдурахмон ибн Абдуллоҳнинг учта ака-укалари ҳам машҳур моликий фақиҳлардан бўлишган, тўнғич акаси Муҳаммад Имом Шофеъийдан таълим олган бўлса-да, моликий мазҳаби бўйича етук фақиҳ бўлган. У отаси вафотидан сўнг Миср моликийларига бошчилик қилган.

Абдурахмон ёшлигида отасидан таълим-тарбия олиб улғайган. Ўз даврининг кўзга кўринган ровийларидан ҳадислар ривоят қилган. Абдурахмон ибн Абдуллоҳнинг оиласи тўғрисида маълумотлар жуда кам. Абулқосим кунясидан катта ўғлининг исми Қосим бўлган дейишимиз мумкин.

833-йилда халифа Маъмун (813-833) даврида бошланган ва деярли 20 йил давом этган “миҳна” синовларида бу оила ҳам Аҳли сунна вал жамоанинг йирик уламолари сифатида тазйикка учраган. Абдурахмон ва икки акаси ўз эътиқодларида собит турганлари учун халифа ал-Восиқ (842-847) томонидан қатағонга учраган[5:18]. Халифа Мутаваккил (847-861) даврида эса собиқ Миср волийсининг мусодара қилинган мол-мулки сарфлаб юборилгани аниқланиб, бунда ака-укалар айбдор сифатида қаралади. Натижада жавобгарликка тортилган ака-укалардан бири қийноқлар остида вафот этади, Абдурахмон ибн Абдуллоҳнинг уйи эса мусодара қилиниб, 1 ярим миллион динар ундирилади. Шундай синовли даврларда ҳам ўзининг соф эътиқодида қолгани ибн Абдулҳакамнинг асарлари ишончилигига далилдир[9].

Ибн Абдулҳакамнинг “Футуҳи Миср ва ахборухо” (“Миср фатҳи ва унинг хабарлари”) асари энг машҳур асарлардан бўлиб, турли номлар билан манбаларда учрайди. Асарнинг яна “Футуҳи Миср вал Мағриб вал Андалус” (“فتوح مصر والمغرب والاندلس”), “Футуҳи Миср” (“فتوح مصر”) номлари ҳам мавжуд. Асар 7 қисмдан иборат бўлиб, улар қуйидагилар:

1. Муаллифдан аввал яшаб ўтган ва ўз давридаги ровийлар қиссалари асосида Миср

диёрининг фазилатлари ва унинг қадимги тарихи зикри;

2. Арабларнинг Мисрни фатҳ этиши зикри;

3. Араблар Мисрда бунёд қилган шаҳарлар, шаҳарчалар ва аскаргоҳларнинг қурилиш режалари зикри;

4. Амр ибн Ос розияллоҳу анҳу ва Абдуллоҳ ибн Саъд розияллоҳу анҳу волийлиги даврида Мисрда бошқарув зикри;

5. Қандай қилиб Миср уларнинг (Амр ибн Ос ва Абдуллоҳ ибн Саъд розияллоҳу анҳумо) бошқаруви даврида Шимолий Ифрикия, Андалусия ва Нубияда Ислом ва араб ҳазорасининг (цивилизация) тарқалишида таянч бўлгани зикри;

6. Миср фатҳидан то ҳижрий 246/милодий 859-860-йилгача Мисрда қозилик қилганлар зикри;

7. Мисрда келган саҳобалар ривоят қилган ҳадислар зикри.

Ибн Абдулҳакам ўз шартларига кўра иснодларни жамлаган ва тадқиқотчи Қ.Зоҳидов фикрича унинг аксарият иснодлари тўғри ва ишончли[5:18]. Ибн Абдулҳакам асарининг илмий қиммати шунда-ки, асар Миср ва унинг фатҳи тарихига бағишланган араб тилидаги энг қадимги манба ҳисобланади[7:13]. Асарга бизгача етиб келмаган ёзма манбалар ҳам, оғзаки ривоятлар ҳам манба бўлиб хизмат қилган. Ибн Абдулҳакам ўз китобида худди машҳур тарихчи Ибн Жарир Табарий (224/839-310/923) каби мавзуга оид барча маълумотларни йиғиб, танқидий фикрлар бермаган. Шу сабабли муаллифни баъзи ўринларда ҳақиқатга тўғри келмайдиган маълумотларни келтиришда айблаш хато. Муаллиф Саҳройи Кабирдан жанубдаги ҳудудлар ҳақида жуда кам маълумот берган. Аммо ибн Абдулҳакам араблар ва нубияликлар ўртасидаги муносабатлар, жумладан араблар ва нубияликлар ўртасида тузилган келишув тўғрисида маълумот берган биринчи тарихчидир. Ал-Балазурий ва ал-Киндийлар бир хил иснод билан ушбу маълумотларни ўз китобларида келтиришган[7:14].

“Футуҳи Миср ва ахборухо” асарининг ҳозирги кунда 4 та қўлёзма нусхаси маълум. Битта нусха Британия музейида, 2 та нусха Париж Миллий кутубхонасида ва яна битта нусха Лейден университетидида сақланади[2:8]. Қуйида ҳар бир нусхани кўриб чиқамиз:

1. Британия музейида сақланаётган нусха инв. 520 рақамга эга бўлиб, тахминан XI асрда насх хатида ёзилган. Айнан шу нусхада китоб номи “Футуҳи Миср ва ахборуҳо” деб ёзилган. Бу нусха мавжуд асар қўлёзмалари ичида энг қадимий ва энг тўлиқ ҳисобланади. Китоб хошиясида тузатишлар, тушунтиришлар ёки танқидий изоҳлар мавжуд. Бу қўлёзма бирор мутахассис томонидан кўчирилганидан далолат[1:320].

2. Париж Миллий кутубхонаси фондида сақланаётган инв. 1686 рақамли нусха Британия музейидаги нусха билан бир хил (номи ҳам бир хил). Сарлавҳалар ва боблар номи қизил ранг билан ёзилган. Қўлёзма охирида ҳижрий 585 (милодий 1190) зулҳижжа ойи тугашига 3 кун қолганида кўчириб бўлингани ёзилган[1:321; 2:11].

3. Париж Миллий кутубхонаси фондида сақланаётган инв. 1687 рақамли нусха ҳижрий 776 (милодий 1375) ёзилган. Колофонда Аҳмад ибн Муҳаммад ибн Иброҳим ал-Азҳарий ал-Ҳанафий деб котиб исми ёзиб қўйилган. Қўлёзмада боб сарлавҳалари қизил ранг билан ёзилган[2:12].

4. Лейден университетида инв. 705 рақам остида сақланаётган нусха бошқаларидан фарқли. У бошқа китоб билан бир жилдда бўлиб, унинг 159-313 бетларини ташкил этади. Колофонда ҳижрий 973 (милодий 1566) санаси ёзилган[2:13].

Асарнинг ҳозирги кунга қадар бошқа тилларга таржимаси, илмий-танқидий матнлари эълон қилинган. Китобнинг иккинчи қисми ҳисобланувчи Андалусия ва Мағриб (Марокаш) фатҳларига бағишланган бўлими жуда қисқа. Айнан шу қисмни инглиз Жон Ҳаррис Жонс “Ibn Abd al-Nakam’s History of the Conquest of Spain” (“Ибн Абдулҳакамнинг “Испаниянинг эгалланиш тарихи” асари”) номи билан инглиз тилига таржима қилиб, 1858-йилда Готтингенда алоҳида китоб қилиб нашр этган. Асарнинг араб тилидаги қиёсий тўлиқ матнини инглиз Ч.Торрей 1922-йилда “Yale University Press” нашриётида нашр этган. Асар 1985-йилда С.Б.Певзнер томонидан рус тилига таржима қилиниб, “Завоевание Египта, ал-Мағриба и ал-Андалуса” номи билан “Наука” нашриётида нашр қилинган[3].

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР

Хулоса қилиб айтганда, Ибн Абдулҳакамнинг “Футуҳи Миср ва ахборуҳо” асари

нодир асар ҳисобланади. Буни кейинги давр тарихчилари ибн Зулак, Қудсий, ал-Киндий, ал-Балазурий, ибн Дўкмок, Макризий, ибн Тағриберди ва Суютийлар арабларнинг Шимолий Африкани эгаллаши тўғрисидаги маълумотларни айнан ибн Абдулҳакам билан бир хил иснодда келтиргани исботлайди[9]. Шунингдек, ибн Абдулҳакам баъзи маълумотларни берган биринчи тарихчи ҳисобланади (масалан араблар ва нубияликлар ўртасидаги муносабатларга оид маълумотлар). Шу сабабли қуйидаги таклифларни амалга ошириш муҳим деб ҳисоблаймиз:

– “Ибн Абдулҳакам асарларининг манбалари” ва “Ибн Абдулҳакам асарларидаги иснодлар таҳлили” мавзуларини магистрлик диссертацияси даражасида ўрганиш;

– Ибн Абдулҳакам ҳаёти, фаолияти, оиласи ва меросини ўрганишни битирув малакавий иш даражасида ўрганиш;

– Ибн Абдулҳакамнинг “Футуҳи Миср ва ахборуҳо” асарининг ўзбек тилига таржимасини тайёрлаб, чоп этиш;

– Ибн Абдулҳакам ва унинг асари ҳақидаги маълумотларни ислом манбашунослиги бўйича дарсликларга кириштиш.

ҲОЙДАЛАНИЛГАН МАНБА ВА АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Rieu Ch. Supplement to the Catalogue of the Arabic manuscripts in the British museum. London, 1894.
2. Torrey Ch.C. The History of the Conquests of Egypt, North Africa and Spain. - Yale University Press, 1922.
3. Завоевание Египта, ал-Мағриба и ал-Андалуса (Перевод с арабского, предисловие и примечания С.Б.Певзнер). – Москва: 1985.
4. Заҳабий Ш. Сияр аълам ан-Нубало. – Байрут: Муассасатур рисола, 1996. Ж. 10.
5. Зоҳидов К. Исломи тарихи. Ўқув қўлланма. -Тошкент:Тошкент ислом университети нашриёти, 2013.
6. Ибн ан-Надим. Ал-Фихрист. – Байрут: Дор ул-маърифат, 1997.
7. Куббеля Л., Матвеева В. Арабские источники VII-X веков. Древние и средневековые источники по этнографии и истории народов Африки южнее Сахары. – Москва, 1960.
8. Умматалиев С. Илк ислом тарихига оид асарлар ва уларнинг хусусиятлари. Марказий Осиё ижтимоий тадқиқотлар журнали, 2021, 2 (2). – Тошкент, – Б. 117-126.
9. <https://ar.wikipedia.org/wiki/ابن عبد الحكم>

RO‘ZIMURODOVA Sohiba
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **MADAYEVA Mu‘tabarxon**
Arab tili va adabiyoti al-Azhar
kafedrasida katta o‘qituvchisi

XXI ASRDA CHET TILLARINI O‘RGANISHNING AHAMIYATI VA SAMARALI O‘QITISH USULLARI

ВАЖНОСТЬ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ В XXI ВЕКЕ И ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ

THE IMPORTANCE OF LEARNING FOREIGN LANGUAGES IN THE 21st CENTURY AND EFFECTIVE TEACHING METHODS

Annotatsiya: Ushbu maqolada til o‘rganishning bugungi kundagi ahamiyati va texnologiyalar asrida yoshlarga zamonaviy usul va metodlarni qo‘llagan holda chet tilini o‘rgatish haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, maqolada eng ommalashib borayotgan onlayn platformalar hamda ularning qanday imkoniyatlarga ega ekanligi haqida ham ma‘lumotlar keltirib o‘tildi. Shu bilan birga, yurtimizda so‘nggi yillarda til o‘rganishga qaratilgan e‘tiborning sezilarli darajada oshganligi bir nechta misollar orqali hikoya qilinadi.

Kalit so‘zlar: Chet tili, til bilish darajasini belgilovchi sertifikat, chet tilini o‘rganish va o‘rgatish, videoselekt, Hellotalk, Duolingo, FluentU, globalizatsiya.

Аннотация: В данной статье рассматривается актуальность изучения языков в современном мире и обучение молодежи иностранным языкам с применением современных методов и технологий в эпоху цифровизации. Также приводится информация о наиболее популярных онлайн-платформах и их возможностях. Кроме того, в статье обсуждается значительный рост внимания к изучению иностранных языков в нашей стране за последние годы, приводятся конкретные примеры.

Ключевые слова: иностранный язык, сертификат, определяющий уровень владения языком, изучение и преподавание иностранных

языков, видеолекции, Hellotalk, Duolingo, FluentU, глобализация.

Annotation: This article discusses the importance of language learning in today’s world and the teaching of foreign languages to young people using modern methods and technologies in the digital era. It also provides information about the most popular online platforms and their capabilities. Additionally, the article highlights the significant increase in attention to language learning in our country in recent years, supported by specific examples.

Keywords: foreign language, language proficiency certification, language learning and teaching, video lectures, Hellotalk, Duolingo, FluentU, globalization.

KIRISH

Hozirgi kunda jamiyatga nazar solsak, uning juda tez sur‘atlarda rivojlanayotganligi, har kuni yangidan yangi texnologiyalarning hayotimizga kirib kelayotganligiga guvoh bo‘lamiz. Bu esa siz-u bizni kun sayin taraqqiy etib borayotgan zamon bilan hamnafas bo‘lishga undaydi. Yer yuzi yaratilgandan beri insoniyat turli davrlarni boshidan o‘tkazdi. Kishilarning bir-birini qul qilib bozorlarda sotganidan tortib, ayollarning o‘qishiga ruxsat berilmaganligigacha tarix sahifalarida muhrlangan. Ammo hozirgi paytga kelib har bir insondan jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi, fikrlashi va dunyoqarashini kengaytirishi uchun o‘z ona tilidan tashqari kamida bitta chet tilini bilishi talab qilinmoqda. Hatto ko‘plab ish beruvchi xususiy tashkilotlar ishga olish jarayonida talabgordan oliy ta‘lim muassasasini tugatganligini tasdiqlovchi hujjatlaridan ko‘ra uning til bilish darajasini belgilovchi sertifikatini ustun qo‘yishayotganligi barchamizga birdek ma‘lum. Shu bois qaysi tarafga qaramaylik, hozirgi paytda jahon tillari qatoriga kirib ulgurgan rus, ingliz, arab, koreys, xitoy tillarini o‘rgatishga ixtisoslashtirilgan o‘quv markazlari hamda maktablarning ko‘payganligini ko‘ramiz. Bundan qariyb bir asr oldin yashagan ajdodlarimizning bu boradagi fikrlari esa til o‘rganishga bo‘lgan e‘tiborning ancha ilgari boshlanganligini ko‘rsatadi. Xususan, Abdulla Avloniy tilni o‘z asarlarida “xalqning yuragi va ruhi” deya ta‘riflagan edi [1].

O‘zbekistonning jahon bozoriga kirib borayotganligi va rivojlangan davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yayotganligi

yurtimizda chet tilini o'rganish va o'rgatishning hozirgi kunda ahamiyati ancha yuqori darajaga ko'tarilganligini ko'rsatadi. Davlatimiz rahbari 2021-yil 6-may kuni chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazgan videoselektrda buni ta'kidlab: "Biz raqobatbardosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim", - degan.

ASOSIY QISM

Zamon talablarini hisobga olgan holda mamlakatimizda so'nggi yillarda yoshlarning chet tilini bilish darajasini oshirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilganligini qonunchilik hujjatlari va atrofimizdagi islohotlarda ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qaroriga muvofiq Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligining budjetdan tashqari jamg'armasiga Xalq ta'limi vazirligiga Xalq ta'limi sohasidagi islohotlarga ko'maklashish jamg'armasi uchun ajratiladigan mablag'lar hisobidan bir martalik 15,0 mlrd so'm miqdoridagi moliyaviy ko'mak mablag'larini ajratish haqidagi taklifga rozilik berilishi bunga misoldir. Ushbu qarorga muvofiq, Jamg'armaga Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar dunyo bo'yicha samarali natija bergan metod va darsliklarni yurtimizdagi maktab, litsey hamda oliy ta'lim muassasalarida joriy etish, xorijiy davlatlarda chop etilgan adabiyotlarni xarid qilish, xorijiy tillarni puxta o'zlashtirishga ko'maklashuvchi videorolik, o'yinlar yaratish va boshqa chet tillarini omma orasida yoyishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish uchun sarflanadi [6].

Bugungi kunda globalizatsiya va texnologiyalarning tez rivojlanishi til o'rganishni tobora muhim bo'lib borayotganligini ko'rsatadi. Chunki hozirgi paytda xorijiy universitetlarda ta'lim olish yoki xalqaro ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etish uchun ko'pincha xalqaro til, xususan, ingliz tilini bilish talab etiladi. Taniqli nemis tadqiqotchisi T.Bastianning ta'kidlashicha, chet tilini o'rganish

insonning intellektual imkoniyatlarini oshiradi va miya faoliyatini faollashtiradi. The Times Higher Education tashkilotining 2024-yil uchun dunyodagi top universitetlar reytingida kuchli 10 talikni AQSH (7 ta) va Buyuk Britaniya (3 ta) oliygohlari egallaganligi ham fikrimizning isbotidir. Aksariyat ilmiy tadqiqotlar va maqolalar ham ingliz tilida yozilgan va bu ilmiy rivojlanish uchun chet tilini o'rganishni shart qilib qo'yadi. Bularga qo'shimcha sifatida shuni aytishimiz mumkinki, ingliz tilida yozilgan maqolalar dunyo miqyosidagi ilmiy axborotning 70 foizini tashkil qiladi [3]. Albatta, har bir inson o'z dunyoqarashini kengaytirishni, turli xalqlarning madaniyati va urf-odatlarini o'rganishni hamda ularning tarixi bilan yaqindan tanishishni istaydi. Shunday boy tarix va o'ziga xos an'analarga ega xalqlardan biri rus millati bo'lib, ularning ona tilisi XX asr o'rtalarida jahon tili sifatida tan olingan. Rus tili bugungi kunda dunyoda tarqalishi bo'yicha uchinchi o'rinda turadi.

Bu tilni jahonning yuzdan ortiq mamlakatlarida o'rganishadi. Uni chet tili sifatida dunyo aholisining har sakkizinchi kishisi o'rganadi"[7]. Fors ko'rfazi, Hind okeani, Arab dengizi, Qizil dengiz, O'rta Yer dengizi, Atlantika okeani sohillariga joylashgan, Osiyo qit'asining janubi g'arbiy, Afrika qit'asining shimoliy mintaqalarini egallagan, aholisining umumiy soni 250 milliondan ortadigan 20ta mustaqil davlatning rasmiy tili bo'lgan arab tili ham hozirgi kunda eng ommalashgan tillar sirasiga kiradi. Bu tilda muloqot qilish esa bizga islom tarixini chuqurroq o'rganish va tahlil qilish, o'ziga xos turmush tarziga ega badaviy arablar hayoti bilan yaqindan tanishish hamda o'z davrida eng yuqori cho'qqilarga chiqqan arab adabiyotining nozik durdonalaridan bahramand bo'lish imkonini beradi [2]. Shu bois nafaqat turizm, balki xalqaro kompaniyalar, IT, tibbiyot, adabiyot kabi sohalarda ham til bilish zarur omil sifatida qaralmoqda. Globallashtirish jarayoni xalqaro iqtisodiy va siyosiy hamkorlikni jadallashtirganligi sababli, ingliz tili xalqaro biznesning asosiy tili sifatida tan olingan bo'lsa, xitoy, nemis va fransuz tillariga bo'lgan qiziqish ham yildan yilga ortib bormoqda. Chunki ayni damda zamonaviy innovatsiyalar hamda ishlab chiqarishning katta qismiga yuqorida nomi zikr etilgan tillarda so'zlashuvchi davlatlarda homiylik qilmoqdalar. Yurtimizdan yetishib chiqqan olim A. Jo'rayev o'z tadqiqotida shunday yozadi: "Chet

tillarini bilish nafaqat iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytiradi, balki xorijiy investorlar bilan samarali hamkorlik qilishga xizmat qiladi” [4]. Abdulla Avloniy “Til o‘rganish orqali inson o‘zini va boshqa madaniyatlarni anglaydi”, - degan fikrlari orqali qanchalik haqiqatni aytganligini kundan kunga jamiyatda til bilish zaruriy omilga aylanib borayotganligi misolida ham ko‘rishimiz mumkin [1].

Yer yuzidagi aksariyat davlatlarning rasmiy tili bo‘lib, aholining katta qismi tomonidan so‘zlashiladigan til tabiiy ravishda jahon tillaridan biriga aylanadi. Bunday tilni o‘rganishni istagan har bir kishi esa samarali metodikalar va qo‘llanmalarga ehtiyoj sezadi. Shu sababli, tilshunos olimlar zamon talablariga javob beradigan, til o‘rganishni osonlashtiruvchi usullarni ishlab chiqmoqda. Bugungi kunda esa o‘quvchilarga chet tilini o‘rgatishda ularning yoshi va qiziqishlari ham muhim omillardan biri sifatida e‘tiborga olinmoqda. Olimlar tomonidan bolaning jismoniy va psixik kamoloti quyidagi davrlarga bo‘linadi:

Go‘daklik davri (0-1 yosh);
Bog‘chagacha bo‘lgan yosh davri (1-3 yosh);
Maktabgacha bo‘lgan yosh davri (3-7 yosh);
Kichik maktab yoshdagi o‘quvchilar (7-11, 12 yosh);

O‘rta va katta maktab yoshidagi o‘quvchilar (12-17 yosh) [5].

Maktabgacha ta’lim muassasasidagi bolalarga ham o‘zlarining yoshlariga va ruhiyatlariga mos bo‘lgan o‘qitish metodikalari orqali chet tillarini o‘rgatish jarayonlari ancha oldin o‘z samarasini bergan. Darslarni turli o‘yinlar, zamonaviy usullar orqali tashkil qilish o‘quvchining tilni tezroq o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Har bir til o‘rganuvchi kishi eng avvalo intizomli bo‘lishi kerak. Chunki tilni o‘zlashtirish uchun insondan tug‘ma qobiliyat talab etilmaydi, balki doimiy ravishda mehnat va harakat bo‘lishining o‘zi yetarlidir. Hozirgi paytda ko‘plab o‘quvchilarning yo‘l qo‘yadigan xatolaridan biri ularning diqqatini faqat grammatik qoidalarini o‘rganishga qaratishi va lug‘at yodlash uchun soatlab vaqt sarflashidir. Inson bir tilni o‘rganar ekan butun hayot tarzini o‘sha tilga hamohang tarzda olib borishi kerak. Shu bois, chet tilini o‘rganishda tabiiy til muhitini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu usul o‘quvchilarga tilni

real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi va ularning muloqotga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Til muhitini shakllantirishda xorijiy o‘qituvchilar bilan mashg‘ulotlar olib borish juda foydalidir, chunki bu tilni ona tiliga tayanmasdan bevosita o‘rganish imkonini beradi. Ingliz tilini o‘rganmoqchi bo‘lgan kishi ushbu tilga oid audio materiallarni tinglash, video va multfilmlar tomosha qilish orqali ma’lumotlarning muayyan qismini sensor xotirasida saqlab qoladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bunday tabiiy usul soatlab lug‘at yodlashdan ko‘ra ancha samaraliroq.

Bundan tashqari, chet tilida ravon va to‘g‘ri so‘zlashni istagan shaxslar o‘z qiziqishlariga mos materiallardan foydalanishga moyil bo‘lib, til o‘rganish jarayonida his-tuyg‘ulariga e‘tibor qaratadilar. Bu esa ijobiy hissiyotlar orqali o‘rganish samaradorligini oshiradi va tilni tezroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Zero, ko‘tarinki kayfiyat, o‘ziga ishonch tuyg‘usi ravon va dadil so‘zlashni ta’minlovchi omillardir [7].

Hozirda til o‘rgatuvchi onlayn platformalar va dasturlar juda keng tarqaldi. Ulardan eng ommalashganlari sifatida Hellotalk, FluentU, Duolingo kabilarni misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Duolingo dasturini yuklab olgan foydalanuvchilarning umumiy soni butun dunyo bo‘yicha 500 mln. ga yetadi. Uning afzallik tomoni shundaki, unda har bir ishtirokchi ball to‘plashi va yangi bosqichga o‘tish uchun dastur tomonidan belgilangan vazifalarni bajarishi kerak bo‘ladi.

Hellotalk asosan to‘g‘ri muloqot qilish ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan ilova bo‘lib, u orqali o‘rganmoqchi bo‘lgan tilingizda so‘zlashuvchi insonlar bilan muloqot qilishingiz, o‘zaro ovozli va videoxabarlar orqali suhbatlashishingiz mumkin.

FluentU- bu til o‘rganishni videolar orqali o‘rganmoqchi bo‘lganlar uchun juda foydali dastur. U musiqiy kliplar, yangiliklar, suhbatlar va film trailerlari orqali tilni o‘rgatishga mo‘ljallangan.

Yuqorida sanab o‘tilgan online platformalar juda keng tarqalgan va ular mustaqil shug‘ullanish orqali til o‘rganishni istaganlar uchun ishlab chiqilgan. Ammo olimlar o‘rganuvchining yoshi va fikrlash qobiliyatidan kelib chiqib turli metodlar ustida ham izlanishlar olib bormoqdalar. Xususan, ko‘plab o‘quvchilarda o‘z samarasini bergan usullardan biri bu kommunikativ yondashuvdir.

Ushbu metod talabalarni faol suhbatga jalb qiladi va ularni o'z fikrlarini ifoda etishga o'rgatadi. Bu usul muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishi va o'quvchilarni tilni amaliy qo'llashga o'rgatishi bilan boshqa metodlardan ajralib turadi. Til o'rganishda kommunikativ yondashuvning samarali ekanligi mahalliy tajribalar orqali ham isbotlangan.

Xuddi shunday samarali metodlar qatoriga differensiyalashgan o'qitish usulini ham kiritish mumkin. Ushbu yondashuv o'quvchilarning individual xususiyatlari va o'ziga xos qobiliyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi har bir til o'rganuvchi bilan individual ishlashdir. Bu usul dars jarayonini o'quvchining qiziqishlariga mos keladigan materiallar asosida tashkil etishga yordam berib, til o'zlashtirish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, XXI asrda til o'rganish va o'rgatish jarayonlari butun dunyoda sezilarli darajada o'zgarib, yangicha yondashuvlar asosida rivojlanmoqda. Texnologiyalarning jadal rivojlanishi, kommunikatsiya vositalarining kengayishi va globalizatsiya ta'sirida til o'rganish jarayoni endilikda faqat lug'at yodlash va grammatik qoidalarini o'zlashtirish bilan cheklanib qolmaydi. Aksincha, u o'quvchilarga samarali muloqot qilish, turli madaniyatlarni anglash va globallashtirish jamiyatda erkin faoliyat yuritish imkoniyatini beradi.

Til o'rgatish jarayonining samaradorligi zamonaviy pedagogik yondashuvlarga, innovatsion metod va usullarning qo'llanishiga bog'liq. Yurtimizning ko'plab ta'lim muassasalarida chet tilini o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar an'anaviy ta'lim metodlari bilan uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilmoqda. Bu esa ta'lim sifatining oshishiga hamda til o'zlashtirish jarayonining tezlashishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda har qanday sohaning mutaxassisi bo'lish uchun inson, avvalo, o'z ona tilini mukammal bilishi, shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlarda keng qo'llaniladigan tillarda muloqot qila olish ko'nikmalarini shakllantirishi zarur. Bu esa nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki jamiyat taraqqiyotiga ham bevosita ta'sir qiladi.

Bir tilni puxta egallagan inson ushbu tilda so'zlashuvchilarning madaniyati va tarixini chuqurroq o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa o'z xalqiga yangi bilimlarni yetkazish, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish va ilmiy-tarixiy tadqiqotlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'zbekiston, 1913.
2. Arab tili [Matn]: darslik / A. Abdujabborov. – Toshkent: Tafakkur, 2020.
3. Elsevier. Global Scientific Literature Analysis, 2021.
4. Jo'rayev A. Globallashtirish va til o'rganish. – Toshkent: Ma'rifat, 2020.
5. Mirqosimova M. Umumiy pedagogika. – Toshkent: "Ilm-ziyo-zakovat", 2021.
6. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/34/0048-son; 20.10.2022-y., 09/22/612/0949-son.
7. Абсаломов А. Рус тилини ўрганишнинг энг самарали усуллари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2020.

МУРАТОВ Донийёр

Ўзбекистон халқаро ислом академияси,
Исломишунослик ва ислом цивилизациясини
ўрганиш ICESCO кафедраси доценти,
тарих фанлари номзоди
doniyorhoji@mail.ru

ИМОМ ДОРИМИЙ ИЛМИЙ ФАОЛИЯТИ ХУСУСИДА

ABOUT THE SCHOLARLY ACTIVITY OF IMAM DORIMY

О НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИМАМА ДАРИМИ

Аннотация: Мазкур мақолада ислом илмида чуқур из қолдирган Самарқандлик машҳур муҳаддис Абдуллоҳ ибн Абдурахмон Доримийнинг ҳаёти ва илмий фаолияти ўрганилган. Муаллиф унинг ҳадис илмидаги ўрнини, ровийлар ишончлилиги ҳақидаги фикрларини ҳамда ёзган асарлари, хусусан, “Сунан” асарининг аҳамиятини таҳлил қилади. Шунингдек, имомнинг тақводорлиги, ҳофизлиги ва қози сифатидаги фаолияти ҳақидаги маълумотлар тақдим этилган.

Таянч сўзлар: Ҳадис, Доримий, Сунан, муҳаддис, Самарқанд, ровий.

Аннотация: В данной статье исследуется жизнь и научная деятельность выдающегося хадисоведа из Самарканда Абдуллаха ибн Абдуррахмана Дарими. Автор анализирует его вклад в науку хадисов, взгляды на достоверность передатчиков и значение его произведений, особенно труда «Сунан». Также приводятся сведения о его благочестии, статусе хранилища хадисов и деятельности в качестве судьи.

Ключевые слова: Хадис, Дарими, Сунан, хадисовед, Самарқанд, передатчик.

Annotation: This article explores the life and scholarly contributions of the renowned hadith scholar from Samarkand, Abdullah ibn Abdurrahman Darimi. The author examines his role in hadith science, views on the reliability of transmitters, and the significance of his works, particularly “Sunan.” Insights into his piety, expertise as a hadith memorizer, and judicial activities are also provided.

Keywords: Hadith, Darimi, Sunan, hadith scholar, Samarkand, transmitter.

КИРИШ

Ҳадис илми тарихида ўчмас из қолдирган алломаларимиз жуда кўп. Айниқса, Самарқанд ўзининг кўплаб муфассир, фақиҳ, тасаввуф олимлари қатори муҳаддислари билан ҳам танилган. Бу ерда ислом тарқалиши билан исломий илмлар ҳам ривожлана бошланган. Шулар қатори ҳадис илми ривожланиб, бу бўйича олимлар ҳам етилиб чиқди.

Ислом оламининг илмий ривожланишига бебаҳо ҳисса қўшган улуғ алломалардан бири имом Доримий ҳисобланади. У илм-маърифатга чуқур боғланган, мусулмон уммати учун турли соҳаларда кадрли билимларини қолдирган буюк муҳаддис ва фақиҳ сифатида танилган. Имом Доримийнинг илмий фаолияти ҳадис илми, фикҳ ва тарих илмларида муҳим ўрин тутиб, у қолдирган асарлар уламолар томонидан кенг ўрганиб келинмоқда.

Унинг ҳаёти, илмий сафарлари ва шогирдлари билан бўлган мулоқотлари ислом илм-фанининг шаклланишига ижобий таъсир кўрсатган. Шунингдек, имом Доримий ҳадис илмидаги юксак савияси билан ҳам алоҳида ажралиб туради. Унинг асарлари, жумладан, “Сунан Доримий” китоблари ислом таълимотининг асл манбаи сифатида катта аҳамиятга эга. Унинг илмий мероси нафақат ўтмишдаги, балки ҳозирги замон илм аҳли учун ҳам йўлчи юлдуз бўлиб қолмоқда.

АСОСИЙ ҚИСМ

Самарқанднинг энг машҳур муҳаддислардан бири Абдуллоҳ ибн Абдурахмон Доримийдир. Унинг тўлиқ исми Абдуллоҳ ибн Абдурахмон ибн Фазл ибн Баҳром ибн Абдусомад Абу Муҳаммад Тамимий Самарқандий Доримий бўлиб, ҳадис ҳофизини, шайхул ислом бўлиб танилган. Манбаларда имом Абдуллоҳ ибн Муборак Марвазий вафот этган 181/797 йили туғилгани учун унга Абдуллоҳ деган исм қўйилгани ҳақида ривоятлар келган. Имом Заҳабий [13:99] ва имом Суютий [14:239] мазкур олимни ўз асарларида муҳаддисларнинг тўққизинчи табақасида эканини кўрсатишган.

Имом Доримий ёшлик чоғидан ўзининг ўтқир зеҳни ва ҳифзи кучли экани билан бошқалардан ажралиб турган. Манбаларда олимнинг оиласи ҳақида кўп маълумотлар

учрамайди. Унинг тоғаси Абу Усома Аҳмад ибн Муовия ва жияни Абу Аҳмад Фазл ибн Муҳаммад Доримийларнинг ҳадис ривоят қилганларидан олим зиёлилар оиласида ўсган дейиш мумкин.

Имом Доримийнинг илми борасида куйидаги ривоятда кўринади. У ҳаж сафари давомида Куфада тўхтаб, Яҳё ибн Абдулҳамид Ҳаммоний (ваф. 842 й.) ва бошқа муҳаддислар билан суҳбатда бўлган. Суҳбатлар баҳс-мунозаралар шаклида бўлиб, ҳадис ровийлари, иснодларнинг ишончлилиги устида бўлиб ўтган [15:123]. Натижада, Имом Доримий Яҳё Ҳаммонийнинг адолатли, ишончли ровийлигига шубҳаланиб, ўзи ундан ҳадис ривоят қилмаган, бошқаларга ҳам ундан ҳадис олишни маслаҳат бермаган. Жумладан, Абдуссамад ибн Сулаймон Балхий (ваф. 860 й.) буюк муҳаддис Аҳмад ибн Ҳанбал ҳам имом Доримийни “Имом” деб улуғлагани ва унинг сўзига таянган ҳолда Яҳё Ҳаммонийдан ҳадис қабул қилиб олмаганини таъкидлайди. Ана шу ҳолат имом Доримийнинг ровийлар борасида билими, унинг мавқеи юқори бўлганлигидан дарак беради. Бошқа томондан Хатиб Бағдодий келтирган маълумотлардаги суҳбатдошларнинг ҳаёт йилларини аниқлаш орқали имом Доримий тахминан 40 ёшларида ҳаж сафарига боргани, сафар чоғида ҳам ҳадислар жамлаш устида тинмай излангани борасидаги хулосага келиш мумкин [3:54].

Имом Доримий Самарқандда таълим олишни бошлайди. Бундан ташқари, Миср, Ироқ, Шом, Ҳижоз ва Хуросоннинг турли шаҳарларида олимлардан таълим олиб қайтади.

Доримийга замонасининг кўплаб кўзга кўринган олимлари таълим берганлар. Улардан Язид ибн Ҳорун Зодий (ваф. 206/822 й.), Муҳаммад ибн Башшор Бундор (ваф. 252/866 й.), Муҳаммад ибн Юсуф Фарёбий (ваф. 212/827 й.), Исмоил ибн Абон Варроқ Аздий (ваф. 216/831 й.), Абдуллоҳ ибн Солиҳ Жуханий (ваф. 222/837 й.), Аҳмад ибн Абдуллоҳ Тамимий (ваф. 227/842), Яҳё ибн Маин Ғатафоний (ваф. 233/847 й.), Муҳаммад ибн Аҳмад ибн Абу Халаф (ваф. 237/852 й.), Абдуллоҳ ибн Саид Киндий (ваф. 257/871 й.), Абд ибн Ҳумайд Кеший (ваф. 249/863 й.) ва бошқаларни келтириш мумкин.

Олимдан кўплаб шогирдлар таълим олган. Улардан имом Муслим, Абу Довуд, Термизий,

Абу Зуръа (ваф. 281/894 й.), Жаъфар ибн Муҳаммад Фарёбий (ваф. 301/914 й.), Абдуллоҳ ибн Аҳмад ибн Муҳаммад ибн Ҳанбал (ваф. 296/909 й.), Абдуллоҳ ибн Убайдуллоҳ Абу Абдурахмон Бухорий (ваф. 307/922 й.), Умар ибн Бужайр, Жаъфар ибн Аҳмад Исфаконий, Исо ибн Умар Самарқандий (ваф. 320/932 й.), Бақи ибн Махлаб ва бошқаларни келтириб ўтиш ўринли. Имом Бухорий ва Насойилар ўзларининг асосий асарларидан бошқа ўринларда ундан ривоятлар келтирганлар.

Имом Доримийдан имом Муслим “Саҳиҳ” асарида 72 та, имом Термизий 63 та, имом Абу Довуд “Сунан” асарларида 3 та ҳадис ривоят қилганлар [4:33-78]. Кучли муҳаддислар имом Доримийнинг асарида ҳадислар ривоят қилиши олимнинг илми нақадар бекиёс экани кўринади.

Замонасининг машҳур олимлари имом Доримий ҳақида яхши фикр билдирганлар. Муҳаддис Абд ибн Ҳумайд шундай деган: «Абдуллоҳ (Доримий) бизнинг устозимиздир. Дунёда унингдек мавжуд эмас». Имом Абу Хотим: «Ўз замонасининг имоми», деган.

Олим Ибн Ҳайён шундай деган: «Тақводор ҳофизлардан бўлган. Ҳадисларни ёдлаган, тўплаган, фикҳни ўрганган, китоблар ёзган, ҳадис ривоят қилган. Ўз юртида суннатни ёйган».

Хатиб Бағдодий: «Ҳофиз ва жаҳонгашталардан бири, ишончлилиги, зуҳди, тақводорлиги билан ажралиб туради. Самарқандда қози бўлган, унда бир марта ҳукм чиқариб истефога чиққан» [7:7], деган.

Машҳур муҳаддис Аҳмад ибн Ҳанбал шундай деган: «Унга мол-дунё берилганда қабул қилмаган».

Олим Ражо ибн Муржи: «Ундан кўра ҳадисни яхшироқ билган бирор кишини билмайман» [7:8], деган.

Олим Муҳаммад ибн Башшор: «Дунё ҳофизлари тўртта: Райда Абу Зуръа, Нишопурда Муслим ибн Ҳажжож, Самарқандда Абдуллоҳ ибн Абдурахмон ва Бухорода Муҳаммад ибн Исмоил» [8:226], деган.

Олим 255/869 йили 74 ёшида Марвда вафот этган.

Имом Доримий ҳадис илмида танилган бўлсада, у муаррих ҳам бўлган. Чунки ҳар бир муҳаддис ўзи ўрганган барча ҳадисни, уни китобига киритадими ёки киритмайдими,

ровийсини ўрганиши зарур илмлардан ҳисобланади. Ровийни ўрганиш ҳадис илмининг ажралмас қисми бўлиб, аҳли илмнинг муҳаддис ва фақиҳлари томонидан йиллар давомида амалга оширилган илмий фаолиятнинг муҳим йўналишларидан биридир [5:6]. Бу илмий тадқиқотлар ҳадисларнинг ҳар бир ровийсининг ҳаёти, фазилатлари, ишончилиги ва ривоят қилиш усуллари таҳлил қилишга қаратилган. Ҳадис илмида ровийларни ўрганишнинг асосий мақсад – ҳақиқий, тўғри ва аниқ ҳадисларни таҳлил қилиш ва фойдаланишдир. Муҳаддис ровийнинг ҳаёт йўлини тўлиқ ўрганишга ҳаракат қилиб, ҳадисни кимдан, қачон ва қерда эшитганини билиши зарур бўлган. Айнан мана шу сабаб муҳаддислар томонидан тарихни ўрганишга туртки берган. Имом Доримий ҳам ҳадисларининг ишончилигини таъминлаш учун ҳар бир ровийни тарихини билган. Турли жойлардаги ровийларнинг тарихини билиш ўша жойларнинг тарихини билишга ҳам йўл очади. Натижада ўзи ишончли деб билган ровийларининг ҳадисларини “Сунан” асарига киритган. Юқоридагилардан келиб чиқиб имом Доримийни тарих олим дейиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Имом Доримий фақиҳ ҳам бўлган. Унинг фақиҳлиги “Сунан”ни фикҳий услубда жамлагани ҳамда қозилик лавозимида бироз муддат ишлаганидан кўриш мумкин. Имом Доримий бир қанча муддат Самарқандда шайхул ислом лавозимида ҳам фаолият кўрсатган. Шунингдек, Насафийнинг таъкидлашича, “... у табиятан вазмин, адолатпарвар ва ҳақиқатгўй, инсоф ва диёнати баркамол, ҳар қандай вазиятда ақл-идрок, чуқур тафаккур ва мулоҳаза билан иш юритгани боис ҳоким томонидан Самарқанднинг Бош қозиси лавозимига таклиф қилинади. Аллома аввалига рад жавобини берса ҳам, лекин ҳоким ўз фикрида қатъий туриб олгач, рози бўлади. Бироқ қозихонада атиги битта иш кўрилгач, у ўзини ушбу лавозимдан озод этишларини илтимос қилади. Унинг илтимоси қондирилиб, истеъфога чиқарилган бўлсада, халифа Муътазз Биллоҳдан қозилик ёрлиғини (“Китоб ул-Қазо”- كتاب القضاء) олган”. Шундай экан, Имом Доримийнинг бош қози лавозимига таклиф қилиниши ва унга юборилган ёрлиқ умрининг охириги йилларида рўй берган [3:56].

Чунончи имом Доримий яшаган даврда ҳадис илми ривожланган бўлган. Аммо олим

дарс беришга қаттиқ эътибор қаратганидан унинг асарлари сони кўп эмас. Унга шуҳрат келтирган энг асосий асари «ас-Сунан»¹ ҳисобланади. Бу асарни баъзилар «ал-Муснад»² деб ҳам атайдилар. Жумладан, Хатиб Бағдодий, Ибн Салоҳ, Қуртубий, Заҳабий, Ибн Ҳажар Асқалоний каби катта муҳаддислар “Муснад” деб атаганлар. Жалолиддин Суютий, Ҳожи Халифа, Каттоний каби муҳаддислар эса “Сунан” деб атаганлар. Агар китобнинг тузилиши ва ҳадислар муайян мавзулар асосида жамланган бўлса, уни “сунан” тўплами дейиш тўғрироқ бўлади. Ўрни келганда айтиш мумкинки, ҳижрий 5/12 асргача муҳаддислар барча ҳадис тўпламларини санадга асосланиб ёзилган. Шундан келиб чиқиб ўша даврдаги барча йўналишда ёзилган асарларни муснад дейиш хато бўлмайди. Бу имом Доримийнинг “Сунан”ига ҳам оид. Шу билан бирга асарнинг ичидаги ҳадисларнинг тартибланиши нуқтаи назаридан уларни турларга ажратиш мақсадга мувофиқ. Имом Доримийнинг “Сунан” асари фақиҳлар усулига кўра фикҳий боблар асосида тартибланган [9:46]. Шунинг учун уни сунан дейиш асослироқ бўлади. Имом Абу Довуд, Термизий, Ибн Можа каби олимларнинг сунанлари ҳам шу тартибда ёзилган. “Сунан” китобларга, китоблар ўз навбатида бобларга бўлинган. Имом Доримийнинг асари муқаддима ва ибодат, муомалот, укубат ва бошқа масалалар билан боғлиқ жами 23 та китобни ўзида жамлаган [3:91].

Ибн Можа ўз китобида ёлгон билан айбланган кишилар ва ҳадис ўғриларида ривоят қилинган ҳадисни киритгани учун баъзи уламолар «олти саҳиҳ» қаторига Ибн Можа сунанини эмас, Доримий китобини қўшиш

¹ «Тахорат» бобидан «васиятлар» бобигача фикҳ тартиби бўйича ҳукмга оид ҳадислар тўпланган китоблар «Сунан» деб номланади. Бу бўйича ёзилган асарлар жуда кўп бўлиб, уларнинг машҳурларига имом Абу Довуд, имом Термизий, имом Доримий ва имом Насойининг «Сунан» асарларини мисол келтириш мумкин.

² Санадларга асосланган ҳолда жамланган ҳадис тўпламларига муснад тўпламлар дейилади. Муснад услубида ёзилган ҳадис тўпламларининг тури асосан уч хил бўлади: 1. Саҳобаларнинг номлари алифбо тарзида жойлаштирилиб, бир саҳобий ривоят қилган барча ҳадислар бир жойда келтирилади, ундан кейин бошқа саҳобий ва ҳоказо; 2. Ҳар бир саҳобанинг фазилатига қараб тузилади; 3. Саҳобийларнинг исломга кириш тарихига кўра, олдин Абу Бакр (р.а.) ники келтирилиб, ундан кейин бошқалар билан давом эттирилади.

лозимлигини айтганлар [2:43]. Чунки, Доримий китобида, агарчи мурсал, мавкуф ҳадислар бўлса ҳам, заиф ровийлар ва мункар ҳадислар жуда оз.

Шуни ҳам алоҳида таъкидлаш жоизки, “Сунан”нинг ўзига хос жиҳатлари бор. Имом Доримий имом Бухорийдан олдинроқ яшагани учун “Сунан”даги ҳадисларнинг иснодида ровийлар сони камроқ бўлган ривоятлар кўп. Жумладан, имом Доримийнинг “Сунан”идаги сулосиёт³, рубоиёт⁴ ҳадислар адади имом Бухорийнинг “Саҳиҳ” асаридагидан кўра кўпроқ [9:44]. Бу ҳолат “Сунан”нинг олимлар наздидаги даражасини оширади, чунки бундай иснодли ривоятлар олий⁵ санадга эга бўлган ҳисобланади. Ҳадис иснодларини олий қилишга ҳаракат ҳар бир муҳаддиснинг асосий мақсади бўлган. Имом Доримийнинг “Сунан”ида рубоиёт ҳадислар ҳам кўп. Жумладан, тадқиқотчи Абдулҳаким Абд Муҳаммад Нажжор рубоиёт ҳадислар борасида тадқиқот олиб борган. Унда қуйидаги хулосаларни берган [1:317]:

1. Доримийнинг “Сунан”ида 3503 та ҳадис бор;

2. Доримий саҳиҳ лизатихи⁶, саҳиҳ лиғойрихи⁷, ҳасан лизатихи⁸, ҳасан лиғойрихи⁹

³ Сулосиёт – ҳадис иснодида ровийлар адади уч киши бўлган ривоятга айтилади, яъни Пайғамбар (а.с.) ва муҳаддис орасида уч киши бўлади.

⁴ Рубоиёт – ҳадис иснодида ровийлар адади тўрт киши бўлган ривоятга айтилади, яъни Пайғамбар (а.с.) ва муҳаддис орасида тўрт киши бўлади.

⁵ Олий иснод – иснодида ровийлари кам бўлган ҳадисга айтилади, яъни Пайғамбар (а.с.) ва муҳаддис орасида ровийлар кам бўлиши.

⁶ Ҳадиснинг саҳиҳ эканига қўйилган 5 та шарт (исноднинг муттасил бўлиши, ровийлар адолатли ва забтли бўлиб, шоз ва иллатдан холи бўшлишлик) барчаси мавжуд бўлган ҳадис саҳиҳ лизотих (ўзидаги хусусиятларига кўра саҳиҳ) ҳисобланади.

⁷ Ҳасан ўзидан бошқа кучлироқ ёки баробар ҳадис билан қувватланган ҳадис саҳиҳ лиғайрих (бошқа сабаб билан саҳиҳ) бўлади. Бу турдаги ҳадис иснодларини алоҳида-алоҳида ҳолда қўриб чиқилганда, уларнинг барчаси саҳиҳлик талабларига жавоб бермаслиги мумкин. Аммо, иснодларнинг барчасини жамлаган ҳолда қаралганда, умумий тарзда санад кучли бўлади. Саҳиҳ лиғайрих бўлган ҳадислар саҳиҳлигининг энг паст даражаси ҳисобланиб, саҳиҳ лизотихдан паст ва ҳасан лизотихдан баланд даражалидир.

⁸ Ҳадиснинг санади муттасил бўлиб, одил ва зобти бироз енгилроқ ровийдан нақл қилинган, иллатли ҳамда шозз бўлмаган ҳасан лизатихи бўлади.

⁹ Ривоят қилинган йўллари кўп бўлиб, бир-бирини қувватлаган заиф ҳадис ҳасан лиғойрихи дейилади.

тўпламнинг асосий қисмини ташкил этади. Аммо асарда заиф ҳадислар бўлсада улар жуда кам;

3. Доримийнинг “Сунан”ида марфу¹⁰ ҳадислар ривоятларнинг кўпини ташкил этади. Шунингдек, мавкуф¹¹, мақту¹² ҳадислар ҳам бўлиб, бир оз мурсал¹³ ҳадислар учрайди [9:46].

4. Рубоиёт ҳадислар ҳам олий иснодли ҳадислардан ҳисобланади;

5. “Сунан”да сулосиёт ҳадислар ҳам бор;

6. “Сунан”да рубоиёт ҳадисларнинг адади 730 тани ташкил этади. Уларнинг аксари саҳиҳ ҳадислардир;

7. “Сунан”да рубоиётларнинг 72 таси муттафакун алайҳи¹⁴ ҳадислар;

Имом Доримий “Сунан”ининг яна қуйидаги хусусиятларини келтириш мумкин:

1. Асар 57 бобга эга бўлган муқаддима билан бошланган. Бу имом Муслим “Саҳиҳ”ининг муқаддимасига ўхшайди. Аммо у пайғамбарлик ва Расулulloх (с.а.в.)нинг сийратлари, фазилатлари, сифатлари ҳам ёритилган.

2. Баъзи ўринларда бобларни бошлашдан олдин Қуръони карим оятларини келтиради.

3. Агар бирор ғариб ал-ҳадис¹⁵ келса уни баён қилиб ўтган [9:47]. Муҳаддисларнинг ҳадис матнидаги ғариб сўзларни шарҳлаб ўтиши кам учрайдиган ҳолатлардан ҳисобланади. Имом Доримийнинг ғариб сўзларни шарҳлаб баён қилиб ўтиши китобидаги ҳадисларни ўқувчи учун тезроқ тушунишига ёрдам беради. Олим аввал ҳадисни келтиради, унинг кетидан “Абу Муҳаммад деди”, деб ғариб сўзни изоҳини келтиради. Масалан, “Аломат ан-Нубувва” китобида “Софий” сўзини “сути кўп”, “Риқоқ” китобида “Хома” сўзини “заиф” деб беради [12:121].

¹⁰ Ҳадис исноди Расулulloх (с.а.в.)га етиб борган ривоят. Расулulloх (с.а.в.) шундай дедилар, қилдилар каби.

¹¹ Ҳадис исноди саҳобага етиб борган ривоят. Саҳобий шундай деди, қилди каби.

¹² Ҳадис исноди тобиийга етиб борган ривоят. Тобиий шундай деди, қилди каби.

¹³ Тобиий ҳадисни ривоятида саҳобийни келтирмай «Расулulloх шундай дедилар», «бундай қилдилар» ёки «ҳузурларида бундай бўлди» деб у кишини гўё ўз кўзи билан кўргандек қилиб айтиши мурсал бўлади.

¹⁴ Бир ҳадисни ҳам имом Бухорий, ҳам имом Муслим ривоят қилган бўлса, у «муттафакун алайҳи» («шунга қилишилган») деб номланади.

¹⁵ Ғариб ал-ҳадис ҳадисларда учрайдиган, бироқ кам ишлатилгани учун изоҳталаб сўзларга нисбатан ишлатиладиган атама.

4. Баъзи фикҳий фойдаларни истинбот қилиш учун ҳадисларни қайта зикр қилиб ўтади.

5. Аввал марфу, кейин мавқуф ва макту ривоятларни келтиради.

Шу билан бирга иснодида заиф ровийлар сони кам. Мункар ва шоз ривоятлар ҳам камлиги билан бошқа ҳадис тўпламларидан ажраб туради. Аҳком туридаги ҳадислар асарнинг аксарият қисмини ташкил этади.

ХУЛОСА

Хулоса қилиб айтганда, Самарқандлик машҳур муҳаддис Абдуллоҳ ибн Абдурахмон Доримийнинг ҳаёти ва илмий фаолияти кўп олимлар томонидан ўрганилган. Имом Доримий ислом илмлари, айниқса, ҳадис илмига қўшган муҳим ҳиссаси билан танилган. Унинг асосий асари “Сунан” деб аталади ва у ҳадисларнинг ишончилигига катта эътибор қаратган.

Имом ўз асарида фикҳий масалаларни ҳам ёритган. Унинг илмий мероси ҳадис илмида алоҳида аҳамиятга эга бўлиб, унинг суннатни ёйиш, ровийларни ўрганиш ва ҳадисларни тўплашга бағишланган меҳнати юқори баҳоланган.

Мақолада Имом Доримийнинг ҳаёти, у билан ишлаган уламолар ва шогирдлари, шунингдек, унинг ишонган ровийларига оид тафсилотлар келтирилган. У Самарқандда қозилик лавозимида фаолият кўрсатган ва суннатни ёйишда етакчи бўлган. Олимнинг “Сунан” асарида юқори санадли ҳадислар кўп бўлиб, у ҳадис илмидаги муҳим манбалардан бири ҳисобланади.

Имом Доримий нафақат муҳаддис, балки муаррих ва факих ҳамдир.

АДАБИЁТЛАР

1. Абдулҳаким Абд Муҳаммад Нажжор. Рубоиёт ал-имом ад-Доримий фи Сунаниҳ: Жамъан ва таҳрижан ва диросатан. – Ғазза: ал-Азҳар, 2012. – 336 б.
2. Алимова М. Имом Доримийнинг ислом илмлари ривожига тутган ўрни. – Т.: Исломи тафаккури. № 3 (махсус сон). 2024. – 41-47.
3. Алимова М. Имом Доримийнинг ҳадис илми ривожига қўшган ҳиссаси. – Тошкент: Complex Print, 2019. – 189 б.
4. Ғумарий, Нубайл ибн Ҳошим. Фатҳ ал-маннон. Шарҳ ал-муснад ал-жомеъ ли Аби Муҳаммад Абдуллоҳ ибн Абдурахмон. – Байрут: Дор ал-башоир ал-исломия. 1999 й. – Т. 1. – 576 б.
5. Доримий. Китоб ал-муснад ал-жомеъ. – Макка: Дор ал-башоир, 2013. – 959 б.
6. Доримий. Мухтасар муснад ад-Доримий. – Миср: Дор ал-асар. 2023. – 338 б.
7. Доримий. Сунан. – Карачи: Қадимий кутубхона, 1987. – Т. 1. – 503 б.
8. Заҳабий, Шамсуддин Муҳаммад. Сияр аълом ан-нубало. – Байрут: ар-Рисола, 1996. – Т. 12. – 663 б.
9. Мансур Маҳмуд, Ашраф Маҳмуд. Маолим ал-фикҳ ва усулиҳ инда ал-имом ад-Доримий фи китабиҳ ас-сунан (дироса ҳадисия фикҳия). – Байрут: Мажалла Маҳкама. № 7. 2011. – 40-106.
10. Маҳмуд Муҳаммад Халаф. Ал-Имом ад-Доримий муҳаддисан. – ал-Қоҳира: Мажалла ал-Азҳар, № 1. 2019. – Б. 900-903.
11. Озимий, Аҳмад Маҳно. Ал-Имом ад-Доримий ва муснадух // Мажалла марказ ал-буҳус ва-д-диросот ал-исломия. – Работ: № 34. 2012. – Б. 287-325.
12. Хазражий, Собит Ҳусайн. Ғариб ал-ҳадис инда ал-имом ад-Доримий фи китабиҳ ас-Сунан. – Диёло: Мажалла Диёло, № 2. 2011. – Б. 103-125.
13. Заҳабий, Шамсуддин Муҳаммад. Ал-Муин фи табакот ал-муҳаддисин. – Байрут: Дор ал-кутуб ал-илмия, 1998. – 430 б.
14. Суютий, Жалолиддин. Табакот ал-хуффоз. – Байрут: Дор ал-кутуб ал-илмия, 1994. – 606 б.
15. Бағдодий, Хатиб. Тарих Бағдод. – Байрут: Дор ал-кутуб ал-илмия, 1997. – Т. 14.

SAGDIEV Xabibullo

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik va islom sivilizasiyasini o'rganish
ICESCO kafedrasi dosenti, PhD*

ABDURASHIDOV Ahrorxon

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
2-kurs Islomshunoslik mutaxassisi magistranti
E-mail: ahrorxonabdurashidov97@gmail.com*

“AS-SIHOHU-S-SITTA” HADIS TO‘PLAMLARIDAGI FITNALAR BOBLARINING MANBASHUBOSLIK TAHLILI VA UNING AHAMIYATI

SOURCE STUDY ANALYSIS OF THE CHAPTERS ON CONSPIRACIES IN THE HADITH COLLECTIONS “AL-SIHAN AL- SITTA” AND ITS SIGNIFICANCE

ИСТОЧНИКОВЕДЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГЛАВ О СМУТАХ В СБОРНИКЕ ХАДИСОВ «АС- СИХАХ АС-СИТТА» И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ

Annotatsiya. Ushbu maqolada “as-Sihohu-s-sitta” hadis to‘plamlarida keltirilgan Fitna boblari chuqur tahlil qilinib, ularning ijtimoiy va axloqiy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni o‘rganilgan. Fitna, nafaqat diniy nizolar, balki ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy masalalarda ham yuzaga keladigan murakkabliklar bilan bog‘liq bo‘lgan hodisa sifatida ko‘rib chiqilgan. Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Termiziy va boshqa hadis olimlarining Fitna boblariga kiritgan hadislarining ahamiyati ochib berilgan. Maqola Fitna boblarining diniy va axloqiy hayotga ta’sirini o‘rganish istagida bo‘lgan tadqiqotchilar va talabalar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Fitna, hadis, ijtimoiy barqarorlik, iymon, “as-Sihohu-s-sitta”, sahih hadislar, Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Termiziy, Abu Dovud, diniy bag‘rindanglik

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the chapters on Fitna in the “as-Sihohu-s-sitta” hadith collections and examines their role in ensuring social

and moral stability. Fitna is considered a phenomenon related not only to religious conflicts, but also to the complexities that arise in social, political, and economic issues. The significance of the hadiths included in the Fitna chapters by Imam Bukhari, Imam Muslim, Imam Tirmidhi, and other hadith scholars is revealed. The article serves as an important source for researchers and students who wish to study the impact of the Fitna chapters on religious and moral life.

Keywords: Fitna, hadith, “al-Sihah as-sitta”, authentic hadiths, Imam Bukhari, Imam Muslim, Imam Tirmidhi, Abu Dawud, religious tolerance
Keywords: Fitna, Hadith, social stability, justice, patience, faith, “al-Sihah as-sitta”, authentic Hadiths, Imam Bukhari, Imam Muslim, Imam Tirmidhi, Abu Dawood, ethical values, religious tolerance.

Аннотация. В статье дается углубленный анализ глав о фитне, содержащихся в сборниках хадисов «Сихохи Ситта», и исследуется их роль в обеспечении социальной и моральной стабильности. Подстрекательство к мятежу рассматривалось как явление, связанное не только с религиозными конфликтами, но и со сложностями, возникающими в социальных, политических и экономических вопросах. Объясняется значение хадисов, включенных в главы «Фитна» имамом Бухари, имамом Муслимом, имамом Тирмизи и другими учеными-хадисоведами. Статья является важным источником информации для исследователей и студентов, желающих изучить влияние глав «Фитны» на религиозную и нравственную жизнь.

Ключевые слова: Фитна, хадис, социальная стабильность, вера, Сахих Ситта, достоверные хадисы, Имам Бухари, Имам Муслим, Имам Тирмизи, Абу Дауд, религиозная толерантность

KIRISH

Islom dinida Qur’oni Karim bilan bir qatorda hadislar ham asosiy manba sifatida qabul qilinadi. Hadis ilmi, Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ning so‘zlari, amallari va roziliklarini o‘rganish orqali musulmonlarning diniy hayotida muhim o‘rin egallaydi. Bu ilm Qur’onning hukmlarini to‘ldiradi, uning noaniq joylarini sharhlaydi va insonlar hayotining barcha jabhalarida aniq yo‘nalish beradi. Shuning uchun hadislar musulmonlar uchun shariat qoidalarini, axloqiy tamoyillarni va kundalik hayotda amal qilish lozim bo‘lgan qadriyatlarni belgilovchi muhim manbadir.

Hadis ilmi tarixiy jarayonlarda nafaqat musulmonlar hayotini tartibga soluvchi asosiy

manba bo‘lib qolgan, balki ijtimoiy barqarorlik va adolatni saqlashda ham muhim rol o‘ynagan. Ayniqsa, “as-Sihohu-s-sitta” – olti ishonchli hadis to‘plamida keltirilgan Fitnalar boblari musulmonlar uchun alohida ahamiyatga ega. Ushbu boblarda jamiyatda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy ziddiyatlar, diniy nizolar, siyosiy va iqtisodiy fitnalar haqida ogohlantiruvchi hadislar jamlangan. Fitna boblari musulmonlarni fitnadan saqlanishga, uning salbiy oqibatlarini oldini olishga va shaxsiy hamda jamoat hayotida iymonli, adolatli bo‘lishga undaydi.

Fitna tushunchasi Qur‘on va hadislarda keng o‘rin egallagan bo‘lib, uning mazmuni turli davrlarda yangicha talqin qilingan. Islom ilmlarida fitna atamasi diniy nizolar bilan cheklanmay, insonlar orasidagi ijtimoiy muammolar, siyosiy beqarorlik, iqtisodiy tanglik va boshqa masalalarni ham qamrab oladi. Payg‘ambarimiz (s.a.v.) va sahobalar fitna paytida sabr qilish, ziddiyatlardan uzoq yurish va adolatli yo‘l tutish kabi qadriyatlarini targ‘ib qilganlar. Shu bois, Fitnalar bobidagi hadislar nafaqat o‘sha davr musulmonlari uchun, balki bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Bugungi zamon globalizatsiya, axborot texnologiyalari va ijtimoiy o‘zgarishlar davri bo‘lib, turli fitnalar yuzaga kelmoqda. Axborot urushlari, diniy va etnik mojarolar, siyosiy nizolar va iqtisodiy beqarorlik kabi masalalar jamiyatlar o‘rtasida katta ijtimoiy sinovlar keltirib chiqarmoqda. Shu nuqtai nazardan, “as-Sihohu-s-sitta”dagi Fitnalar boblari zamonaviy jamiyat uchun muhim yo‘l-yo‘riqdir. Ushbu boblar insonlarni fitnalar davrida qanday yo‘l tutish kerakligi, qaysi axloqiy tamoyillarni saqlash lozimligi haqida ogohlantiradi va aniq ko‘rsatmalar beradi.[11; 120]

Fitna boblaridagi hadislarning ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashdagi ahamiyati beqiyosdir. Ushbu hadislar insonlarni fitnalardan saqlanish, sabr qilish, adolatli bo‘lish, shuningdek, tinchlikni asrashga undaydi. Ayniqsa, jamiyatda turli guruhlar va qatlamlar o‘rtasidagi nizolarni bartaraf qilish, diniy bag‘rikenglikni mustahkamlash va insoniyatning birligini ta‘minlash borasida bu hadislar ulkan ahamiyatga ega. Bag‘rikenglik Islomning muhim tamoyillaridan biri bo‘lib, bu tamoyil Fitnalar boblarida yanada aniqroq yoritiladi. Jamiyatda hurmat, hamjihatlik va o‘zaro

ishonchni mustahkamlash orqali fitnalar oldini olish mumkinligi, Payg‘ambar (s.a.v.)ning hadislari orqali ta‘kidlangan. Shuningdek, hadislarning zamonaviy kontekstdagi ahamiyati ham tahlil qilinadi. Bugungi kun mojarolarini bartaraf etishda, turli diniy va etnik guruhlar o‘rtasida totuvlikni mustahkamlashda Fitnalar bobidagi hadislarning targ‘iboti muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hadislar musulmonlarni bir-biriga nisbatan sabrli va bag‘rikeng bo‘lishga, turli xil qarashlarni tushunishga undaydi.

Mazkur maqolada “as-Sihohu-s-sitta” hadis to‘plamlaridagi Fitnalar boblari chuqur o‘rganilib, ularning musulmon jamiyatidagi ijtimoiy va axloqiy barqarorlikni ta‘minlashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Har bir hadis to‘plamidagi Fitna boblarining o‘ziga xos jihatlari, u yerdagi hadislarning mazmuni va ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, mazkur boblar orqali berilgan asosiy o‘gitlar – sabr, adolat, iymonni mustahkamlash va fitnalardan saqlanish yo‘llari haqida atroflicha so‘z yuritiladi. Ushbu maqola, fitna mavzusini yanada kengroq o‘rganish va uni zamonaviy hayotda tatbiq etish uchun ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

“As-Sihohu-s-sitta” ya‘ni 6 mashhur to‘plamlarda fitnalar bo‘yicha hadislar keltirilgan. Bu hadislar ushbu to‘plamlarning “Fitnalar kitobi” yoki “Fitnalar bobi” qismida keltirilgan. Ushbu to‘plamlardagi hadislar o‘zaro to‘plam ichida va kitoblar ichida ham takrorlanganligini uchratish mumkin.[1; 34]

“Sahihul Buxoriy” asarida fitnaga oid hadislar “Fitnalar bobi”da keltirilgan. Bobda jami 78 ta ba‘zi takrorlar hisobiga ba‘zi manbalarda 80 ta hadis keltirilgan.

حدثنا أبو اليمان ، أخبرنا شعيب ، عن الزهري ، أخبرني
أبو سلمة بن عبد الرحمن ، أن أبا هريرة قال : قال رسول الله -
صلى الله عليه وسلم - : « ستكون فتن ، القاعد فيها خير من القائم
، والقائم خير من الماشي ، والماشي فيها خير من الساعي ، من
تشرف لها تستشرفه ، فمن وجد ملجأ أو معاذا فليذهب به »

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam shunday dedilar: Hali fitnalar bo‘ladi, unda o‘tirgan turgandan yaxshidir, turgan yurgandan yaxshidir, yurgan yugurgandan yaxshidir. Kim unga bosh

suqsa, uni falokatga olib boradi. Kim undan qochishga boshpana yoki panch topisa, o'sha yerda panalansin"

Imom Buxoriy keltirgan ushbu hadisda fitna davrining kirib kelishi va uning jamiyatdagi o'rni haqida ogohlantirish berilgan. Hadisda shunday paytlar kelishini aytgan, ya'ni fitnalar sodir bo'lganida, musulmonlarga bu fitnaga qo'shilmaslik tavsiya qilinadi. Shunday qilib, bu hadis musulmonlarga tinchlikni saqlash va fitnalarga aralashmaslik kerakligini ko'rsatadi. Fitna jamiyatni parchalashga, diniy va siyosiy uyg'unlikni yo'qotishga olib kelishi mumkin.[6; 433]

Bugungi kunda ham, ayniqsa, ijtimoiy media orqali tarqalgan soxta xabarlar va diniy ekstremizm, fitna sifatida qaraladi. Shuning uchun musulmonlar bu hadisni amalda qo'llashlari zarur – ya'ni fitnadan saqlanish, tinchlikni saqlash uchun bunday ijtimoiy nizolardan chetda turish.

Imom Muslim - "Sahih Muslim"dagi Fitnaga oid hadislar soni 98 tani tashkil qiladi. Bu hadislar orasida ham takrorlar mavjud.

عن أسامة بن زيد رضي الله عنهما قال: أشرف النبي صلى الله عليه وسلم على أطم من أطام المدينة فقال: ((هل ترون ما أرى؟))، قالوا: لا، قال: ((فإني لأرى الفتن تقع خلال بيوتكم كوقع القطر))؛ متفق عليه

"Usoma Ibn Zayddan rivoyat qilinadi : Bir kuni rasululloh (s.a.v) Madinaning baland tepaligidan turib "Men ko'rayotgan narsalarni ko'ryabsizlarmi" dedilar. Shunda sahobalar "yo'q" deb javob berdilar. Rasululloh (s.a.v) : "Albatta men fitnani uylaringiz ustiga tomchilab tushayotganini ko'rdim" dedilar "[4; 667]

Imom Abu Dovud - "Sunan Abu Dovud"dagi Fitnaga oid hadislar boshqalariga nisbatan ko'proq ya'ni 600 dan ortiq. Lekin bu yerda nafaqat fitnaga oid hadislar, balki unga ishoralar ham zikr qilingan.

Imom Abu Dovudning bu hadisida fitnaning ko'plab qiyinchiliklarga olib kelishi va o'zaro yomon tushunishlarni yaratishi haqida so'z yuritilgan. Fitna davrida yolg'on va haqiqatni ajratish qiyinlashadi, chunki ijtimoiy ommaviy axborot vositalarida noto'g'ri ma'lumotlar tez tarqaladi. Shuning uchun hadis musulmonlarga fitnadan uzoq turish va diniy hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashni tavsiya qiladi. Bu,

ayniqsa, hozirgi zamonda diniy va ijtimoiy barqarorlikni saqlash uchun juda muhimdir.

Bu hadislar jamiyatda diniy bag'rikenglikni rivojlantirish va tinchlikni saqlashda asosiy rol o'ynaydi. Fitna paytida, musulmonlar bir-biriga hurmat bilan yondashib, barcha to'qmoqlar va diniy tafovutlarni e'tiborga olmasliklari lozim. Diniy bag'rikenglik nafaqat musulmonlar orasida, balki boshqa din vakillari bilan ham tinch va murosali munosabatlar o'rnatishga yordam beradi. Tinchlikni ta'minlash, o'zaro hurmat va bag'rikenglik jamiyatni yuksaltiradi va fitnalar sababli yuzaga kelgan ziddiyatlarni bartaraf etadi.

Imom Termiziy - "Sunan at-Termiziy"dagi Fitnaga oid hadislar 79 ta bobga bo'lingan bo'lib undagi hadislar soni 127 tani tashkil qiladi. Bu hadislar fitnalar davrida odamlarga sabr va o'zini tuta olish tavsiya qilinadi. Shunday vaziyatlarda tinchlik va murosani saqlash juda muhim. Hadis musulmonlarni fitnalardan uzoq turishga, tinchlikni saqlashga va adolatli yo'ldan chetlanmaslikka undaydi. Fitnaga aralashmaslik orqali inson o'z ruhiy va jismoniy osoyishtaligini saqlashi mumkin. Hadis musulmonlarni fitnalar paytida ijobiy rol o'ynashga chaqiradi. Fitnalarni ko'paytirish yoki kengaytirish o'rniga, ularni bartaraf etishga intilish kerak. Hadisning zamonaviy ahamiyati, ayniqsa, diniy va madaniy ziddiyatlar mavjud bo'lgan jamiyatlarda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga alohida urg'u beradi.[8; 233]

Imom Nasoiy - "Sunan an-Nasoiy"dagi Fitnaga oid hadislar ma'lum bir "Fitnalar" deb nomlangan bob yoki bo'limda o'rin olmagan. Ya'ni bu kitobda shunday bob yo'q. Lekin shunday bo'lsada boshqa boblarda fitnaga oid hadislarini uchratish mumkin. Hadislarida mo'minlarni o'zaro nizolarga kirishmaslikka chaqiradi, chunki bu har ikkala tarafga ham zarar keltiradi.[3; 443] Fitnalar musulmonlar o'rtasidagi iymoniy va ruhiy bog'liqlikni zaiflashtirishi mumkin. Ushbu hadisdan kelib chiqadigan xulosa shuki, fitnalar jamiyatdagi barcha qatlamlar o'rtasida ziddiyatlarni kuchaytiradi, shuning uchun undan chetda turish muhimdir. Fitnalar paytida sabr va bardoshning ahamiyati katta, chunki bu fazilatlar insonni har qanday noxush oqibatlardan himoya qiladi. Ushbu hadis bugungi jamiyatda diniy va madaniy mojarolarni hal qilishda tinchlik va bag'rikenglikni saqlashga yordam beradi.

Imom Ibn Moja - “Sunan Ibn Moja”dagi Fitnaga oid hadislar soni 177 tani tashkil qiladi. Bu son boshqa sharhlarda takrorlanishi bilan o‘zgarishi mumkin.

حدثنا العباس بن عثمان الدمشقي، حدثنا الوليد بن مسلم، حدثنا معان بن رفاعة السلمي، حدثني أبو خلف الأعمى، قال سمعت أنس بن مالك، يقول سمعت رسول الله - ﷺ - يقول « إن أمتي لن تجتمع على ضلالة فإذا رأيتم اختلافًا فعليكم بالسواد الأعظم »

Anas Ibn Molikdan eshitdim. U kishi aytadilarki : Men rasululloh (s.a.v)dan eshitdim. U kishi shunday dedilar : “Ummatim zalolat ustida jamlanmaydi. Agar biror narsada ixtilof ko‘rsangizlar Savodul a‘zamni lozim tutinglar”.

Hadisdagi “savodul a‘zam” so‘zini ko‘p ulamolar “kata jamoat” deya ta’riflaganlar. Bu hadis, fitna davrida so‘zning ahamiyatiga urg‘u beradi. Ko‘p hollarda noto‘g‘ri yoki noto‘liq ma’lumot fitnani kuchaytiradi, shuning uchun so‘zlashdan oldin o‘ylab ko‘rish muhim. Hadis musulmonlarni fitna paytida ehtiyotkorlikka va o‘z so‘zlarini nazorat qilishga chaqiradi. Jamiyatdagi fitnalarni kamaytirishda har bir inson o‘z so‘zining mas’uliyatini his qilishi kerak. Imom Ibn Mojaning ushbu hadisi zamonaviy jamiyatda ijtimoiy uyg‘unlikni mustahkamlash va diniy bag‘rikenglikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida keltirilgan hadislar, fitnalardan saqlanish va ularni bartaraf etish orqali diniy bag‘rikenglik va jamiyatda tinchlikni saqlashning naqadar muhimligini ko‘rsatadi. Fitnalar jamiyatni zaiflashtirishi va diniy hamkorlikni buzishi mumkin. Biroq, ushbu hadislar musulmonlarni fitnalarni kamaytirish, tinchlik va barqarorlikni ta’minlash uchun birgalikda ishlashga undaydi. Tinchlik va bag‘rikenglikni saqlash jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun asosiy shartlardan biridir.

MUHOAKAMA

Hadis ilmi, xususan, “as-Sihohu-s-sitta” to‘plamlaridagi Fitna boblari, musulmonlar jamiyatida tinchlik, barqarorlik va iymonni saqlashda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Fitna, ijtimoiy nizolar, qiyinchiliklar va xatoliklar davrida

nimalarga e’tibor qaratish zarurligi haqida ko‘plab hadislar mavjud. Hadislar musulmonlarni o‘z diniy va ijtimoiy hayotida to‘g‘ri yo‘nalishda harakat qilishga chaqiradi.

Fitna haqida gapirganda, u faqat diniy yoki siyosiy voqealar bilan bog‘liq bo‘lmaydi, balki ijtimoiy, axloqiy va iqtisodiy tafovutlar ham fitnaga olib kelishi mumkin. Buning natijasida musulmonlar o‘rtasida ishonchsizlik, adolatsizlik, ba’zan esa urushlar va qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Hadislar fitnalardan qochish va ularning oldini olish uchun musulmonlarga sabr, bag‘rikenglik va iymonning kuchini saqlashni tavsiya qiladi.

Imom Buxoriy, Imom Muslim, Abu Dovud, Termiziy, Nasoiy va Ibn Moja kabi mashhur hadis muqaddaslari, fitna va ijtimoiy nizolar haqida aniq va ta’sirchan yo‘l-yo‘riqlarni beradi. Ular fitna davrida o‘z diniy qarashlaridan voz kechmaslik, adolatni saqlash va boshqa musulmonlarga zarar yetkazmaslikni ta’kidlaydilar. Bu hadislar shaxsiy sabr va bag‘rikenglikni mustahkamlashga yordam beradi, shuningdek, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Imom Termiziyning “fitna davrida sabr qilish ibodatga tengdir” degan fikri, ayniqsa, muhimdir. [9; 90] Sabrli bo‘lish, faqat shaxsiy hayotda emas, balki ijtimoiy hayotda ham zaruriyatdir. Fitna davrida, insonlar ko‘pincha bir-biriga qarshi chiqishadi, ijtimoiy tizimni qo‘porishga urinishadi. Bu vaqtda sabr, har bir musulmon uchun muhim axloqiy fazilatga aylanadi. Hadislar, shuningdek, fitna paytida, adolatli rahbarlar va ijtimoiy liderlarning roli juda katta ekanini ta’kidlaydi.

Hadislarning ko‘pchiligi fitnalarning kelib chiqishini, ularning zararli oqibatlarini va bu oqibatlardan qanday qochish lozimligini ochib beradi. Hadislarning mazmunida fitna va jamiyatdagi ijtimoiy adolatning o‘rtasidagi aloqani ham tushuntiradi. Fitnadan qochish, asosan, jamiyatda to‘g‘ri va adolatli munosabatlar o‘rnatishga qaratilgan. Imom Nasoiyning “fitna davrida sabr qilgan kishi uchun katta mukofot bor” degan so‘zlari, insonlarni tinchlikni saqlashga va fitnalar oldini olishga undaydi.

Imom Muslimning hadislarida ham fitna, iymon sinovlari va uning kutilmagan oqibatlari haqida so‘z yuritilgan. Imom Muslimning “Sahih”ida, masalan, janjallar va fitnalardan

saqlanish, hatto ular kuchaygan paytda ham sabr qilish va tinchlikni saqlash zarurligi haqida hadislar mavjud. Fitna sodir bo'lganda, u bilan to'g'ridan-to'g'ri shug'ullanishdan ko'ra, tinchlik va murosaga intilishning ahamiyati ko'rsatiladi.

Fitna boblaridagi hadislarining asosiy maqsadi – musulmonlarni fitnalarning salbiy oqibatlaridan ogohlantirish va ulardan chiqish yo'llarini ko'rsatishdir. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) fitna yuzaga kelganda, sabrli bo'lish, ortiqcha so'zlardan tiyilish, ziddiyatlarga aralashmaslik va faqatgina haqiqatga ergashishni tavsiya qilganlar.

Adolatni saqlash va sabr qilish – Fitna paytida adolatdan chetga chiqmaslik, sabrli bo'lish va murosaga intilish musulmonlar uchun muhim qadriyatlardir.

Jamiyatdagi tartib va barqarorlikni saqlash – Fitnalar boblari ziddiyatlarni bartaraf etish, jamiyatda totuvlikni mustahkamlash va o'zaro hurmatni targ'ib qilishga chaqiradi.

Fitna boblaridagi hadislar ijtimoiy barqarorlikni saqlashda muhim yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. Jamiyatda yuzaga keladigan mojarolarni oldini olish, adolat va tinchlikni ta'minlash borasida bu hadislarining o'rni katta. Fitna boblari musulmonlarni:

Ijtimoiy hurmat va bag'rikenglikni rivojlantirishga – Turli guruhlar va shaxslar o'rtasidagi hurmatni mustahkamlash orqali nizolarning oldini olishga chaqiradi.

Adolatni saqlashga – Jamiyatda adolat va haqqoniyatni ta'minlash orqali fitna manbalarini bartaraf etishga xizmat qiladi.

Tinchlikni asrashga – Fitnalar bobidagi ko'rsatmalar musulmonlarni janjal va nizolardan uzoq yurishga undaydi.

Fitnalarning zamonaviy jamiyatdagi ko'rinishlari va ularni bartaraf etish yo'llari. Zamonaviy dunyoda fitna tushunchasi yangi shakl va mazmun kasb etgan. Axborot urushlari, diniy ekstremizm, etnik mojarolar va iqtisodiy tangliklar hozirgi jamiyatdagi asosiy fitna shakllaridan hisoblanadi. Bu muammolarni hal etishda hadislarining ko'rsatmalariga amal qilish juda muhimdir.

Hadislar zamonaviy fitnalar bilan kurashishda quyidagi yo'llarni tavsiya qiladi:

Axborotlar manbalarini tekshirish – Soxta xabarlar va noto'g'ri ma'lumotlar fitnaning asosiy

manbalaridan biri bo'lishi mumkin. Hadislar musulmonlarni har bir axborotni sinchkovlik bilan tekshirishga undaydi.

Diniy bag'rikenglikni rivojlantirish – Turli e'tiqod va millat vakillariga hurmat bilan yondashish, ular bilan tinch-totuv yashash uchun sharoit yaratish hadislarining asosiy tavsiyalaridan biridir.

Adolat va haqqoniyatga intilish – Fitna paytida adolat va haqiqatni saqlash, insonlarning haq-huquqlarini hurmat qilish musulmonlarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Fitnalar boblaridagi hadislar zamonaviy jamiyatda adolat, barqarorlik va ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hadislarining targ'iboti nafaqat musulmonlar o'rtasida, balki turli xalqlar va millatlar o'rtasidagi tinch-totuvlikni mustahkamlash uchun ham zarurdir.

Bundan tashqari, hadislar orqali musulmonlarga ijtimoiy hayotda haqiqatni himoya qilish, nohaqlikka qarshi turish, zulmni bartaraf etish va adolatni saqlash kerakligi ham o'rgatiladi. Fitna davrida iymonini saqlash, sabr qilish va haqni gapirish mas'uliyatini o'z zimmlariga olishga chaqirish, musulmonlarning axloqiy yuksalishini ta'minlashga yordam beradi.

NATIJA

Fitna boblaridagi hadislar jamiyatda ijtimoiy tinchlikni saqlash, adolatni ta'minlash va iymonli bo'lishda musulmonlarning yo'l-yo'riq ko'rsatuvchisidir. Ushbu hadislar, fitnalardan saqlanish, jamiyatda hurmat va sabrni saqlash hamda barqarorlikni o'rnatishda juda katta ahamiyatga ega. Hadislar yordamida musulmonlar, o'zlarini fitna davrida qanday tutish kerakligini, qanday qilib iymonlarini mustahkamlashni va sabrni ko'rsatishni o'rganadilar.[9; 322]

Imom Buxoriy va boshqa hadis olimlari, fitna haqida keltirgan hadislarini aniq, yengil va ko'plab amaliy maslahatlar bilan tushuntirib, ulamolarga fitna davrida qanday yo'l tutish kerakligini ta'kidlaganlar. Hadislarining o'rganilishi, musulmonlarning diniy hayotida muhim bir qadamdir. Fitna vaqtida ibodat va diniy amallarni o'rganish, sabr va iymonning mustahkamligini ta'minlashda xizmat qiladi. Ushbu hadislarining

sharhlari jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va fitna oldini olishda o'zining beqiyos ahamiyatini ko'rsatadi. Hadislar ijtimoiy hayotdagi noxush holatlarni tuzatish va musulmonlarni bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo'lishga chaqiradi. Fitnalardan saqlanish va haqiqatni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy adolatni o'rnatish va tinchlikni saqlashda hadislarining o'rni kattadir.

XULOSA

“As-Sihohu-s-sitta”dagi Fitna boblari, musulmonlarni fitnalardan qochishga, jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlashga, sabr va bag'rikenglikni ko'rsatishga chaqiradi. Hadislar iymonli va axloqli hayot tarzini shakllantirishda, sabrni mustahkamlashda va jamiyatni fitnalardan himoya qilishda eng samarali yo'l-yo'riqdir. Har bir hadis, fitna davrida qanday tutum olish, qanday harakat qilish kerakligi haqida aniq va aniq yo'l-yo'riqlarni beradi.

Ushbu hadislar, musulmonlarga fitna davrida o'zini qanday tutish, qanday qilib dunyo va oxiratda muvaffaqiyatga erishish bo'yicha keng qamrovli maslahatlar beradi. Hadislar, shuningdek, tinchlikni saqlash, adolatni qo'llab-quvvatlash va jamiyatdagi nizolarni hal qilishda qanday yo'l tutish zarurligini ko'rsatadi. Fitnalarga qarshi kurashish, musulmonlar uchun nafaqat diniy, balki axloqiy mas'uliyatdir.

Natijada, “as-Sihohu-s-sitta”dagi Fitna boblari musulmonlarga haqiqatni saqlash, sabr qilish va tinchlikni saqlashni o'rgatadi. Bu hadislar, nafaqat diniy, balki ijtimoiy hayotda ham asosiy yo'l-yo'riqlarni taklif qiladi. Fitna davrida diniy axloqni saqlash, sabr qilish va ijtimoiy tizimda barqarorlikni ta'minlash hadislarining asosiy xabaridir.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Sahih al-Buxoriy: J II. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 432 b.
2. Ming bir hadis. 2 jildli / arabchadan Abdulaziz Mansur tarjimasi. T.: O'zbek maskani, 1991.
3. Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Abdulloh Hokim Naysoburiy. Al-Mustadrak a'la as-sahihayn. – Bayrut: Risolatul olamiya, 2018. 2-jild.
4. Imom Ahmad. Musnad. – Bayrut: Muassasatur risola, 2001. 21-jild. 13487-hadis.
5. Abul Valid Muhammad Ahmad ibn Rushd al-Qurtubiy al-Molikiy. Al-Muqaddamot al-Mumahhidot. – Bayrut-Lubnon: Dor al-g'arb al-islomiy. 1988.
6. Ahmad ibn Hanbal. Musnad al-Imam Ahmad ibn Hanbal. – Riyoz: Maktaba dor as-salom, 2013.
7. Al-Mavsua al-fiqhiya. Vizorat al-avqof va-sh-shuun al-islomiya. – J: 16. – Kuvayt: Taboat zot as-salom, 1989.
8. Ibn Manzur al-Ansoriy al-Xazrajiy. Lison al-arab. – Qohira: Dor al-maorif, 1119.
9. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Iymon. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2021.
10. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 1-juz. Tuzatilgan va to'ldirilgan qayta nashr. – Toshkent: Hilol Nashr, 2023.
11. Ziyodov Sh. Islom dinida tinchlik. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, 2023.

АКМАЛОВ Шанслам,

Международная исламская академия Узбекистана,
кандидат политических наук, доцент
shaislamakmalov@gmail.com

ОСОБЕННОСТИ ИСЛАМСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПОСТСОВЕТСКОЙ РОССИИ

POSTSOVET ROSSIYADA ISLOM TA'LIMI XUSUSIYATLARI

FEATURES OF ISLAMIC EDUCATION IN POST-SOVIET RUSSIA

Аннотация. В статье рассматриваются отдельные аспекты процессов становления и трансформации исламского образования в России, начавшихся с распадом Советского Союза и последовавшим за ним ренессансом в религиозной жизни этой страны. Анализируются изменения в системе обеспечения религиозного образования, произошедшие под влиянием современных тенденций и общественных вызовов этой стране.

Ключевые слова: ренессанс в религиозной жизни, исламское образование, социокультурные особенности, система обеспечения религиозного образования, межэтнический и межконфессиональный мир, кадровый потенциал мусульманских институтов.

Annotatsiya. Maqolada Sovet Ittifoqi parchalanishi va undan keyingi davrda Rossiyada diniy hayotdagi uyg'onish bilan taalluqli ravishda islom ta'limining shakllanishi va rivojlanishi jarayonlarining ayrim jihatlari ko'rib chiqiladi. Bu mamlakatning diniy ta'lim tizimidagi zamonaviy tendentsiyalar va ijtimoiy muammolar ta'sirida yuz bergan o'zgarishlar tahlil qilinadi.

Tayanch so'zlar: diniy hayotdagi uyg'onish davri, islom ta'limi, ijtimoiy-madaniy xususiyatlar, diniy ta'limni ta'minlash tizimi, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik, musulmon institutlarining kadrlar salohiyati.

Abstracts: The article examines some aspects of the processes of formation and transformation of Islamic education in Russia, which began with the collapse of the Soviet Union and the subsequent renaissance in the religious life of this country. Changes in the system of providing religious education that occurred under the influence of modern trends and social challenges in this country are analyzed.

Keywords: renaissance in religious life, Islamic education, socio-cultural characteristics, system of providing religious education, interethnic and interfaith peace, human resources potential of Muslim institutions.

Введение:

Повышение роли религии и усиление её места среди российских мусульман на рубеже XX-XXI вв. актуализировали проблему мусульманского образования в России. Поскольку российский высший политический истеблишмент в новых геополитических условиях осознал необходимость сохранения межэтнического и межконфессионального мира как гаранта обеспечения безопасности и сохранения стабильности в стране, в чем не последняя роль принадлежала наличию и эффективному функционированию качественной системы религиозного-мусульманского образования, удовлетворяющей потребностям верующих и общества.

Реалиями сегодняшнего дня является то, что, хотя в последние годы сложилась стабильная и относительно качественная система исламского образования в России, всё-таки остаются актуальными вопросы ее дальнейшего совершенствования, наряду с потребностями внутреннего порядка, с учетом глобализационных процессов и необходимости выработки и дальнейшего совершенствования единых образовательных стандартов в общегосударственном масштабе.

Основная часть

Процесс возрождения религиозной жизни в России неминуемо находит свое отражение и в образовательном пространстве. Примечательно, что идеи о включении религии в образовательную систему начали обсуждаться еще в самый последний период существования Советского Союза - в конце 1980-х гг. При этом религиозное возрождение начала 90-х гг. XX в. в России актуализировало вопрос, до этого не представлявший интереса для обществоведения, неотъемлемой частью которого является и религиозное образование. Имеется в виду не только широко обсуждаемая тема введения преподавания религиозных основ в средней школе, но и вопросы, связанные с получением профессионального религиозного образования. При этом как немаловажный фактор, имеющий

непосредственное отношение к проблемам обеспечения общественной безопасности и стабильности в России, состоял в том, что люди, которые избрали для себя религиозную деятельность как профессиональное занятие, будут принимать самое непосредственное участие в формировании новых духовно-нравственных основ российского общества и приобщении его к религиозным ценностям [1]

Примечательно, что МИД РФ, основываясь на данные Минюста России на 1 января 2000 года, сообщил о том, что в стране было зарегистрировано 3048 мусульманских организаций, что составляет 18% от всех зарегистрированных в стране религиозных организаций. В ходе происходящего возрождения российского ислама за последние 10 лет (т.е. к началу 2000-х годов – Ш.А.) построено 2884 новых мечетей, открыты исламские университеты, медресе, коранические школы. Сотни российских верующих проходят обучение за рубежом (в Египте, Саудовской Аравии, Сирии, Ливии, Иордании). Предпринимаются попытки возрождения исламской системы образования и отечественной теологической школы ислама [2].

Однако путь к достижению соответствующего уровня формирования исламского образования в РФ был нелегким. Предлагались разные подходы к периодизации процесса институционализации исламского образования в России. Например, М. Муртазин, ректор Московского исламского университета в 1999–2012 гг., выделяет три этапа возрождения и становления современного религиозного образования в мусульманских постсоветских странах и в России. Первый этап – 1990–1995 гг.; «период бурного подъема, инициированного не только самими мусульманскими священнослужителями, но и многими светскими активистами». Второй этап – 1995–2000 гг.; формирование «простейших форм исламского образования». Третий – с начала 2000-х гг.; «закрепление форм исламских учебных заведений, которые стремились соответствовать статусу высших учебных заведений».

Следует также отметить, что в 2005 г. был создан Совет по исламскому образованию при Совете муфтиев России, а в апреле 2006 г. его главой, упомянутым выше М. Муртазиным,

была разработана первая Концепция развития исламского образования в России. На данном этапе основная цель была сформулирована следующим образом: «выстроить целостную систему обучения мусульман основам Ислама и подготовки специалистов среднего и высшего религиозного персонала» [3]. Это отражало реальную внутреннюю политику, осуществляемой в религиозной сфере, которая принимала в расчет негативный опыт 1990-х гг. «неконтролируемого исламского возрождения», в том числе отрицательно сказавшемся и на исламском образовании, а также негативную оценку иностранного исламского образования в России как способствующего радикализации настроений российских мусульман. Красной нитью такой линии была убежденность в том, что современное исламское образование должно формироваться и развиваться в поликультурном обществе, каковым является и российское общество. Это определило курс руководства РФ, считавшего, что задачами образования выступают не только передача знаний и обучение профессиональным навыкам людей, но и формирование их духовного мира, развитие личностных качеств, в чем особая роль отводилась и исламскому образованию.

Следует особо отметить, что высшее руководство России обращает постоянное внимание вопросам религиозного-исламского образования в стране. Так, в 2013 году Президент РФ Владимир Путин на встрече с муфтиями духовных управлений мусульман России, которая проходила в Уфе, призвал восстановить собственную исламскую богословскую школу, акцентируя внимание на том, что «для успешного противостояния вызовам современности необходимо в первую очередь обеспечить высокий авторитет отечественного мусульманского духовенства и российской исламской богословской школы». Вопросы формирования целостной системы религиозного образования и развития отечественной богословской школы обсудил Глава российского государства и 24 января 2018 года на встрече с духовными лидерами централизованных организаций мусульман России, подчеркнув при этом, что традиционный ислам является важнейшей частью российского культурного кода, а «мусульманская умма – важная часть российского многонационального народа». По словам Президента, правительство

продолжит поддержку исламского образования в стране через крупные государственные вузы [4].

Так, по состоянию на ноябрь 2019 г., по данным Министерства юстиции России в стране зарегистрировано около 100 мусульманских учебных заведений, из них 16 – высшие учебные заведения, остальные относятся к уровню среднего и среднего профессионального образования. Подавляющее число мусульманских учебных заведений сосредоточено на Северном Кавказе – в Чечне и Дагестане.

Особенностью успешного развития системы исламского образования в России, его взаимодействия со светским устройством государственности является социокультурные черты, которые выражаются интегративными взаимоотношениями двух систем: исламского (религиозного) и светского образования. Исторические основания их современного взаимодействия основываются на многолетнем опыте проживания на совместной территории народов и общин с различными вероисповеданиями, что способствовало формированию поликультурного общества в России. Консолидация усилий исламских образовательных организаций и государственных светских структур, наряду с другими факторами, обусловлена необходимостью доведения до различных этно-конфессиональных групп достоверной информации об исламской культуре и ее наследии, выполнения задач противодействия экстремистской идеологии, которая и по настоящее время представляет определенные вызовы суверенитету и безопасности Российской Федерации.

Несмотря на скептические подходы некоторых зарубежных и российских специалистов к процессам секуляризации в РФ, религия в жизни россиян, особенно последователей религии ислам, в последующий исторический период стала играть заметную роль. При том, что она практически с конца XX века неизменно увеличивает своё присутствие в сфере образования. Эта реальность прежде всего связана, в первую очередь, с введением предмета «Основы религиозных культур и светской этики» в систему современного образования, отношением мусульманского духовенства к новому курсу и особенностями мусульманской

культурной трансформации в условиях введения новой учебной дисциплины. В этой связи представляется оправданным отметить, что религиозным конфессиям в современной России, и не менее важный элемент исламской религии, удалось достичь определенного уровня взаимодействия и взаимного доверия с образовательным пространством страны.

Заключение

Повышение внимания к исламскому образованию в России связано с теми геополитическими переменами и глобализационными процессами, которые происходят в современном мире в последние десятилетия и обуславливают необходимость рассматривать перспективы его развития с позиций многополярности и с учетом меняющейся в нем роли мусульманских стран, пытающихся занять сегодня устойчивое положение в системе международных отношений и предложить альтернативу западной модели цивилизационного развития. Не вызывает сомнений и то, что в этом контексте влияние мусульманского образования на развитие общественно-политических процессов в России и в дальнейшем будет носить постоянный характер, испытывая постоянное влияние так называемого «исламского фактора».

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Патеев Р. Ф. Политические аспекты мусульманского образования в России: история и современность // <http://www.dslib.net/polit-instituty/politicheskie-aspekty-musulmanskogo-obrazovanija-v-rossii-istorija-i-sovremennost.html>. 2006.
2. О МУСУЛЬМАНСКОЙ ОБЩИНЕ РОССИИ (СПРАВОЧНАЯ ИНФОРМАЦИЯ) // https://www.mid.ru/ru/foreign_policy/humanitarian_cooperation/1674288/. 25.10.2002.
3. Рагозина С. Между противодействием экстремизму и обеспечением духовной безопасности: некоторые проблемы исламского образования // https://russiancouncil.ru/analytics-and-comments/analytics/mezhdu-protivodeystviem-ekstremizmu-i-obespecheniem-dukhovnoy-bezopasnosti-nekotorye-problemy-islams/?sphrase_id=169383078. 2019.
4. Владимир Путин: «Традиционный ислам является важнейшей частью российского культурного кода» // <https://samara.bezformata.com/listnews/vladimir-putin-tradicionnij-islam/64376559/>. 24.01.2018.

SATTAROV Timur Sobirovich,
Tashkent State University of Oriental Studies
Senior Lecturer, Department of Pedagogy and
Psychology,
p.sattarov1978@gmail.com

СИСТЕМА НАУЧНЫХ ПОНЯТИЙ, ОПРЕДЕЛЯЮЩИХ ЭТАПЫ, СТРУКТУРУ И СОДЕРЖАНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СОЦИАЛИЗАЦИИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ

SYSTEM OF SCIENTIFIC CONCEPTS DETERMINING THE STAGES, STRUCTURE AND CONTENT OF POLITICAL SOCIALIZATION OF STUDENT YOUTH

TALABA YOSHLARNING SIYOSIY IJTIMOYILASHUV BOSQINCHILARI, TUZILISHI VA MAZMUNINI BELGILOVCHI ILMIY TUSHUNCHALAR TIZIMI

Аннотация. В статье рассматривается система научных понятий, определяющих этапы, структуру и содержание политической социализации студентов. Особое внимание уделено анализу ключевых этапов политической социализации: первичной социализации, связанной с усвоением базовых политических понятий, ценностей и норм, а также вторичной социализации, характеризующейся развитием критического мышления, личностных политических позиций и способности к осознанному участию в политических процессах.

Ключевые слова: политическая социализация, студенты, гражданская позиция, политическая грамотность, социальные институты, когнитивные процессы, дезинформация

Abstract. The article examines the system of scientific concepts that determine the stages, structure and content of students' political socialization. Particular attention is paid to the analysis of the key stages of political socialization: primary socialization associated with the acquisition of basic political concepts, values and norms, as well as secondary

socialization, characterized by the development of critical thinking, personal political positions and the ability to consciously participate in political processes.

Keywords: political socialization, students, civic position, political literacy, social institutions, cognitive processes, disinformation.

Annotaciya. Maqolada talabalarning siyosiy ijtimoylashuvi bosqichlari, tuzilishi va mazmunini belgilaydigan ilmiy tushunchalar tizimi ko'rib chiqiladi. Siyosiy sotsializatsiyaning asosiy bosqichlarini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratiladi: asosiy siyosiy tushunchalar, qadriyatlar va me'yorlarni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan birlamchi sotsializatsiya, shuningdek, tanqidiy fikrlash, shaxsiy siyosiy pozitsiyalarni rivojlantirish bilan tavsiflangan ikkilamchi sotsializatsiya. va siyosiy jarayonlarda ongli ravishda ishtirok etish qobiliyati.

Kalit so'zlar: siyosiy sotsializatsiya, talabalar, fuqarolik, siyosiy savodxonlik, ijtimoiy institutlar, kognitiv jarayonlar, dezinformatsiya.

ВВЕДЕНИЕ

В нашей работе социализация понимается и рассматривается как процесс, посредством которого люди приобретают опыт, усваивают суть культуры, в которой они родились, и осваивают установки, соответствующие их социальным ролям. Социализация дает людям не только возможность общаться между собой посредством освоенных ролей, но и обеспечивает сохранение общества в ходе смены поколений, прививая новым членам общества общепринятые идеалы, ценности, образцы поведения. Социализация личности - это двусторонний процесс усвоения индивидом социального опыта того общества, к которому он принадлежит, с одной стороны, и активного воспроизводства и наращивания систем социальных связей и отношений, в которых он развивается, - с другой. Человек не только воспринимает социальный опыт и овладевает им, но и активно преобразует его в собственные ценности, установки, позиции, ориентации, в собственное видение общественных отношений. При этом личность субъективно включается в разнообразные социальные связи, в исполнение различных ролевых функций, тем самым преобразуя окружающий ее социальный мир и себя саму.

МЕТОДЫ

Социальный опыт складывается из множества составляющих, среди которых выделяются две основные:

- а) *нормы, правила, ценности, отношения и т.п. социальной среды;*
- б) *культура труда производственной и других видов деятельности.*

В таком случае становление и развитие личности как процесс овладения индивидом социальным опытом и его приумножения в своем развитии может быть представлен двумя условными этапами. Первый этап состоит в формировании и закреплении основных социальных и психологических ценностей человека: трудовых, нравственных, эстетических, политических, правовых, экологических, семейно-бытовых и др. Это этап общей социализации личности. Второй этап осуществляется как процесс овладения человеком той или иной профессией, специальностью. Это этап профессиональной социализации личности. Оба этапа взаимосвязаны и дополняют друг друга.

В современной социологии и политической психологии проблемы социализации личности были исследованы рядом ученых. Опираясь на работы этих авторов, можно выделить несколько концептуальных подходов к анализу политической социализации. В **психоаналитическом подходе** акцент делается на верховенстве биологического над социальным, раскрепощении бессознательной мотивации (традиции фрейдизма). В **антропологическом подходе** социализация понимается как инкультурация - передача культурного наследия, отражающего национальный характер. В соответствии с **традицией функционализма**, социализация — ролевая тренировка, адаптирование индивида к готовым шаблонам поведения, передача от поколения к поколению целей и образцов поведения. От **бихевиористской (поведенческой) традиции** в социологии развивается взгляд на социализацию как на обучение навыкам при соответствующих поощрениях-наказаниях. **Когнитивная (познавательная) модель социализации** представляет, что на человека менее всего влияют разные факторы и социализирующие

агенты. Обществу нужны мыслящие личности, способные усваивать и передавать информацию. Научение сводится к развитию познавательных способностей человека, его моральных и эмоциональных качеств. Процесс социализации — это постепенное вызревание личности. В постбихевиористских концепциях главный упор делается на идею господства - подчинения, столкновения интересов, незыблемость неравенства и элитарности.

Социально-психологический подход к исследованиям социализации во многом аналогичен подходу культурной антропологии, представители которой изучают национальные особенности социализации путем сравнения (кросс-культурные исследования). Важное место отводится роли родителей, возрастным статусам, обычаям и обрядам, т. е. тем агентам и механизмам социализации, которые формируют этническую идентичность народа. Она, в свою очередь, связана с политической идентичностью через вхождение национальных ценностей в гражданскую идентичность.

ОБСУЖДЕНИЕ

Факторы формирования личности и особенности действий и поступков личности в обществе позволяют составить ее социально-психологическую характеристику, т.е. описать всю полноту ее содержания и показать специфику взаимовлияния индивидуальных и социальных ее качеств, проявляющуюся в процессе общения, взаимодействия и взаимоотношений с людьми [8:178]. Социально-психологическая сторона личности выявляет ее основные качества и характеристики, позволяющие играть определенные роли в обществе, занимать определенное положение среди других людей [3:117]. Входящие в нее отношения к другим людям представляют собой совокупность проявлений индивидуально- и социально-психологических качеств личности, отражающих типичное поведение в общении и взаимодействии с другими людьми [6:180]. Социальные роли личности — типичные способы поведения личности, обусловливаемые индивидуально- и социально-психологическими особенностями, позволяющими завоевывать определенный авторитет и доверие со стороны других людей

[12:545]. Социальные позиции личности – взгляды, убеждения и представления личности, реализуемые и отстаиваемые ею в отношениях с другими людьми [1:4]. Социальные установки личности – настроенность на определенное отношение к обществу и к другим людям [7:13].

Наряду с общей социализацией происходит и политическая социализация индивидов, становление их гражданской и политической идентичности [9:214]. Процессы политической социализации имеют особо важное значение в современном демократическом обществе, в котором права и свободы человека, его включенность в политику являются одним из краеугольных камней политической системы и гражданского общества [11:557].

Политическая социализация есть процесс усвоения индивидом политической культуры общества, его политических ценностей, норм, традиций, моделей политического поведения [12:545]. Благодаря процессу политической социализации обеспечивается воспроизводство политической системы общества, усвоение политических ролей, интеграция индивидов в политику [4:55]. Функция политической социализации состоит в том, чтобы обеспечить непрерывность функционирования и развития политической системы на основе преемственности поколений [13:221]. Политическая социализация не только обеспечивает непрерывную вертикальную связь поколений, что является предпосылкой непрерывного функционирования политической системы, но, кроме этого, она придает горизонтальную устойчивость обществу, и это выражается в его гармонизации, сплоченности и гражданском мире [6:180]. Итак, политическая социализация — это процесс постоянного обучения, в ходе которого индивид осваивает культуру и приспосабливается к обществу, которое для него (индивида) является жизненной средой [3:117].

Процессы политической социализации личности происходят как на индивидуальном, так и на надиндивидуальном уровнях [10:460]. В социально-психологических теориях в основном акцент делается на индивидуально-личностный аспект политической социализации, в социологических теориях – на надиндивидуальный [1:4]. На уровне

массовой социализации, рассматриваемой в социологическом аспекте, ключевыми для понимания результатов социализации становятся не только яркие исторические и политические события, но и латентные социально-экономические и политические процессы, свойственные определенному историческому периоду [2:48].

В качестве важнейшего агента политической социализации на уровне массового процесса выступает элита, как политическая, так и интеллектуальная [5:163]. В качестве «значимого другого» место отдельного лица скорее всего займет либо она же, либо идеологическая доктрина, либо общественно-политическое устройство других стран как образец для подражания [7:13].

В западной политической социологии на основе эмпирических исследований, проводившихся в США и других странах, как правило, выделяются три важнейших этапа политической социализации [9:430].

Первый — в возрасте от 3-5 до 12-13 лет — характеризуется тем, что первоначально ребенок идентифицирует себя с родителями, которые принимаются за образец, являются примером для подражания. В возрасте 7-13 лет ребенок начинает понимать и воспринимать более абстрактные (безличностные) политические символы [9:430]. В этом возрастном промежутке увеличивается политическая информированность [1:4]. Важное место на первом этапе социализации личности принадлежит семье. Свой вклад в политическую социализацию вносят школа, система образования в целом, церковь, государство, политические партии и общественные движения. В современном обществе существуют специальные системы политической социализации — политическое воспитание и политическое образование, поддерживаемые, т.е. финансируемые государством, ориентированные прежде всего на молодежь.

На личностном уровне политическая социализация осуществляется в малых и больших социальных группах, в которые включен индивид. Процессы политической социализации нередко описывают в терминах социальной психологии: заражение,

внушение, подражание, идентификация. На внутриличностном уровне механизмами политической социализации выступают мотивы, ценности, ценностные ориентации, установки [10:460].

Наиболее прочные ценности, нормы и политические предпочтения приобретаются под воздействием преобладающих в семье настроений [9:430]. Семья оказывает сильное влияние на формирование базовых политических ориентаций у детей [10:460]. В зарубежной научной литературе она рассматривается как ключевой агент, через который политическая культура передается от одного поколения к другому [12:545]. Вместе с тем отмечается и то, что социализирующая и политизирующая роль семьи во многом зависит и от того, насколько активно в процессе политической социализации участвуют другие институты и организации общества [13:221]. Семья как социализирующий фактор выступает в качестве закрепляющей, но не всегда иницирующей структуры политической социализации [3:117]. Она передает политические установки, которые могут уже не соответствовать изменившимся обстоятельствам, мешают правильной ориентировке в текущий момент [2:48]. Политическая социализация, осуществляемая семьей, имеет те недостатки, что не всегда учитывает изменения политических ориентаций со сменой поколений, которые часто соответствуют и смене политических вех развития, а также политических представлений по мере социально-политического становления личности [5:163].

На втором этапе – в возрасте от 13 до 18 лет – формируется политическое «Я». Эмоциональные чувства по отношению к политическим институтам, символам, властям дополняются знанием специфических ролей и функций, которые выполняют те или иные институты [12:545]. Он еще называется подростковым этапом социализации и характеризуется тем, что разрозненная и отрывочная политическая информация начинает складываться в определенную систему, где уже есть место не только отдельным моментам политической жизни или отдельным общественным фигурам [1]. Обычно в этом возрасте в процессе обучения

в школе и в ходе общения в семье у подростка формируется представление о политической жизни, о структуре власти, о целях общества и государства [9:430]. В эти годы подростки, по крайней мере, наиболее продвинутые в своем развитии, имеют представление об общей политической ситуации в стране [10:460]. В их сознании находят отражение важнейшие события, происходящие в обществе [7:13]. И наконец, в этом возрасте могут реализоваться первые попытки приобщения к деятельности общественных организаций, в том числе имеющих и политическую ориентацию [3:117].

Третий этап начинается с 18 лет и отличается тем, что человек вступает в такие же отношения с миром политики, как и старшие по возрасту люди [2:48]. 18 лет считаются во многих обществах рубежом, с которого начинается полноправное участие человека в политической жизни [11:557]. К этому периоду происходит не только его гражданское становление, но он приобретает все права и обязанности, которые вытекают из его положения как политического человека [13:221]. Предполагается, что именно к совершеннолетию у человека складывается его мировоззрение, с которым он вступает в жизнь и которым он собирается руководствоваться в будущем [8:178]. К этому периоду у большинства молодых людей отчетливо проявляются политические симпатии или антипатии [4:55], а для некоторой части молодежи участие в политических процессах становится одним из важных компонентов их взрослой жизни [5:163]. Иначе говоря, к этому времени человек становится полноправным субъектом политического пространства [6:180]. Являясь структурным элементом класса и нации, человек в то же время в зависимости от конкретных обстоятельств самостоятельно «включается» в политическую деятельность, олицетворяет ту или иную степень воплощения политических отношений общества.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Завершая, стоит отметить, что, начиная с раннего детства, политическая социализация продолжается всю сознательную жизнь, поскольку раз приобретенные представления, ориентации, установки не остаются навсегда неизменными; они могут корректироваться,

меняться и в зрелом, и даже в преклонном возрасте. В этой связи следует обратить внимание на то, что в возрасте около 45 лет у человека происходит изменение поведенческой стратегии. Он переходит от инновационного к адаптивному поведению. Человек и даже целые социальные группы в процессе своей жизни могут менять свои политические ориентации и соответственно изменять формы, виды и направленность своей политической деятельности. Особенно часто это происходит при изменении политического строя, режима и состава основных политических участников в стране, гражданами которой они являются.

Содержание и особенности политической социализации зависят от многих факторов: а) макросреды - эпохи, международных отношений, государства, нации; б) мезосреды - социальной принадлежности к определенной группе населения, политической культуры, средств массовой информации и т.п.; в) микросреды - институционализированных и неформальных общностей, школы, семьи, непосредственного окружения; г) индивидуальных особенностей человека и самовоспитания.

ЛИТЕРАТУРА

1. Борисенков А.А. (2007). Политические знания как явление политического сознания // Мир человека. – № 4. – С. 2-6.
2. Василенко И.А. (1997). Политическое время на рубеже культур // Вопросы философии. – № 9. – С. 46-57.
3. Ивин А.А. (2004). Философия. Энциклопедический словарь. – М.: Гардарики. – 1072 с.
4. Ильин М.В. (1996). Хронополитическое измерение за пределами повседневности и истории // Полис. Политические исследования. – № 1. – С. 55-57.
5. Ильин М.В. (2001). Сравнительная политология: научная компаративистика в системе политического знания // Полис. Политические исследования. – № 4. – С. 162-175.
6. Лупандин В.Н., Титова Е.В. (2017). Национальное самосознание: проблема примирения идей // Среднерусский вестник общественных наук. – Т.12. – №5. – С.179-187.
7. Митрошенков О.А. (2002). Мир политического: проблемы научного постижения // Личность. Культура. Общество. – Том 4. – № 1–2 (11–12). – С. 11–33.
8. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. (1997). Толковый словарь русского языка. – М.: Изд-во «Азбуковик», – 898 с.
9. Осипов Г.В. (2000). Социологический энциклопедический словарь. – М.: Инфра – М. Норма, – 488 с.
10. Поливаева Н.П. (2009). Политическое сознание в условиях трансформации российского общества: дис..я д-ра полит. наук. – М.: РГСУ, – 462 с.
11. Политика. (2001). Толковый словарь. Под общей ред. И.М. Осадчей. – М.: Инфра–М, – 768 с.
12. Политологический словарь. (1994). В 2 ч. Ч. 2. – М.: Луч, – 646 с.
13. Салмин А.М. (1998). Политическое развитие России и актуальные проблемы политологии // Полис. Политические исследования. – № 3. – С. 220-223.

АБДУПАТТАЕВ Мумин Мирзо Муроджон ўғли
Ўзбекистон халқаро ислом академияси
катта ўқитувчиси, PhD
mirzo21@mail.ru

XI-XII АСРЛАР МУСУЛМОН ОЛИМЛАРИНИНГ ҚИЁСИЙ ДИНШУНОСЛИККА ОИД ИЛМИЙ МЕРОСЛАРИ

SCIENTIFIC HERITAGE OF MUSLIM SCIENTISTS IN THE XI- XII CENTURIES IN COMPARATIVE RELIGIOUS SCIENCE

НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ МУСУЛЬМАНСКИХ УЧЕНЫХ XI-XII вв. В СРАВНИТЕЛЬНОМ РЕЛИГИОЗНОМ НАУКЕ

Аннотация. Динлар тарихи, улар билан боғлиқ жараёнлар, диннинг инсон ҳаётининг турли жабҳалари билан ўзаро таъсирини ўрганадиган фан «Динишунослик» деб аталади. Динишунослик ҳам барча ижтимоий фанлар каби ўз тадқиқот объектига эга. У диннинг пайдо бўлиши, ижтимоий аҳамияти ва жамиятдаги ролини ўрганиш билан бирга диний эътиқодларнинг пайдо бўлиши ва ривожланишини, жамият тараққиётидаги эволюциясини илмий жиҳатдан ўрганади. Ушбу мақолада XI-XII асрларда мусулмон дунёсида яшаган алломаларнинг илоҳиёт, динишуносликка оид асарлари ҳақида маълумотлар берилган. Мақолада Беруний ва Ибн Ҳазмдан аввал ҳам бу соҳада китоб ёзган олимлар ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: динишунослик, Абу Райҳон Беруний, Ибн Ҳазм, ислом, христианлик, яҳудийлик, собийлик

Annotation. The academic discipline that studies the history of religions, associated processes, and the interaction of religion with various aspects of human life is called "Religious Studies". Like all social sciences, Religious Studies has its own object of study. In addition to examining the origin, social significance, and role of religion in society, it scientifically investigates the emergence and development of religious beliefs and their evolution throughout societal development. This article provides information about the works related to theology and religious studies by scholars who lived in the Muslim world during the 11th-12th centuries. The article also discusses scholars who authored books in this field even before al-Biruni and Ibn Hazm.

Key words: religious studies, Abu Rayhan Biruni, Ibn Hazm, islam, Christianity, judaizm, sabianizm

Аннотация. Наука, изучающая историю религий, связанные с ними процессы и взаимодействие религии с различными сферами жизни человека, называется «Религиоведение». Религиоведение, как и все общественные науки, имеет свой объект исследования. Наряду с изучением происхождения религии, её социальной значимости и роли в обществе, оно с научной точки зрения изучает возникновение и развитие религиозных верований, их эволюцию в процессе развития общества. В данной статье представлена информация о трудах по богословию и религиоведению ученых, живших в мусульманском мире в XI-XII веках. В статье также идет речь об ученых, которые писали труды в этой области еще до Беруни и Ибн Хазма.

Ключевые слова: религиоведение, Абу Райхан Бируни, Ибн Хазм, ислам, христианство, иудаизм, сабианство

КИРИШ

“Қиёсий диншунослик” – дунё динларининг таълимотлари, эътиқодлари, феноменлари, умуминсоний муносабатлари ва қонуниятларини қиёслаб ўрганадиган фан ҳисобланади” [8: 133]. Қиёсий диншунослик фанига расман 1870 йилда Макс Мюллер томонидан асос солинган бўлса-да, бу фан ва унинг кўринишлари узоқ ўтмишга эга.

Мусулмон олимларнинг динларни ўрганиш бўйича тадқиқотлари узоқ тарихга бориб такалади. VII-VIII асрларда турли фиркалар ўртасидаги диний тортишув (мунозара) ларни ўз ичига олган “мақолот”лар ёзилган. “Мақолот”ларда баъзи фиркалар, исломдан бошқа эътиқодларнинг қарашлари ислом ақидаси билан қиёсланади ва қаттиқ танкид қилинади” [6: 29-30]. Дастлабки “мақолот” туридаги асарлар асосан шиалик эътиқодидаги инсонлар томонидан ёзилган ва улар “асҳоб ал-мақолот” деб номланган.

Бироқ вақт ўтиши билан аҳли сунна уламолари ҳам “мақолот” жанрида асарлар ёзишган. Шундай асарлардан энг машҳурлари Имом Мотуридийнинг “Мақолот” ва Имом Ашъарийнинг “Мақолот ал-исломийин ва ихтилаф ал-мусоллийн” номли асарлари ҳисобланади.

724-759 йилларда яшаган форс миллатига мансуб бўлган ислом тарихчиси Абдуллох ибн Мукоффа қадимги хинд, қадимги форс динлари

ва асотирларини илк марта араб тилига таржима қилган. Ибн Муқоффа томонидан таржима қилинган асарлардан яна бири, пахлавий тилида ёзилган, маздакийлик асосчиси Маздакнинг ҳаётига бағишланган “Маздакнома” китоби бўлиб, бу таржима бугунги кунга қадар етиб келмаган [2: 169]. Шунингдек, ҳиндларнинг “Калила ва Димна”сини ҳам араб тилига таржима қилган. Ибн Муқоффанинг ушбу таржимаси ҳиндлар эпосининг лотин, славян, иврит, француз, италян ва немис тилига қилинган таржималарида асос бўлиб хизмат қилган [21: 2].

АСОСИЙ ҚИСМ

IX-X асрларда ҳам мусулмон олимлар томонидан қиёсий диншуносликка оид кўплаб асарлар таълиф этилди. Аммо, бу асарларнинг аксарияти ҳозирги даврга қадар етиб келмаган. Муҳаммад ибн Ҳузайлнинг (ваф. 840) “Китоб ал-мажус ва китоб ас-санавия” (“Мажусийлик ва кўпхудолилик китоби”) [19: 265-267], Абул Аббос Сарахсийнинг (ваф. 899) “Рисола фи васф мазоҳиб ас-собиин” (“Собиийларнинг мазҳаблари васфи ҳақида рисола”) [22: 54], Абу Зайд Балхӣининг (ваф. 934) “Китоб шароъи ал-адён” (“Динлар шариатлари китоби”) [17: 198-199], Ибн Надимнинг (ваф. 995) “ал-Китаб ал-муқаддас ʻинда-л-муслимин ва-л-яхуд ва-л-масиҳийин” (“Мусулмонлар, яҳудийлар ва насронийлар наздида муқаддас китоб”), “ал-Асотир ва-л-ҳикаят ва-с-сихр” (“Афсоналар, ҳикоялар ва сеҳр”), “Мақолот ʻан ғойри мувахҳидин амсали ал-ҳиндус, ва-л-бузийин ва-с-синийин ва-л-алманийин” (“Ҳиндлар, буддавийлар, хитойликлар ва олмонлар тўғрисида мақолалар”), Мусаббихийнинг (ваф. 1029) “Дарк ал-буғят фи васф ад-диёнот ва-л-ибадат” (“Динлар ва эътиқодлар васфида мақсад меъёри”) [19: 377-378] номли китоблари йўқолган ёки бошқа сабаблар билан бугунгача етиб келмаган. Бу асарлар тўғрисида “тарожим”, “маноқиб”, “табақот” ва “тазкира” манбаларида маълумотлар берилган.

Шунингдек, шиъа эътиқодига мансуб олим Ҳасан ибн Мусо Навбахтийнинг (ваф. 910) “ал-Ароъ ва-д-диёнот” (“Фикрлар ва динлар”) китоби ҳам динлар тарихига оид муҳим асарлардан ҳисобланган. Бу асар ҳам етиб келмаган. Олимнинг замондошлари бу китоб тўғрисида ижобий фикрларни билдирганлар.

Жумладан, Араб тарихчиси ва сайёҳи Аҳмад ибн Али Наҷоший ўзининг “Рижол ан-Наҷоший” (“Наҷошийнинг ҳадис ровийлари”) асарида: “Шайхимизнинг кўп китоблари бор. Улар орасида “Фикрлар ва динлар” китоби ажралиб туради. У кўп илмларни ўзида жамлаган яхши китоб. Мен уни шайхим Абу Абдуллоҳ қўлида ўқиб чиққанман”– дейди [10: 63].

“Араб Геродоти” номини олган тарихчи Абул Ҳасан Али Масъудийнинг (ваф. 957) асарлари ҳам турли халқлар эътиқодлари ва таълимотлари тўғрисида маълумотлар жамланган муҳим манбалардан ҳисобланади.

932 йилда Миср яҳудийларидан бўлган Саид Фаюмий Таврот ва Талмудни араб тилига таржима қилган [25: 23-24].

Тоҳир Макдисий (ваф. 966)нинг “ал-Бад ва-т-тарих” (“Ибтидо ва тарих”) китобида қадимги хитой, ҳинд, турк, форс динлари, шунингдек, яҳудийлик, насронийлик ва собиийлик тўғрисида қимматли маълумотлар берилган.

XI-XII асрлар мусулмон дунёсида динлар тарихини ўрганиш, турли таълимотлар, эътиқодларни ўрганиш борасида бир қатор ишлар амалга оширилган. Бу давр мобайнида Абу Райхон Беруний (973-1048), Абу Муҳаммад Али Ибн Ҳазм (994-1064), Абул Маолий Муҳаммад ибн Убайдуллоҳ (ваф. 1092) ва Муҳаммад ибн Абдулкарим Шаҳристоний (ваф. 1153) каби олимлар динларни ўрганиш бўйича фаолият олиб борган.

Шарқда қиёсий диншунослик асосчиси сифатида эътироф этиладиган Абу Райхон Берунийнинг “ал-Осор ал-боқия ʻани-л-қурун ал-ҳолия” (“Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар”), “Китаб фи таҳқиқ ма ли-л-ҳинд мин мақулатин, мақбулатин фи-л-ақл ав марзулатин” (“Ҳиндларнинг ақлга сиғадиган ва сиғмайдиган таълимотларини аниқлаш китоби”), “Қонуни Масъудий” ва “ат-Тафҳим лиаваили синаат ат-танжим” (“Мунажжимлик санъатидан бошланғич тушунчалар”) номли асарларида динлар тарихи, маросимлари, эътиқодлари, байрамлари тўғрисида кенг маълумотлар берилган.

Олимнинг биринчи асари “Осор ал-боқия” 1000 йилда ёзилган. Берунийнинг ҳаёти ва ижоди Хоразм ҳамда Ғазна даврларига бўлинади. Бу асар Хоразм даврида ёзилган. Асар 928-1042 йилларда Каспий денгизининг жанубий-шарқидаги Журжон ва Тобаристонда ҳукмронлик қилган “Зиёрийлар” сулоласидан

бўлган Қобус ибн Вашмгирга (978-981, 998-1012) атаб ёзилган.

Аллома ушбу асарида ўз давригача маълум бўлган, турли халқларнинг тақвимларини тўплаган. Бу тақвимларнинг пайдо бўлиш сабаблари, турли тақвимларнинг ой ва саналаридаги фарқлар, байрам, маросим, ибодат ўтказиладиган кунларни аниқлаш каби масалалар асарнинг асосини ташкил этади. Инсонларнинг яратилиши, тўфон, исломгача бўлган араб тарихи ва Хоразм тўғрисида асарнинг муқаддима қисмида баён қилинган. Шунингдек, асарнинг катта қисми Ўрта Осиё насронийларининг тарихи, диний ур-одатлари ва анъаналарига бағишланган. Бундан ташқари яҳудийлар тақвими, Параклит (Фуроқлит), Зулқарнайн, Яжуж ва Мајуж, соҳта пайғамбарлар ҳамда турли минтақаларда яшовчи инсонлар тўғрисида қимматли маълумотлар берилган.

Асарнинг ёзилиш сабаби ҳақида алломанинг ўзи шундай дейди: “Олимлардан бири мендан халқлар, уларнинг тақвимларининг бошланиши, яъни ойлар ва йиллар устида ихтилофлар ҳамда бу ихтилофларнинг сабаблари, машхур байрамлари, турли ишлар учун белгиланган кунлар, миллатларнинг баъзиси амал қилиб, баъзилари амал қилмайдиган маросимлар ҳақида сўради. Мени имкон борица уларни жуда равшан баён этиб, ўқигувчи фаҳмлайдиган, турли китобларни топиб, бу китобларга нисбатан тушунмовчилик қолмайдиган бир асар ёзишга даъват этди” [11: 4].

Беруний бу асарни ёзишда, бу ишнинг осон эмаслигини, қадимги халқлар, уларнинг эътиқодлари, маросимлари, йил ҳисоблари ҳақидаги ривоятлар чалкашиб кетгани, ёлғон ва асоссиз маълумотлар кўп эканини таъкидлайди. Бу асоссиз маълумотларни қабул этмаслик учун “...у ривоятларнинг давримизга энг яқин ва энг машхурини, сўнгра яқинроқ ҳамда машхурроғини кетма-кет ўрганишимиз лозим. Уларни ўз арбобларидан қабул қилиб, тузатиш мумкин бўлганини тузатамиз, бошқаларини ўз ҳолича қолдирамиз. Шунда биз келтирган ривоятлар ҳақиқатни қидирувчиларга ва ҳикматни севувчиларга ёрдамчи, бизга эса муяссар бўлмаган нарсаларга эришишимиз учун йўловчи бўлади” [11: 5], – дейди.

Олим асарни ёзишда фойдаланган манбаларга танқидий ёндашган. Совет тарихчи-археолог Сергей Павлович Толстов 1957 йилда

Михаил Александрович Салъе томонидан асарнинг рус тилига қилинган таржимаси кириш қисмида Берунийнинг танқидлари хусусида шундай дейди: “Берунийнинг манбаларни қабул қилишдаги ҳаққонийлиги кўплаб тарихий китобларнинг йўқолиб кетганига сабаб бўлган бўлиши мумкин” [14: 15].

Асарнинг илк арабча таҳқиқи 1878 йилда немис шарқшунос олими Эдуард Заҳау томонидан “Берунийдан шарқ халқларининг хронологияси” (“Chronologie orientalischer Völker von Albērūnī”) номи билан амалга оширилган. Ушбу таҳқиқ Лейпцигда нашр қилинган. 1923 йилда иккинчи марта нашр қилинган. Асар 1879 йилда Э.Заҳау томонидан “Қадимги халқлар хронологияси” (“The Chronology of Ancient Nations”) номи билан инглиз тилига таржима қилинган. Француз тилига 1903 йилда Р.Гриво томонидан, форс тилига 1903 йилда Али Қули Мирзо томонидан, рус тилига 1957 йилда В.Р. Розен томонидан, ўзбек тилига 1968 йилда А.Расулов томонидан таржима қилинган.

Алломанинг динлар тарихига, хусусан ҳинд эътиқодлари ва таълимотларига бағишланган иккинчи китоби “Ҳиндистон” асаридир. 1017 йилда Хоразмни босиб олган Маҳмуд Ғазнавий 1002-1028 йиллар оралиғида Шимолий Ҳиндистонга 17 марта ҳарбий юришлар уюштирган. Беруний шу ҳарбий юришлардан бирида Маҳмуд Ғазнавийга ҳамроҳлик қилган. Асар таҳминан 1017-1030 йиллар оралиғида ёзилган.

“Берунийнинг “Ҳиндистон”и қадимги ва ўрта аср Ғарб ва Шарқ адабиётида мисли кўрилмаган ёдгорлик”, – деб, асарга баҳо беради арабшунос олим В.Р. Розен [14: 147].

Жорж Сартон бу асар ҳақида, “У “Ҳиндистон” асарини (“Тарих ал-Ҳинд”) 1030 йилда Ғазнада ёзиб тугатди. Асар Браҳман Ҳиндистонининг тавсифи ва аҳолисининг турмуш шароитини ўрганишга бағишланган. Беруний ҳинд фалсафасига, айниқса Бҳагаватгитага мафтун эди. У жуда кўп санскрит тилидаги китобларни, мусулмонлар ҳиндлар тўғрисида маълумотларга эга бўлишлари учун арабчага таржима қилган” [5: 707].

Олим Ҳиндистон ҳақида гапирар экан, ҳар бир ҳиндларга хос бўлган нарсаларни баён қилишда жуда эҳтиёткорона муносабатда бўлади. Ўзи дуч келган масалаларга аклий ёндашади. Ҳиндлар учун табиий, бошқалар

учун ғайри табиий бўлган нарсаларга объектив муносабат билдириб, уларни ҳинд миллатининг урф-одатларидан келиб чиққан ҳолда шарҳлайди. “Бу китоб баҳслашиш ва тортишиш китоби эмас. Хусуматчиларнинг хужжатларини келтирмайман, ҳақдан оғишганларга қаршилик билдирмайман. Бу фақатгина баён қилиш китоби ҳолос. Шунинг учун, мен бу китобда ҳиндларнинг сўзларини ўз ҳолича ёзаман”, – дейди, Беруний [11: 15-16].

Асар умумий саксон бобдан иборат бўлиб, ўндан ортик боби ҳиндларнинг Худо, кўринадиган ва кўринмайдиган олам, руҳ-тана муносабатлари, руҳнинг кўчиб юриши (реинкарнация-таносух), жаннат ва дўзах, нажотга эришиш (нирвана), табақаланиш (каста), муқаддас матнлари, бутлари, қурбонлик маросимлари, диний байрамлари тўғрисида маълумотларни ўз ичига олади.

Аллома ҳинд халқининг каста тизими уларнинг диний эътиқодларига ҳам таъсир қилганини айтади. “Юқори табақа билан авом халқнинг эътиқоди бир-биридан фарқ қилади. Юқори табақа ақлий нарсалар устида мушоҳада юритса, авом халқ табиати кўтарган нарсаларни қабул қилиш билан чекланади. Асл-моҳиятни текшириб ўтирмайди, ақл юритмайди. Шунингдек улар таносухга амал қилишади. Уларнинг орасида бунга ишонмайдигани йўқ. Агар бундайлари бўлса, у диндан чиққан бўлади” [11: 27].

Шунингдек, олим томонидан ҳиндларнинг икки китоби ҳинд тилидан араб тилига таржима қилинган. Бу ҳақда Берунийнинг ўзи шундай дейди: “Мен ҳиндларнинг икки китобини араб тилига таржима қилдим. Уларнинг биринчиси, оламнинг бошланиши ва мавжудотнинг тавсифи тўғрисида “Санкхя”, иккинчиси, жонни бадандан қутқариш тўғрисидаги “Патанжали” номи билан аталади. Бу икки китоб ҳинд динларининг ҳукмларини эмас, эътиқодларини баён қилган. Бу китобим эса ҳиндларнинг ҳукм ва эътиқодларини баён қилишда икки китобни ўрнини тўлдиради ва саволларга тўлиқ жавоб беради деб, умид қиламан” [11: 16].

Э.Заҳау асарни 1884 йилда немис тилига, 1888 йилда инглиз тилига таржима қилган. 1958 йилда Ҳайдарободда, 1983 йилда Байрутда замонавий таҳқиқи амалга оширилган. 1965 йилда А.Расулов, Ю.Ҳақимжонов ва Ғ.Жалоловлар томонидан ўзбек тилига таржимаси амалга оширилган.

Олимнинг яна бир асари “Қонуни Масъудий” 1030 йилда ғазнавийлар султони Масъудга атаб ёзилган. Асарда асосан астрономия, астрология, геодезия, метеорология, географияга оид илмлар жамланган. Бу асар 11 бўлим, 135 бобдан иборат.

Шу билан бир қаторда асарда яҳудийлар, насронийлар, мажусийлар ва ҳиндлар яшайдиган шаҳарлар, уларнинг байрам кунлари, диний маросимлари тўғрисида баён қилинади. Насронийлар шаҳарлари баён қилинган ўринларда, Инжил ёзилган жойлар зикр қилинади. “Уни (Инжилни) яшаш жойи ва тиллари турлича бўлган тўрт киши, Фаластинда ибронийчада Матто, Румда (Анадўли) рум (лотин) тилида Маркус, Искандарияда юнончада Луко, Эфесда юнончада Юҳаннолар ёзган. Кейинчалик сўзлар ва маънолар жиҳатидан фарқ қилувчи мазкур тўрт Инжил икки муқовада бирлаштирилиб, уларнинг ҳаммаси бир ном билан Инжил деб номланди” [13: 252].

Берунийнинг яна бир “ат-Тафҳим лиаваили синаат ат-танжим” (“Мунажжимлик санъатидан бошланғич тушунчалар”) асарида эса фақат насронийлик маросимлари зикр қилинган. “Насроний” сўзини аллома қуйидагича тушунтиради: “У (Исо) Байтул Макдис яқинидаги Носиро деган кишлоқда дунёда келган. Унга одамлар доим носиралик Исо деб мурожаат қилишган. Ушбу нисбат туфайли унинг халқи насроний номи билан машхур” [14: 179]. Асар 1029 йилда Ғазнада ёзилган бўлиб, астрологияга оид энг нодир асарлардан ҳисобланади.

Динларни қиёсий ўрганишнинг тамал тошини мусулмон шарқида Беруний қўйган бўлса, ғарбда, яъни Андалусияда бу илмга ибн Ҳазм Андалусий асос солган.

Ибн Ҳазмнинг тўлиқ исми Али ибн Аҳмад ибн Саид ибн Ҳазм ибн Ғолиб ибн Солих ибн Халаф ибн Маъдан ибн Суфён ибн Язид Андалусий Қуртубий бўлиб, 384/994 йилда Пиреней яриморотида, Андалусия шарқида жойлашган Қуртуба шаҳрида таваллуд топган [18: 325-330; 23: 21]. Аксарият манбаларда ибн Ҳазмнинг форс миллатига мансуб бўлгани тилга олинади [24: 111]. Муҳаммад Абу Заҳро: “Ибн Ҳазмнинг оиласи форс миллатидан бўлиб, катта бобоси Язид, Муовия ибн Абу Суфённинг укаси Язиднинг озод қилган қули эди”, – дейди [23: 21].

Бошқа томондан эса, Ибн Ҳазмнинг замондоши бўлган ибн Ҳайён олимнинг форс

эканига шубҳа билан қараган: “Унинг ажойиб жиҳатларидан бири орадан шунча йиллар ўтиб ўзини форс миллатига мансуб эканини айтганидир. Унинг энг яқин аждоди яқиндагина исломни қабул қилган. Отаси Аҳмад ибн Саид Умавийларнинг озод қилган қули экани ҳақидаги сўз тўғри эмас” [16: 170].

Ибн Ҳайёнинг бундай фикрга келишига, ибн Ҳазмнинг “ал-Фисол фи ал-милал ва-л-аҳваи ва-н-ниҳал” (“Миллатлар, оқимлар ва диний таълимотлар ҳақида фасллар”) асарида форсларни танқид қилгани сабаб бўлган бўлиши мумкин. “Шиаликнинг пайдо бўлиб, исломдан ажралиб чиқишига асосий сабаб форслардир. Форслар исломгача жуда кучли ҳокимиятга эга эдилар. Бошқа халқларга таъсир ўтказа олардилар. Улар ўзларини бошқа халқлардан кўра олий деб ҳисоблашар, бошқаларни куллар деб билишарди. Араблар томонидан форслар ҳукмронлиги тугатилгач, улар кўп ёлғонлар билан исломга қарши курашмоқчи бўлдилар” [20: 273].

Заҳабий “Сияр”да ибн Ҳазмни дастлаб моликий, сўнг шофий мазҳабида бўлганини ва кейинчалик зоҳирия мазҳабини қабул қилганини келтиради [26: 186]. Муҳаммад ибн Абу Заҳро эса, алломанинг мужтаҳид бўлганини, шунинг учун унга бир мазҳабни тайин қилиш мумкин эмаслигини таъкидлаган [23: 147].

Ибн Ҳазм ёзган асарлар ҳозирга кунга қадар ўз аҳамиятини йўқотмаган. Олим ўндан зиёд илм-фан соҳасида китоблар таълиф этган. Ибн Ҳазм 26 ёшигача барча исломий илмларни ўрганиб чиққан ва исломдан бошқа динлар: яҳудийлик, христианлик, шунингдек, зардуштийлик, монийлик, маздакийлик, ҳиндуийлик, буддавийлик ва бошқа дин, оқим ва йўналишларни ўргана бошлаган [4].

Олимнинг “ал-Фисол” асари 1020-1040 йиллар оралиғида ёзилган. Асарда куёш ва ойга сиғинувчилар, ҳинд диний-фалсафий таълимотлари, бут-санамларга сиғинувчилар, шунингдек, христианлик ва ислом динларидаги йўналиш ва фирқалар, уларнинг ақида ва таълимотлари ҳақида батафсил маълумот берилган.

Ибн Ҳазм ушбу асарининг ёзилиши тўғрисида шундай дейди: “Инсонларнинг ўз динларида фирқаларга бўлиниб кетиши ҳақида жуда кўплаб мақола, рисола ва китоблар ёзилди. Баъзилар бир неча ўн жилд ва ундан ҳам кўп китоблар ёзиб, динлар ҳақида кўп сўз юритди,

батафсил маълумотлар ёзди. Лекин уларда обектив фикрлар кам бўлиб, жуда кўп хатоларга йўл қўйилган. Уларнинг кўпчилиги фаҳмдан йироқ ва ақлдан айро ҳолда ёзилган. Баъзилар эса, бу борада қисқа ва мухтасар маълумотлар берган. Мен ушбу асаримда исломдаги фирқа ва йўналишлар ҳақида маълумот бериш билан бирга, яҳудийлик ва христианлик таълимотлари, муқаддас манбалари, улардаги фирқа ва йўналишлар, шунингдек, юнон фалсафаси, қадимги динлар, оташпарастлик, куёш ва юлдузларга сиғиниш, зардуштийлик, ҳиндуийлик, буддавийлик, конфуцийлик ҳақида ҳам маълумотлар бериб ўтдим” [20: 35].

“Ал-Фисол” асари 5 та жуздан иборат. Улар қуйидагилар:

Биринчи жузда мухтасар муқаддимадан сўнг муаллиф муҳолиф фирқалар йўлбошчилари ҳақида маълумот берган. Сўнггра, юнон файласуфлари, уларнинг фалсафий қарашларини келтириб, уларнинг адашган жойларига илмий раддиялар келтириб ўтган. Бундан кейин аҳли китоблар, яҳудий ва христианлар, уларнинг фирқалари сони, ақидавий қарашлардаги фарқлари, шунингдек, Таврот ва Инжил ҳақида батафсил маълумотлар келтириб, баҳс юритган. Биринчи жуз таносух мавзусини исломга кўра руҳ ҳақиқатининг батафсил баёни билан тамомланган.

Иккинчи жузда тўрт Инжил, ислом динидаги бўлинишлар тўғрисидаги ҳадислар баёни, тавҳид, қазо ва қадар, илоҳий сифатлар баёни ҳақида сўз юритилган. Ибн Ҳазм Инжил ёки Таврот ҳақида фикр юритганда ақлий қонун қоидалар ва очик-ойдин асосларга суянган. У Инжил ёки Тавротдан матн келтириб, уларни батафсил изоҳлаган.

Учинчи жузда Қуръони карим ва унинг мўжизалари, қазо ва қадар, қобилят, ҳидоят, тавфиқ, Аллоҳнинг бандалар феълларини яратиши, иймон ва куфр, тоат ва маъсият, ваъда ва таъқиб ҳақида сўз юритилган.

Тўртинчи жузда набий ва расуллар, фаришталар, шафоат, мезон, қиёмат куни, шу билан бирга, шиа, мўтазила, муржиа ва хавориж каби оқимлар ҳақида маълумотлар келтирилган.

Бешинчи жузда эса, муаллиф сеҳр, мўжизалар, метафизика, аёлларнинг пайғамбарлиги масаласи, бақо ва фано масалалари, юлдузлар илми, ҳаракат ва сукунат, жисм ва руҳ ҳақида сўз юритилган.

Ибн Ҳазмнинг ушбу асари бу соҳа бўйича ёзилган асарлардан мавзун баён этишда муаллифнинг обективлиги, танқидий ёндашганлиги ва динлар таълимотларини батафсил келтириб ўтганлиги билан ўз аҳамиятига эга. Буни юқорида келтириб ўтилган маълумотлардан ҳам кўриш мумкин.

Ғарб диншунос олимлари Беруний ва ибн Ҳазмни қиёсий диншунослик фанининг асосчилари сифатида эътироф этишади [3: 150]. Ибн Ҳазм Абу Райҳон Беруний билан бир даврда яшаб ижод этган. Улар бир-бирлари билан учрашмаган бўлса-да, икки олим томонидан динларни ўрганиш бўйича олиб борилган изланиш ва тадқиқотлар ўзаро ҳамоҳангдир. Бу икки олим қолдирган асарлар асрлар ўтса-да ўз аҳамиятини йўқотмаган.

Бу даврда динлар тарихига оид асар ёзган олимлардан яна бири эронлик Абул Маолий Муҳаммад ибн Убайдуллоҳ ҳисобланади. Абул Маолийнинг “Баёну ал-адён” асари форс тилида ёзилган. Асар муаллиф ҳаётининг сўнги йилларида, 1092 йилда Хуросонда ёзилган. Асарнинг ҳажми кичик бўлиб, унда исломдан аввалги эътиқодлар ва ислом мазҳаблари ёритилган.

Эронли тарихчи олим Аббос Иқбол “Баёну ал-адён” динлар, мазҳаблар тарихига оид форс тилида ёзилган энг қадимий асардир. Асар форс тилининг энг гўзал ва энг қадимги наъмуналаридан биридир”, – дейди [9: 5].

Абул Маолий ушбу асарни ёзишда Тоҳир Макдисийнинг “ал-Бад ва-т-тарих”, Берунийнинг “Ҳиндистон”, Абул Ҳасан Нишопурий Омирий (ваф. 992)нинг “ал-Амад ʼала-л-абад” (“Чексиз муддат”)¹, Абул Хайр Ҳаммор (ваф. 1048)нинг “Сирот ал-файласуф” (“Файласуф йўли”)² ва Абу Исо Варроқнинг “Мақолот”идан фойдаланганини қайд этган [9: 11].

“Баёну ал-адён” беш қисмдан иборат бўлиб, унинг биринчи қисмида дастлаб инсонларнинг географик минтақаларга бўлиниши классик услубда баён қилинган. Ушбу минтақаларда

яшайдиган халқлар сифатида, форслар, дарийлар (афғон миллати), турклар, юнонлар, ҳабашлар (эфиопияликлар), ҳиндлар ва африкаликларни келтиради. Британиялик исломшунос олим Бернард Льюис олимнинг бу таснифига, “Бу тасниф XI асрда яшаган мусулмонлар олимлар халқларни географик жиҳатдан қандай таснифлаганини билиш учун гоё аҳамиятлидир” [1: 65], – деб, баҳо беради. Шунингдек, биринчи қисмда зардуштийларнинг “Олий илоҳ”и, форслар ва дарийларнинг “Худо”си, юнонлар, қибтийлар ва аҳли китобларнинг турли номлар билан номлаган “Илоҳ”лари ҳамда туркларнинг “Қўк Тангри”си тўғрисида маълумотлар беради. Ҳиндлар ва ҳабашларни маданиятдан узоқ, ёввойи одамлар деб таърифлаб, уларнинг эътиқодларини баён қилади.

Асарнинг иккинчи қисмида, арабларнинг жоҳилият эътиқодлари, юнон фалсафасида илоҳга муносабат, яҳудийлик, христианлик, яҳудийлик, мажусийлик, собийлик ва санавийлик эътиқодлари зикр қилинган.

Яҳудий мазҳабларидан бири бўлган “сомирийлик” ҳақида баҳс қилинган ўринда, уларни Мусо (а.с.) ва Ҳорун (а.с.)ни тан олмасликларини, Таврот ва Забурга қўшимча яна 19 китобни муқаддас деб билишларини келтиради.

“Ота-ўғил-муқаддас рух” шаклида худога ишонувчи христианларни уч гуруҳ: яъқубийлар, несторианлар ва малқоийларга ажратади.

Учинчи қисм, пайғамбар Муҳаммад (с.а.в)нинг “етмиш уч фирқа” тўғрисидаги ҳадисининг изоҳига бағишланган. Абул Маолий етмиш уч фирқани саккизта катта гуруҳларга бўлган. Жумладан, 1. Аҳли сунна ва-л-жамоа. 2. Мўтазила. 3. Шиа. 4. Хорижийлар. 5. Жабария. 6. Мушаббиха. 7. Суфийлик. 8. Муржиа.

Ҳар бир гуруҳ ичидаги фирқаларни санайди ва уларнинг сонини етмиш учтага етказди. Ҳадисдаги нажот топувчи фирқа (“фирқаи ножиа”) – “аҳли сунна” таркибига, ҳанафийлик, доводийлик (зоҳирийлик), шофийлик, моликийлик, ҳанбалийлик ва ашъарийликни киритган. Таркибга мотуридийликнинг киритилмаганининг сабаби, аллома уни ҳанафийлик таркибида зикр қилганидир.

Асарнинг тўртинчи қисми, “аҳли сунна” таркибига кирувчи мазҳаблардан бошланиб, қолган фирқаларнинг эътиқодларига

¹ Форобий ва ибн Синолар даврида Мовароуннаҳр ва Хуросонда машҳур бўлган файласуф Абул Ҳасан Омирийнинг фалсафа ва каломга оид асари. Асарнинг ягона нусхаси “Сулаймония” кутубхонасида № 179/2 тартиб рақами остида сақланади.

² Бағдодлик ҳаким, файласуф, мутакаллим Абул Хайр Ҳасан ибн Ҳамморнинг фалсафа оид асари. Бу асар бизгача етиб келмаган.

бағишланган. Ҳар бир фирқанинг асосчиси, эътиқодлари тўғрисида батафсил тўхтанилган.

Сўнги, бешинчи қисм эса, илоҳлик ва пайғамбарликни даъво қилган Мусайлама, Тулайҳа, Ахтал Дабий, Мухтор Сақай, Баён ибн Самён, Абдуллоҳ ибн Ҳарб, Абу Мансур Кисф, Хойрур Рой, Абу Исо Исфаконий, Муҳаммад Муборкий, Ҳусайн ибн Мансур, Муҳаммад Ироншаҳрий ва Аҳмад Кайёл каби шахслар тўғрисида бўлиб, уларнинг даъволари ҳамда эътиқодларини баён қилган. Шунингдек, илоҳлик даъвосидаги икки шахс Муқанна ва Бобакнинг “руҳий ҳаста” бўлгани, уларнинг ҳаётида содир бўлган кулгули воқеаларни келтирилган.

“Баён ал-адён”нинг илк замонавий нашри 1934 йилда эронлик адабиётчи ва тарихчи Аббос Икбол Аштиёнӣ томонидан амалга оширилган. Аббос Икболнинг таҳқиқида бешинчи қисм мавжуд эмас. Аммо, бошқа бир эронлик тарихчи Муҳаммад Тақий Донишпезух бешинчи қисмни топиб, нашр қилган [7: 33].

ХУЛОСА

XI-XII асрлар мусулмон олимларининг киёсий диншуносликка оид асарларида объективлик ва холислик асосий ўринда турган. Ҳар бир дин, эътиқод тўғрисида фикр юритилганда, уларни камситиш, таълимотларини паст санаш ва раддия бериш каби ҳолатлар учрамайди. Ушбу асарлардаги мана шу жиҳат, XIX асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб Ғарб диншунослик соҳасида изланишлар ва тадқиқотлар олиб борган олимлар учун асос бўлган.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати

- Bernard Lewis. The Muslim Discovery of Europe. – London: Taylor & Francis, Ltd., 1984. – P. 65. (358 p.)
- Edward G. Browne. A Literary History of Persia. From the Earliest Times until Firdawsi. – London: T. F. Unwin, – 548 p.
- E.J. van Donzel. Islamic Desk Reference. – Leiden: Brill Publishers, 1994. – P. 150. (492 p.)
- Encyclopaedia Britannica article on Ibn Hazm // <http://www.muslimphilosophy.com/hazm/ibnhazm.html>
- George Sarton. Introduction to the history of science. – Baltimore: Pub. for the Carnegie Institution of Washington, 1962. – 845 p.
- Guy Mannon. Islam at religions. – Paris: “Maisonnewe et Larose”, 1986. – 307 p.
- Mehmet Aydin. Beyânü'l-edyan // TDV İslâm Ansiklopedisi. C. 6. – Ankara: TDV İslâm Araştırmaları Merkezi, 2016-2022. – S. 33.
- Waardenburg J. Religionen und Religion: Systematische Einführung in die Religionswissenschaft. – Berlin: de Gruyter, 1986. – 277 p.
- Абул Маолий Муҳаммад ибн Убайдуллоҳ. Баён ал-адён. Аббос Икбол таҳқиқи. – Техрон: Интишороти ибн Сино, 1934. – Б. 5.
- Аҳмад ибн Али Наҷоший. Рижол ан-Наҷоший. – Қоҳира: Муассаса ан-нашр ал-исламӣ, 2013. – 496 б.
- Беруний. Осор ал-боқия. – Лейпциг: F.A. Brockhaus, 1878. – 478 б.
- Беруний. “Ат-Тафҳим лиаваили синаат ат-танжим”. – Лондон: Luzac&CO, 1934. Б. 179. (701 б.)
- Беруний. Қонуни Масъудий. – Қоҳира: Амир Ғози Вақфи, 1954. Б. 252. (649 б.)
- Бируни. Избранные произведения. Т. 1. – Ташкент: ЎзФА нашриёти, 1957. – 516 с.
- Розен В.Р. «Записках Восточного Отд. Императорского Археологического Общества». Т. 11. – СПб: Типография Императорской Академии Наук, 1886. – 420 с.
- Ибн Басом. Аз-Зоҳирия фи маҳосин аҳли ал-жазийра. Ж. 1. – Байрут: Дор ал-сақофа, 1997. Б. 170. (576 б.)
- Ибн Надим. Фихрист. – Байрут: Дор ал-маърифат, 2013. – 543 б.
- Ибн Ҳалликон: Вафаёт ал-аён. Ж. 3. – Байрут: Дор ас-содр, 2007. – Б. 325-330. (524 б.)
- Ибн Ҳалликон. Вафаёт ал-аён. Ж. 4. – Байрут: Дор ас-содр, 2007. 490 б.
- Ибн Ҳазм. Ал-Фисол фи милал ва-л-аҳвай ва-н-нихал. Ж. 2. – Байрут: Дор ал-жийл, 1996. – Б. 273. (425 б.)
- Калила ва Димна / тарж. Суйима Ғаниева. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – 260 б.
- Жамолдин Қифтий. Ихбар ал-уламо би-аҳвали ал-ҳуқома. – Қоҳира: Матбаа ас-сада, 2016. – 304 б.
- Муҳаммад Абу Заҳро. Ибн Ҳазм: ҳаятуху, асруху, ароуху ва фикруху. – Қоҳира: Дор ал-фикр ал-арабий, 1978. – Б. 21. (544 б.)
- Муҳаммад ибн Футуҳ Ҳумайдий. Жазавот ал-муктабис фи тарихи уламау-л-Андалус. – Тунис: Дор ал-ғарб ал-исламӣ, 2008. Б. 111. (720 б.);
- Тоҳа Ҳошимий. Тарих ал-адён ва фалсафатиха. – Байрут: Дор ал-мактаба ва-л-ҳая, 1963. – Б. 23-24. (367 б.)
- Заҳабий. Сияру аълам ан-нубало. Ж. 18. – Байрут: Муассаса ар-рисала, 1996. – Б. 186. (690 б.)

SAFAYEVA Soliha

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik fakulteti Dinshunoslik
yo'nalishi talabasi*

*Ilmiy rahbar: ALIMOVA Mahfuza
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
tarix fanlari nomzodi, dotsent*

SHAHRISTONIYNING “AL-MILAL VA-N-NIHAL” ASARI MUQADDIMALARINING XUSUSIYATLARI

ОСОБЕННОСТИ ПРЕДИСЛОВИЙ ПРОИЗВЕДЕНИЯ ШАХРИСТАНИ “АЛЬ-МИЛАЛ ВА-Н-НИХАЛ”

CHARACTERISTICS OF THE PREFACES OF SHAHRISTANI'S WORK “AL-MILAL VA-N-NIHAL”

Annotatsiya: Ushbu maqolada dinlar tarixini o'rganish va ularni tasniflashda o'ziga xos yondashuv yaratgan Abul Fath Shahrisoniy “al-Milal va-n-nihal” asari muqaddimalarining o'ziga xos jihatlari o'rganilgan. Asar muqaddimalarida keltirilgan uslublarning dinlarni tasniflashdagi ahamiyati, ularning ilmiy obyektivlikka asoslanganligi tahlil qilingan. Bundan tashqari, maqoladan muallifning qisqa tarjimai holi va ilmiy merosi haqidagi ba'zi ma'lumotlar ham joy olgan.

Tayanch so'zlar: Abul Fath Shahrisoniy, “al-Milal va-n-nihal”, muqaddimalar, dinlar va mazhablar tasnifi.

Аннотация: В данной статье исследуются особые аспекты предисловий к труду Абуль-Фатха аш-Шахрастани «аль-Милал ва-н-нихал», который разработал уникальный подход к изучению истории религий и их классификации. Анализируется значение методов, представленных во введениях к этому труду, для классификации религий, а также их основанность на научной объективности. Кроме того, в статье содержатся некоторые сведения о краткой биографии автора и его научном наследии.

Ключевые слова: Абул Фатх Шахристани, «аль-Милал ва-н-нихал», введения, классификация религий и сект.

Annotation: The article examines the most important parts of the prefaces of the work “al-Milal wa-n-nihal” by Abul Fath Shahrisoniy, a unique creation in the study and classification of the history of religions. The significance of the styles in the prefaces of the work in the classification of religions and their scientific objectivity is analyzed. In addition, the article contains a short biography of the author and some information about his scientific heritage.

Key words: Abul Fath Shahrisoniy, “al-Milal wa-n-nihal”, prefaces, classification of religions and sects.

KIRISH

Dunyoning konfessional manzarasiidagi o'zgarishlar fonida yoshlarni zararli g'oyalarga bilan ta'sirlantirishga urinish, dinlarning ta'limotlari, muqaddas manbalari va marosimlarining asl mazmun-mohiyati bilan bog'liq bo'lgan millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikka zid tushunchalarni singdirishga qaratilgan harakatlar avj olmoqda. Bu xususda Prezident Shavkat Mirziyoyevning: “Buyuk ajdodlarimiz bo'lgan islom olamining mutafakkirlari asarlarini, ularning butunjahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan bebaho hissasini chuqur o'rganish, teran anglash va keng ommalashtirish alohida ahamiyatga egadir.”[4:5], - degan so'zlari muhim ahamiyatga ega. Haqiqatdan ham, o'zining ulkan merosi bilan dunyo ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo'shgan olimlarning asarlarini o'rganish, ulardagi muhim tushuncha va ma'nolarning asl mohiyatini anglash yo'lida harakat qilish bunday zararli g'oyalarga qarshi “immunitet” hosil qilishda muhim o'rin tutadi.

ASOSIY QISM

X-XI asrlarda yashab ijod qilgan, o'zining beqiyos ilmiy asarlaridagi chuqur mulohazalari, o'ziga xos uslubi bilan nom qoldirgan Shahrisoniyning “al-Milal va-n-nihal” asari dunyo dinlarining kelib chiqish tarixi, asl mohiyati, ulardagi bag'rikenglik va insoniylik tamoyillarini tushinishda ulkan ahamiyat kasb etadi. Xususan, asarning “Muqaddimalar”ining o'ziga xosliklarini tahlil qilish orqali hali ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan tarixiy haqiqatlarni anglash, bu orqali esa, bugungi kunda dinlarni o'rganish sohasidagi eng muhim savollarga javob topish mumkin.

Abulfath Muhammad ibn Abdulkarim ibn Ahmad Shahrisoniy islom olamining kalom ilmi, dinlar tarixi, din falsafasi sohalari bo'yicha yetuk olimlaridan biri bo'lib, 1076-yili Naysobur va Xorazm shaharlarining orasida joylashgan Shahrisonda dunyoga keldi. 1117-yili Bag'dodga ilm uchun borib, 3 yil davomida yetuk ustozlardan ilm oldi. Abul Qosim Ansoriydan tafsir, kalom, islom falsafasi va “ilm al-jadal” (bahs-munozara ilmi) dan dars olgan Shahrisoniy o'zidan yigirmaga yaqin asar meros qoldirdi. Ulardan “Nihoyat al-iqdom fi ilm al-kalom”, “al-Irshod ila a'qoid al-i'bod”, “Tafsir suroti Yusuf bi-uslub falsafiy”,

“Talxis al-aqsom li mazohibil-anaam”, “Musoraat al-falosifa”, “Mafotih al-asror va masobih al-abror” va “al-Milal va-n-nihal” nomli 7 tasi bizgacha yetib kelgan. Tarixchi Yoqut Hamaviy o‘zining “Mu’jam ul-udabo” asarida Shahrisoniy haqida shunday deydi: “U ilohiyotchi faylasuf, tasniflar muallifi, yaxshi fazilatlar va komil aql egasi edi. Uning e’tiqodidagi ba’zi chalkashliklar va faylasuflarni qarashlarini qo‘llab-quvvatlashda mubolag‘alari bo‘lmaganida imom bo‘lgan bo‘lardi.” [7:213]

“Toj ad-din” (“Dinning toji”) nomi bilan atalgan Shahrisoniyning “al-Milal va-n-nihal” asari dunyo dinlarining ta’limotlari va firqalari haqida ma’lumot beruvchi doksografik asar bo‘lib, o‘rta asrlarda dinshunoslik bo‘yicha ta’lif qilingan bebaho manba hisoblanadi. Sidney Universiteti professori Erik Jon Sharp o‘zining “Comparative Religion: a history” (Qiyosiy din: tarix) asarida ushbu asar haqida shunday degan: “Jahon adabiyotida birinchi bo‘lib dinlar tarixini yozish sharaflari musulmon Shahrisoniyga tegishli. Uning “Dinlardagi oqimlar va falsafiy ta’limotlar” asarida o‘sha davrda Xitoy chegaralariga qadar ma’lum bo‘lgan dunyodagi barcha dinlarni tavsiflagan va tizimlashtirgan. Bu ajoyib asar nasroniy yozuvchilari o‘sha davrda yarata olgan barcha narsadan ustun.” [5:79] Asar muallifning yondashuviga ko‘ra, 5 ta muqaddima bilan boshlanadi. Bu haqda kitobning kirish qismida, hamd va na’tlardan so‘ng shunday keltirilgan:

“Alloh taolo meni dinlar va xalqlarning namoyondalari, dunyo ahlining e’tiqodlari va mazhablari haqidagi ta’limotlarni o‘rganishga, ularning kelib chiqishi va manbalari bilan tanishishga, shuningdek, nodir qismlarini ko‘rishga muvaffaq qilganda, bularning barchasini jamiki dinlar va e’tiqodlarni o‘z ichiga oladigan, idrok etuvchilar uchun ibrat, ibrat oluvchilar uchun idrok manbayi bo‘lgan bir muxtasar kitobda jamlashni xohladim.” [1:7]

Shahrisoniy maqsadga o‘tishdan avval, kitobini beshta muqaddimma bilan boshlashni lozim deb topganini ta’kidlaydi. Olim ushbu muqaddimalarning nomlarini tartib asosida keltiradi:

- **birinchi muqaddima:** Dunyo aholisining qismlari bayoni;
- **ikkinchi muqaddima:** Islomiy firqalarni sanash qoidalarini tayin qilish (belgilash) haqida;
- **uchinchi muqaddima:** Maxluqot ichida paydo bo‘lgan ilk shubhaning bayoni, uning kelib chiqishi va namoyon bo‘lishi haqida;
- **to‘rtinchi muqaddima:** Islom ummatida paydo bo‘lgan ilk shubhaning bayoni, uning

tarmoqlanish jarayoni, kelib chiqishi va namoyon bo‘lishi haqida;

– **beshinch muqaddima:** Ushbu kitobni hisob yo‘li bilan tartiblashni vojib qiladigan sabablar bayoni haqida. [1:8]

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, asar muqaddimalari o‘ziga xos ravishda tizimli tartiblangan bo‘lib, butun kitobning maqsad va vazifalarini o‘z ichiga oladi. Asarda keltirilgan har bir ma’lumot bugungi zamonaviy tadqiqotlar uchun namuna vazifasini bajaradi. Jumladan, ilk muqaddimada dunyo aholisi jo‘g‘rofiy nuqtayi nazardan yetti iqlim hamda to‘rt tomon bo‘yicha taqsimlangandan so‘ng, shunday deyiladi: “Bundan tashqari, olam millatlar nuqtayi nazaridan ham taqsimlanadi. Ulardan eng katta millatlar to‘rtta: arab, ajam, rum va hind. Ta’kidlanadiki, arablar va hindlarning qarashlarida o‘xshashlik bor, chunki ularning ikkisi ham mohiyat va haqiqatlar borasidagi hukmlarning botiniga qiziqishadi, ruhiy amaliyotlardan foydalanishadi. Boshqa tomondan, rumliklar va ajamlarning qarashlari o‘xshash: ular narsalarning tabiatiga, miqdor va shaklning hukmlariga qiziqadilar va jismoniy ishlarga ko‘proq ahamiyat beradilar.” [1:8]

Zamonaviy dinshunoslikdagi dinlarni tasniflash bo‘yicha ilmiy yonashuvlar, din sotsiologiyasi, din psixologiyasi kabi ilmlarni o‘zida mujassam etadigan bu kabi satrlar asarning bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganidan dalolat beradi.

“Al-Milal va-n-nihal”ning birinchi muqaddimasida dinlarni tasniflash bo‘yicha o‘ziga xos, avvalgi olimlarning kitoblarida uchramagan yondashuv namoyon bo‘ladi. Ilk Muqaddimada kitobning asl maqsadi bo‘lgan tasnif sifatida dunyo aholisining e’tiqodlariga ko‘ra ikki guruhga: “ahl ad-diyonot va al-milal” (“Dinlar va millatlar ahli”) va “ahl al-ahva va an-nihal” (“Bid’at va firqalar ahli”)ga bo‘linishi qayd etilgan. Bir tomondan majusiylar, yahudiylar, nasroniylar va musulmonlar birinchi guruhga kiritilsa, boshqa tomondan faylasuflar, dahriylar, sobiylar, butparastlar va brahmanlar “Bid’at va firqalar ahli” vakillari sifatida ta’riflanadi.

Tasniflashning davomida muallif musulmon dinshunoslari tomonidan asosiy tayanch sifatida ko‘riladigan “73 firqa” hadisini keltiradi:

“Majusiylar yetmish firqaga bo‘lingan, yahudiylar yetmish bir firqaga bo‘lingan, nasroniylar yetmish ikki firqaga bo‘lingan, musulmonlar yetmish uch firqaga bo‘lingan.” [1:9] Shu o‘rinda olim bu firqalardan najot topadigani

faqat bitta bo'lishini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, haqiqat ikki qarama-qarshi masaladan bittasida bo'lsa, ushbu ikki masala shar'iy jihatdan bir xil qabul qilinishi joiz bo'lmaydi, ularning biri rost, ikkinchisi yolg'on, deb ajratiladi. Va haqiqat ulardan birida bo'ladi, boshqasida emas. [1:9] Xulosa qilish mumkinki, qarama-qarshi turuvchi qarashlarning ikkisi ham to'g'ri va haq deb hukm qilinishi mumkin emas. Aynan shu joyda asarning mohiyati yanada aniqroq namoyon bo'ladi. Ya'ni, firqalar vakillari qanchalar ko'p bo'lmasin, ulardan asl hidoyat ustidagi jamoa yagona bo'lishi eslatib o'tiladi. Shahristoniy o'z fikrlariga dalil sifatida A'rof surasi 181-oyatni keltiradi: **“Yaratganlarimiz ichida haq (yo'l)ga hidoyat qiladigan va u (haq) bilan adolat qiladigan jamoat ham bordir”**. [6:134] Umuman olganda, birinchi muqaddima dunyo aholisining diniy tasnifiga qaratilgan bo'lib, hadislardan namunalar bilan yakunladi:

“Payg'ambar (s.a.v) xabar berdilarki: **“Ummatim yetmish uch firqaga bo'linadi, ulardan najot topadigani bittadir, va boshqalari halok bo'ladilar.”** Aytili: **“Najot topadiganlar kimlar?”** Aytdilar: **“Ahli sunna val-jamoa”** Aytili: **“Sunnat va jamoat nima?”** Aytdilar: **“Men va as'hobim U (Qiyomat) kuni unda bo'lamiz”** (*Abu Dovud: (40596), Ibn Moja: (3992), Ahmad: (332/2)*)

Yana bir hadisda: **“Mening Ummatimdan bir guruh Qiyomatgacha haq yo'lida davom etadilar”** (*Termiziy: (2192), Ahmad: (104/4), Ibn Moja: (6)*), **“Mening ummatim zalolat ustida birlashmaydi.”** [1:10], deb keltirigan.

Ilk muqaddima dunyo dinlarini tasniflashning o'ziga xos namunasi ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchi muqaddima islomdagi firqalarning tasniflanishidagi xato va kamchiliklarni tahlil qilib, eng muhim to'rtta qoidani ta'kidlaydi. Unga ko'ra, birinchi qoida islomdagi firqalarni e'tiqod jihatidan Alloh taoloning sifatleri va tavhid borasidagi xilma-xillik asosida ajratishdan iborat. “Bu bir guruhda isbotlangan va boshqa guruh rad qilgan azaliy sifatlar masalalarini o'z ichiga oladi. Masalan, zotiy sifatlar, fe'liy sifatlar, Alloh taologa vojib, mustahiy va joiz bo'ladigan sifatlar bayoni kabi. Bular borasida ash'ariylar, karromiylar, mujassimalar va mo'taziliylarda ixtiloflar mavjud.” [1:10]

Ikkinchi qoidaga ko'ra, islomiy firqalar orasida ko'p ixtiloflarga asos bo'lgan taqdir va adolat haqidagi qarashlar tasniflash uchun asos qilib olinadi. “Bu qazo va qadar, jabr va kasb, yaxshilik va yomonlikni iroda qilish, oldindan

aniqlangan va ma'lum holatlarni o'z ichiga oladi, bir guruhda qabul qilinsa, boshqasida rad qilinadi. Va yuqoridagilar borasida qadariylar, najjoriylar, jabriyyalar, ash'ariylar va karromiylar orasida ixtiloflar mavjud.” [1:11]

“Uchinchi qoida: Va'd, va'iyd, ismlar va hukmlar.

Bu iymon, tavba, vai'yd, qaytish, kufr, zalolat masalalarini o'z ichiga oladi, bir jamoatda tan olinsa, boshqasi tomonidan rad qilinadi. Bular borasida murji'alar, va'iydiyyalar, mo'taziliylar, ash'ariylar va karromiylar orasida ixtilof mavjud.

To'rtinchi qoida: Risolat xabari, aql va imomat.

Bu borasida shi'alar, xavorijlar, mo'taziliylar, karromiylar va ash'ariylarda ixtilof bor.” [1:11]

Ma'lumotlarning yuqoridagi kabi tartiblanishi islom dinida mavjud eng katta ixtiloflarning asoslarini, firqalar orasidagi eng muhim farqlarni tizimli ravishda ko'rsatib berishga xizmat qilgan. Xulosa sifatida muallif ushbu to'rt qoida asosida tasniflangan eng katta islomiy firqalarni sanab o'tadi. Ular:

1. Qadariylik;
2. Sifatilylik;
3. Xorijiylik;
4. Shia.

O'z navbatida, ushbu firqalarning barchasi o'z ichida tarkiblanadi, taqsimlanadi, oxir oqibat ularning sanog'i 73 tada borib yetadi.

Ikkinchi muqaddimaning oxirida muallif asarni yozishdagi yondashuvlarini batafsil bayon qildilar: “Men har bir mazhabni mutaassiblik qilmasdan, tanqiddan chetlangan holda, sahihi va fosidini bayon qilmasdan, haqini botilidan ajratmasdan, ularning kitoblarida qanday topgan bo'lsam shunday bayon qilishni o'zimga shart qildim. Holbuki, zakiy fahmlar uchun aqliy dalillar bilan haqni bir qarashda ko'rish va botilning isini sezish qiyin emas. Va tavfiq Alloh dandir.” [1:11] Bundan ko'rinadiki, qariyb IX asr ilgari yozilgan ushbu asar zamonaviy dinshunoslikning asosi bo'lgan obyektiv yondashuvni o'zida mujassam etgan ekan.

Asarning uchinchi muqaddimasi “Maxluqot ichida paydo bo'lgan ilk shubhaning bayoni, uning kelib chiqishi va namoyon bo'lishi haqida”, deb nomlangan bo'lib, yaratilganlar orasida kelib chiqqan shubhaning eng avvalgisi shaytonning shubhasi ekanligi bayon etilgan. Keyinchalik insonlar orasida tarqalgan ushbu shubhalar yettita savoldan iborat ekani haqida aytgandan so'ng muallif ushbu savollarning

Injilning to'rtta sharhlari: Luqo, Mark, Yuhanno va Matto Injillarida, shuningdek, Tavrotda ham zikr qilinganini alohida ta'kidlaydi. Asarda keltirilishicha, shaytonning savollari asosan uning yaratilishi ortida qanday hikmat borligi, nima uchun Allohga ibodat qilishi kerakligi, nega Odam (a.s.) ga sajda qilishga buyurilgani, shuningdek, uning insonlar qalbiga soladigan boshqa vasvasalarining mohiyatini bilishdan iborat. Shahristoniy bularni bayon qilish orqali Yer yuzida ibodat haqidagi turli fikrlar, dinlar, mazhablar, ixtiloflar va bid'atlar qanday paydo bo'lganini o'ziga xos uslub bilan ko'rsatmoqchi bo'ladi.

Uchinchi muqaddimaning eng e'tiborga molik jihati shundaki, keltirilgan yettita shubha Qur'on oyatlaridan namunalar bilan sharh qilinib, keyinchalik imon keltirmaganlarning Nuh, Hud, Solih, Ibrohim, Lut, Shu'ayb, Muso, Iso va Muhammad alayhissalomlarga qarshi kurashgani yoritiladi. Bundan tashqari, muallif har bir shubhali savol asosida paydo bo'lgan mazhablarni ham birma-bir sanab o'tadi. Bu esa Shahristoniyning dinlar va mazhablarning tasnifida juda chuqur va asosli dalillarga tayaniganidan dalolat beradi.

Muallif asar muqaddimalarining uchinchisi orqali dunyoda dinlar qanday asosda shakllangani haqida batafsil bayon qilganidan so'ng, asarning to'rtinchi muqaddimasini islomdagi bo'linishlarning paydo bo'lishi asoslarini yoritishga bag'ishlaydi. Xususan, Muhammad (s.a.v.)ning tiriklik chog'larida U zotni adolatsizlikda ayblagan kimsa haqida, Uhud kunidagi munofiqlarning ahvoli haqida, shuningdek, Allohning zoti, ulug'vorligi haqida bahslashgan guruh haqida oyatlardan namunalar keltirish orqali musulmonlar orasida Payg'ambar (s.a.v.) tirik bo'lgan davrda ham bo'linishlar yuz berganini asosli dalillar bilan ochib beradi.

To'rtinchi muqaddimaning davomida Payg'ambar (s.a.v.)ning kasallik chog'larida, shuningdek, ularning vafotlaridan keyin sahobalar orasida paydo bo'lgan o'nta ixtilof birma-bir sanab chiqilgan. Muallif ushbu taqsimlash bilan kifoyalanmagan, balki keltirilgan o'nta ixtilofni yana o'z ichida ikki turga: imomatdagi ixtiloflar va usuldagi ixtiloflarga ajratgan. [1:18] Bundan ko'rinadiki, o'rganilishi lozim bo'lgan turli tuman dinlar va ulardagi mazhablar haqida ma'lumot berishdan avval ularning kelib chiqishi, aynan qaysi asosga ko'ra bir-biridan farqlanishini ko'rsatish Shahristoniy o'z oldiga qo'ygan muhim vazifa bo'lgan.

Avvalgilardan farqli o'laroq, beshinchi muqaddima orqali ma'lumotlarni qaysi usulga

ko'ra tartiblash kerakligi maqsad qilingan. Bu haqda muallif kitobning uslubi tizimli tartiblashga asoslanganligini, chunki uning maqsadi ta'limotlarni muxtasar yo'l bilan bayon qilish bo'lganini aytib o'tadi: "O'z xususiyatlari va hukmlarida men uchun eng yaxshi tartiblash usulini tanladim va bu tartibni eng aniq va kuchli dalillar ustiga barpo qildim." [1:23] Beshinchi muqaddimada kitobni tartiblashning yettita darajasi avvalgi muqaddimalardagidek ketma-ket sanash yo'li bilan bayon qilinadi.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, "al-Milal va-n-nihal" asarining boshqa kitoblardan farqli o'laroq bir emas beshta muqaddima bilan boshlanganligi muallifning keng dunyoqarash va mushohadali olim ekanini ko'rsatadi. Ta'kidlash joizki, asar muqaddimalari butun kitobning ma'no va maqsadlarini o'zida jamlagan bo'lib, tahlil va tasnifning yuqori darajasini namoyon etgan. Muallifning tarix, falsafa, diniy ilmlar, xossatan, islom mazhablari haqidagi chuqur bilimlarini ko'rsatgan muqaddimalarda keltirilgan ma'lumotlar dinshunoslikdagi xolislik va ilmiylik yondashuviga asoslanadi. "Al-Milal va-n-nihal" asarining dinlarni o'rganishdagi o'rni beqiyos bo'lib, bugungi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Aksincha, asarning qiymati yildan yilga oshib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhammad ibn Abdulkarim Shahristoniy. Al-Milal va-n-nihal. – Bayrut: Dor ibn Hazm, 2021.
2. Abdupattayev M. Imom Shahristoniyning ilmiy merosi va olim asarlarini tadqiq etishdagi yondashuvlar // The Light of Islam. 2022 (Vol: 2022, iss: 2). 59-67.
3. Abdupattayev M. The role of imam Shahrstan's scientific heritage in the development of islamic sciences // Academia: An International Multidisciplinary Research Journal (Vol. 12, Issue 01, 2022. 530-538.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi. – Toshkent, 2016.
5. Sharpe E. J. Comparative Religion: A History. Illinois: Open Court. 1991.
6. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolari tarjimai. – Toshkent, 2021.
7. Yoqut Hamaviy. Mu'jam al-udabo. – Qohira: Dor as-Sadr, 2006.- B.213
8. Прозоров С.М. (1984). Книга о религиях и сектах. Москва: Наука.

XODJAYEVA Mavlyuda Sabirovna
*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
 Zamonaviy axborot-kommunikatsiya
 texnologiyalari kafedrasi dotsenti,
 texnika fanlari nomzodi,
m.xodjayeva@iiu.uz*

ТА 'LIMDA SUN'IY INTELLEKT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБРАЗОВАНИИ

SOME ASPECTS OF THE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN EDUCATION

Annotatsiya. Maqolada raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt tizimlari, ta'limda sun'iy intellekt tizimlardan foydalanish, ta'lim tizimi vostilari, sun'iy intellekt tizimlarini ustunliklari, raqamli platformalar, ularda foydalanish, ta'limda sun'iy intellekt (SI)ni qo'llash yo'nalishlari, oliy o'quv yurtini boshqarishda, o'quv jarayonida raqamli texnologiyalaridan foydalanish, sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish bo'yicha texnologik echimlar, shuningdek, virtual repetitorlar haqida tushuncha berilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt tizimlar, ta'limda sun'iy intellekt tizimlar, ta'lim tizimini boshqarish, yo'nalishlar, texnologiya, Shaxsiylashtirilgan ta'lim, Learning Analytics.

Аннотация. В статье рассматриваются цифровые технологии, системы искусственного интеллекта (ИИ), использование ИИ в образовании, инструменты образовательных систем, преимущество систем ИИ, цифровые платформы, использование, направления применения ИИ в образовании, приведены цифровые технологии в управлении высшим учебным заведением, технологические решения по использованию ИИ, а также виртуальных репетиторов.

Ключевые слова: системы искусственного интеллекта, системы искусственного интеллекта в образовании, управление образовательной системой, направления, технологии, персонализированное образование, аналитика обучения.

Abstrakt. The article discusses digital technologies, artificial intelligence systems, the use of artificial intelligence systems in education, tools of the educational system, the advantages of artificial intelligence systems, digital platforms, their use, areas of application of artificial intelligence (AI) in education, the use of digital technologies in the management of higher education institutions, technological solutions for the use of artificial intelligence systems, as well as virtual tutors.

Key words: artificial intelligence systems, artificial intelligence in education, educational system management, directions, technologies, personalized education, learning analytics.

KIRISH

Respublikamiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, o'quv jarayonini tashkil etishda jahon andozalaridan va eng samarali usullardan foydalanishni taqozo etmoqda. Internet texnologiyalarining kirib kelishi barcha sohalaridagi kabi ta'lim sohasiga ham o'zining samarali ta'sirini o'tkazmoqda. Bu odatdagi xat yozishmalari elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar bilan, kutubxonalar esa veb-saytlar, elektron darsliklar bilan almashinishida namoyon bo'lmoqda.

Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, raqamli texnologiyalar milliy bozori uchun qulay muhitni yaratish va istiqbolli-raqamli startaplarni rivojlantirish, aholining barcha qatlamlarida, davlat boshqaruvida, ta'lim sohasida raqamli ko'nikmalarni oshirish hisoblanadi. Shuningdek, raqamlashtirishni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarida, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash, qurilish, transport, qishloq xo'jaligi va statistika sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki ta'lim jamiyat hayotining fundamental sohasi sifatida raqamli texnologiyalarni joriy etishning asosiy yo'nalishlaridan biridir, shu sababli ta'lim tizimi innovatsion ta'lim tendensiyalarini hisobga olgan holda raqamli rivojlanishning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

MUXOKAMA

Raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat

kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy, ta'lim va boshqa sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tabiiyki, boshqa sohalarida bo'lgani kabi raqamli texnologiyalarni ta'lim sohasida ham joriy etish, uning faoliyatini tubdan o'zgartirmoqda. Raqamli texnologiyalar faqat ta'lim oluvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq bo'lib qolmay, balki o'qitishni tashkil etishdan tortib, to ta'lim oluvchilar bilimni baholash va ma'lumotlarni saqlash jarayonlariga ham yangiliklar kiritilyapti.

Raqamli texnologiyalar – qisqa vaqt oralig'ida ko'plab turli xil vazifalarni bajarishga imkon beruvchi kodlash va ma'lumot uzatish usullariga asoslangan diskret tizimdir (Saydakhmedova B., 2019:96). Raqamli texnologiyalarga asoslangan zamonaviy ta'lim haqida gap ketganda, atrofimizdagi shiddat bilan o'zgarib borayotgan texnologiyalar ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni yanada jadallashtirishni taqozo etadi. Bugungi kunda kundalik hayotimizga kirib kelayotgan raqamli asrning yutuqlari planshetlar, iPadlar, mobil telefonlar, aqlli soatlar, virtual ko'zoynaklar ta'lim sohasiga ham raqamli texnologiyalarni joriy etishni talab etadi.

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi, xususan ta'limda sun'iy intellekt (SI)ni qo'llash yo'nalishlari bugungi kunda kengayib bormoqda. Sun'iy intellektning ta'lim tizimida qo'llanilish sohalar turlicha bo'lib, xar bir soha o'z yo'nalishiga ega. Buni quyidagilarda keltirib o'tish mumkin.

Shaxsiylashtirilgan ta'lim

Bunda SI talabalarning bilimi va qobiliyatini baholab, ularga mos o'quv materiallarini taklif qiladi. Shunday platformadlar borki, ular yordamida talaba bilimi va qobiliyatini samarali baholash mumkin. Masalan, Duolingo va Coursera platformalari.

Duolingo va Coursera — ta'lim sohasidagi ikki yetakchi onlayn platforma bo'lib, ular turli yo'nalishlarda xizmat ko'rsatadi. Mazkur platformalar— dunyo bo'ylab yetakchi universitetlar va tashkilotlar bilan hamkorlikda turli yo'nalishlarda onlayn kurslar, mutaxassislik dasturlari va darajalarni taklif etadigan platforma. Unda biznes, texnologiya, san'at va boshqa sohalar bo'yicha kurslar mavjud bo'lib, videodarslar, testlar va amaliy topshiriqlardan iborat bo'lib, o'quvchilarga o'z malakasini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga har bir talabaning darajasiga

mos mashg'ulotlar taklif etiladi; SI talabaning xatolarini tahlil qilib, qaysi mavzuni yana o'rganishi kerakligini belgilaydi.

Duolingo — til o'rganish uchun mo'ljallangan bepul platforma. Unda qisqa va qiziqarli darslar orqali tillarni o'rganish mumkin. Platformada o'yin shaklidagi mashqlar, ball to'plash va yangi darajalarni ochish imkoniyatlari mavjud. Bu o'quvchilarni motivatsiyalashtirishga yordam beradi

Avtomatik baholash va fikr-mulohazalar berish yo'nalishida SI talabalarning yozma ishlari yoki testlarini tez va adolatli baholaydi. Masalan, Grammarly yozma tekstlardagi grammatik va uslubiy xatolarni tahlil qiladi.

SI dasturlari talabalarning matematika yoki fizika masalalarini qanday yechganini baholaydi.

Virtual repetitorlar va maslahatchilar.

SI dasturlari o'qituvchilar o'rnini qisman bosadi va savollarga javob beradi. Masalan, ChatGPT kabi SI chat-botlar talabalarga ma'lumot berish yoki og'ir mavzularni tushuntirishda yordam beradi, yoki, Khan Academy platformasidagi virtual maslahatchi kabilarni keltirish mumkin.

Ta'lim jarayonini tahlil qilish (Learning Analytics)

SI o'quv jarayonini tahlil qiladi va o'quvchi qaysi mavzuni qiyin tushunayotganini aniqlaydi. Masalan, maktab yoki universitetda SI platformalari o'quvchilarning qiyinchiliklarini aniqlab, o'qituvchiga hisobot taqdim etadi.

Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) bilan integratsiya

SI ta'limni amaliy yondoshuv bilan boyitadi. Bunda tibbiyotda virtual simulyasiyalar orqali jarrohlik mashg'ulotlari o'tkazish jarayonlari, Geografiya darslarida SI orqali 3D xaritalarni tadqiq qilish.

SI ning yana bir jihati ustida to'xtalib o'tsak, bu kontentlar yaratishdagi o'rni bo'lib, O'quv materiallarini yaratishda, avtomatik dars rejalari va mashqlar tuzish.

Matnlar, testlar va infografikalar tayyorlashda, Canva yoki Visme kabi platformalarda vizual materiallar tayyorlash.

Video va audio kontent yaratish jarayonida ma'ruzalarni sun'iy intellekt yordamida tahrir qilish, avtomatik ovozli izohlar yoki subtitrlar qo'shish. Bu kabi jarayonlarni amalga oshirishda Synthesia yoki Descript kabi platformalar sun'iy

intellekt orqali video leksiylar va ovoz ishlab chiqaradi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda oliy o'quv yurtini boshqarishda ham, o'quv jarayonida ham raqamli texnologiyalarning butun majmuasi qo'llaniladi [2; 8]. Hozirgi kunda deyarli barcha ta'lim muassasalarida talabalar, magistrantlar, aspirantlar va doktorantlar kuniga 24 soat, haftasiga 7 kun axborot olish imkonini beruvchi o'z portaliga ega. Raqamli platformalar universitetlar faoliyatida keng tarqalib, ta'lim faoliyatining har bir ishtirokchisiga ma'lumotlarni joylashtirish, muayyan so'rovlar bo'yicha turli ma'lumotlarni olish, shuningdek, o'quv jarayonini kuzatish va universitet boshqaruvini optimallashtirish bo'yicha ko'plab operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi. Raqamli platformalar bilan bir qatorda, universitetlar faoliyatiga sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish bo'yicha texnologik echimlar tobora ko'proq kiritilmoqda.

Sun'iy intellekt texnologiyalari talabalar va magistrantlarni sinovdan o'tkazishda tezkor fikr bildirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv har bir talaba yoki bakalavr uchun topshiriqlarni shakllantirishga va ulgan bilimlarni baholashning adolatililigiga yordam beradi [4]. Bundan tashqari, zamonaviy davrda universitetlardagi sun'iy intellekt tizimlari startaplarda ishtirok etuvchi va universitet laboratoriyalari asosida o'z loyihalarini amalga oshiruvchi talabalar jamoalarini tanlashda qo'llaniladi. Shu bilan birga, bugungi kunda Data Science texnologiyalari ham, hozirda keng tarqalmoqda.

Bunday holda, turli ma'lumotlarga asoslangan sun'iy intellekt gipotezani ilgari surishga, uni sinab ko'rishga va to'g'ri qaror qabul qilishga yordam beradi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, o'qitish uchun sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish bilan birga, ushbu raqamli texnologiya psixologik va tashkiliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, sun'iy intellekt yordamida o'quvchilarning xulq-atvorini (imo-ishoralari, nigohlari va boshqalar) kuzatish va turli hodisalar xavfini minimallashtirish mumkin [3]. Universitetlar faoliyatida mashinasozlik texnologiyalari juda samarali joriy etilmoqda.

Ushbu texnologiyalar avtonom qurilmalar (robotlar) dizaynini optimallashtirishga yordam beradi va tasvirni qayta ishlashda qo'llanilishi mumkin [12]. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari,

loyiha faoliyati va mustaqil ilmiy izlanishlarini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Oliy ta'lim tizimi muassasalari faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari orasida harakatchanlik, ko'rinish, o'quv materiallarining kuniga 24 soat mavjudligi, test topshiriqlarini baholashda shaffoflik va xolislik kabi xususiyatlar mavjud. Platformasidagi mavjud o'quv-uslubiy materiallarni o'rganishda qayta-qayta test sinovlaridan o'tish, keyingi kasbiy faoliyat uchun raqamli texnologiyalar bo'yicha o'qitish imkoniyatini beradi [12].

Mazkur raqamli texnologiyalardan foydalanish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, ushbu texnologiyalar turli sohalarida qarorlar uchun tahliliy asoslarni tayyorlash, modellarni ishlab chiqish va amaliy masalalarda ularning sifatini baholashda ma'lumotlarni tahlil qilish usullari va vositalaridan foydalanishga yordam beradi. ma'lumotlar sifatini tahlil qilish, ma'lumotlardagi og'ishlarni aniqlash va tuzatish, shuningdek olingan natijalarni ko'rish [13].

Shu bilan birga, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda qator muammolar ham mavjud.

Masalan, talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi muloqot faolligi pasayadi, umumiy loyiha faoliyatida hamkasblarning hissiy holatini tan olishda qiyinchiliklar paydo bo'ladi, turli xil gadjetlarga bog'liqlik kuchayadi, katta hajmdagi ma'lumotlarni o'zlashtirish qobiliyati pasayadi, shuningdek taqdimotlar va taqdimotlarni taqdim etish ko'nikmalari pasayadi. auditoriya bilan muloqot qilish [6] va hokazo. Onlayn makondan haddan tashqari foydalanish nafaqat talabalar va o'qituvchilarning hissiy fonida muammolarni, balki zamonaviy davrda juda dolzarb bo'lgan axborot xavfsizligi qoidalariga rioya qilishda muammolarni keltirib chiqaradi.

XULOSA

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimimizdagi o'rni beqiyos bo'lib, bunda o'quvchi va talabalarimizning fanni o'zlashtira olishi emas, balki ular bir vaqtning o'zida qanday o'qiyotganini, fanni qanday o'rganayotganini, vazifalarga qiziqishi, o'z darajasidagi muammolarga fikr bildirishlarini kuzatish mumkin.

Ta'lim sohasida ham sun'iy intellektning o'rni katta. Har qanday fanni sun'iy intellekt yordamida o'rganish mumkin, baholab ham boradi, qanday xato qilayotganini ham ko'rsatadi. Bundan tashqari, amaliyot shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etishda fanlararo aloqalarga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu esa, o'z navbatida, professor-o'qituvchilar tarkibini doimiy ravishda malakasini oshirishni, muassasaning o'quv va boshqaruv faoliyatining texnik, dasturiy va texnologik kompleksini takomillashtirishni taqozo etadi. Agar zamon bilan hamnafas yurmoqchi bo'lsak, sun'iy intellektni o'rganishimiz kerak.

Sun'iy intellekt ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish, samaradorlikni oshirish va o'quvchilarning qiziqishini saqlash imkonini beradi. Texnologiyalardan foydalanish orqali yangi avlodga yanada sifatli ta'lim berish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Badea G. et al. Integrating enhanced peer assessment features in moodle learning management system // Foundations and Trends in Smart Learning. – Springer, Singapore, 2019. – P. 135-144.
2. Khodjaeva Mavluda Sabirovna, Azamat Bozorov, and Alimjon Dadamuxamedov, "Mobile Apps in Uzbekistan Make a Significant Contribution to the Development of Tourism", IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 5, no. Special Issue, p. 13, Oct. 2020.
3. Kushwaha R. C., Singhal, A., & Swain, S.K. (2019). Learning Pattern Analysis: A Case Study of Moodle Learning Management System. In Recent Trends in Communication, Computing, and Electronics (pp. 471-479). Springer, Singapore.
4. Mappalotteng, A. M., Rauf, B. A., & Sari, N. I. (2019, April). Development of E-Learning Based Moodle (Portable Moodle) for Computer and Basic Network Subject at Vocational High School. In 1st International Conference on Advanced Multidisciplinary Research (ICAMR 2018). Atlantis Press.
5. Saydakhmedova B. B. The Importance Of E-Learning Courses in the Educational Process // Актуальные научные исследования в современном мире. – 2019. – №. 10-5. – С. 94-99.
6. Saydakhmedova B., Makhkamova M., Rakhimova S. Content of innovation and innovative activity of the teacher // International Journal of Advanced Science and Technology. – 2020. – Т. 29. – №. 7. – С. 665-669.
7. Varela J.P. (2019). Motivating users to online participation. A practice-based comparison between moodle forums and telegram groups. The International journal of engineering education, 35(1), 409-416.
8. Vick Training professionals from three countries share their Kahoot!'ing experience, Vol. 2019 (2019) <https://kahoot.com/blog/2019/09/10/top-training-tips-kahoot-around-world/>: Kahoot!
9. Xodjayeva M. Using Moodle System in Teaching "Information Technology and Process Modeling" for Islamic and Religions Studies Students // The Light of Islam. – Т. 2018. – №. 4. – Р. 45-50.
10. Блинов А.О., Рудакова О.С., Благирева Е.Н. Интерактивные методы в образовательном процессе. Учебное пособие. ИД Научная библиотека, 2014.
11. Белов В.А., Никулчев Е.В. Оценка временной эффективности форматов хранения больших данных в динамике роста объема данных // Современные информационные технологии и ИТ-образование. 2021. Т. 17, № 4. С. 889–895.
12. Жуковская И.Е. Цифровые платформы — важный аспект цифровизации высшего образования // Открытое образование. 2022. Т. 26, № 4. С. 30–40.
13. Bates T., Cobo C., Mariño O., Wheeler S. Can artificial intelligence transform higher education? // International Journal of Educational Technology in Higher Education. 2020. Vol. 17. P. 42.

MAXKAMOV Anvarjon Abdujabborovich
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Zamonaviy axborot-kommunikatsiya
texnologiyalari kafedrası dotsenti, PhD

АХБОРОТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТА'МИНЛАШДА ТАРМОҚДАГИ НОҚОНУНИЙ ХАРАКАТЛАРНИ АНИҚЛАШ АЛГОРИТМЛАРИ

АЛГОРИТМЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ НЕЗАКОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СЕТИ ПРИ ОБЕСПЕЧЕНИИ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

ALGORITHMS FOR DETERMINING ILLEGAL ACTIVITIES IN THE NETWORK IN PROVIDING INFORMATION SECURITY

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborot xavfsizligini ta'minlashda tarmoqdagi noqonuniy harakatlarni aniqlash algoritmlari keltirib o'tilgan. Hozirgi vaqtda xech qaysi davlatni iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini rivojlanishini zamonaviy axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu sababdan butun dunyoda axborotga bo'lgan talab va ehtiyoj ham kun sayin ortib bormoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalarining rivojlanib borishi ma'lumotlar xajmining ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida axborotga boshqacha baho berish, ya'ni unga kontent sifatida qarash va yangicha munosabatlarni yuzaga keltirish va shu qatori axborotlarga bo'ladigan noqonuniy hujumlarni aniqlashni talab etadi. Keltirib o'tilgan algoritmlardagi kiruvchi filtrlar tarmoq xavfsizligini oshiradi va trafik oqimini boshqarish uchun xavfsizlikni rejalashtirishda yordam beradi. Ular faqat xavfsiz va ishonchli tarmoqlarga, xostlarga yoki avtonom tizimlarga xavfsiz tarmoqqa kirish imkonini beradi, trafikni cheklash va muayyan port, xizmat, server yoki tarmoqni boshqaradigan qoidalar va siyosatlarni aniqlash uchun marshrutizatorlardan foydalanadi.

Kalit so'zlar: tarmoq, filtr, axborot xavfsizligi, trafik, server, tarmoqni boshqaradigan qoidalar, tarmoq siyosati.

Аннотация. Алгоритмы обнаружения противоправной активности в сети упомянуты

в этой статье. В настоящее время развитие экономической и социальной сферы любой страны невозможно представить без современных информационных технологий. По этой причине спрос и потребность в информации во всем мире растет с каждым днем. В частности, развитие информационных технологий является причиной увеличения объема данных. Это, в свою очередь, требует иной оценки информации, то есть рассмотрения ее как содержания и создания новых связей, а также выявления неправомерных посягательств на информацию. Входящие фильтры в вышеупомянутых алгоритмах повышают безопасность сети и помогают планировать безопасность для управления потоками трафика. Они разрешают только безопасным и надежным сетям, хостам или автономным системам доступ к защищенной сети, используя маршрутизаторы для ограничения трафика и определения правил и политик, которые управляют определенным портом, службой, сервером или сетью.

Ключевые слова: сеть, фильтр, информационная безопасность, трафик, сервер, сетевые правила, сетевая политика.

Annotation. Algorithms for detecting illegal activities in the network are mentioned in this article. Currently, the development of economic and social spheres of any country cannot be imagined without modern information technologies. For this reason, the demand and need for information in the whole world is increasing day by day. In particular, the development of information technologies is the reason for the increase in the volume of data. This, in turn, requires a different assessment of information, that is, looking at it as content and creating new relationships, as well as identifying illegal attacks on information. The inbound filters in the aforementioned algorithms increase network security and help with security planning to manage traffic flow. They allow only secure and trusted networks, hosts or autonomous systems access to a secure network, use routers to restrict traffic and define rules and policies that govern a particular port, service, server or network

Keywords: network, filter, information security, traffic, server, network rules, network policy.

KIRISH

Hozirgi vaqtda xech qaysi davlatni iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini rivojlanishini zamonaviy axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu sababdan butun dunyoda axborotga bo'lgan talab va ehtiyoj ham kun sayin ortib bormoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalarining rivojlanib

borishi ma'lumotlar xajmining ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida axborotga boshqacha baho berish, ya'ni unga kontent sifatida qarash va yangicha munosabatlarni yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda axborotni oshkor bo'lishi, o'g'irlanishi yoki yo'q qilinishi kabi holatlardan himoyalaniish zarur.

ASOSIY QISM

Tarmoqdagi noqonuniy faoliyatni aniqlash murakkab vazifa bo'lib, ko'pincha turli xil algoritm va usullarning kombinatsiyasini talab qiladi. Tarmoqdagi noqonuniy harakatlarni aniqlash uchun bir nechta tez ishlaydigan va ommabop algoritmlarni keltirib o'tamiz.

Imzoga asoslangan algoritm (Signature-based detection). Imzoga asoslangan aniqlash tarmoqdagi noqonuniy faoliyatni aniqlash uchun keng qo'llaniladigan yondashuvdir. Bu tarmoq trafigini yoki fayllarni ma'lum imzolar yoki muayyan tahdidlar yoki hujumlar bilan bog'liq naqshlar bilan solishtirishni o'z ichiga oladi va himoyalaydi.

Trafik tahliliga asoslangan algoritm: Paketlar yoki fayllar kabi tarmoq trafigi tekshiriladi va ma'lumotlar bazasidagi imzolar bilan taqqoslanadi.

Moslash jarayoni: Algoritm kuzatilgan tarmoq trafigi va ma'lumotlar bazasidagi imzolar o'rtasidagi moslikni tekshiradi. Agar o'yin topilsa, bu ma'lum noqonuniy faoliyat mavjudligini ko'rsatadi.

Ogohlantirish yoki harakat: Moslik aniqlanganda, tizim ogohlantirish yaratishi yoki shubhali trafikni bloklash, fayllarni karantin qilish yoki xavfsizlik xodimlarini xabardor qilish kabi oldindan belgilangan harakatlarni bajarishi mumkin.

Tezlik: Imzoga asoslangan aniqlash, kuzatilgan trafikni avvaldan mavjud imzolar bazasi bilan solishtirish orqali taniqli tahdidlarni tezda aniqlashni amalga oshiradi.


Aniqlik: Imzolar ma'lum tahdidlarga xos bo'lganligi sababli, imzoga asoslangan aniqlash past noto'g'ri ijobiy ko'rsatkichlarga ega bo'ladi, ya'ni u ma'lum noqonuniy harakatlar mavjudligini aniqlaydi.

Cheklovlar: Imzoga asoslangan aniqlash ma'lumotlar bazasida yangilangan imzolarga ega bo'lishga asoslanadi. Mos imzolarga ega bo'lmagan

yangi yoki ilgari ko'rilmagan tahdidlarni aniqlashda qiynalishi mumkin. Imzolar ma'lumotlar bazasini doimiy yangilash samaradorlikni saqlash uchun zarur.

Umumiy ilovalar: Imzoga asoslangan aniqlash odatda antivirus dasturlari, bosqinlarni aniqlash tizimlari (IDS) va tarmoqqa asoslangan xavfsizlik devorlarida qo'llaniladi.

Imzoga asoslangan aniqlash ma'lum tahdidlarga qarshi samarali bo'lsa-da, tarmoqdagi paydo bo'lgan yoki ilgari ko'rilmagan noqonuniy harakatlarni aniqlash uchun uni anomaliyalarni aniqlash yoki mashinani o'rganish algoritmlari kabi boshqa aniqlash usullari bilan to'ldirish muhim ahamiyatga egadir.



1-rasm. Imzoga asoslangan aniqlash algoritmi

Chuqur paket tekshiruv algoritmi (Deep Packet Inspection). Deep Packet Inspection (DPI) - bu tarmoq paketlari tarkibini batafsil tahlil qilish uchun ishlatiladigan usul. Bu tarmoq trafigini chuqurroq tushunish uchun alohida paketlarning foydali yukini, sarlavhalarini va protokollarini tekshirishni o'z ichiga oladi. DPI haqida umumiy ma'lumotni quyida keltirib o'tamiz.

Paket tahlili: DPI odatda tarmoq qurilmalari tomonidan tekshiriladigan an'anaviy sarlavha ma'lumotlaridan tashqari tarmoq paketlarining mazmunini tekshiradi. U uzatilayotgan haqiqiy ma'lumotlarni, shu jumladan matn, tasvirlar, fayllar yoki paket yukidagi har qanday boshqa ma'lumotlarni ko'rib chiqadi.

Protokol identifikatsiyasi: DPI HTTP, FTP, SMTP yoki DNS kabi tarmoq aloqalarida ishlatiladigan maxsus protokollarni aniqlay oladi. Bu foydalanilayotgan protokollar asosida trafikning turli hil turlarini tasniflash imkonini beradi.


Kontentni tekshirish: DPI muayyan xatti-harakatlar yoki noqonuniy xatti-harakatlarning naqshlari, imzolari yoki ko'rsatkichlarini aniqlash

uchun paketlardagi tarkibni tahlil qiladi. U ma'lum bo'lgan zararli dasturlarni, shubhali buyruqlarni, maxfiy ma'lumotlarni yoki boshqa oldindan belgilangan mezonlarni qidirib topadi.

Traffic Control: DPI tahlil qilingan kontent asosida granuler trafikni boshqarish imkonini beradi. U ma'lum trafik turlarini ustuvorlashtirishi yoki ustuvorligini yo'qotishi, muayyan protokollar yoki ilovalarni bloklashi yoki aniqlangan kontentga asoslangan xizmat sifati (QoS) siyosatini qo'llaydi.

Tahdidlarni aniqlash: DPI zararli dasturlar, viruslar, tajovuzkorlik urinishlari, ma'lumotlarni o'chirish yoki ruxsatsiz kirish urinishlari kabi turli xil noqonuniy harakatlar yoki xavfsizlik tahdidlarini aniqlay oladi. Paket tarkibini tekshirish orqali u zararli yoki shubhali xatti-harakatlarning ko'rsatkichlarini aniqlaydi hamda hujumni bartaraf etadi.

Ilovalardan xabardorlik: DPI tarmoq ichida foydalaniladigan muayyan ilovalar yoki xizmatlarni aniqlay oladi, bu esa ilovalarga xos siyosatlar, ishlashni optimallashtirish yoki xavfsizlik choralarini ko'rish imkonini beradi. Bularni quyidagi 2-rasmdan ham aniqlash mumkin.



2-rasm. Chuqur paket tekshiruvi algoritmi

DPI odatda tarmoq xavfsizligi qurilmalarida, jumladan, xavfsizlik devorlari, tajovuzlarni aniqlash va oldini olish tizimlari (IDS/IPS), tarmoq monitoringi vositalari va trafikni shakllantirish yoki o'tkazish qobiliyatini boshqarish echimlarida qo'llaniladi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, DPI maxfiylik va tarmoq betarafligi bilan bog'liq xavotirlarni keltirib chiqaradi, chunki u tarmoq trafiginini chuqur tekshirishni o'z ichiga oladi. DPI yechimlarini amalga oshirishda tegishli himoya choralari va huquqiy va ahloqiy ko'rsatmalarga rioya qilish zarur.

Mashinani o'rganishga asoslangan tasnif algoritmi (Machine learning-based classification). Mashinani o'rganishga asoslangan tasniflash ma'lumotlarni oldindan belgilangan toifalar yoki sinflarga tasniflash uchun algoritmlar va


modellardan foydalanadigan usuldir. Tarmoqdagi noqonuniy faoliyatni aniqlash kontekstida mashinani o'rganishga asoslangan tasniflash samarali yondashuv bo'lishi mumkin. Bu qanday ishlashi haqida umumiy ma'lumotlarni quyida ko'rib chiqiladi.

Trening ma'lumotlari: Mashinani o'rganish modeli etiketli ma'lumotlar to'plamidan foydalangan holda o'qitiladi. Ma'lumotlar to'plamida oddiy yoki noqonuniy faoliyat sifatida tasniflangan tarmoq trafigiga yoki hodisalarga misollar mavjud. Belgilangan ma'lumotlar qonuniy va noqonuniy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan naqsh va xususiyatlarni o'rganish uchun model uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Trafik yoki hodisalarning xususiyatlarini ifodalash uchun tarmoq ma'lumotlaridan tegishli xususiyatlar yoki atributlar olinadi. Ushbu xususiyatlar tarmoq protokollari, manba va maqsad IP manzillari, paketlar hajmi, vaqt belgilari yoki oddiy va noqonuniy harakatlarni farqlashga yordam beradigan boshqa tegishli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Modelni o'qitish: Olingan xususiyatlar qaror daraxti, qo'llab-quvvatlash vektor mashinasi yoki neyron tarmoq kabi mashinani o'rganish modelini o'rgatish uchun xizmat qiladi. Model xususiyatlar va tegishli sinf belgilari (normal yoki noqonuniy) o'rtasidagi naqsh va munosabatlarni aniqlashni o'rganadi. Model o'qitilgandan so'ng, u tarmoq trafigining yangi, ko'rilmagan holatlarini yoki hodisalarni oddiy yoki potentsial noqonuniy deb tasniflashi mumkin. Model olingan xususiyatlar asosida bashorat qilish uchun o'rganilgan naqsh va qoidalarni qo'llaydi.

Baholash va takrorlash: Mashinani o'rganish modelining ishlashi tekshirish ma'lumotlar to'plami yoki o'zaro tekshirish usullari yordamida baholanadi. Agar kerak bo'lsa, modelni takomillashtirish, giperparametrlarni sozlash yoki aniqlikni oshirish va noto'g'ri musbat yoki noto'g'ri salbiylarni minimallashtirish uchun turli xil algoritmlarni sinab ko'rish mumkin.

Joylashtirish va monitoring: O'qitilgan model real vaqtda tarmoq muhitida kiruvchi tarmoq trafiginini yoki hodisalarini doimiy ravishda tasniflash uchun o'rnatiladi. U noqonuniy harakatlarni kuzatish va aniqlash uchun bosqinlarni aniqlash tizimi (IDS), xavfsizlik devori yoki boshqa tarmoq xavfsizligi vositalariga birlashtirilishi mumkin.



3-rasm. Mashinani o'rganishga asoslangan tasniflash algoritmi

Mashinani o'rganishga asoslangan tasniflash noma'lum yoki rivojlanayotgan tahdidlarni aniqlash qobiliyati, o'zgaruvchan hujum shakllariga moslashish va doimiy o'rganish va optimallashtirish orqali noto'g'ri pozitivlarni kamaytirish potentsialini o'z ichiga olgan bir qator afzalliklarni taqdim etadi. Biroq, u haqiqiy stsensariylarda optimal ishlashni ta'minlash uchun yuqori sifatli etiketli o'quv ma'lumotlarini, ehtiyotkorlik bilan xususiyatlarni tanlashni va modelga muntazam texnik xizmat ko'rsatishni talab qiladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'ish joizki, bugungi kunda axborot xavfsizligini ta'minlashda tarmoqdagi noqonuniy harakatlarni aniqlash juda ham dolzarb vazifaga aylanmoqda hamda katta hajmdagi ma'lumotlarni yetkazib berishda ushbu ma'lumotlarni havfsiz yetib borishini ta'minlash tarmoq xavfsizligida asosiy vositaga aylanib bormoqda. Yuqorida keltirib o'tilgan algoritmlar asosida tarmoqdagi noqonuniy harakatlarni aniqlashda foydalanish tarmoq xavfsizligini yanada yahshiroq himoyalshga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nigmatov X., Umarov A.U. "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining aloqa kanallarida axborotlarni himoyalash". Monografiya. "Inovatsiyon rivojlanish nashriyo-matbaa uyi". Toshkent. 2020.144 bet.
2. Ясенов В.Н., Дорожкин А.В., Сочков А.Л., Ясенов О.В. Информационная безопасность: Учебное пособие. Нижний Новгород: Нижегородский госуниверситет им. Н.И.Лобачевского, 2017. – 198 с.
3. Maheshwari, R., & Gupta, R. K. (2014). An Efficient Methodology for Traffic Filtering Using Clustering Approach. International Journal of Scientific & Engineering Research, 5(7), 213-218.
4. Dasgupta, D., & Mahanti, A. (2017). A Survey on Traffic Filtering Techniques for DDoS Attack Mitigation. IEEE Communications Surveys & Tutorials, 19(4), 2450-2471.

ИСЛОМОВ Зоҳиджон Маҳмудович
Ўзбекистон халқаро ислом академияси
филология фанлари доктори, профессор

УСТОЗ ОТАНГДЕК УЛУҒ

Бу тириклик дунёсида инсоннинг яратилиши буюк ҳикмат. Орамизда бундай ҳикматлар соҳиби бўлган кўплаб юртдошларимиз бор. Ҳаётда шундай инсонлар борки, улар жамиятнинг фахри ҳисобланади, одамлар ҳавас ва яхши ният билан уларга мурожаат қиладилар. Мана шундай инсонлар сирасига олим, меҳридарё устоз, меҳрибон ота қолаверса, комил инсонга хос барча ҳислатларнинг эгаси, тарих фанлари доктори, профессор Аҳаджон Аҳмаджонович Ҳасановни киритиш мумкин. Буюк Алишер Навоий бундай инсонларга “Одам борки, одамларнинг нақшидур” дея таъриф беради ва “Ёшликда илм хазинасин йиғил, қариликда харж қилгил они”, дея бежиз таъкидламаган. Инсон ёшлигидан илм олиши, ҳунар ўрганиши зарур. Чунки мана шу илм, ҳунар инсонни боқадди, орзу ҳавасига етиштиради, роҳатга етаклайди ва икки дунё саодатига эриштиради. Академия жамоасининг кўрки бўлган Аҳаджон Аҳмаджонович Ҳасанов мана шундай инсонлардан бири ҳисобланади. Заҳматкаш олим, зукко педагог, меҳрибон устоз, тарих фанлари доктори, профессор Аҳаджон Аҳмаджонович Ҳасанов мана бугун муборак 85 ёшни қаршиляптилар.

Олимнинг камтарин ҳаёт йўлига назар солсангиз, бу йўлнинг нақадар саодатманд ва машаққатли, бахтли эканлигини кўрасиз. Аҳаджон аканинг болалиги оғир уруш йилларига тўғри келган. Устоз 1940 йил 29 март куни Тошкент вилоятининг Пскент туманида оддий зиёли оилада дунёга келган. Оғир ҳаёт, қийинчиликлар, етишмовчилик бўлса ҳам ота-

оналари барча фарзандларининг билим олишига алоҳида эътибор беришган. Фарзандлар мактабда тиришиб, яхши баҳоларга ўқиганлар. Чунки Аҳаджон ака мактаб даврларини, синфдош дўстларини, уларга таълим берган ўқитувчи, устозларини яхши эслайдилар ва суҳбатларда тез-тез ёдга олиб турадилар.

Мактабни аъло баҳоларга битирган Аҳаджон ака Тошкентга келиб собиқ Тошкент давлат университетининг шарқ факультетига ҳужжат топширадилар ва кириш имтиҳонларидан муваффақиятли ўтиб, орзу қилинган студент

бўладилар. 1958 йили бўлган бу муваффақият Аҳмаджон ота ва Зебихон ая оиласи учун жуда қувончли воқеа эди. Чунки оиладаги 7 фарзанднинг тўнғичи Аҳаджон Тошкентдаги олий ўқув юртига ўқишга кирди. Бу ўз даврида ота-онанинг жуда катта бахти бўлган. Ота-онанинг соғ-саломат, узоқ умр кўриши аввало Яратганга қолаверса, фарзандларига ҳам боғлиқ. 1964 йили Аҳаджон ака университетдаги ўқишини тугатгандан сўнг ота-она қувончининг навбатдаги босқичи бошланди. Аҳаджон ака Ўзбекистоннинг

энг нуфузли олий ўқув юртининг Шарқ факультетига ўқитувчи қилиб қабул қилинди ва кўп ўтмай Миср Араб Республикасига хизмат сафарига кетди. Бу воқеаларнинг тасаввурини ўз даври билан ўлчаш зарур. Аҳаджон аканинг мустақил ҳаётининг дастлабки даври таржимонлик ва араб мамлакатларига хизмат сафарлари билан боғлиқ. Устоз дунёнинг жуда кўп давлатларида хусусан, Миср, Ливия, Сурия, Саудия Арабистон каби араб мамлакатларида ишлаган, хизмат сафарларига борган.



Аҳаджон Ҳасанов дарс бериш билан бирга ҳар бир ёшда бўлгани каби илмий тадқиқот билан ҳам шуғулланганлар. Кўп йиллик тинимсиз меҳнат натижасида 1975 йилда “Миср мамлукларининг ижтимоий-сиёсий тизими” мавзусида номзодлик, 1994 йилда “Қадимги Арабистон тарихи ва уни ўрганиш муаммолари” мавзусида докторлик диссертацияларини муваффақиятли ҳимоя қилди, фан доктори илмий даражаси, профессор илмий унвонига сазовор бўлди.

Устоз 50 дан ортиқ илмий монография, рисола, дарслик ва ўқув қўлланмалар, 200 дан ортиқ мақолалар муаллифи. Унинг раҳбарлигида 10 дан ортиқ номзодлик, фалсафа доктори ва фан доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертациялар ҳимоя қилинган. Олимнинг шогирдлари жуда кўп ва улар турли идора, муассаса ва таълим даргоҳларида хизмат қилмоқда.

Аҳаджон Аҳмаджонович 13 йилдан ортиқ Ўзбекистон Республикаси Президенти девонининг Дин ишлари бўйича консултанти, етакчи ва бош консултанти вазифаларида ишлаган.

Аҳаджон ака Тошкент, Самарқанд, Бухоро, Москва, Қозон, Қоҳира, Бухарест, Париж, Южин (АҚШ)да ўтказилган халқаро илмий анжуманларда рус, араб ва инглиз тилларида турли долзарб мавзуларда маърузалар ўқиган.

Таълим бериш, илмий фаолият билан бирга домла кенг қамровли жамоатчилик ишлари билан ҳам банд. Устоз Ўзбекистон мусулмонлари идораси Уламолар кенгаши аъзоси, Ўзбекистон халқаро ислом академияси кенгаши ва исломшунослик фанлари бўйича ҳимоя кенгаши аъзоси сифатида жўшқин фаолият олиб борадилар ва маслаҳатлари, фикрлари, насиҳатлари билан ўртоқлашадилар.

Устоз жуда кўп илмий, адабий асарларни ўқиганлар ва ҳозир ҳам мунтазам мурожаат қиладилар. Бу ҳолат у киши билан бўладиган суҳбатнинг дастлабки сониясиданок маълум бўлади. Уларда илм аҳлига хос одоб, босиқлик, кенг қамровли мушоҳада, тафаккур каби фазилатларнинг барчаси мужассам. Устоз ҳар бир шогирди ва унга мурожат этган инсон билан эринмай ишлайди, сўзларини охиригача эшитиб, муаммонинг ечилиш йўлларини кўрсатишга ҳаракат қиладилар.

Кишиларга яхшилик, эзгулик улашиш ва хайрли ишлар қилиш инсон умрининг мазмун-моҳиятини белгилаши ҳаёт қонуниятларидан бири ҳисобланса, бу қонун буюк Алишер Навоийнинг юқоридаги ҳикмати асосида Аҳаджон акада мужассам шаклланган.

Ҳозирда устоз Аҳаджон Ҳасанов Ўзбекистон халқаро ислом академияси “Ислом тарихи ва манбашунослиги IRCICA” кафедраси профессори лавозимида фаолият юритмоқдалар. Аҳаджон Аҳмаджонович Ўзбекистон халқаро ислом академияси фаолиятида алоҳида ўрин эгаллайдилар. Хусусан, олим Академиядаги “Диншунослик ва жаҳон динларини қиёсий ўрганиш ЮНЕСКО” кафедрасининг биринчи мудир бўлганлар ва узок йиллар баракали ижод қилиб кафедра фаолиятини ривожлантирганлар.

Ўзбекистон ҳукумати Аҳаджон Аҳмаджонович Ҳасановнинг кўп йиллик илмий соҳадаги самарали меҳнатлари, ёш авлодни баркамол қилиб тарбиялаш ишига қўшган хизматлари учун 2011 йилда “Ўзбекистонда хизмат кўрсатган ёшлар мураббийси” фахрий унвони билан тақдирлаган.

Ҳаёт деб аталмиш инсон умрининг ҳам севинчли, ҳам маҳзун лаҳзаларини уларнинг қандай бўлишига қарамай, сермазмун, баракотли ўтказаетган Устоз Аҳаджон Аҳмаджоновични шогирд сифатида улуғ ёш билан муборакбод этаман. Яратгандан уларга соғлик – саломатлик, узок, сермазмун ҳаёт, фарзандлар ва шогирдлар бахтини кўриб юришларини тилайман.